



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
10 - ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-10**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-10**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 160 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

1. Akmuratova Xurshida Bahramovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI.....	10
2. Xo'jaqulova Inoyt Hakimovna, Shaymanova Dilfuza Ro'ziboyevna SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI.....	12
3. Ахмедова Хусния Файзилловна БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ОЎЗАКИ ВА ЁЗМА НУТҚИНИ ЎСТИРИШ.....	14
4. Х.Жўраев ИСЛОМ ДИНИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД АҲКОМЛАР ТАҲЛИЛИ....	16
5. Turg'unova Sayyora Muzaffarovna BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI.....	19
6. Abdurazakova Nilufar Eshonkulovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI	21
7. Ahmedova Gulya Ashimovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MENTAL ARIFMETIKA AMALLARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI	23
8. Almardanova Sanobar Xolmamatovna, Ochildiyeva Maxbuba Ergashevna, Mengniyazova Nigora Kadirovna MAKTABLARDA PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.	25
9. Ashurova Ruxsora Xursandqulovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASHDAGI MUVAFFAQIYATLAR	27
10. Atoniyazova Guljahon Abduljalilovna BOSHLANG'ICH TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	28
11. Bahronova Gulchehra Baxriddinovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS O'TISH METODLARI.....	30
12. Bobonazarova Shahnoza BASKETBOL VA UNING RIVOJLANISH TARIXI.....	31
13. G'ofirov Muzaffar Jumayevich TA'LIM MUASSASALARIDA IXTISOSLIK FANLAR BO'YICHA MASHG'ULOTLARDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH	33
14. Haqberdiyeva Komila Toshpulatovna ILM-FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI.....	35
15. Hojiyeva Mehrgul Najmiyevna “ULUSH” VA “KASR” MAVZUSINI O'QUVCHILARGA TUSHUNTIRISH USULLARI.....	37
16. Jumayeva Muxayyo Ne'matovna BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI O'QITISHDA YANGI INTERFAOL METODLAR	38
17. Karshiboyeva Feruza Toshbekovna 4-SINF O'QISH FANIDAN KROSSVORDLARDAN FOYDALANISH ORQALI IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH	40
18. Kupalova Ozoda, Ataboyeva Zebo BOSHLANG'ICH SINFLARIMIZNING ASOSIY MUAMMOLARI	42
19. Mahliyo Gulmatova Rasuljon qizi YOZMA MANBALARDA BERILGAN ZOOLOGIK TERMINLAR TADQIQI.....	44

20. Ochilova Dilduza Abdusalomovna ONA TILI DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH	46
21. Qo'ziyeva Intizor Maxsudovna O'SIMLIKLAR UCHUN FOTOSINTEZ JARAYONINING MUHIM TOMONLARI	48
22. Qurbonova Gulmira Itolmosovna BOSHLANG'ICH SINFLARNING O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	50
23. Ro'zmetova Feruza Kamilovna ROMANGA TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUV	52
24. Shamsiyeva Laylo Nasritdinovna DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI O'STIRISH	53
25. Sharipova Nargiza DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MULTIMEDIYALI ILOVALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI	55
26. Л.Б.Тешаева ФОРМИРОВАНИЕ МЕТАПРЕДМЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ	57
27. Tillayeva Mavluda Nusratovna O'QUVCHILARNING IMLOVIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH	59
28. Umirzoqova Jumagul Mahmudaliyevna O'QUVCHILARNI MATEMATIKA FANINI O'RGANISHGA TAYYORLASH	61
29. Xalillayeva Matluba Muhammadsharifovna BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	62
30. Yuldosheva Sarvinoz Toshpulatovna BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH	64
31. Зухра Хайдарова ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ	66
32. Зиявитдинова Гулнора Зияутдиновна ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛИКНИНГ ПСИХОЛОГИК МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ	69
33. Маджидова Дилдора Абдухамидовна, Акбаров Баходир Абдурахмонович МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ Қўллаб-қувватлаш ва РЕИНТЕГРАЦИЯ Қилишнинг ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ	71
34. Саттарова Мадина Абдуманнобовна ПРОЕКТНЫЙ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ МЕТОДЫ	73
35. Урозова Райхон Абдиалимовна ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМИ	74
36. Янглиш Қаршиева Абдували кизи СИНФОШЛАРДА КУЗАТИЛАДИГАН БУЛЛИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ ВА КОРРЕКЦИЯСИ	76
37. Abdusamatov Samandar MASOFAVIY TA'LIMDA "BIGBLUEBUTTON" DASTURIDAN FOYDALANISH	79
38. Ashrapova Nilufar Olimovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	80
39. Ashrapova Nodira Olimovna MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI	82
40. Axmedova Nargiza Mustafoyevna BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI	84

41. Botirova Nigora Ne'matjonovna 1-SINF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI.....	86
42. Buriyeva Dilafruz Ikramovna TIMSS BAHOLASH DASTURINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BILAN QO'LLASH.....	88
43. Djumaniyazova Difuza Zaripovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	90
44. Ergasheva Ominaxon Haydarovna BOSHLANG'ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	91
45. Gadoyeva Shahodat Mustafoyevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI.....	93
46. Isomitdinova Feruza Dalimbekovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.....	95
47. Istamova Nargiza Sayfullayevna OKEAN OQIMLARINING HAVOGA TA'SIRI.....	97
48. Kamolova Mahliyo Dilshodovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANI SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	98
49. Kurbanov Ruslonbek Shavkatovich WEB – DIZAYN VA MASHUP TEXNOLOGIYASI.....	100
50. Muratova Aziza Yuldashevna “DAVRIY QONUN VA D.I.MENDELEVNING KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY SISTEMASI” MAVZUSINI NOAN'ANAVIY USULDA O'TISH.....	101
51. Murodova Umriya Nasulloyevna ALIFBE DARSIDA HARFLARNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	102
52. Muxammatova Maftuna “INTERFAOL” METODI HAMDA UNI DARS JARAYONIDA QO'LLASH USULLARI...	103
53. Nazarova Gulshanda Olimovna, Rajapova Feruza Zavqidinovna O'QUVCHI YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANISHIDA KITOBNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	104
54. Nazarova Shoxsanam Xolmirzayevna AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI BOSHLANG'ICH TA'LIMNING UNIVERSAL VOSITASI SIFATIDA.....	106
55. Nurmatova Marg'uba Nurfullayevna IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITILISHIGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR.....	108
56. Rahimova Dilafruz Mansurovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	110
57. Rajabova Adiza Safarovna UZLUKSIZ TA'LIMDA BADIY ASAR QAHRAMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI.....	112
58. Raximboyeva Malika Rustamovna, Bekchanova Barno Egamberganovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN OG'ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	114
59. Ro'ziyeva Gulnora Anvarovna ONA TILI DARSLARI DA NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	116
60. Ro'ziboyeva Farog'at Iskandarovna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH ORQALI AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH.....	118
61. Sayfullayeva Nafisa Barakayevna ONA TILI FANINING TA'LIM-TARBIYA RIVOJIDAGI AHAMIYATI.....	120

62. Shukurova Shahnoza Shukurovna YOSHLARIMIZNI GLOBALLASHUVNING ZARARLI TA'SIRLARIDAN HIMOYALASH	122
63. Uraqova Dilafrō'z Omonovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	124
64. Yoqubjonova Muhabbatxon Yusufjonovna TEACHING ENGLISH AND WORKING WITH SMALL GROUPS IN ENGLISH LESSON	125
65. Yunusova Nargiza Raxmanovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA SHAKLLARI.....	126
66. Yusupova Nigora Mansurboyevna TA'LIMDA SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	128
67. Zokirova Gulnoza Mirzarahmat qizi BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI TASHKILLASHDA O' YINLARNING AHAMIYATI	130
68. Азимова Гулноз Бобокуловна НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН НАЧИНАЕТСЯ НА ПОРОГЕ ШКОЛЫ, В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ	131
69. Самандарова Гулрух Искандаровна УЙҚУ ВА ТУШ КЎРИШНИНГ ИНСОН РУҲИЯТИДАГИ ЎРНИ	133
70. Tohirov O'ktamjon Otaqo'ziyevich TEKNOLOGIYA FANI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	136
71. Жамшид Октямович Хакимов, Мухлиса Дустназар кизи Омонова КАЧЕСТВЕННЫЕ ВОПРОСЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ МИРА В XXI ВЕКА.....	139
72. Юнусова Гулчеҳра ТАЪЛИМ ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА НОАНЪАНАВИЙ УСУЛИ ВА ШАКЛЛАР.....	141
73. Tosheva Nodira Umarovna МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARNING NUTNIQINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	143
74. Эгамкулов Хуршид Қаршибой уғли МИЛЛИЙ ҒУРУР ВА МУСТАҲҚАМ ИШОНЧ МАНБАИ- УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДИР	145
75. I.Bozorova BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	146
76. V.Bozorova INKLYUZIV TA'LIMGA BO'LGAN EHTIYOJLAR VA USHBU TA'LIM SHAKLINING AFZALLIK JIHATLARI.....	148
77. D.Sayfiyeva BOSHLANG'ICH SINFLARDA ASOSIY MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INTERAKTIVLIK METODLARI	150
78. N.Hamrayeva ULUSH VA KASR TUSHUNCHASI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI	152
79. Н.С.Шайзакова ИЖТИМОЙ-МАДАНИЙ АНЪАНАЛАР ВОСИТАСИДА МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ БАДИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ	154
80. O'ktamova Gulchehra OLIMPIADA TENGSIZLIKLARNI YECHISH USULLARI.....	157
81. Saidova Osiyo KOSHI TENGSIZLIGI VA UNING BA'ZI TABDIQLARI	159



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

Akmuratova Xurshida Bahramovna

Yangibozor tumanidagi 14-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda yangi ped texnologiyalarni samarali qo'llashda yordamchi bo'lishi ko'zda tutilgan.


Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ta'lim samaradorligi, innovatsion faoliyat, motiv, baliq skeleti texnologiyasi.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi.



Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga

rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

“Baliq skeleti” texnologiyasi Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.



Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida "Yo'l qoidalari" mavzusida "Sветофор nima uchun kerak?" muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq sklitini boyitib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.



SHARQ MUTAFAKKIRLARI IJODIDA USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATLARI

Xo‘jaqulova Inoyt Hakimovna, Shaymanova Difuza Ro‘ziyevna
Navoiy shahar 6-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada sharq mutafakkirlari asarlaridagi ustoz-shogird munosabatlari, ustozlik xislatlari, ustoz ba shogird o‘rtasidagi burch va majburiyat, ustoz va shogird ma‘suliyati haqidagi qarashlari ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Ustoz va shogird, Xusayin Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy

Xalqimiz azal azaldan farzandlarini ilmi va hunarli qilishga, ularni go‘zal odob-ahloq egasi qilib tarbiyalashga e‘tibor berganlar. Shu boisdan ular bolalar tarbiyasini jamiyatda hurmat va e‘tiborga ega bo‘lgan ilmiy kishilarga, o‘z kasbining mohir ustalariga topshirganlar. Bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy, jismoniy mashqlarga va hunarga o‘rgatilgan. Ustozlar shogirdlariga bilim va hunar sirlarini o‘rgatish bilan bir qatorda, ularni qat‘iyatli, to‘g‘risoz, sadoqatli, mard va jasur kabi komillik xislatlarini ham singdirishga intilganlar. Shu bois jamiyatda yaxshi ustozlarning hurmat-e‘tibori, mavqeyi baland bo‘lib, ustozlik ulug‘ kasb hisoblangan. Xalqimizdan orasidan yetishib chiqqan buyuk olimu sarkardalar, shoir-u fuzololarning barchasi ana shunday ustozlar tomonidan tarbiyalangan va ular doim o‘z ustozlarini hurmat bilan e‘zozlaganlar.

Yurtimizda ustoz-shogird tizimining rivojlanib borishi ustoz-shogird munosabatlari, ustoz va shogirdning bir-biriga nisbatan burch va majburiyatlari, odob-ahloqi haqida turli qarashlarni keltirib chiqargan. Buni biz buyuk ajdodlarimiz o‘z ilmiy meroslarida tarbiyachi, ustozlik mahorati, ustoz - shogirdlik munosabatlariga ham alohida o‘rin berganligida ko‘rishimiz mumkin. Quyida shulardan misollar keltiramiz: Masalan, Xusayin Voiz Koshifiy (1440-1505) “Futuvatnomai Sultoniyyoxud javomardlik tariqati” asarida ustoz - shogird munosabatlariga keng to‘xtalib, ustoz qanday bo‘lishi, shogirdlik odobi nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma‘lumot beriladi. Koshifiy ustozlik shartlarini quyidagicha izohlaydi. “Bilgilkim hach bir ish ustozsiz amalga oshmagay va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo‘lmagan”.

“Kimki ustozsiz ish boshlagan bo‘lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo‘l, birmuddat ustozga xizmat qilginda, so‘ngra o‘zing ustoz bo‘l ... Agar komil inson kim deb so‘rasalar, u pok mazxabli, o‘z aybini ko‘radigan dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo‘lmaydi.

Shogirdlik odobi haqida ham o‘z fikrlarini quyidagicha bayon etadi: “Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so‘rasalar, irodat ustiga deb javob bergin. Agar irodat nima deb so‘rasalar, samo va toatdir deb aytgin. Agar samo (eshitish) va toat nimadir deb so‘rasalar nimani ustoz aytsa, uni jon qo‘log‘i bilan eshitish, chin ko‘ngli bilan qabul qilish va vujud a‘zolari orqali amalga ado etishdir deb ayt”.

U shogirdlikning 8 ta odobini ko‘rsatadi: 1. Birinchi bo‘lib salom berish. 2. Ustozning oldida oz gapirish. 3. Boshni oldinga egib turish. 4. Ko‘zni har tomonga yugurtirmaslik. 5. Gap so‘ramoqchi bo‘lsa oldin ustozdan ijozat olish. 6. Ustoz javobiga e‘tiroz bildirmaslik. 7. Ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmaslik. 8. O‘tirib turishda hurmat saqlash.

Mashhur faylasuf va mutafakkir, qomusiy ilmlar bilimdoni Abu Nosr Forobiy (873-930) ustoz - o‘qituvchiga shunday talab qo‘yadi: “Ustoz - shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko‘ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq bo‘lsa, shogird uni mensimay qo‘yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o‘qituvchiga bolalarning f‘l atvoriga qarab turbiya jarayonida “qattiq” yoki “yumshoq” usullardan foydalanishni maslahat beradi:

Tarbiyalanuvchilar o‘qish o‘rganishga moyil bo‘lsa, ta‘lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo‘llaniladi. Tarbiyalanuvchilar o‘zboshimcha, itoatsiz bo‘lsa, qattiq usul (majburlov) qo‘llaniladi.

Sa‘diy Sheroziy (Shayx Sa‘diy) (1184-1204) ta‘lim - tarbiyada muallimlarning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqo‘l bo‘lishning tarafdori bo‘ladi. Bu borada u shunday degan edi: “Gar muallim bo‘lsa beozor, o‘quvchilar darsda qilurlar bozor”

Mutafakkir Alisher Navoiy “Mahbub ul - qulub asarida Nodon, johil ustozni tanqid etadi va o‘qituvchi ma‘limotli o‘qitish yo‘llarini biladigan muallim bo‘lishi zarur deydi. Shu bilan birga o‘qituvchining mehnatini og‘irligini xolisona baholaydi. Alisher Navoiy ustoz ilmini shunday



baholaydiki “Uning ishi odam tugul , hatto devning ham qo‘lidan kelmaydi .Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilari edi , ustoz esa bir to‘da bolaga ilm va adab o‘rgatadi . lekin shunisi ham borki . bolalar orasida tabiatan og‘irroq bolalar ham bo‘ladi . Ustoz bu kabi hollarda yuzlab mashaqat chekadi .

Shu boisdan, Alisher Navoiy o‘z asarlarida ustozlarni ulug‘lab, shogird doim uning oldida boshi egik holda turishi, ustozni rozi qilmoqlikni uqtiradi. Shogirdning ustozdan o‘zishi, ulg‘ayib ulug‘lik martabasiga erishishi ustozning qadrini zarracha kamaytirmasligini, u har qanday vaziyatda ham ota singari ulug‘ va mo‘tabar bo‘lishini ta’kidlab: “Agar shogird shayxulislom, agar qozidir, agar ustod ondin rozidir-tangri rozidir”, deydi. Shuningdek, Alisher Navoiy ustozlarni ham o‘z ishida ma’suliyatli bo‘lishini, shogirdni yuksak ahloqiy sifatlar ila tarbiya etib, unga bilim berishda qunt va sabr ila yondashmoq lozimligini uqtiradi.

Asrlar davomida shakllangan ustoz-shogird tizimi an’analari bugungi kunimizda ham ta’lim sohasining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi. Ta’lim muassalarida tajribali ustozlar shogirdlarning ma’suliyatini, mahoratini shakllantirishga, faoliyatni samarali tashkil etishga ko‘maklashmogi lozim. Yosh o‘qituvchilarga darslarni tashkil etish, ish hujjatlarni yuritish tartibi, sinfni, o‘quvchilarni boshqarish o‘quvchi diqqatini jalb qilish metodlari haqida tushunchalar berib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi Bu esa albatta ta’lim sifatini oshishini va taraqqiyotini kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 1997 yil 29 avgust
2. O‘zbek pedagogikasi tarixi. T.: “O‘qituvchi” 1997 yil
2. Sh.B Xoliqov “Ustoz-shogird an’anasi milliy qadriyat” Internet maqola. 30.07. 2016



БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ ОҒЗАКИ ВА ЁЗМА НУТҚИНИ ЎСТИРИШ

Аҳмедова Ҳусния Файзиллоевна

Бухоро вилояти Ромитан тумани

29-сонли мактаб бошланғич синф

ўқитувчиси mboqiyeva@list.ru +998993892584

Аннотация. Мақолада бошланғич синф ўқувчиларининг оғзаки ва ёзма нутқини ўстириш ҳақидаги маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: нутқ, хабар, талаффуз, метод, равон, эмоционал, образ, дикция.

Бола нутқининг тўғри шаклланиши асосан мактабда изга солинади ва тўлалигича такомиллашади.

Нутқ — киши фаолиятининг тури, тил воситалари асосида тафаккурини ишга солишдир. Нутқ ўзаро алоқа ва хабар функциясини, ўз фикрини ҳис-ҳаяжон билан ифодалаш ва бошқаларга таъсир этиш вазифасини бажа ради.

Яхши ривожланган нутқ жамиятда кишининг актив фаолиятининг муҳим воситаларидан биридир, ўқувчи учун эса нутқ мактабда муваффақиятли таълим олиш куралидир. Болани психик ёшданок равон тилга гапиришга ўргатиш лозим.[1]

Ўқувчилар нутқини ўстириш учун ўқитувчилар ўқувчилартилининг талаффузи, луғати, синтактик курилиш ва боғланишли нутқини актив эгаллашларида ёрдам берадиган метод ва усуллардан фойдаланиш керак бўлади.

Болани кичик ёшданок равон тилда гапиришга, ўз нутқида гўзал сўзлардан фойдаланиб, фикрни эркин баён қилишга ўргатиб бориш муҳим. Бошланғич синфларда ўқувчилар барча дарслар давомида назарий ва амалий би лимларни олиш билан бирга жумлаларни тўғри тузиш, ўзаро муомала қоидалари, фикрни баён этиш, қайта ижодий ҳикоялаш, шеър ёдлаш орқали оғзаки нутқ кўник малари ҳам ривожлантириб борилади.[2]

Нутқни тафаккурдан ажратиб бўлмайди, нутқ тафаккур асосида ривожланади.

Замонавий мактабда ўқитувчининг жонли нутқига техник воситалар ёрдамга келади. Улар нутқ ифодалилигини оширади, ҳиссий таъсирини кучайтиради. Ўқитувчи нутқи бу ҳолда гўё бирлаштирувчи бўлиб қолади: у кино, мусиқа, фото ишланма билан бирга идрок этилади. Ўқитувчи сўзи алоҳида тасвирий-ифодавий сифатларни ҳам акс эттиради. Токи оғзаки нутқ уни идрок этиш жараёнида зудлик билан тушунишни талаб қилар экан, ўзига хос лексик-грамматик хусусият ҳам касб этади.

Оғзаки нутқ-ёрқин, шаклан образли, ички эмоционал нутқ. Шу боис у тил воситалари ва услубий хусусиятлар хилма-хиллиги билан фарқ қилади. Оғзаки нутқнинг тўлқинланганлиги, эмоционаллигининг юқорилиги экспрессив (ҳиссий бўёқдор) лексикани саралаш заруратини кучайтиради.

Оғзаки нутқ жумла ва гапларнинг кам сўзли бўлиши ҳамда оҳангдорлигини талаб қилади. Табиийки, сўз талаффузи, дикция муаммоси алоҳида долзарблик касб этади. Яхши дикция (аниқ талаффуз) оғзаки нутқнинг фонетик ва мусиқий жаранглашида жуда муҳим.

Синф билан доимий мулоқот оғзаки нутқ синтаксисда ўзига хос акс этади: сўзловчи кўпроқ содда гап турларини қўллайди сўроқ ва ундов гапларга кенг мурожаат қилади, олдинги гапнинг давоми бўлган гапларни қўллайди. Оғзаки нутқда такрор, градация (изчиллик), муболағавийлик қиёслаш, турли маъно кўчишлар, киноя нутқий воситалар кенг қўлланилади.

Оғзаки нутқнинг юқоридаги фарқловчи белгилари қайсидир маънода нисбий саналади. Зеро, уларнинг айримлари (тўхтам, интонация(оҳанг), мантиқий урғу) ёзма нутқ учун ҳам у ёки бу даража хос. Оғзаки нутқда улар таъсирли,

фаол намоён бўлади. Буни оғзаки нутқни ривожлантиришиларида ишларида ҳисобга олиш жуда муҳим.

Ёзма нутқ манбаи ўқувчининг синф олдидаги жамоавий тингловчига мўлжалланган оғзаки жавобларидир. Бироқ бошланғич синфларда шеванинг кенг қўлланилиши натижасида талаб даражасидаги ихтисослашган ўқув оғзаки нутқ маданиятига эришиш анча мушкул. Ёзма нутқ оғзаки нутқдан бир қадар шаклланганлиги, сўзларнинг ўта синчковлик билан танлаб



олиниши, грамматик жиҳатдан аниқ, лекин мураккаб шаклланганлиги, оғзаки нутқ учун хос бўлган оҳанг, мимика ва қўл ҳаракатларининг бевосита қўллана олмаслиги билан ҳам фаркланади.

Савод ўргатиш жараёнида ҳар томонлама баркамол, эркин фикрлайдиган шахсларни тарбиялаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланган мавжуд шароитда ўқувчилар нутқини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади. Нутқни ривожлантириш шахсни шакллантиришнинг зарурий шартига айланади. Шундай экан, бошланғич таълимда нутқ ўстириш муаммоси доимо диққат марка зида бўлиши лозим. Дидактик ўйинларни ташкил қилиш орқали ўқувчиларнинг оғзаки ва ёзма нутқини ўстиришга эришилади.[2]

Энг аввало шуни таъкидлаб ўтишимиз керакки, ўқувчиларнинг нутқини ўстиришда дидактик ўйинларнинг ташкил этилиши ўринлидир. Чунки ўйинли дарс ўқувчилар учун қизиқарли ва севимлидир. Шу ўйинлар туфайли ўқувчи энг аввало мактабга, дарсга қатнашга қизиқувчан бўлади. Бундан ташқари, ҳар бир дарсда жавоб беришга ҳаракат қиладиган, пухта фикрлаб сўнгра сўзлайдиган, ўқитувчи томонидан етказиладиган ҳар бир фикрга ўта эътиборли ва ўзгарувчан бўлиб боради. Ҳар томонлама баркамол, эркин фикрлайдиган шахсларни тарбиялаш давлат сиёсатининг устувор йўналишига айланган мавжуд шароитда ўқувчилар нутқини ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади. Нутқни ривожлантириш шахсни шакллантиришнинг зарурий шартига айланади. Шундай экан, бошланғич таълимда нутқ ўстириш муаммоси доимо диққат марказида бўлади.

Адабиётлар:

1. Аминов М.Н., Мажидов А. М. Тарбия(отаоналар ва мураббийлар учун энциклопедия)Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси "Давлат, 2010.
2. Таълим жараёнида нутқ маданиятини шакллантириш масалалари. Ўзбекистон тилидан доимий Санжумани материаллари.Т.:«Шарк», 1999.



ИСЛОМ ДИНИДА ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРГА ОИД АҲКОМЛАР ТАҲЛИЛИ

Х.Жўраев

husanbek_021@mail.ru

“Маҳалла ва оила” илмий-тадқиқот институтининг
“Оналардаги ички зиддиятларнинг
бола психик ҳолатига таъсирини
психологик негизлари” лойиҳаси доирасида

Аннотация: Мазкур мақолада ислом динида кўрсатилган фарзанднинг ота-онаси олдидаги бурчлари, вазифалари таҳлил қилинган. Ота-оналик ҳуқуқини қозониш йўллари, оила аъзоларининг масъулиятлари ёзилган. Мавзунинг ёритишда расмий статистик маълумотлардан ҳам фойдаланилган.

Калит сўзлар: Оилавий муносабат, ҳукмлар, ота-она ҳаққи, ҳолис хизмат, неъмат, тарбия, соғлом оила.

Ота-она кексалик ёшига етганларида фарзандларнинг, аввало, хуш муомаласи, яхши муносабатига эҳтиёж сезади. Кейин эса, моддий таъминот ва жисмоний кўмакларига суянади. Мамлакатимизда қария ва ногиронлиги бўлган катта ёшдаги шахслар учун интернат уйларида яшайдиганлар сони 2016 йилда 5940 тани ташкил этган. Бу кўрсаткич 2019 йилга келиб 6667 тага етган, яъни, қарийб 13%га кўпайган. Фарзанд ота-она учун Аллоҳнинг неъматини, иноти, берган мададидир. Бу борада “Нух” сурасининг 12-оятда “сизларга мол-дунё ва фарзандлар билан мадад берур...”, деб ёзилган. Оятдан фарзанднинг ота-онаси олдидаги масъулияти вожиб даражасида эканлиги тушунилади. Бу билан фарзанд савобга ва охирада мукофотларга эришади. Буни тушунган фарзанд ота-онасига ғамхўрлик қилади, уларни бегоналарнинг кўлига топшириб қетмайди.

Ислом динида ҳеч кимнинг ҳаққи ота-она ҳаққидан кўра кўпроқ айтилмаган, улар учун васият қилингандан кўра кўпроқ васият қилинган нарса ҳам йўқ. Қуръони Карим ва ҳадиси шарифда фарзанд ота-онани эъзозлаши, уларга чексиз яхшиликлар қилишга буюрилган. “Исро” сурасининг 23-оятда “Роббинг фақат Унинг Ўзигагина ибодат қилишингни ва ота-онага яхшилик қилишни амр этди”, деб ёзилган. Бу оят билан Аллоҳ таолога ва ота-она учун ибодат қилиш фарз бўлгани каби, банд ота-онага яхшилик қилишга ҳам буюрилган. Бундан ота-онага яхшилик қилишнинг улуғ амал эканлиги тушунилади. Оятнинг давомида “уларга “уфф!...” дема ва уларни жеркима” дейилган. Бу кичик сўз бўлиб, икки маъноси бор. Биринчи маъноси, ота-онага “уфф!” дейишлик билан беҳурмат қилмаслик бўлса, иккинчи маъноси, ота-она олдида “уфф!” дема, фарзандим оғир аҳволга тушиб қолибди, деб озорланмасинлар, деганидир.

“Жаннат оналар оёғи остидадир”. Мажозий маънодаги мазкур ҳадисдан фарзанд, аввало, онага эътиборли бўлиши кераклиги тушунилади. Бу ерда жаннатдан мурод Аллоҳнинг розилиги, оёқдан мурод онанинг розилгидир. Демак, бу ҳадисдан Аллоҳнинг розилигига онанинг розилиги билан эришиш мумкинлиги ва шу сабаб билан жаннатга кириш имконияти борлиги тушунилади. Она ҳомиладорлик вақтидан бошлаб нафсига хуш келадиган кўп неъматлардан фарзанди учун воз кечиб, унга умрини бағишлайди. Онага бундай меҳрнинг берилиши Аллоҳнинг бандаларига бўлган раҳматидир. Онага қилинадиган хизмат ҳолис хизматдир. Она муслима бўлмаса ҳам ҳурмат қилган ва хизматида бўлган киши икки дунё саодатига эришади. “Лукмон” сурасининг 15-оятда “...Уларга (гарчи кофир бўлсалар-да) дунёда яхши муомалада бўлгин...” дейилган. Ота-она мусулмон бўлмасалар ҳам уларнинг моддий ва маънавий таъминотларига оид ҳуқуқлари ислом динида ўзгаришсиз қолади. Оятдаги ҳукм эътиқодлар сабабли оиладаги муносабатларнинг бузулмаслиги учун хизмат қилади.

“Аҳқоф” сурасининг 15-оятда Аллоҳ таоло “Биз инсонни ота-онасига яхшилик қилишга буюрдик. Онаси уни (қорнида) қийналиб кўтариб юрган ва уни қийналиб тукқандир. Унга ҳомиладорлик ва уни (сутдан) ажратиш (муддати) ўттиз ойдир. Бас, қачонки, у вояга етиб, қирқ ёшга тўлганида: «Эй, Раббим! Менга ва ота-онамга инъом этган неъматингга шукр қилишга ва Ўзинг рози бўладиган солиҳ амални қилишга мени муваффақ этгин ва мен



учун зурриётимни ислох эт! Албатта, мен Сенга (гуноҳларимдан) тавба қилдим ва албатта, мен мусулмонлардандирман», – дейди”.

Фарзанд улғайиб, ўзи ва оила таъминотидаги отасининг меҳнатига гувоҳ бўлади. Онасининг қорнида эканлигида ҳомиладорлик қийинчиликлари, дунёга келтириш азоблари ва ҳали эсини танийдиган ёшга етмаган даврида онасининг меҳнатлари, чеккан захматларини билмайди. Эсини танийдиган ёшга етганида бу давр ўтиб кетган бўлади. Юқоридаги оятда, шунинг учун ҳам, она қорнидаги ҳомиласини қийналиб кўтариб юрганига алоҳида урғу бериб ўтилган. Шунингдек, оятнинг тафсирида онани ҳурмат қилишнинг дунёвий сабаби ҳам тушунтирилган. Бундан мақсад, фарзанднинг ота-онасини амалда ҳурмат қилишидир. Чунки, киши тушунган нарсасига амал қилишда бардавом бўлади.

Аллоҳ инсонни ота-онасига яхшилик қилишга буюргани ҳақидаги оятдан фарзанднинг волидаларига яхшилик қилиши вожиб эканлиги тушунилади. Бундан ташқари, ота-онага итоатда бўлиш Аллоҳга ҳуш келадиган амаллардан эканлиги ва эҳсонни, аввало, волидалардан бошлаш кераклиги таъкидланади.

Киши бировнинг ота-онасини сўкса, ўз ота-онасини ҳақорат қилган бўлади. Ислом динида ота-онани ҳақорат қилиш гуноҳи кабиралардан ҳисобланади. Бундан ташқари, ота-онасига оқ бўлиш ҳам исломда гуноҳи кабирадир. Касб қилишга қодир фарзандга волидаларининг таъминотлари, нафақаларини бериш шарт. Бундай сифатларга эга фарзанд билан ота-оналарнинг кадрлари, ҳуқуқлари поймол бўлмаслиги, кексалик ёшига етганларида кўчада, бегоналарнинг қўлида қолмасликлари ҳамда ота-оналарнинг эъзозланишлари, фарзандларидан кутган чиройли муносабатларига эришиш мумкин.

Ота-она вафот этганидан кейин ҳам фарзанднинг улар олдидаги бурчлари тугамайди. Бунда фарзанд уларнинг ҳаққига дуо қилиш, уларга истиффор айтиш, уларнинг ваъдаларини бажариш, улар томондан қариндош бўлган кишиларга силаи раҳм қилиш бурчлари бўлади. Бунга амал қилаётганликларини ва ота-онасига бўлган меҳр-оқибатини кўриб, фарзандларнинг фарзандлари ўрнак оладилар, ўз навбатида улар ҳам ота-оналарига шу муносабатни қайтарадилар.

Росулуллоҳ саллолоҳу алайҳи васалламдан бир киши икки дунёим учун манфаатли бўлган васият беринг деб сўраганида, уч марта онанга, тўртинчи марта отанга яхшилик қил, деб айтган ҳадислари машҳурдир. Бундан фарзанднинг устида онанинг ҳаққи отаникига нисбатан уч баробар кўплиги тушунилади. Она фарзандининг шафоатида, уни жаннатга киришига сабабчи бўлиши мумкин. Бу эса, фарзандга инъом этилган ғанимат имкониятдир.

Хоразмлик фақиҳ олим, Муҳаммад Кардарийнинг “ал-Жомийъ ал-Важиз” асарида фарзанднинг ўғай онаси олдидаги масъулиятига ҳам тўхталиб ўтган: “Агар ота бемор бўлса, ўғай онанинг таъминоти ҳам ўғил зиммасида бўлади”. Бундан тушунамизки, ислом динида ўғай онада ҳам таъминот олиш ҳуқуқи мавжуд. Бу ҳуқуқ отанинг беморлик даврида тохтаб қолмайди, балки фарзанднинг масъулиятида давом этади.

Ислом динида ота-оналик ҳуқуқини қозониш учун болани дунёга келтиришнинг ўзи кифоя қилмайди. Бунинг учун муносиб таълим-тарбия бериш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Фарзандларнинг тўғри тарбияси бахтиёр ҳаёт кечириш учун асосий сабаблардан бири ҳисобланади. “Исро” сурасининг 24-оятида “Уларга (доимо) ёқимли сўз айт! Уларга, меҳрибонлик билан, хорлик қанотини паст тут ва (дуода) айт: “Эй Роббим! Мени (улар) гўдаклик чоғимда тарбиялаганларидек, Сен ҳам уларга раҳм қилгин!”, деб ёзилган. Мазкур оятдан ота-онага фарзанднинг мақбул муносабатда бўлишлиги тушунилади. Оятдаги “Эй Роббим! Мени (улар) гўдаклик чоғимда тарбиялаганларидек” дея дуога ундовчи қисми ота-онанинг фарзандга тарбия беришда масъул эканлигини ҳам англатади.

Фарзанд Аллоҳнинг бандасига берган улуғ неъматларидан биридир. “Каҳф” сурасининг 46-оятида фарзандлар дунё ҳаётининг зийнтаи эканлиги ёзилган. Мусулмон киши учун бу неъматнинг шукрини қилиши қалб, тил ва бошқа амаллар билан бўлади. Жумладан, фарзанднинг шукри, уни парвариш қилиш, унга таълим, тарбия бериш билан бўлади.

Фарзандининг жинси эркак бўлмаганлиги ва бошқа бахоналар билан ҳомиланинг олдирилиши, айниқса, ачинарли ҳол. Хусусан, статистик маълумотлар Ўзбекистонда 2019 йилда бола олдириш сони 40940 тани ташкил этганлигини кўрсатган. Ислом динида истисно ҳолатлардан ташқари ҳолларда ҳомилани олдимасликка буюрилади. Фарзандининг қиз ёки ўғил эканлигидан норози бўлиш, тақдирдан норози эканлигига далолат қилади.



Бу борада “Наҳл” сурасининг 58-оятида “Қайси бирларига қиз (кўргани ҳақида) хушхабар берилса, ғазаби келиб, юзлари қорайиб кетар”, деб ёзилган. Оятда фарзанднинг жинсидан норози бўлмасликка чақирилган. Бу чақириқ бола олдиришнинг олдини олиш учун хизмат қилади.

Фарзанднинг моддий таъминоти ва саломат вояга етишида, шаръан ота масъул ҳисобланса-да, сара фатволарни жамлаб ёзилган “ал-Жомий ал-Важиз” асарида бу масалада онанинг ўрни ва масъулияти ҳам катта эканлигига эътибор қаратилган. Айниқса, отадан маҳрум бўлган гўдакларга она меҳрининг зарурлигига муаллиф томонидан урғу бериб ўтилган. Жумладан, асарда шундай дейилади: “Онаси фарзандининг (она сути билан озуқаланадиган) соғлигига шикаст етиши ёки оч қолиши хавфи бўлса, у аёл рўзасини очиши мумкин, агар боланинг отаси бўлмаса. Агар боланинг отаси бўлса, отаси боланинг оч қолмаслигини таъминлаб бериши керак бўлади”. Бу ўринда фарзанднинг соғлом тарбия топишининг зарурати айрим ҳолларда ибодатни вақтинчалик тарк этиш мумкинлиги шаръий фатво сифатида асарда кўрсатиб берилган.

Статистик маълумотлар Ўзбекистонда никоҳланганларнинг қарийб 10%и ажрим билан ажунланганлигини кўрсатган. 2019 йилда ажрашган oilаларнинг умумий болалар сони жами 31389 тани ташкил этган. Ўзбекистонда Ота-она қармоғисиз қолган болалар ва ўсмирлардан жами аниқлангани 2016 йилда 7526 та бўлган, 2019 йилда эса 13597 тага етган. Фоиз ҳисобида, қарийб 81%га кўпайган.

Фарзанд тарбияси муҳим вазифалардан ҳисобланиб, волидаларига бўлган муносабати, ота-онанинг ўзига ҳам боғлиқ. Авлодларни илмли, одобли, маънан комил инсон этиб тарбиялаш, жамият, халқ, давлат равнақи ва мустақиллигининг давомийлигига сабаб бўлади. Доно халқимиз нақлида айтилганидек, “нимани эксанг, шуни ўрасан”.

Хулоса ўрнида қуйидагиларни айтиш мумкин:

1. Ислон динидаги ота-она ва фарзанд муносабатларига оид ҳукмларни қуйидагича таснифлаш мумкин:

-ота-онани ўз ҳолларига ташлаб қўймаслик, уларнинг таъминотлари фарзанд учун вожиблиги.

-ота-онага яхшилик қилиш, улар билан чиройли муносабатда бўлиш масъулияти.

-ота-она вафот этганларидан кейин ҳам улар олдидаги бурчларини бажариш.

-фарзандни ўз ҳолларига ташлаб қўймаслик, таъминоти ота-она учун вожиблиги.

-фарзанднинг таълим-тарбиясидаги ота-она масъулияти.

2. Oilанинг ҳар бир аъзоси муайян вазифаларда масъулдир. Бу йўл билан oilалардаги муносабатлар, функциялар тартибга солинган тизим шаклланишини тушуниш мумкин. Мазкур тизим жамиятга ўз-ўзини бошқариш, назорат қилиш ва ривожланиш имкониятини беради.

3. “Соғлом oilа – соғлом жамият” сиёсатини олиб бориш, нотинч ва муаммоли oilаларга манзилли кўмаклашишни ташкил этишда миллий кадриятларимиздаги ота-оналар масъулиятини аниқ белгилашга оид маълумотлар маънавий, тарбиявий омил бўлиб хизмат қилиши шубҳасиз.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистонда ижтимоий ривожланиш ва турмуш даражаси. Статистик тўплам. Йиғма-ахборот ишлари бошқармаси. – Тошкент, 2020. – 239 б.

2. Қуръони карим маънолари таржимаси. Таржимон ва изохлар муаллифи Абдулазиз Мансур. www.ziyo.uz кутубхонаси. – 483 б.

3. Абу Ҳомид Ғаззолий. Эй фарзанд. – Тошкент: Мовароуннаҳр, – 2005. – 54 б.

4. Ҳ.А.Жўраев. Мухуммад Кардарий “ал-Жомий ал-важиз” асарининг XIV-XV асрлар Мовароуннаҳр диний-ижтимоий ҳаётидаги ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. – 2020. – 142 б.

5. Аёллар ва эркаклар. Статистик тўплам. Йиғма-ахборот ишлари бошқармаси. – Тошкент, 2020. – 275 б.

6. Мухаммад Кардарий Баззозий Хоразмий. ал-Жомий ал-Важиз. – Истанбул: Сулаймония №158. – 1018 в.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI

Turg'unova Sayyora Muzaffarovna

Andijon davlat universiteti

Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Ona tili fanidan So'z turkumlarini tushintirishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlari: boshlang'ich sinf, so'z turkumlari, ot, sifat, fe'l, metod.

Bugungi kunda ta'lim tizimining rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quvchining mustaqil shaxs sifatida erkin faoliyat ko'rsatishni ta'minlash maqsadida bir qator muhim izlanishlar olib borish, jiddiy qadamlar qo'yishni taqozo qilmoqda. Bu o'rinda shuni aytish lozimki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatish orqali o'quvchilarning ona tili faniga bo'lgan qiziqishi ta'minlanadi.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida so'z turkumlarini o'rganish katta va salmoqli o'rin egallaydi. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning lug'at boyligi oshiriladi. Ular adabiy-orfoepik talaffuz me'yorlarini egallaydi, imloviy savodxonlik shakllanadi. Og'zaki va yozma bog'lanishli nutqi o'sadi. O'zgalar fikrini ang'lay olish, o'qiganlarini o'zlashtirish, o'z fikrlarini boshqalarga, tinglovchiga erkin, tushunarli qilib yetkaza olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatishning amaliy ahamiyati nazarda tutilgan bo'lsa, uni o'rgatishning samarador metod va vositalarini ishlab chiqish zarurligini anglash qiyin emas. Jumladan, ona tili darslarida o'quvchilarni mavzuni o'rganishga doir badiiy asar materiallaridan foydalanishga o'rgatish ham o'zining samarali natijalarini beradi. Shuni hisobga olgan holda, 4sinflarda ot, sifat so'z turkumlarining murakkab grammatik xususiyatlarini o'rganishda ona tili darsi bilan o'qish darslarini integratsiyalash bo'yicha olib borish ham samarali natija beradi. **"Ot"** mavzusini o'rganish jarayonida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladigan matnlardan unumli foydalanish lozim. Bunda soddadan murakkabga qarab borish tamoyiliga amal qilish talab etiladi. O'quvchilarga otning so'rog'i asosida asar matnidagi otlarni topish topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchilarga 4sinf "O'qish kitobi"dagi Sh.Sa'dullaning **"Laqma it"** asari matnidan *Kim? Nima?* so'rog'iga javob bo'ladigan otlarni aniqlab, jadvalga joylash topshirig'i beriladi. Bunda o'quvchilar topshiriqni quyidagi ko'rinishda bajarishlari lozim:

Asar nomi	Kim?	Nima?
"Laqma it" asari	Sh. Sa'dulla	It, mushuk, Moshxon, echki, sigir, Govmush, Olaqashqa, xo'roz, tovuq, kurka, o'rdak

Boshlang'ich sinflarda **"Sifat"** tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning "predmet belgisi" degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. Shu maqsadda rang, maza, shaklhajm, xilxususiyat bildiradigan so'zlar aniqlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning lug'aviy ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatni o'rganishda og'zaki va yozma ijodiy ishlarga katta o'rin




beriladi. Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonim sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida esa sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq.

4-sinf Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarga asoslanib, matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarini tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni aniqlab yozish, otga mos sifatlar tanlab, predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Bunda badiiy asar materiallaridan foydalanish yaxshi samara beradi. O'quvchilarda sifatning otga bog'lanishi haqidagi bilimlarini mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1-topshiriq. G'afur G'ulomning "**Buni toping, qizlarim**" topishmoq she'ridan sifatlarini topib, quyidagi jadvalga joylashtiring:

Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar	Hajm bildiruvchi sifatlar	Shakl bildiruvchi sifatlar	Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar
<i>qizil, ko'k, qora, sariq, oq, malla</i>	<i>mazali, taxir, shirin, nordon</i>	<i>qalin, mayda</i>	<i>yumaloq</i>	<i>po'k</i>

Boshlang'ich sinf Ona tili darslarida grammatik jadvallar, test, rasmlar, muhokamali topshiriqlar, har xil mantiqiy vaziyatlar, boshqotirmalar, yozuvchi va shoirlarning hayoti, ijodi, ularning boy madaniy merosini tushuntirish uchun multimedia vositalaridan, videoroliklardan, elektron darsliklardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Misol uchun Fe'l so'z turkumini quyidagi jadval asosida bolalarga tushintirilganda samarali natija berishi mumkin:



Umuman olganda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini nazarda tutgan holda ko'proq ko'rgazmali vositalardan, ta'limiy didaktik o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi. Ta'limiy didaktik o'yinlar, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilar bilimni oshirishda boshlang'ich ta'lim mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga ega. Ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda tilning asl mohiyati, mazmuni kabi tushunchalar singdirib boriladi, boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiya usullari yordamida darsni tashkil etish yaxshi samara beradi. Bu borada ta'lim-tizimiga texnologik yondashuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, boshlang'ich ta'limning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: 1995
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: 2009
3. Ikromova R. va boshq. Ona tili 4-sinf uchun darslik. – T.: 2009



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK TOPISHMOQLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMIY AHAMIYATI

Abdurazakova Nilufar Eshonkulovna

Sirdaryo viloyati Guliston shahar

16-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998994760552

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida matematik topishmoqlar ulardan foydalanishlarda o'quvchilarda ziyraklik va topqirlikni tarbiyalashda topishmoqlarni tutgan o'rniga to'xtalib, matematik topishmoqlardan namunalar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: matematik topishmoq, she'riy masala,

Matematik topishmoqlar ham tabiat, jamiyat va inson tafakkurining mahsuli bo'lib, u narsa va hodisalar haqida malumotlar beradi. Matematik topishmoq sodda, aniq, darak gap shaklida ifodalashning narsalarga xarakterli belgilari vositasi bilan anglatib, javob talab qiluvchi gapdan iborat bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, topishmoq «so'z obrazining kalitidir».

Hozirgi paytda ham topishmoqlar o'zining tarbiyaviy xususiyatini yo'qotgani yo'q. Matematik topishmoqlar esa yoshlarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Ularni ziyraklikka, sinchkovlikka, kuzatuvchanlikka, malum bir poetik fikrni izlab topishga o'rgatadi.

Matematik topishmoqlar oddiy topishmoqlar kabi topishmoqning javobini topish uchun aytilgan matnni yaxshi o'ylab, nimaga ishora qilayotganini anglab olish, topishmoqning asosiy xususiyati va belgilari qaysi narsaga qaratilganligini aniqlab olish kerak bo'ladi. Topishmoqning javobi to'g'ri topilsa, o'sha paytdayoq boshqa jumboq o'rta tashlanadi. Mobodo, javobini topishda qiynaladigan bo'lsa, u holda aytuvchiga «jonlimi», «jonsiz» deb so'raladi. Unda ham javob topishga qiynalsa, «qayerda bo'ladi», «qattiqmi», «yumshoq» deb so'raydi. Shundan ham topa olmasa u holda topuvchi «shahar berdi». Quyida matematik topishmoqlar namunalari keltirilgan:

Oz qo'ysang sol deb aytadi

Ko'p bo'lsa, ol deb aytadi. (tarozi).



Nozik tili dildirar

Vaqt o'tganin bildirar (sekund mili).



She'riy masalalar.

Kasrga oid mavzularda quyidagi she'rli masalalardan foydalanishimiz mumkin:

Savol: - Bir qovunni o'n bo'lakka

Teppa-teng qilib qo'ydim.

Endi mening savolimga

Quloq tut, bilib qo'ygin.

Bir-biridan totli,

Dimog'ingni yoradi.

Bir tilimni senga bersam,

Menda qancha qoladi?

Javob: - Agar bitta bo'lakni,

Menga bersang qo'qqisdan.





Ochko'zliging tufayli

Senda qolar to'qqizta.

Sonlar ishtirokidagi topishmoqlar ham o'quvchilarni narsalarni o'ziga xos sonlarga oid qismlarini o'rganishga yo'naltiradi:

Og'zida 4 ta tishi boru,

Yegani pichan. Bu nima? (panshaxa).



Matematik topishmoqlar ham topishmoqlar singari o'zining mazmuni, kompozitsion qurilishi, tuzilishi jihatidan xilma-xil bo'ladi. Topishmoqda aniq bir narsa – hayvonlar, qushlar, o'simliklar, ish qurollari, tabiat va tabiat hodisalari haqida so'z boradi. O'ylab topishi mumkin bo'lgan narsa yoki hodisa ikkinchi bir narsaga taqqoslanadi.

Matematik topishmoqda narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli xolda beriladi.

Matematik topishmoqlar bolani fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tafakkurini rivojlantirishga, kuzatuvchanlik hissini oshirishga, nafosat tuyg'usini o'stirishga har bir narsani rangi, shakli, hajmini eslab qolishiga yordam beradi. Umuman olganda topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayev M "Matematika o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasi. T-2004- yil.
2. Jumayev M.E. « Matematika o'qitish metodikasidan praktikum» T-2003-yil.
3. Boshlang'ich ta'limni o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. II-qism T-2018-yil.
4. Z.Xusainova «O'zbek topishmoqlari» «Fan» 1996.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MENTAL ARIFMETIKA AMALLARINI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Ahmedova Gulya Ashimovna
Toshkent viloyati Bo'ka tumani
34-o'rta ta'lim maktabi
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
ahmedovagulya@gmail.com

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki hisoblash texnikalarini rivojlantirishning mental arifmetikasi orqali yondashish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: arifmetika, mental arifmetika, cho't, arifmetik amallar, "Mental arifmetikaning sirlari".

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, xususiy maktablar ochilishiga ruxsat berilganligi hamda nodavlat ta'lim muassasalarining erkin faoliyat yuritilishiga keng yo'l ochilganligi ta'lim tizimida ham erkin raqobatning vujudga kelishiga olib keldi. Tabiiyki, raqobat bor joyda izlanish, yangilikka intilish, bu izlanishlarning natijasida yuqori sifatga erishiladi. Xususiy maktablarning hamda nodavlat ta'lim muassasalarining ta'limga **"Mental arifmetika"** kabi o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi, xotirasini mustahkamlovchi innovatsion dastrurni olib kirilishi, endilikda ta'limda eski tizimda ishlab bo'lmagani, ta'limga yuqoridagidek chet el tajribasida sinalgan innovatsion dasturlarni kiritish zarur ekanligi ko'rinib qoldi. **Arifmetika** (lotincha arithmos – son) - sonlar, sonli to'plamlarda berilgan amallar (*qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish*)ni o'rganuvchi fan. Sonlar yordamida beriladigan misol va masalalar o'ziga xos sodda usullarda yechiladi. Arifmetika deganda son tushunchasining paydo bo'lishi va rivojlanishi, hisoblash usullari va hisoblash qurollari takomillashuvi va turli tarzdagi sonlar bilan amallar bajarish tushuniladi. **Mental arifmetika** bu - turli xil matematik amallarni, asosan, *qo'shishdan boshlab, asta sekinlik bilan keyin ayirishga undan keyin esa, ko'paytirish, bo'lish kabi goh sodda, goh murakkab amallarni oz fursatda miyada hisoblashni* anglatadi. Nafaqat miyada, balki barmoqlar yordamida, cho'tlar yordamida ham osonlik bilan ma'lum formulalar yordamida hisoblash demakdir.

Mental arifmetika dastlab Xitoy va Yaponiyada o'ylab topilgan bo'lib, amalga joriy etilgan. Keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham kirib kelgan. Ushbu dastur 4 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan bolalarni abakus yordamida hayolda hisoblashga, hamda o'ng va chap qo'l barmoqlari bir vaqtda tez harakatlanishi miya o'ng va chap yarim sharlarining uyg'unlikda ishlashiga asoslangan aqlni rivojlantirishning o'ziga xos uslubidir. Mental arifmetika bilan shug'ullangan bolaning miyasida quyidagi jarayon sodir bo'ladi. Abakusda oddiy amal bajarish jarayonida miyaning chap qismi neyronlarda hisoblash amali bajarilishiga javob beradi, o'ng qismi esa motorika uchun, ya'ni qo'l harakatlarini boshqaradi. Miya o'rtasi esa raqamlarni eshitishni o'z boshqaruvi ostida ushlab turadi. Shu sababdan mental arifmetika bilan shug'ullangan bolalarda miyaning o'ng va chap yarim sharlari birgalikda faoliyat olib boradi. Bu mashg'ulot bilan shug'ullangan bolalar nafaqat matematika, balki boshqa fanlarni ham mukammal o'zlashtira boshlaydi. Ularning xotirasi mustahkamlanadi.

Mental arifmetikani o'rgatishda bir qancha o'quv qo'llanmalari mavjud bo'lib, ularda, asosan, bolaning yoshidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan, ya'ni ular bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Avval turli xil shakllar bilan ifodalanadi, keyin esa raqamlar, formulalar aks etadi. Misol uchun: Artur Benjamin va Mixail Shermerlarning **"Mental arifmetikaning sirlari"** kitobi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu kitoblarning inglizcha va ruscha variantlari bo'lib, ular sodda, tushunarli qilib, misollar yordamida keltirib o'tishgan. Bundan tashqari ko'plab kitoblarda turli xil rangli rasmlar keltirilgan bo'lib, bolalarning ranglarni, shakllarni farqlay olishlariga yordam beradi. Mental arifmetika dasturi bilan shug'ullangan bolalarda quyidagi qobiliyatlar rivojlanadi:

- diqqatni jamlay oladi;
- ijodiy fikrlash qobiliyati ortadi;
- tasviriy xotira kuchayadi;
- tinglash va kuzatuv shakllanadi;



- o'qish va anglash qobiliyati yaxshilanadi;
- hayolda qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini tez, oson va aniq bajara oladi;
- xorijiy tillarni yaxshi o'zlashtiradi.

Mental arifmetika bo'yicha ta'lim olayotgan bolalar nafaqat matematikadan, balki boshqa fanlardan ham muvaffaqiyatga erisha oladilar. Bu dasturni o'rganish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichlari: qo'shish –ayirish va ko'paytirish -bo'lish hisoblanadi.

Sonning kvadrat va kub darajasini hisoblash dasturning so'nggi bosqichi hisoblanadi.

Quyida mental arifmetikaga oid bir qancha misollar berilgan. Bu misollar orqali bolalarga arifmetik amallarni oson yechish usullarini o'rgatish mumkin. Quyidagi muammoni tasavvur qilamiz:

$$32 \times 11$$

Ushbu muammoni hal qilish uchun faqat raqamlarini qo'shishimiz kerak $3 + 2 = 5$, so'ngra 2 va 3 o'rtasida 5 ni qo'yiladi. Mana bizning yechim: 352

Javob: 352

Qanday osonroq bo'lishi mumkin? Yana bir misol orqali ko'rishimiz mumkin.

$$53 \times 11$$

$5 + 3 = 8$ bo'lgani uchun javob juda oddiy: 583

Javob: 583

Xulosa qilib aytganimizda, mental arifmetika dasturini mukammal o'zlashtirgan bolalardan kelajakda daholar yetishib chiqadi. Intellektual, ya'ni ijodiy qobiliyati ortadi. Shu sababdan maktablarda boshlang'ich sinflarda mental arifmetika saboqlari soatlari yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda joriy etilsa, o'quvchilarning ta'lim sifatlarida yuqori natijaga erishiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar.

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003.
2. Jumaev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. – T.: 2004



МАКТАБЛАРДА ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ О'QITISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.

Almardanova Sanobar Xolmamatovna

Bandixon tumani 6 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
matematika fani o'qituvchisi.

Телефон: +9983-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru

Ochildiyeva Maxbuba Ergashevna

Bandixon tumani 6 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Телефон: +9983-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru

Mengniyazova Nigora Kadirovna

Bandixon tumani 6 - umumiy o'rta ta'lim maktabining
rus - tili fani o'qituvchisi

Телефон: +9983-796-75-74
normurodov.oibek@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada. Pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati qaratilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik, texnologiya, ilmiy, ta'lim, o'qitish texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda uzluksiz ta'lim ta'lim tizimida 80 ga yaqin innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanilmoqda.

Masalan: "Bumerang", "Loyihalash", "Charxpalak" texnologiyasi, "Klaster" metodi, "Xulosalash" texnologiyalari, "Muommoli o'qitish texnologiyalari", "Beer (Yelpig'ich) texnologiyalari", "Muammo", "Mini test metodi", "Skarabey texnologiyasi", "Aqliy hujum", "Ikki qismli kundalik O'qituvchi qaysi fandan dars o'tmasin, har doim "Qanday o'qitish kerak" degan savol turadi. Bu masalani yechimi faqatgina shu pedagogning mahoratiga bog'liq. Maqsadimiz: O'quvchilarda "Sen buni bilishing kerak" degan majburlovchi da'vatdan "Menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotga qo'llashga qodirman" degan ichki ishonch va intilishni uyg'otish zarur.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir.

Biroq pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalaridagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash avvalo, pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirishni talab etadi, chunki ularni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday pedagogik texnologiya



kutilgan samarani bermaydi. Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o'g'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli "axborotli o'qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta'kidlagan holda baxolanmoqda.

Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim. «Texnologiya» tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova "Pedagogik texnologiya" T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. "Fan" nashriyoti. 2008.
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev "Interfaol ta'lim sifat kafolati" T. 2008.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASHDAGI MUVAFFAQIYATLAR

Ashurova Ruxsora Xursandqulovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o'rgatadigan

ixtisoslashtirilgan maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tel: 998933150015 Email:ashurruxsora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda darslarni integratsiyalashdagi muvaffaqiyatlar haqida so'z yuritilgan hamda integratsion tarzda darslarni tashkil etish bo'yicha fikrlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Slayd shou, videolavhalar, animatsiyalar, videoroliklar

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar juda faol bo'ladi. Ularni fikrini jamlash va tinchlantirib turish, o'tiladigan mavzular mohiyatini tasavvurida shakllantirish qiyin kechadi. Huddi shunday jarayonlarda mavzuni tushuntirishda o'qituvchilarimiz biroz qiyinchilikka duch kelishadi. Shunday jarayon asosan o'qish yoki odobnoma, tabiat fanlari yani ko'proq og'zaki tushuntirishlardan iborat fanlar sirasiga kiradi. Bunday vaziyatlarda aksariyat o'quvchilar sinfdagi faolligiga qarab muloqotchanlari darsga e'tiborli bo'lishadi. Lekin shu sinfdagi fikrini to'liqligicha bayon eta olmaydigan, uyatchan va xayolparast o'quvchilar biroz qiynaladi. Huddi shunday jarayonlarda darslarni integratsiyalash juda qo'l keladi.

Darslarni integratsiyalash – bu ish reja asosida mazmunan bir-biriga mos mavzularni birlashtirishdir. Masalan 2-sinf misolida oladigan bo'lsak o'qish fanidan “Kuz fasli” mavzusi bilan tasviriy san'atdagi “Kuz keldi » mavzusida rasm ishlash mavzusini, o'qish fanidan “Qish» mavzusiga tasviriy san'atdagi « Qish manzarasi» mavzusida rasm ishlash mavzularini integratsiyalashtirib dars o'tishni yo'lga qo'ysak o'quvchilar bir paytda ham eshitadi, ham chizadi va tasavvur qiladi. Oquvchilardagi juda ko'p qirralarni kashf etgan bo'lamiz. Bunday bir-biriga mos mavzularni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Olimlar kishi o'ylab yozayotganda miyaning bir necha qismi faollashishi va shu paytda fikrni jamlash qobiliyati kamida uch barobar ortishini takidlaydi. Surat chizayotganda o'quvchining asabi tinchlanib, fikrlash salohiyati to'liq ishga tushadi.

Pedagoglarning farzandingizni bolalikdan rasm chizishga qiziqitiring, deya takidlashi bejiz emas. Balki bola buyuk musavvir bo'la olmas. Muhimi eshitgan mavzularni to'liqligicha tasavvur qilib, uning intellektual qobiliyati rivojlanib boraveradi.

Har birimiz o'quvchilarimizni behad yaxshi ko'ramiz, ularni qobiliyatli bo'lib ulg'ayishi uchun yelib-yuguramiz. Faqat o'quvchining intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasiga kelganda negadir aksariyat ustozlarimiz biroz e'tiborni susaytiramiz. Vaholanki shu boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilardagi ko'pgina qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatini boy beramiz.

Qolaversa, qalbida san'atning biror turiga mehr uyg'ongan o'g'il-qizlar tabiatan hushchaqchaq bo'ladi. Bola o'z fikr hayollarini qog'ozga tushirar ekan, o'zi sezmaganda fe'l-atvorin va psixofiziologik holati haqida ham xabar beradi. Shu bois psixologlarimiz rasmlardagi rang va tasvirni tahlil qilish orqali turli izohlarni keltirishadi.

Darslarni integratsiyalash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobiliyatini, o'tilgan mavzudagi jarayon va qahramonlar qanday ko'rinishdali va ular bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. O'quvchilar biror manzarani tasvirlash chog'ida ko'z o'ngida go'zallik olamini yaratishga, o'zini qurshab turgan hamma narsani chiroyli tasvirlashga intiladi. Bu esa ularni iqtidori shakllanishi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan internet saytlar:

1. [http://ziyonet.uz/-Ta'lim va fan qidirish tizimi](http://ziyonet.uz/-Ta'lim%20va%20fan%20qidirish%20tizimi)
2. [http://www.ref.uz/-Mustaqil ish, referat va yozma ishlar qidirish tizimi](http://www.ref.uz/-Mustaqil%20ish%20referat%20va%20yozma%20ishlar%20qidirish%20tizimi)
3. [www.google.uz-axborot qidirish tizimi](http://www.google.uz-axborot%20qidirish%20tizimi)



BOSHLANG'ICH TA'LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Atoniyazova Guljahon Abdujalilovna

Sirdaryo viloyat Boyovut tumani

17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+998999244383

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limning maqsadi va vazifalari ko'rsatilgan holda, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini asosiy g'oyalari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimi amal qiladi. Maktabga ilk qadam qo'yga bolalar o'z yosh xususiyatlari hamda tafakkur va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan ta'limiy faoliyatga kirishadilar. Bu davrda o'qish, o'rganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish hamda o'rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o'quv fani bo'yicha bulgan bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o'z xarakteriga ko'ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o'zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo'lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini hamda dunyoqarashining rivojlanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'limning *asosiy maqsadi*: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga o'qish, yozish va hisoblashga o'rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan iborat.

Shunga ko'ra, *boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalari*:

- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash;
- har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga sharoit yaratish;
- iqtidorli o'quvchilarning intellektual potentsiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;
- ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirish;
- jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatishdan iborat.

Boshlang'ich ta'limning samaradorligi o'quvchilarda o'ziga xos tarzda tarkib topgan ta'limiy faoliyatning keng qamrovli darajasiga bog'liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o'zlashtirish va zarur kompetensiyalarni egallash jarayonida o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Bunday o'quv faoliyati natijasida boshlang'ich ta'limni bitirgan o'quvchilar obyektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko'rsatishi, jamiyat a'zolari o'zaro aloqadorlikda yashashi, jonli va jonsiz tabiatni hamda jamiyatni tavsiflay olishlari, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo'naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, ular shaxsning kishilik jamiyatida tutgan o'rni va amalga oshiradigan faoliyatning ahamiyatini tushunib etishlari zarur. Chunki, o'quvchilarga bu haqiqatni anglatmasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni mustaqil O'zbekiston davlatining ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi boshlang'ich ta'lim fanli o'qitishga asoslangan ta'lim jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat.

Ko'rinib turibdiki, amaldagi boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitish lozim.



Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy tizimi har tomonlama rivojlanayotgan hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlash maqsadida uni yanada takomillashtirish talab qilinmoqda. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldiga bir qator vazifalar qo'yilmoqda:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi ortadi. Agar boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchida bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmas ekan, yuqori sinflarga borgan sari uning bilishga bo'lgan intilishi susayadi. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarda xayol, faraz qila olish ko'nikmalari ham shakllangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishlarida o'yin, sport bilan shug'ullanish, ijodiy faoliyat ham asosiy o'rin egallashi kerak. Lekin ta'limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsad-ga – bolani kompleks rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilishi lozim. Jumladan, og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarning jismoniy taraqqiyotlari va salomatliklarini muhofaza qilish kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan).

2. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. –T.: «O'qituvchi», 2001.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARS O'TISH METODLARI

Bahronova Gulchehra Baxriddinovna

Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani

13-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan metodlar to'g'risida so'z boradi. Zamonaviy texnologiyalar, innovatsion g'oyalarning barchasi boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshiradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar, interfaol o'yinlar.

Maktab o'quvchilari uchun samarali o'qitish strategiyalari. O'qituvchilar sinfga birinchi marta kirishadimi yoki ular sinf rahbarlari bo'ladimi, o'qituvchilar har doim o'quvchilarning o'quv tajribasini yaxshilashning yangi usullarini izlaydilar. Xulq-atvor muammolarini hal qilishdan tortib, mavjud dars rejalarini takomillashtirishga qadar, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishning ba'zi samarali strategiyalari.

Kichik qadam qo'yish va savol berish. Bu samarali o'qituvchi bo'lish uchun bolalarni o'rganish va o'qitishga bo'lgan muhabbatdan ko'proq narsani talab qiladi. O'quvchilarni rag'batlantirish va ularning o'rganish salohiyatini oshirish uchun ishtiyoq va fidoyilik bilan bir qatorda aniq ko'nikmalar va tasdiqlangan sinf amaliyoti bilan tanishish ham zarur. O'qituvchilar yangi strategiya va o'qitish usullarini o'rganishga ko'maklashishi va bolalarning bilimga bo'lgan tabiiy chanqog'ini faol ravishda rag'batlantirishi mumkin.

Samarali boshlang'ich sinf o'qituvchisining ta'siri bolada butun hayoti davomida qolishi mumkin. Maktabning malakali o'qituvchilari ko'pincha o'quvchilarining umuman ta'lim tizimiga bo'lgan nuqtai nazaridan umidvor bo'lishadi. Aynan shu narsa samarali o'qitish strategiyasi hozirgi yoshda juda muhimdir. Yoshlik davrida o'quvchining qiziqishini uyg'otish ularning ta'lim rivojlanishining muhim qismidir. O'qishni nafaqat qiziqarli, balki jozibali va esda qolarli qila oladigan o'qituvchi o'quvchining ongida ta'limning ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Buyuk o'qituvchilar kichik qadamlar bilan materialni esda qolarli qilishga yordam berishadi. Ma'lumki, biz eng ko'p ma'lumotni qayta ishlaydigan miyamizdagi joy juda oz. Bir vaqtning o'zida bizdan juda ko'p narsalarni o'rganishimiz so'ralganda, biz hayratga tushishimiz mumkin. Bolaning rivojlanayotgan xotirasi uchun "chunki" deb nomlangan o'qitish strategiyasi eng samarali ekanligi isbotlandi. Chunki - bu yo'lda tushunishni tekshirish paytida kichik bosqichlarda o'qitishni anglatadi. O'quvchilar bilan ko'p savollar berib javobini tasdiqlash maqsadida chunki deb isbot qilishlari oqibatida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin.

Bolalarning ijtimoiy munosabatlari boshlang'ich ta'lim davomida juda muhimdir. Ushbu yoshda bolalar ko'proq do'stona munosabatlarni o'rnatadilar va guruhlarda ishlashni o'rganadilar. Ko'pincha o'qituvchilar umumiy qiziqish va qobiliyatlarga qarab guruhlarni tanlaydilar. Ammo bolalar uchun o'zlarini o'quvchi sifatida tushunishni rivojlantirish va o'zlarining fikrlashlari to'g'risida xabardorligini oshirishi muhimdir, bu jarayonni psixologlar metakognitatsiya deb atashadi.

Bolalar o'zlariga mos kelishni xohlashadi va har doim sinfga aralashishning eng yaxshi usuli nima ekanligiga ishonchlari komil bo'lmaydi. Ya'ni o'quvchilarning ba'zilari ham tortinchoq ham kamgap bo'lishadi. Buning oldini olish maqsadida o'quvchilarni birini kamgap ikkinchisini esa aksincha bo'lganini o'tqazish zarur. Shunda o'quvchilarga qo'shilolmagan o'quvchi ham qo'shilishga harakat qiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak har bir o'quvchi ustida ishlashga harakat qilish eng samarali usullardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matnazarova K O'qitishning faol metodlari, Boshlang'ich ta'lim 2009.



BASKETBOL VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Bobonazarova Shahnoza

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 13-AFCHO'I
maktabi jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Tel: 998934565636 boboyorshahnoz86@inbox.uz

Annotasiya. Jismoniy tarbiya va sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanish o'quvchi yoshlarning kundalik ehtiyojiga aylanmog'i zarur, shu bilan birga basketbol o'yini o'quvchi yoshlarni har tomonlama rivojlantirishda, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda, ularni barkamol inson bo'lib yetishishda, qonunbuzarlik va boshqa salbiy illatlardan xolos etishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: basketbol, Jeyms Neysmit, bosqichlar, FIBA, MBA, Olimpiya o'yinlari, musobaqalar,

Basketbolga o'xshab ketadigan o'yin tug'risidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan avvalgi VII asrga oiddir. Meksikadagi INKlar qabilasiga mansub bo'lgan hududlar «POK-to-POK» deb atalgan o'yinni qiziqib o'ynashgan. Ushbu o'yinning butun mohiyati o'yinchilarning to'pni halqa ichiga tushirishdan iborat bo'lgan. To'p o'rnida kauchukdan tayyorlangan shardan foydalanishib, uni yerga nisbatan perpendikular baland joyda osilgan halqaga tashlashgan. Oradan ancha vaqtlar o'tib, eramizning XVI asriga kelganda, meksikalik «basketbolchilar» bu o'yinni takomillashtirdilar. O'yin ijodkorlari zilday kauchuk sharni devorga osilgan tosh halqa orqali o'tkazishga harakat qilishgan.

1935-yilda Jenevada erkaklar jamoalari o'rtasida birinchi Yevropa chempionati bo'lib o'tdi. Bunda Boltiqbo'yi mamlakatlarining jamoalari ustun keladilar. Yevropa chempioni unvoniga Latviya terma jamoasi birinchi bo'lib sazovor bo'ldi. 1936-yilda basketbol birinchi marta olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi. Berlinda bo'lib o'tgan XI Olimpiada o'yinlarining basketbol turnirida 21 mamlakatning erkaklar jamoalari qatnashdi. Ayollar o'rtasida birinchi Yevropa chempionati 1938-yilda Rimda bo'lib o'tdi. Bunda Italiya milliy jamoasi g'alaba qozondi.

1950-yilda Argentinada birinchi dunyo chempionati bo'lib o'tdi. Bunda mezbonlar birinchi o'rinni egallashdi. Ayollar jamoalari uchun birinchi dunyo chempionati 1953-yilda Chili-da o'tkazildi va AQSH ayollar terma jamoasi jahon chempioni unvoniga sazovor bo'ldilar. 2.I bosqich-1891-1918 yillarni o'z ichiga olib, basketbolning yangi o'yin sifatida shakillanib borish bosqichi hisoblanadi. Avvaliga gimnastika darslarini bir oz jonlantirish uchun yaratilgan basketbol asta-sekin sport o'yiniga aylanib, uning o'ziga hos barcha xususiyatlari shakllana boshlaydi. Uning dastlabki rasmiy qoidalari yaratiladi, o'yin texnikasi va taktikasi shakllanadi. O'yinda ishtirok etayotgan jamoa a'zolarining har biri uchun muayyan funksiya- vazifalar belgilab beriladi.

II bosqich-1919-1931-yillardan iborat bo'lib, bu davr milliy basketbol federatsiyalari tashkil etilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa basketbolning sport o'yini sifatida rivojlanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu davrda basketbol bo'yicha xalqaro turnirlar-musobaqalar o'tkaziladi.

III bosqich-1932-1947-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davr butun dunyo bo'yicha basketbol o'yini har tomonlama rivojlanganligi bilan o'ziga xosdir. Bu davrda basketbol o'yini federatsiyasi (FIBA) tashkil etiladi. Bu hodisa unutilmas voqea bilan – basketbolni sportning olimpiya turidagi o'yinlar qatoriga kiritilishi bilan birga sodir bo'ladi. Basketbol texnikasi va taktikasiga engilliklar kiritildi.

IV bosqich-1948-1965-yillarni o'z ichiga oladi. Bu yillarda butun dunyoda basketbol o'yini shiddat bilan rivojlanibgina qolmay, muayyan sakrashlar tarzidagi taraqqiyot va sport mahoratining o'sishi ham ana shu davrga to'g'ri keladi. To'pni bir qo'l bilan otish qoidasi paydo bo'ladi, raqibning hujumiga qarshi o'zini himoya qilish texnikasi va taktikasida ancha murakkab usullar paydo bo'ladi. Mini-basketbol o'yini vujudga kelib, dunyo bo'ylab tarqala boshlaydi.

V bosqich-1966-1990-yillarda milliy federatsiyalar soni ortadi. Milliy professional basketbol uyushmalari (MBA) paydo bo'ladi. Basketbolchilarning xalqaro aloqalari mustahkamlanadi, o'yin texnikasi va taktikasida yangiliklar vujudga keladi. Musobaqalar qoidasi va hakamlilik usuliyati takomillashtiriladi.



3. O'zbekiston hududida basketbol 1913-1914-yillarda tarqala boshlaganligi haqida ma'lumotlar bor. Ammo, o'lkamizda basketbol faqat 1920-yillardan keyingina chinakamiga rivojlana boshladi. O'zbek jismoniy tarbiyachilarining basketbol o'yini bilan tanishishi Vseobuch vakili L.Barxashning nomi bilan bog'liq. O'zbekiston hali Sovet Ittifoqi tarkibiga qo'shilmagan keyin, 1920-yilda L.Barxash Farg'ona (Skobelev) shahrida birinchi bor basketbolchilar jamoasini tuzadi. U o'yinchilarni o'yin qoidalari bilan tanishtirib, ko'rgazmali o'yin o'tkazadi. Har bir jamoada 9 kishidan iborat o'yinchi bo'lib, ular 28x16 metrli maydonda o'ynar edilar. Maydon ko'ndalang chiziqlar bilan uch qismga bo'linib, basketbolchilar uch himoyachi, uch yarim himoyachi va uch hujumchiga ajratilardi. Ular o'z chiziqlarida o'ynab, to'pni savatga ikki qo'l bilan pastdan otar edilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qasimov A.Sh., Rasulev O.T, Ismatullaev X.A. Basketbol. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1986-y.
2. Rasulyev O.T. Basketbol. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. Toshkent, 1998.
3. Rasulev O.T, Sokolova, N.D, Ismatullaev X.A. Basketbol. Ixtisos kursi bo'yicha dastur, Toshkent, 1993.
4. Sokolova N.D. G'aniyeva F.V. Ismatullayev X.A. Basketbol. Ma'ruzalar to'plami, Toshkent, 2001.



ТА'ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИXTISOSLIK FANLAR BO'YICHA
MASHG'ULOTLARDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEKNOLOGIYALARINI QO'LLASH

G'ofirov Muzaffar Jumayevich,
Qarshi muhandislik qtsodiyot instituti
katta o'qituvchiisi
telefon: (93)0720432

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlardan mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari mazmun-mohiyati va qo'llanilishi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: pedagogik va didaktik shart sharoitlar, dars, ta'lim texnologiyalari, ma'ruza, seminar.

O'zbekiston qtsodiy va ma'naviy mustaqillikka erishgan bir paytda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida maktablar oldidagi muhim vazifalardan biri jamiyatimiz ehtiyojlaridan kelib chiqib bilim darajasi jahon standartlariga mos o'qimishli madaniyatli sharqona odob axloqqa ega, ish-bilarmon, ijodiy va mantiqiy tafakkur egasi bo'lgan yoshlarni kamolotga yetkazishdir. Ta'lim jarayonini takomillashtirish masalasini to'g'ri anglash uchun uni tashkil etishning shart-sharoitlarini ko'rib chiqish zarur. Bunda biz taniqli didakt M. I. Maxmutovning darsni tashkil etish shart – sharoitlari qoidalari haqidagi fikrlariga tayandik. Uning mulohazasiga ko'ra o'qitish jarayonining tashkil etish shart –sharoitlari ikki guruhga bo'linadi:

Ijtimoiy- pedagogik shart-sharoitlar.

Didaktik shart-sharoitlar.

Ijtimoiy-pedagogik shart - sharoitlarning vujudga kelishi quyidagi omillarga bog'liq:

a) o'qituvchining didaktika va tarbiya nazariyasini o'zlashtirganlik va amalda qo'llay olish darajasiga;

b) ilmiy va metodik jihatdan mukammal ishlangan darslikning mavjudligiga;

v) Fan kabinetining jihozlanish darajasiga;

g) o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hurmatga asoslangan yaxshi munosabat va qulay psixologik sharoitning yaratilganligiga;

d) o'qituvchining didaktika va tarbiya nazariyasini o'zlashtirganligi va amalda qo'llay olish darajasi, uning o'z fanini chuqur va keng hajmda bilishiga fikrlash darajasiga mavzular mazmunini ijodiy fikrlash talabalar faoliyatini ta'lim mazmunining xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, o'qitish jarayonini dialektik qonuniyatlarga mos tashkil eta olish, darsda o'qitishning optimal vositalari, metodlari shakllarini tanlay olish, sharq pedagogikasidagi barkamol shaxsni tarbiyalash nazariyasini mustahkamlashtirib talabalar ongiga yetkaza olish, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish ko'nikma malakalarini egallaganlik darajasiga;

e) talabalarning o'quv motivlarining shakllanganligi bilim darajasiga bog'liq.

Talabalar bilimining yuzakiligi o'quv motivlarining shakllanganligi esa talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarning pastligiga bilim darajasining sayozligiga sabab bo'ladi. Bu dialektik qarama - qarshilikni har bir o'qituvchi to'g'ri tasavvur qilish lozim. Psixologik adabiyotlarda talabalarning o'quv motivlari quyidagicha to'rt guruhga bo'lingan:

Talabalarda faqat tashqi motivlar ustunlik qiladi, ularda o'quv motivlari kuzatilmaydi. Balki salbiy motivlar ham uchraydi.

Talabalarda tashqi motivlar ustunlik qiladi, o'quv – bilish motivlari ikkinchi darajali sanaladi.

Talabalarda ichki bilish motivlari ustunlik qiladi.

O'quv – bilish motivlari ustunlik qiladi, ularning bilish faoliyati faol bo'ladi.

Dars – bu o'qitish vazifasi va maqsadga erishish uchun ma'lum bir hajmdagi o'qitish jarayonini tashkil etish birligidir. Afsuski bir darsda va bir qolipdagi stereo tip darsda ta'lim jarayonining maqsadida va vazifalarining hammasini xal qilib bo'lmaydi. Dars mavzu bo'lim va predmetning mantiqiy bir qismidir. Buning uchun didaktik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan darslar tasnifiga e'tibor berish lozim. I.N.Kazantsev darslarni 3 ta asosiy prinsplari: mazmuni, didaktik maqsad, va o'tkazish usuliga ko'ra tasniflab quyidagi 10 tipga ajratadi: o'quv yili boshlanishidagi kirish darsi, yirik mavzu yoki bo'limlarni o'rganishdan avval o'tkaziladigan kirish darslari, yangi bilimlarni



o'zlashtirish darslardan, bilimlarni mustahkamlovchi darslar, talabalarda ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish darslari takrorlash va umumlashtirish darslari nazorat va hisobga olish darslari talabalar bilimining sifatini taxlil qilish darslari yakunlovchi darslar.

Shuningdek, muallif darslarda talabalarning o'quv ishlarini tashkil etishga ko'ra yettita tipga ajratadi. Xilma –xil mashg'ulotlar turini o'z ichiga oladi: ma'ruza, suhbat, ekskursiya, kino dars, talabalarning sinfda bajaradigan mustaqil ish darsi, laboratoriya va amliy mashg'ulotlar.

I.M.Cheredov tomonidan taklif etilgan dars tiplarini ma'qullab, mazkur klassifikatsiyaga yana 2 ta tip:

- ijodiy faoliyat tajribalari va borliqqa xissiy – qadriy munosabatni tarkib toptirishga;
- ijodiy faoliyat tajribalari va borliqqa xissiy qadriy munosabatni mustahkamlash va takomillashtirishga imkon beruvchi darslarni kiritish lozim.

Didaktikada darslarning tipologiyasi, klassifikatsiyasi eng ko'p tadqiq qilingan lekin yagona xulosaga kelinmagan baxsli muammo sanaladi.

Bizning fikrimizcha, dars turlarini shakliga ko'ra dars xillarini didaktik maqsadga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiq. Pedagogik tajriba davomida biz quyidagi dars turlari va xillaridan foydalandik.

Ma'ruza darsi (kirish, tematik, umumlashtiruvchi lektsiya).

Seminar darsi (bilimlarni mustahkamlashga takomillashtirishga mo'ljallangan seminar yangi bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan seminar).

Muammoli dars (dars davomida muammoli vaziyatlarni yechish).

Konsultatsiyadarsi (ta'lim beruvchi konsultatsiya).

Sinov darsi (og'zaki nazorati, yozma nazorat, bilimlarni takrorlash va tizimga solish;

EHMning nazorat dasturlari bilan ishlash);

Munozara darslari (Tematik munozara darsi, erkin fikrlash darslari);

Didaktik o'yinli darslar (syujetli – rolli – o'yinli, dars, ijodiy o'yinli dars, ishbilarmonlar o'yini darsi; konferentsiya darsi o'yin – mashqli dars);

Didaktikada ma'ruza, seminar, muammoli, konsultatsiya, sinov, darslarning mohiyati, didaktik maqsadi, o'tkazish usuli, mazkur darslarga quyiladigan didaktik maqsadi, o'tkazish usuli, mazkur darslarga quyiladigan didaktik talablar ishlabchiqilib, maktab amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Shunga ko'ra mazkur darslar ta'limning an'anaviy shakllari deb yuritiladi. Munozarali va didaktik o'yinli darslarga quyiladigan didaktik talablar, ta'lim prinsplarilari, didaktik maqsadi, o'tkazish usuli mohiyati unda o'qituvchi va talabalarning ijodkorligini oshirishga oid fikrlar didaktikaga oid adabiyotlarda yetarlicha yoritilmaganligi sababli, amaliyotda juda kam foydalaniladi.

Shu sababli mazkur jarayonni yangi pedagogik texnologiya usullari orqali o'rganishni maqsadga muvofiq deb topdik.. Shunday kilib talabalarda bilim, ko'nikma, malakalar bilan bir qatorda ijodiy faoliyat tajribalari va borliqqa xissiy –qadriy munosabatni tarkib toptirish:

- talabalarning bilish faoliyati va ijodkorligi o'qituvchining tayyor axborotini qabul qilishga karatilmagan, balki ta'limning ob'ektiv qonuniyatlariga amal qilgan, ta'lim mazmunining talabalar tomonidan o'zlashtirish usulining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishni va talabalar avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma malakalardan mustaqil va ijodiy foydalanib, mazkur muammolarni hal etish;

- o'qituvchidan har bir mavzu bo'yicha didaktik kartochkalar, topshiriqlar masalalar tayyorlab, turli vositalar yordamida o'z o'rnida va samarali foydalanib talabalarning avval o'zlashtirgan bilim ko'nikma va malakalarni tanish odatiy va yangi kutilmagan vaziyatlarda qo'llash uchun imkon yaratish.

Talabalarning ta'lim mazmunining tarkibiy qismlarini o'zgartirishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan va didaktikaning keyingi yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlari hisoblanadi. O'qituvchi o'z bilimi kasb mahoratini takomillashtirib, ta'lim jarayoniga yondashishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. –Toshkent, Molya-iqtisod, 2008.
2. Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni dagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. Monografiya. – Toshkent, O'zbekiston, 2018.



ILM-FAN VA TA'LIMNING RIVOJLANISHI ISTIQBOLLARI

Haqberdiyeva Komila Toshpulatovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ilm-fan va ta'limning rivojlanishi istiqbollari haqida so'z yuritilgan hamda ta'limda qo'llanilayotgan metodlar haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Slayd shou, videolavhalar, animatsiyalar, videoroliklar

Ilm-fan va ta'lim sohasining rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydigan insonlar bu-pedagoglar. Darhaqiqat, oddiy o'qituvchidan tortib, to professor ustozgacha hammasi pedagogdir. Pedagog bu-yetaklovchi, demak, biz pedagoglarning vazifamiz o'z o'quvchilarimizni, talabalarimizni ilm-fan so'qmoqlaridan asta-sekin, bosqichma-bosqich yetaklab, ularni ilm-fan cho'qqilarini zabt etishlariga ko'maklashishdir. O'quvchilarni zamon talablari asosida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu esa o'qituvchilar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. O'qituvchi o'z sohasining mohir bilimdoni, muammolarning oqilona yechimlarini topa oladigan, o'z ustida doimiy ijodiy ishlab, yangiliklar yarata oladigan, o'quvchilari qalbidan munosib o'rin egallagan bo'lishi lozim. Yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun pedagog o'zining professional kompetentligiga ega bo'lishi kerak. Bu pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo'lgan, kasbiy va shaxsiy sifatlar yig'indisidir.

Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o'qituvchini professional kompetentli o'qituvchi deyish mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha jabhalar qatori ta'lim sohasida ham juda katta o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktablarda moddiy-texnik baza mustahkamlandi, darsliklar takomillashtirildi. Hozirda darslarni axborot kommunikatsiya texnologiyalarsiz olib borishni tasavvur qilish qiyin. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga asos yaratmoqda. O'qituvchi mehnatining samarasi shogirdlarining nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosdagi fan olimpiadalarda, ko'rik-tanlovlarda qo'lga kiritgan yutuqlarida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning qanday bilim olishi va darslarni qay darajada o'zlashtirishi ko'p jihatdan o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalarning 200 ga yaqin turi mavjud. O'qituvchi ana shu texnologiyalardan o'z darsida qanday foydalanishni to'g'ri tanlay bilishi kerak. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti natijasida zamonaviy texnika vositalari kirib kelmoqda. Ochig'ini aytganimizda, biz faxrlanib yurgan ilgarigi savodxonlik endi savod bo'lmay qoldi, ya'ni oddiy jismoniy va aqliy mehnat murakkab malakali mehnat, kompyuter, internet mo'jizalariga mos salohiyatli mehnat bilan o'rin almashdi. Vatanimizdagi ta'lim sohasi rivojlanishida biz albatta rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan keng foydalanishga e'tibor bermoqdamiz.

Bunday usullardan biri interfaol usullardir. Interfaol usullar har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi hamda o'quvchilar o'qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'lishadi. Pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar, o'quvchi talabalarni fikrlashga, o'z nuqtai nazarini asoslashga imkon yaratadi. Ilm-fan va ta'limni rivojlantiruvchi omillardan yana bir eng muhimi shuki, bu AKT dan foydalanish. Chunki hozirgi zamon o'qitish metodlarini AKT siz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirda barcha o'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv darslik, virtual laboratoriya ishlari hamda multimediyada dasturiy vositalarining yaratilishi fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, ustoz- murabbiylarning resurslaridan o'quv-tarbiya jarayonida unumli foydalanayotganligi o'quvchi va talabalarning fanlarni chuqur o'zlashtirishi samaradorligini oshirmoqda. Ayniqsa, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan "ZiyoNet", "Uzedu.uz", "Kitob.uz" kabi saytlar dars jarayonida o'quvchilarga videoroliklarni namoyish etish orqali ularda jonli tasavvur hosil qilish, darsliklardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar berish va bu orqali o'quvchi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlashga qo'l kelmoqda.



Chindan ham jamiyatning buguni, kelajagi, uning madaniy-ma'rifiy va ma'naviy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liq. O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Ta'lim tizimi islohoti o'zbek xalqining mentaliteti, urf-odatlarini hisobga olib, jamiyat muhitini yangilanishidagi faol jarayonlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Ma'lumki, XXI asr –intelektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etiladigan asr hisoblanadi. Darhaqiqat, taraqqiyot yo'lidan izchil rivojlanishda hal qiluvchi muhim mezon, u zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mamlakat istiqboli uchun mas'uliyatli o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yoshlardir. Hozirda ilm-fan va ta'limning rivojlantirishda eng muhim omillardan biri bo'lgan yangi pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalardir. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llanilgan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erishishi mumkin. Hozirgi kunda hammaga ma'lum va keng qo'llaniladigan usullardan "Klaster", "Aqliy hujum", "Debat", "Venn diagrammasi", "So'z o'yini", "Sirli sandiqcha" kabilardan foydalanish dars davomida o'z samarasini bermoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hozirgi kundagi davr talabi bu-tinmay izlanish, o'z ustida ishlash, yangi texnologiyalarni amalda tadbiq etish va AKT dan unumli foydalanishni bilish. Shu narsalarni mukammal bilish ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.B.Saydaxmedov. Yangi pedagogik texnologiya. Toshkent. 1992.
2. Til va adabiyot ta'limi. 2014-yil 6-son.



“ULUSH” VA “KASR” MAVZUSINI O‘QUVCHILARGA TUSHUNTIRISH USULLARI

Hojiyeva Mehri gul Najmiyevna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Tel:++998933105037 Email:mehrihojiyevam@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarini o‘tishda ulush va kars haqida o‘quvchilarga tushuntirishning usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Slayd shou, videolavhalar, animatsiyalar, videoroliklar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida “ULUSH” va “KASR” haqidagi ilk bilimlarni berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga turli narsalarning ulushi haqida tasavvur uyg‘otadi. Ulushlarni kasrlar ko‘rinishida belgilash yordamida , narsalarni taqsimlash orqali tejamkorlikka o‘rgatadi. Hozirgi zamon sharoitida bu masalani dolzarb deb hisoblash mumkin.

Ulush mavzusi bolalarga maktabgacha davridayoq berib boriladi. Ya’ni nonushta yoki tushlik vaqtida konfetlarni , olma, qovun va tarvuzlarni qismlarga bo‘lish orqali butunning yarmi, choragiva uchdan biri kabi ilk tushunchalar beriladi.

Ulush va kasr mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishning eng samarali yo‘li bu-ko‘rgazmalilik va ko‘rsatmalilikdir.

Masalan: o‘qituvchi , o‘quvchilarga olmani ko‘rsatadi. Qarang ,men uni nima qilyapman?(U olmani teng ikki bo‘lakka ajratadi) Har bir bo‘lakni nima deb atash mumkin? (olmaning yarmi) Bunichi?(butun olmani ko‘rsatadi). Bir butun olma nechta yarimta olmaga teng?(Ikkitaga)

Boshqa predmetlar yordamida, ushbu mulohazalarni davom ettirish orqali , o‘quvchilarda ulush haqidagi dastlabki bilimlar beriladi. O‘quvchilarni tushunishining eng asosiy tarkibi , ulardagi o‘z tasavvuridagi ko‘rgazmalar asosida bilim berilishidir.

Ulush va kasr mavzusida geometrik shakllar va ular ustida topshiriqlar bajarish , o‘quvchilarda aniq tasavvurni va mavzuni tushunishlarida amaliy yordam beradi. Masalan : doira, kvadrat, kesmani qog‘ozli shakllaridan foydalanib, bir necha qismlarga bo‘linadi. Yoki bo‘laklarni biror qismini qirqib olish orqali , kasr haqida ham tushunchalar beriladi.

Ulush haqidagi dastlabki bilimlar berilgandan so‘ng , endi ulushlarni taqqoslashda ham amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda geometric shakllarni buklash va qirqish usuli bilan cheklanib qolmay, shakllarni chizish va undagi qismlarni bo‘yash o‘quvchilarni yanada mustaqil ishlashga undaydi.

2-sinfda bolalarni sonning ulushini topish va ulushga ko‘ra sonning o‘zini topishga doir masalalar yechishni amaliy ishlash orqali olib boorish kerak. Masalan bolalarga 12 smli tasmani ikkiga bo‘lish orqali, tasmalar necha smli tasmalarga bo‘linganligini aniqlash aytiladi. $12:2=6$. Keyin tasmani teng 4 qismga bo‘lish va uning bir qismini topish $12:4=3$ ekanligi aniqlangach kasr haqidagi dastlabki bilim beriladi. Bunda berilgan shaklning necha qismga bo‘linganligi kasr chizig‘ining pastiga, ajratib olingan bo‘lak esa kasr chizig‘ining yuqori qismiga yozilishi tushuntiriladi.

Demak, “ULUSH” va “KASR” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda ko‘rgazmalilik va ko‘rsatmalilikning afzalliklari juda kata

Foydalangan internet saytlar:

1. <http://ziyonet.uz/-Ta'lim> va fan qidirish tizimi
2. <http://www.ref.uz/-Mustaqil> ish, referat va yozma ishlar qidirish tizimi
3. www.google.uz-axborot qidirish tizimi



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI O‘QITISHDA YANGI INTERFAOL METODLAR

Jumayeva Muxayyo Ne‘matovna

Buxoro viloyati Olot tumani

13 – maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

+998 94 517 82 74

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishda interfaol metodlarni ahamiyati, ona tili, matematika darslarida qo‘llash texnologiyalari, xulosalash paradoks, bahs – munozara, rebusni top metodlari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: paradoks metodi, bahs – munozara, rebusni top.

Hozirgi kunda yurtimizda pedagoglarga bo‘lgan e‘tibor juda katta. Jumladan, prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev 2021 yilgi oliy majlisga murojaatnomasida ham pedagoglarga turli – tuman yangidan yangi imkoniyatlar eshiklari ochilgani haqida gapirib o‘tdilar. Shunday ekan biz pedagoglar oldimizda bizga bo‘lgan e‘tiborga javoban biz ham joni dilimizdan zamon bilan xamnafas ishlamog‘imiz lozim.

Biz zamonaviy pedagoglar zamonaviy dars tashkil etishda interfaol metodlar bilan xamnafas ishlamog‘imiz lozim. Avvalo, interfaol metodlar nima? – degan savolga javob topmog‘imiz lozim.


PARADOKSLAR METODI

Pedagogma‘ruzaniolibborishjarayonida o‘quvchilarning qarama-qarshilikka (tushunchalardagi, bilimlardagi) duch kelishlarini ta‘minlaydi. Bunday vaziyat asosan o‘quvchining tushunchalaridagi adashishlar va xatoliklar bilan bog‘liq.

Demak, bu muammoli vaziyat o‘quvchilarning oldingi fikr, tushunchalari va xulosalariga qarama-qarshi, paradoksal bo‘lgan vaziyatdir. O‘quvchilar muammoli vaziyatni yuzaga keltirgan amallardagi xatolikni izlaydilar (lekin amallarda xatolik yo‘q).


Ijodiy fikrlay oladigan o‘quvchi amallarning bajarilishi jarayoni emas, balki mazkur amalning o‘zi xato ekanligini aniqlay oladi (bunday o‘quvchi topilmasa, o‘qituvchining o‘zi buni oshkor qilishiga to‘g‘ri keladi).

**Endi quyidagi sxemada Paradokslar metodini qo‘llash haqida keltirib
o‘tamiz.**



”Bahs – munozara” metodi ona tili darslarida qo‘llash

Bahs – munozara metodi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tili mavzularini o‘qitishda, mustaqil fikrlash qobiliyatlari, gap tuzish, gap bo‘laklari mavzularini o‘qitishda qo‘llash darsni samarali va mazmunli chiqishida katta ahamiyat kasb etadi.



Matematika darslarida rebus metodi.

Ushbu metod orqali matematika darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish, o'quvchilarda fikrlash, mulohaza yuritish, xulosalash kabi metodlarni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Rebusni top metodi orqali o'quvchilarni o'qitishda bitta metod ichida bir nechta metodni qo'llash imkoniyatini yaratib berishi bilan o'zida o'zgacha imkoniyat, o'zgacha farqlanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2011.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
3. Sayfurov D. Malaka oshirish tizimida masofaviy ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari // Kasb-hunar ta'limi j. – T.: 2002. - №5-6. – 28-29-b



4-SINF O'QISH FANIDAN KROSSVORDLARDAN FOYDALANISH ORQALI IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Karshiboyeva Feruza Toshbekovna

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani

23- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998994643177

Annotatsiya. Mazkur maqolada 4-sinf o'qish fanidan krossvordlardan foydalanish asosida o'quvchilarni ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish yo'llariga to'xtalgan holda, krossvord namunalari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: o'qish, krossvord, ijodiy fikrlash qobiliyati.

Bugungi kunda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama yetuk, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy yetuklikni mujassam etadi. O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun birinchi galda sharq mutafakkirlarining meroslari dasturil amal bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Ko'pchilik manbalarda bu xususiyatlar o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining prinsipi sifatida qaraladi:

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning insonparvarlik va demokratik prinsipi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning hayot va amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi;

- o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda ularning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish prinsipi;

- izchillik, tizimlilik, o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi prinsipi;

- bola shaxsini o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashda hurmat va talab birligi prinsipi;


- mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish prinsipi

O'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarining ma'lum maqsadga qaratilganligi prinsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishda muhim o'rin tutadi.

Quyida 4-sinf o'qish darslari jarayonida o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, mustaqil ishlashga yo'naltirishda muhim yo'nalishlardan biridir.

Krossvordlar darslikdagi mavzular asosida tuzilgan bo'lib, rasmlar asosidagi krossvordlar, savollar asosidagi krossvordlar, raqamlar asosidagi krossvordlar va boshqa o'quvchini intellektual qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan krossvordlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Quyida mavzularga oid krossvordlardan namunalar keltiramiz.

**"Mardlik va aql yorug'ligi" she'rida o'g'il
bolaga berilgan ta'riflarni toping.**






Krossvordlarni yechish orqali o'quvchilarda mavzuni mustahkamlash imkoni yuzaga keladi, integratsiya jarayoni amalga oshiriladi.

"Sahovatli fasl" bo'limida quyidagi krossvorddan foydalanishimiz mumkin:

Boshqirtirma: "Kuz mevalari"




Berilgan krossvordlarning slayd ko'rinishida berilishi esa o'qituvchi uchun axborot texnologiyasi asosida dars tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

"Erkacholning o'rigi" mavzusi asosida quyidagicha krossvordni yechishni taklif etamiz:

Krossvord



1. parranda
2. qishda uchib keladi
3. vafodor hayvon
4. birdan keyingi son



Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, krossvordlar yechish orqali o'tilgan mavzuni mustahkamlash, boshqa fanlarda olgan bilimlarini integratsiyasi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. K.Qosimova "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" T."O'qituvchi" 2009 y
2. S.Matchon va b . 4-sinf o'qish darsligi T-2020.



BOSHLANG'ICH SINFLARIMIZNING ASOSIY MUAMMOLARI

Kupalova Ozoda, Ataboyeva Zebo
Xorazm viloyati Shovot tumani 12-maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik sinflardagi asosiy muammolar haqida fikrlar keltirilgan. Ularni qanday bartaraf qilish xususida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy, muloqot qilish, sayr, diqqat, noqulay

Men doim bu haqida o'ylayman. Zamonaviy o'zbek boshlang'ich maktabida afzalliklarga juda ko'p. Shunga mos ravishda kamchiliklar ham bor. Bolalarni sevadigan va ularga ilm o'rgatishga intiladigan ajoyib o'qituvchilar bor. **Juda og'ir sumka.** Sanitariya me'yorlariga ko'ra, sumka og'irligi tarkibidagi narsalar bilan birga 1-2 sinflarda ikki kilogrammdan, 3-4 sinflarda esa 2,3 kilogrammdan oshmasligi kerak. Aslida, sumkaning o'zi va A4 formatidagi uchta yoki to'rtta darslik ko'proq. Shuningdek, daftarlar, qalam qutisi, jismoniy tarbiya formasi, bir oz suv, olma, tasviriy san'at yoki ish uchun narsalar. Eng yaxshisi nima? Agar barcha o'quv materiallari maktabda bo'lsa va uydan hech narsa so'ralmasa, qanchalik yaxshi bo'lar edi.

Bola uchun mos bo'lmagan turmush tarzi. Boshlang'ich maktab bolasi kichik menejerga o'xshaydi. U biznes uslubida kiyingan va kun bo'yi tanasini tashqi intizomga bo'ysundirishi kerak. 45 daqiqadan to'rt-beshta dars davomida siz bir joyda o'tirishingiz kerak. Afsuski, ba'zi o'qituvchilar ularga tashqariga chiqishga ham ruxsat bermaydilar. Tanaffuslarda yurishingiz mumkin, lekin yugura olmaysiz, sayrga chiqolmaysiz. 7-10 yoshli bola uchun shunga o'xshash turmush tarzi shunchaki zararli. Unga kuniga kamida ikki-uch soatlik faol yurish, tana holatini erkin o'zgartirish va ochlik paytida ovqat iste'mol qilish qobiliyati kerak. Bu jarayon uning o'sib rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Eng yaxshisi nima? Ko'pgina mamlakatlarda bolalar dars paytida sinf atrofida aylanib yurish, qulay kiyimda kiyinish va ma'lum yoshga qadar o'tirish imkoniyatiga ega, bu stollarda yoki faqat ularning yonida emas. Maktablarda siz o'tiradigan, yotadigan, yuguradigan va o'ynaydigan burchaklari bo'lishi kerak, masalan maktab hovlisi. Kunning bir qismi bo'sh vaqt sifatida tashkil etilishi kerak. Yoki hech bo'lmaganda tushlik qilish, sayr qilish va muloqot qilish uchun bir yarim soat vaqt ajrating.

Olomon va shovqin. Sizdan tashqari yana o'ttiz kishi bo'lgan idorada ishlashni xohlaysizmi? Hech qanday bo'lim yo'q, hamma bir joyda o'tirishi kerak. Qanchalik shamollatmasangiz ham, u dim. "Ammo biz hammamiz shunday o'qidik!" - deyishadi ba'zilari. Ha. Va bundan keyin ham bu noqulay edi. Endi hayot butunlay boshqacha. Yigirmanchi yillarda progressiv va yetmishinchi yillarda bag'rikeng bo'lgan narsa endi ortiqcha bo'lib tuyuladi. O'qituvchi o'ttiz kishilik sinf bilan emas, balki 10-12 kishilik guruhlar bilan ishlashga qodir bo'lsa yaxshi bo'ladi. Masalan, Germaniyada yangi maktab tizimida umuman dars yo'q. Buni tasavvur qilish qiyin, lekin bolalar turli yoshdagi guruhlarda, turli mavzular uchun turli xil tarkibda to'planadi. Tez orada tizim butun mamlakat bo'ylab majburiy bo'lib qoladi.

Bir xillik. Farzandlarimizning miyasi ortiqcha ma'lumot sharoitida shakllanadi. Va maktab bilimlari tizimi hali ham yetarli bo'lmagan holatga yo'naltirilgan. Natijada, dastur shunchaki bolalar maktabdan tashqarida bo'lgan kuchli hissiy ogohlantirishlar bilan raqobatlasha olmaydi. Uning zamonaviy bolani hayratga soladigan va o'ziga jalb qiladigan hech narsasi yo'q. Eng yaxshisi nima? Boshlang'ich maktabda qiziqarli bo'lish uchun u bolaning miyasiga boshqa joyda bo'lmagan narsalarni taqdim qilish kerak. Masalan: aqlli kattalar va boshqa bolalar bilan suhbat uyushtirish kerak. Umumiy loyihalarda ishtirok etishini ta'minlash. Intellektual mehnat quvonchi taqdim qilish.

Diqqatni jamlash zarurati. Shunga qaramay, boshlang'ich maktabni ofis bilan taqqoslang. Hamma biladiki, ofis ishchilari sakkiz soat davomida diqqatni bir joyga jamlamaydilar. Kattalar o'zlari xohlagan vaqtda tashqariga chiqish, telefonda gaplashish va choy ichishlari mumkin. Va diqqatlari juda qisqa bo'lgan besh daqiqali boshlang'ich maktab o'quvchilarini chalg'itishga yo'l qo'yilmaydi. O'qituvchi birdaniga hammaga tushuntiradi, chalg'itdi. Eng yaxshisi nima? Bolalarni chalg'itishga ruxsat berish kerak. Chunki ularga buni taqiqlash befoyda. Ularning miyalari oddiy maktab darslari talab qiladigan darajada shunchaki diqqatni jamlay olmaydilar. Bu shuni anglatadiki, ta'lim jarayonining asosiy qismi boshqacha tarzda qurilishi kerak.



Muloqot uchun oz vaqt. 7-10 yoshli bola uchun muloqotga bo'lgan ehtiyoj asosiy narsalardan biridir. Afsuski, maktab va o'qituvchining maqsadlari odatda bolalarning muloqotini tashkil qilish va tartibga solishni o'z ichiga olmaydi. O'zgarishlar kichik, sinfda suhbatlashmaslik tavsiya etiladi. O'qituvchilar kamdan-kam hollarda bolalarni do'stlashish uchun maqsadga muvofiq bir narsa qilishadi. Axir, o'ttiz tengdoshlar jamoasi hali ham ideal muhitdan uzoqdir. Eng yaxshisi nima? Muloqotga bo'lgan ehtiyojni boshlang'ich maktab mavjud tizim ichida ham yaxshi qondirishi mumkin. O'qituvchi o'z oldiga faqat shunday maqsad qo'yishi kerak. Bola jamoada yashashni, jamiyatda bo'lishni, do'st bo'lishni va adovatda bo'lishni, boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatishni va o'zini o'zi tutishni, hamkorlik qilishni, boshqalarning his-tuyg'ulariga yordam berishni va tushunishni o'rgansin. Bu menga doim g'alati tuyuldi. 4-5 yoshdagi ko'plab bolalar o'rganishni juda xohlashadi. Ular to'g'ri stolga o'tirib, kitoblarni o'qishga, doskaga chiqishga qiziqishadi. Ammo - o'n daqiqa. 8-9 yoshdagi ko'plab bolalar qo'g'irchoqlar bilan soatlab o'ynaydilar, ammo vaqtlari yo'q. Ularning motivatsiyasining foizini kim o'lgagan va umuman olganda - nima uchun uni qat'iy ravishda o'yin va o'qishga ajratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. T., 2003.
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.
3. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent. 2006.



YOZMA MANBALARDA BERILGAN ZOOLOGIK TERMINLAR TADQIQI.

Mahliyo Gulmatova Rasuljon qizi

FarDU Lingvistika: o'zbek tili
yo'nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada o'zbek leksikografiyasiga qisqacha to'xtalib o'tilgan bo'lib, tarixda yaratilgan lug'atlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, mualliflari haqida ma'lumo berilgan. Jumladan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" va keyingi asrlarda yaratilgan lug'atlarda berilgan hayvon nomlarining tahliliga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: leksikografiya, lug'at, leksikografik xususiyat, turkiy tillar, etimologiya, hayvon nomlari, eskirgan so'zlar.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari XI asrda yaratilgan bo'lib, turkiy tilning yanada takomillashishiga, tilshunoslik sohalarining rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Uning asari o'z davrida katta voqea bo'lgani kabi turkologiyada ham muhim hodisa bo'ldi. Har bir so'zga ta'rif berib, turli maqol-u she'rlar bilan izohlashi asarni yanada boyitdi va o'sha davr tili bilan yaqindan tanishishga imkon yaratdi. Natijada Mahmud Koshg'ariy turkiy leksikologiya va leksikografiyaga asos soldi.

Asarda omonim va sinonimlar, antonim va metatezalar so'zlarda to'liq va qisqa variantlilik, dialektal leksika va boshqa ko'pgina leksik xususiyatlar birinchi marotaba leksikaning mustaqil bo'limlari sifatida izohlab berildi. Uning asarida bu bo'limlar maxsus leksika tarzida izohlanmagan. Mazkur asarda muallif turkiy qabila va urug'lar tillaridagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi.

Shuni aytish kerakki, lug'atda keltirilgan parchalar, til faktlari faqat XI asr adabiyotining namunalari bo'lmay juda uzoq o'tmish davrlarning mahsulidir. Shu jihatdan lug'at turkiy tillarning kelib chiqish tarixini, rivojlanishini belgilashga xizmat qiluvchi eng muhim hujjatdir. Asardagi bir qancha etnografik, geografik, astronomik va boshqa ma'lumotlar ham tegishli sohalar nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.¹

Xususan, asarda ko'plab hayvon nomlari ham keltirilgan. Lekin bu nomlar bir mavzuiy guruhga birlashtirilmagan. Keyingi asrlarda yaratilgan lug'atlarda, masalan, Muhammad Yaqub Chingiyning "Kelurnoma" asarining bir bobi ismlarga bag'ishlangan. Ushbu asar XVII asr oxirlarida ya'ni boburiy hukmdor Avrangzeb Olamgir davrida yozilgan. Lug'at 15 bobdan iborat bo'lib, 1-14-boblarida 400ga yaqin turkiy fe'llar arqib alifbosi tartibida har biri o'n beshtagacha shaklda berilgan. Masalan, uzatmoq fe'li uzatmoq, uzalmoq, uzaldi, uzayiptur, uzatmaq, uzatti, uzatiptur, uzatadur, uzatmas, uzatmabdi, uzatmaydir, uzat, uzatma, uzatar-biz, uzatmas-biz kabi zamon va mayl shakllarda, forsha tarjimasini bilan berilgan.² Shu jihatdan asar zamonaviy uyali lug'at namunasi hisoblanadi. Lug'atning so'nggi 15-bobi 9 qismga bo'lingan bo'lib, ismlar mavzu guruhlariga ajratib berilgan. Ular quyidagilar:

1. Osmon va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar;
2. Yer va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar;
3. Ot va egarlanadigan hayvonlar; 4. Burgutlar va yovvoyi qushlar;
5. Odam jismi a'zolari; 6. Qarindoshlik nomlari; 7. Qurol-yaroq nomlari;
8. Sanoq nomlar; 9. Olmosh, ravish, bog'lovchi va ko'makchilar.

Bu bob 1300 so'z va 6000 dan ortiq so'z shakllarini o'z ichiga oladi.

"Devonu lug'otit turk" asari Solih Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, uch tomlik kitob holida 1960-1963-yillarda Toshkentda nashr qilindi. Ushbu asarda qo'llanilgan hayvon, parranda, qush, hasharotlar nomlari I tomda 91 ta bo'lsa, III tomda 71 ta berilgan. II tom esa fe'llardan tarkib topgan. Okuz- ho'kiz. Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq maqoli misol sifatida keltirilgan.³ Bu so'zning oguz shakli ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik so'z boshlanishiga h harfi qo'shilgan o, u unlilarimimg yumshoqlik belgisi yo'qolgan, ikkinchi bo'g'indagi u unlisi i unlisiga almashgan. So'z aslida erkak qoramol ma'nosini anglatadi.

¹ Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi.- Toshkent, 2017

² Мухаммед Якуб Чинги Келур-наме. Т., 1982

³ М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960.



Keyinchalik ma'noda torayish bo'lib, "bichilgan erkak qoramol" ma'nosini anglatgan.¹ Bundan tashqari op – hirmon yanchuvchi ho'kizlarning o'rtasidagi hokiz (arg'ucha). Lug'atda so'z shunday izohlangan. Ho'kiz so'zining manosini beruvchi so'z qo'llanilgan. Ushbu so'z hozirda iste'molda qo'llanilmaydi, eskirgan so'z hisoblanadi. Bu orqali o'sha davr chorvachiligi bilan bog'liq so'zlar xilma – xil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Kəjik –kiyik. Aslida yovvoyi bo'lgan har narsa. Bu so'z eti yeyiladigan ohu, bug'u va tog' talkalariga nisbatan qo'llaniladi.² Ushbu so'z qadimgi turkiy til toshbitiklarida ham berilgan bo'lib, keyik tarzida qo'llanilgan. "kəyik yeyu, tabishg'an yəyu olurur ertimiz (kiyik yeb, tovushqan yeb tutar edik)".³ So'zning ikkinchi bo'g'inidagi ə unlisi keyinchalik i ga almashgan.

Ud –sigir (chigilcha). Turklarning qabul qilingan o'n ikki yilidan biriga ham ud jili deyiladi.⁴ Inak – sigir; o'guzlar toshbaqaning urg'ochisini inak deydilar.⁵

Sig'ir- sigir.⁶ Qadimgi turkiy tilda ham "urg'ochi qoramol" ma'nosini anglatgan bu ot aslida sig'ir tarzida talaffuz qilingan. Keyinchalik g' tovushu g ga o'zgargan. Yuqorida keltirilgandek "Devon"da sigir so'zning uch xil nomi keltirilgan. Inak so'zi hozir ham voha shevasida qo'llaniladi. Lekin ud so'zi eskirgan arxaik so'zdir.

Jag'an – fil. Ikki tilning birida. Shuning uchun ikki tilning birida odam nomi sifatida jag'an tegin nomi qo'llaniladi. "Devon"da berilgan bu so'z hozir eskirgan hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniluvchi fil so'zining asli kelib chiqishi arabcha-forschadir. Afrika va Osiyoda yashaydigan, sutemizuvchilar sinfiga mansub, sirtga chiqqan ikkita kurak tishli va baquvvat xartumli o'simliklar bilan ovqatlanuvchi ulkan hayvon.

Chafli – lochin.⁷ "Ov qilishga o'rgatilgan yirtqich qush". Qadimgi turkiy tilda ham shunday na'noni anglatgan bu ot dastlab lachun tarzida tallafuz qilingan. Keyinroq ikkinchi bo'g'indagi u unlisi i unlisiga a unlisi o unlisiga almashgan.⁸

Boz- lochin.

Chu noz ul tazarf oshkor aylabon,

Base bozu shohin shikor aylabon.⁹

Yabaqulaq- boyqush qushi. Yabaqu va yamaklar tilida. "Devon"da keltirilgan bu so'z hozirda tilimizda qo'llanilmaydi.

Boyqush – boyo'g'li. Obodlar aning zulmidan vayrona, kabutar toqchalari boyqushga oshyona.¹⁰ Asarda ushbu so'zning bul variant ham qo'llanilgan.

Yozma manbalarda berilgan so'zlardan muayyan fanning tushunchalar tizimini ajratib olish orqali, qadimda ushbu so'z qanday ma'no anglatganini, tuzilishini, vaqt o'tib borgani sari qanday o'zgarishlarga uchraganini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent -1982
2. Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi.- Toshkent-2017
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. Тошкент, 2000.
4. Мухаммед Якуб Чинги Келур-наме. Т.,1982
5. М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960.
6. М. Кошғарий. Девони луғотит турк. II том. Тошкент, 1963.
7. М. Кошғарий. Девони луғотит турк. III том. Тошкент, 1963

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. Тошкент, 2000.

² М. Кошғарий. Девони луғотит турк. III том. Тошкент, 1963.

³ Abdurahmonov G', Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent -1982

⁴ М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960. 80-бет.

⁵ М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960. 135-бет

⁶ М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960. 345-бет

⁷ М. Кошғарий. Девони луғотит турк. I том. Тошкент, 1960. 404-бет

⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. I жилд. Тошкент, 2000.

⁹ Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тошкент, 1983. 306-бет.

¹⁰ Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тошкент, 1983. 310-бет.



ОНА ТИЛИ ДАРSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Ochilova Dilfuza Abdusalomovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tel:+998936605356 Email:ochildifuz@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish va didaktik o‘yinlarning afzalliklari haqida so‘z ketadi.

Kalit so‘z va iboralar: didaktik o‘yin, texnologiya, psixologiya, g‘oya, vazifa, qoida, xotira, dunyoqarash, muomala madaniyati.

Mustaqillikdan keyin ta’lim sohasiga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada anchagina ishlar ham amalga oshirildi. O‘quvchilarimiz ham endi ancha zukko, topqir va qiziquvchan yoshlarga aylanib borishmoqda. Bu esa o‘z navbatida pedagoglarni yanada o‘z ustilarida ishlash va malakalarini oshirishga turtki bo‘lmoqda. Bugunning bolasi uchun eski uslubdagi darslar oddiy va quruq darslar bo‘lib tuyulishining sababi shundaki, ular texnika taraqqiy etib borayotgan zamon bilan hamnafas yashashmoqda va fikrlashmoqda.

Bugungi kunda yoshlardagi bu o‘zgarish va yangiliklarga bo‘lgan qiziqish o‘qituvchidan dars jarayoniga texnologik yondashuvni va dars jarayonida turli xil o‘yin va metodlardan foydalanishni talab etmoqda. Ko‘plab o‘qituvchilarimiz hatto har bir darsini texnika vositalari va turli xil mavzuga oid o‘yinlarni darsga olib kirgan holda tashkillashtirmoqdalar.

Quyida biz ham ona tili darslarida qanday didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkinligi va ularning ahamiyati haqida to‘xtalmoqchimiz.

Psixologiyada bola psixikasining rivojlanishida o‘yinning hal qiluvchi ahamiyatga ega deb qaraladi. Faqat o‘yindagina bola shaxsining hamma tomonlari birlikda va o‘zaro ta’sirda shakllanadi. [1]

Didaktik o‘yinda o‘quvchilarning o‘zlashtirishini hisobga olgan ta’limiy vazifalarning bo‘lishi juda muhimdir. O‘yinning u yoki bu shaklini tanlar ekan o‘qituvchi uning bolalar uchun qiziqarli va ular diqqatini to‘playdigan turlariga e’tibor qaratishi lozim. Didaktik o‘yinlar uchun o‘yin g‘oyasi va o‘yin vazifasi muhim ahamiyatga ega. Didaktik o‘yinning eng muhim elementi uning qoidasi hisoblanadi. Qoidani bajarish jarayonida o‘yin mazmuni amalga oshadi.

“Gap tuzamiz” o‘yini. O‘qituvchi yozuv taxtasiga bir nechta so‘z yozib qo‘yadi. O‘quvchilar mustaqil ravishda shu so‘zlar ishtirokida gap tuzadilar. O‘quvchilar gap tuzar ekanlar, ularning lug‘at boyligi oshishi bilan birga, gaplarni to‘g‘ri tuzish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari ham shakllanadi. Ushbu o‘yin davomida barcha o‘yinlardagi kabi vaqti- vaqti bilan o‘quvchini rag‘bat so‘zlari bilan rag‘batlantirib turish lozim.

“Gap tuzamiz” o‘yinida o‘quvchilarga quyidagi kabi bir nechta variantlarni taklif etiladi. O‘quvchilar ulardan birini tanlaydilar.

1-variant: bola, kitob, uy.

2-variant: bog‘, Nodirbek, olma.

3-variant: ertak, bola, bobo.

Masalan, 1-variantdagi so‘zlar yordamida o‘quvchilar bir nechta gap tuzishlari mumkin. O‘yin shartiga ko‘ra tanlangan variantda berilgan so‘zlardan unumli foydalanish kerak. Ammo boshqa so‘zlarni qo‘shish ham mumkin. Eng muhimi, variantda ketirilgan so‘zlardan birontasi ham tushib qolmasin.

Bola uyda kitob o‘qidi. Bolaning uyda kitobi bor.

Bola uyda kitobini unutib qoldirdi. Bola uydin kitobini olib keldi.

Bola uyga kitobini tashlab keldi va hokozo

O‘quvchilar bir- birlaridan qolmaslik uchun astoydil harakat qiladilar va gap tuzadilar. Sherigining gapini takrorlagan, yoki gap tuzishdan to‘xtab qolgan o‘quvchi o‘yin shartiga ko‘ra o‘yindan chetlashtiriladi. O‘yin shartini buzmaslik uchun esa o‘quvchilar bor e’tiborini o‘yinga qaratadilar.

“Kim topag‘on” o‘yini. Bu o‘yinni bir mavzu doirasida yoki mavzularni mustahkamlashda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Aytaylik, o‘qituvchi savol ichida sifat so‘z turkumiga xos bo‘lgan



soʻzlardan foydalanishi kerak, oʻquvchilarning javobi esa faqat ot soʻz turkumiga oid soʻzlar boʻlishi kerak. Oʻqituvchi bu oʻyinning shartiga koʻra biron narsaning rangi, sifati, vazifasini topishmoq tarzida aytadi. Javoblar oʻquvchilarning dunyoqarashiga qarab turlicha boʻlishi mumkin. Masalan:

1-savol. Nima oq va yumshoq ?

Javob: qor, paxta, bulut...

2-savol. Dunyoda tengsiz inson ?

Javob: ota, ona, ota-oni, ustoz, doʻst...

Bunday oʻyinlardan foydalanish oʻquvchilar uchun juda foydali. Birinchidan bu kabi oʻyinlar asosida oʻtilgan darsda oʻquvchilar boshqa darslarga qaraganda faolroq boʻlishadi, oʻzlarini erkin his qilishadi, diqqatlarini bir joyga jamlashadi, eng muhimi, bunday darslar oʻquvchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bundan tashqari bunday oʻyinlar orqali ayrim oʻquvchilarning yashirin qobiliyatlari ham yuzaga chiqishi mumkin. Dars jarayoniga olib kirilgan bunday oʻyinlar taʼsirida oʻquvchilarning shaxsi shakllanadi, muomala madaniyati dunyoqarashi va xotirasi yanada rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gʻaffarova T. Boshangʻich taʼlimda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Toshkent-2011.

2. Ziyonet.uz taʼlim portali



О‘СИМЛИKLAR UCHUN FOTOSINTEZ JARAYONINING MUHIM TOMONLARI

Qo‘ziyeva Intizor Maxsudovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi

16-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining biologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Yashil o‘simliklar quyoshdan nur olib, suv va karbonat angidridni nafas olayotgan kislorodga va biz iste‘mol qiladigan shakarlarga aylantiradi. Bu jarayondagi qanday ishlashi haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Uglevod, fotosintez, karbonat, sellyuloza, Kalvin sikli, glyukoza

Chuqur nafas oling. Keyin o‘simliklarga minnatdorchilik bildiring. Agar siz meva, sabzavot, don yoki kartoshka iste‘mol qilsangiz, u holda o‘simlikka rahmat ayting. O‘simliklar va suv o‘tlari bizga yashash uchun zarur bo‘lgan kislorodni, shuningdek energiya uchun ishlatadigan uglevodlarni beradi. Ularning hammasi fotosintez orqali amalga oshiriladi. Fotosintez - karbonat angidrid, suv va quyosh nurlaridan shakar va kislorod hosil qilish jarayoni. Bu uzoq muddatli kimyoviy reaksiyalar orqali sodir bo‘ladi. Karbonat angidrid, suv va yorug‘lik kiradi, natijada glyukoza, suv va kislorod chiqadi. (Glyukoza oddiy shakar.) Fotosintezni ikkita jarayonga bo‘lish mumkin. “Fotosurat” qismi yorug‘lik ta‘sirida yuzaga keladigan reaksiyalarga ishora qiladi. “Sintez” - shakarni ishlab chiqarish - bu Kalvin sikli deb nomlangan alohida jarayon. Ikkala jarayon ham xloroplast ichida sodir bo‘ladi. Bu o‘simlik hujayrasidagi maxsus tuzilish tarkibida tirakoid membranalar deb nomlangan membranalar to‘plami mavjud. Bu yerda yorug‘lik reaksiyasi boshlanadi. Bu jarayonda Kalvin sikli muhim hisoblanadi.

Uglerodni fiksatsiya qilish: Bu yerda o‘simlik CO_2 ni olib keladi va uni boshqa uglerod molekulasiga biriktiradi. Bu reaksiyalarni tezroq bajaradigan ferment yoki kimyoviy moddadir. Ushbu qadam shunchalik muhimki, rubisco xloroplastdagi va yerdagi eng keng tarqalgan oqsil hisoblanadi. Rubisco CO_2 tarkibidagi uglerodni ribuloza 1,5-bifosfat (yoki RuBP) deb nomlangan beshta uglerodli molekulaga biriktiradi. Bunda oltita uglerodli molekula hosil bo‘ladi, u zudlik bilan har biri uchta karbonli ikkita kimyoviy moddaga bo‘linadi.

Kamayish: Nur reaksiyasidan ATP va NADPH paydo bo‘lib, ikkita uchta uglerodli molekulalarni ikkita kichik shakar molekulalariga aylantiradi. Shakar molekulalari G3P deb nomlanadi. Gliseraldegid 3-fosfat (GLIH- sur-AAL-duh-hide 3-FOS-fayt) uchun bu qisqa.

Uglevod hosil bo‘lishi: G3P ning bir qismi siklni glyukoza ($\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$) kabi katta shakarlarga aylantirish uchun qoldiradi.

Regeneratsiya: Davom etayotgan yorug‘lik reaksiyasidan ko‘proq ATP bilan G3P ning qolgan qismi yana ikkita uglerodni olib, RuBP ga aylanadi. Ushbu RuBP yana rubisco bilan juftlashadi. Ular endi CO_2 keyingi molekulasi qachon yana Kalvin sikli boshlash uchun tayyor bo‘ladi. Kalvin sikli: Melvin Kalvin, uni kashf etgan odam, ushbu sikl o‘simliklar va suv o‘tlari karbonat angidridni asosiy uglevodlarga aylantirish jarayonidir. Yorug‘lik o‘simlik barglariga tushganda, u xloroplastlarga va ularning tirakoid membranalariga tushadi. Ushbu membranalar xlorofill, yashil pigment bilan to‘ldirilgan. Ushbu pigment yorug‘lik energiyasini yutadi. Yorug‘lik elektromagnit to‘lqinlar sifatida harakat qiladi. To‘lqin uzunligi - to‘lqinlar orasidagi masofa - energiya darajasini belgilaydi. Ushbu to‘lqin uzunliklarining ba‘zilari biz ko‘rib turgan ranglar kabi ko‘rinadi. Agar molekula, masalan, xlorofill to‘g‘ri shaklga ega bo‘lsa, u nurning ba‘zi to‘lqin uzunliklaridan energiyani yutishi mumkin. Shuning uchun biz o‘simliklarni yashil rang deb bilamiz. Yashil rang o‘simliklar to‘lqin uzunligini aks ettiradi, ular singdiradigan rang emas. Yorug‘lik to‘lqin sifatida harakat qilganda, u foton deb nomlangan zarracha ham bo‘lishi mumkin. Fotonlarning massasi yo‘q. Ammo ular ozgina miqdorda yorug‘lik energiyasiga ega. Quyoshdan keladigan foton nurlari bargga sakrab tushganda uning energiyasi xlorofill molekulasini qo‘zg‘atadi. Ushbu foton suv molekulasini ajratadigan jarayonni boshlaydi. Kimyoviy reaksiya natijasida ATP va NADPH deb nomlangan boshqa molekula hosil bo‘ladi. Ularning ikkalasi ham hujayraning energiya to‘plashiga imkon beradi. Fotosintezning sintez qismida ATP va NADPH ham ishtirok etadi. E‘tibor berib, yorug‘lik reaksiyasi shakar qilmaydi. Buning o‘rniga u Kalvin sikliga ulanadigan saqlanadigan energiyani yetkazib beradi. Bu yerda shakar tayyorlanadi. Ammo yorug‘lik reaksiyasi biz foydalanadigan narsani ishlab chiqaradi. Biz nafas olayotgan barcha kislorod dunyo bo‘ylab o‘simliklar va suv tomonidan amalga oshiriladigan fotosintezdagi ushbu bosqichning natijasidir.



Keyingi qadam energiyani nur reaksiyasidan oladi va uni Kalvin sikli deb ataladigan jarayonga qo'llaydi. Kalvin sikli ba'zan qorong'u reaksiya deb ham ataladi, chunki uning biron bir bosqichi yorug'likni talab qilmaydi. Ammo bu hali ham kun davomida sodir bo'ladi. Buning sababi shundaki, unga oldin keladigan yorug'lik reaksiyasi natijasida hosil bo'lgan energiya kerak bo'ladi. Fotosintez oxirida o'simlik glyukoza ($C_6H_{12}O_6$), kislorod (O_2) va suv (H_2O) bilan tugaydi. Glyukoza molekulasini kattaroq narsalarga boradi. U sellyuloza kabi uzun zanjirli molekulaning bir qismiga aylanishi mumkin. (sellyuloza - o'simlik hujayralari devorlarida joylashgan to'laning bir turi. U glyukoza molekularining zanjirlari tomonidan hosil bo'ladi) Bu hujayra devorlarini tashkil etadigan kimyoviy moddadir. O'simliklar glyukoza molekulasida to'plangan energiyani kattaroq kraxmal molekularida saqlashi mumkin. O'simlik mevasini shirin qilish uchun ular glyukozani boshqa shakarlarga, masalan, fruktoza ichiga solib qo'yishlari ham mumkin. Ushbu molekulalarning barchasi uglevodlar - uglerod, kislorod va vodorodni o'z ichiga olgan kimyoviy moddalardir. Zavod energiya saqlash uchun ushbu kimyoviy moddalar tarkibidagi bog'lanishlardan foydalanadi. Ammo biz ushbu kimyoviy moddalardan ham foydalanamiz. Uglevodlar biz iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining, ayniqsa don, kartoshka, meva va sabzavotlarning muhim qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Armstrong, W.P. 1998. "The Truth About Cauliflory." **Zoonooz** 71: 20-23.
2. Borror, D.J. and D.M. DeLong. 1964. **An Introduction To The Study Of Insects**. Holt, Rinehart and Winston, New York.



BOSHLANG'ICH SINFLARNING O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Qurbonova Gulmira Itolmosovna

Buxoro viloyati Olot tumani

13 – maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+998 94 546 59 52

Annotatsiya: ushbu maqolada innovatsiya tushunchasi, innovatsion jarayon, pedagogik yangilik, innovatsion faoliyat, nilufar gul, bilim, tarbiya tushunchalari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, pedagogik yangilik, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat.



Innovatsiya – (inglizcha “Innovation” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni kiritish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishdir. Innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorlarining mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmualar muammolarini yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchnikov). O'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o'quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o'qituvchini o'zigagina taaluqli bo'lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, oмма, institutsion masshtabda ham bo'lishi mumkin.

Siz bilan bilim va tarbiya gulini hosil qilamiz. O'quvchilarga gul yaproqlari tarqatiladi. Unga o'quvchilar bugungi darsda qanday bilim, tarbiya olganliklari haqida fikrlarini izhor qilib yozadilar. Unda har bir o'quvchi individual ishlaydi.



Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash rivojlanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham



yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tshkil etish o'qituvchining bu faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlik darajasi. Innovatsion muammolarni hal etish muhim zamonaviy ilmiy fkrash yo'nalishlariga qo'shish. Innovatsion jarayonlarni o'rganish. Innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xususiyatlari o'rganishdan iborat.

Innovatsiyani tanlashda pedagogik tizimda yaxlit pedagogik o'quv yurti, pedagogik nazariya, o'qituvchi, o'quvchilar pedagogik texnologiyasi, ma'lum shakl, metod, vositalar, boshqaruv maqsad va natijalar muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006-2007 yillar (4-8-son).
2. Maktab va hayot jurnali. 2006-2007 yillar (3-7-son).
3. Ma'rifat gazetasi. 2007 yil.



ROMANGA TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

Ro'zmetova Feruza Kamilovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani

31-sonli ayrim fanlar chuqur

o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabining

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fanlararo integratsiyani tashkil qilish. Bu jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, illustration, vizual, grafik, texnologiya, metod

Badiiy asarlar tahlilida fanlararo integratsiyani ta'lim jarayonidagi predmetlarning o'zaro bog'liqligi asosida ba'zi bir ilmiy-nazriy masalalarni yechish usuli sifatida talqin qilar ekanmiz, bunda tizimlashtirishning predmetli asosni va mantiqini sezamiz. Ayniqsa bugungi axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda o'quvchilarning adabiyot faniga, badiiy adabiyotga qiziqishini oshirish va ularda kitobxonlikni tarbiyalash o'qituvchidan yuksak mahorat bilan birga har tomonlama chuqur bilimni talab qilish bilan birga adabiyotning boshqa fanlar bilan bog'liq tarzda o'rgatishni talab qilmoqda. Adabiy ta'limni bunday tarzda tashkil yoshlarning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga xizmat qiladi. Bugun jahon miqyosida rivojlanib borayotgan texnologiyalar inqilobi ta'lim sohasida, xususan o'qitish bilan bog'liq jarayonlarda jiddiy o'zgarishlarni talab qilmoqda. Pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifati rivojidagi o'rni va ahamiyati masalalariga qaratilgan, xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar o'rganilganda ulardagi asosiy e'tibor texnologiyalar integratsiyasi, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik texnologiyalarga munosabati, o'qitishda ijodiy yondashuv muammolari, ped texnologiyalarning turli xil nazariy asoslarini yoritib beruvchi masalalarga qaratilganligi ma'lum bo'ldi. Dunyo miqyosida olib borilgan statistik ma'lumotlarda til va adabiyot ta'limida ped texnologiyalarning qo'llanilishi an'anaviy ta'limga nisbatan ko'proq samara berishi ta'kidlangan [1]. Olimlar, ped texnologiyalar, xususan, integrallashgan texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati haqida to'xtalib, adabiyot darslarini samarali olib borishda vizual yondashuv (visual approach- muayyan voqelikni muayyan badiiy matnni kartalar, suratlar, illyustratsiyalar, tri di modellari, videolar, videokonferensiyalar, televideniya, suratli rasmlar, grafiklar va charlar orqali o'rgatish) dan foydalanishni tavsiya qiladi. Bunday yondashuvda o'quvchilar biror bir mavzuni tashqi omillar orqali o'rganishga hayrixoh bo'ladilar. Gardner nazariyasiga asoslangan pedagogik texnologiyalarning integratsiyasi asosida rivojlangan vizual yondashuv uslubi vositasida o'qituvchi bir paytning o'zida ko'rish, eshitish va tafakkur qilish orqali muayyan badiiy asar mohiyati, muallifning poetik tasvirlash mahoratini chuqur idrok eta olish imkoniga ega bo'ladilar. Gardnerning "Vizual zakovat" ga asoslangan konsepsiyasi, ayniqsa, klassik adabiyot namunalari, eski o'zbek adabiy tilida yaratilgan klassik adabiyotimiz, shu jumladan, Alisher Navoiy asarlarini o'rganish, mutafakkirning san'at olamiga yaqinlashish, asarlari jozibasi, ramziy obrazlar mohiyatini chuqurroq tushunishda, qulaylik yaratishi tajriba sinovidan muvaffaqiyatli o'tib, davlatimiz rahbari e'tirofiga sazovor bo'lgan edi [2].

Ammo shu o'rinda aytish joizki, adabiyot fanlarini integrallashgan texnologiyalar vositasida olib borish, xususan texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llay olishga qaratilgan tajriba, savodxonlik darajasi o'qituvchilar orasida yanada kuchaytirish lozim. Ko'pchiligimiz an'anaviy pedagogik texnologiyalar (kompyuter, internet va dunyo veb saytlari) ning eng oddiy funksiyalaridan foydalanish bilan cheklanamiz. Ammo bugungi rivojlangan davrda modellashtirish, ya'ni tahlil va tajriba uchun texnik sistemalar analogiyasini yaratish; bilim boshqaruviga - yangi bilim va malakalarga ega bo'lish uchun bilimlar integratsiyasini tashkil qilish shu asosda kichik tadqiqotlar yaratish kerak.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. O'zbek tili o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. T: 2012
2. Elaine Showalter. Teaching literature. New-York, Blackwell, 2003



DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI O'STIRISH

Shamsiyeva Laylo Nasritdinovna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tel:++998936615844 Email: sSHAMSIYLAYLO@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini o'stirish borasida mulohazalar yuritilgan hamda bu borada tavsiyalar bayon qilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Slayd shou, videolavhalar, animatsiyalar, videoroliklar

Didaktik o'yinlardan asosan o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita sifatida foydalanish bilan bir qatorda, nutqni o'stirish, atrof – muhit bilan, tabiat bilan tanishtirishda, o'quvchilarning ekologik tarbiyasida ham keng qo'llaniladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga bilim berishda o'rganiladigan yangi bilimlarni yaxshilab o'zlashtirib olish uchun bolalar bilan turli amaliy mashqlar o'tkaziladi. O'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar esa bolalarning diqqatini jalb qiladi, qiziqtiradi, natijada bolalar o'zlarini qiynamay, o'zlarini majbur qilmay takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki harakatni osonlik bilan takrorlay oladilar. Demak, didaktik o'yinlar o'quvchilarning har tomonlama chuqur va keng bilim olishlariga, ularning nutqlarini o'stirishda keng foydalaniladigan ta'limiy vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Didaktik o'yin boshqa o'yin turlaridan farqi ham shundaki, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'lim berishda o'yinning bu turidan keng foydalaniladi. Bola o'yinda ishtirok etish jarayonida bilim oladi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi. Didaktik o'yin mazmuni o'z ichiga asosan quyidagi to'rt omilni oladi. 1) O'yinning vazifasi 2) O'yin harakati 3) o'yin qoidasi 4) O'yin yakuni 1) Har bir didaktik o'yinda ma'lum didaktik maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni ko'zda tutadi. Har bir didaktik o'yin o'quvchilardan ma'lum vazifani bajarish maqsadida o'quvchi o'zining fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, oldingi olgan bilim va tushunchalarni esga tushurishga harakat qiladi. Shuni ham eslatib o'tish lozimki, bolalar bilan o'tkaziladigan har bir didaktik o'yin ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otish, bolalar diqqatini jalb qila olishi lozim. Bolalar oldiga qo'yilgan vazifa bolalar tushunchasiga mos bo'lmasa, ularni qiynab qo'ysa, u vaqtda o'yin o'z qiymatini yo'qotadi. Bolalar qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi, maqsadga erishilmaydi. 2. Didaktik o'yin yana bir xususiyati borki, bu o'yin harakatidir. O'yin harakati bolalarni o'ziga jalb qilishi bilan ularning faoliyatini faollashtiradi. O'yin harakati esa o'yin mazmuniga ko'ra turlichadir. 3. Didaktik o'yin hamma vaqt ma'lum qoidaga bo'ysunadi. O'yinda qatnashuvchi bolalar o'yin qoidasiga rioya qilishlari bilan o'z oldilariga qo'ygan vazifani bajaradilar. Didaktik o'yindagi harakat o'yin qoidasi bilan bog'liq bo'ladi. O'yin qoidasi bolaning o'yinda o'zini qanday tutish, nimani qanday bajarish loz imligini ko'rsatadi. O'yin qoidasi didaktik o'yinda o'yinni tashkil qilish tartibidan iborat bo'lib, qoidaga rioya qilish orqali maqsadga erishiladi. Masalan, bolalarni sanoqqa o'rgatish maqsadida bolalarga shunday topshiriq berish mumkin. Masalan, unga bitta qizil, ikkita ko'k marjonni taqish. Bu vazifani bajarishda o'yin qoidasiga rioya qilinmasa, albatta u noto'g'ri chiqishi, kutilgan natijani bermasligi mumkin. Ya'ni bitta qizil marjon o'rniga ikkita taqib qo'yilsa, o'yin qoidasi buziladi. Didaktik o'yin ham xuddi boshqa o'yinlar kabi bolalarga xushchaqchalik tuyg'usini uyg'otish vositasi hisoblanadi. Natijada bola muvaffaqiyatga erishishga intiladi, faol harakat qiladi. Bolalarning tashabbuskorligi ortib, o'yin davomida ko'tarinki ruh bilan harakat qiladilar, bu intilish natijasida esa vazifani – topshiriqni bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, juda tortinchoq, har bir narsaga birdaniga aralashib keta olmaydigan bola o'yinda birinchi marta o'yin qoidasini bajarish bilan xursand bo'lganidan ovozi chiqarib yuboradi. Didaktik o'yinlardan keyin bolalar bilan o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar oldingi o'tkazilagan didaktik o'yin mazmuni bilan bog'langan bo'lishini ham nazarda tutish zarur. Bolalar bilan tashkil qilinadigan hamma o'yin mashg'ulotlari dastur talabiga javob berishi bilan ularning bilim doirasini kengaytirish va boyishiga yordam beradi. O'yin jarayonida bolalarning o'zlariga tanish bo'lgan tushunchalar qaytariladi, ammo bu qaytariq murakkabroq va turli shaklda bo'ladi.



Buning natijasida bola narsalarning hamma tomonlari bilan tanishadi, o'yin va uning mazmuni-dan dastlabki umumiy xulosa chiqarishga o'rganadi. Bolalar bilan o'tkazilgan bu xildagi o'yin-lar, ularning olgan bilimni qanchalik qo'llay olayotganligini, narsalarning xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Didaktik o'yinlardan to'g'ri foydalanishda uchta asosiy masalaga, ya'ni didaktik o'yinlarni tanlash, tashkil qilish va o'tkazishga e'tibor berish zarur. O'yinni tanlashda avvalo uning g'oyaviy mazmuniga, ma'naviy va axloqiy qimmatiga ahamiyat beriladi. O'yinning vazi-fasi va maqsadi ta'lim va tarbiya maqsadiga mos kelishi lozim. Didaktik o'yinlarni tanlashda bolalarning saviyasi, bilim doirasini hisobga olishi zarur. Masalan 1-sinf o'quvchilariga "No-merlash" mavzusini o'tganda quyidagi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'ngacha to'ldir o'yini O'yinning maqsadi: Sonlarni o'ngacha to'ldirishni mustahkamlash. O'yin uchun jihozlar: Raqam-li kartochkalar O'yinning borishi: O'qituvchi aniq bir sonni aytadi, bolalar esa o'qituvchi aytgan sonni o'ngacha to'ldiruvchi sonlar yozilgan kartochkalarni ko'rsatadilar. Masalan: O'qituvchi "9" sonni aytadi, o'quvchilar "1" sonni ko'rsatadilar. Agar "8" soni aytilsa, o'quvchilar "2"ni ko'rsatadilar va hokazo. O'yinda faol qatnashgan o'quvchilar g'olib chiqadilar

Foydalangan internet saytlar:

1. [http://ziyonet.uz/-Ta'lim va fan qidirish tizimi](http://ziyonet.uz/-Ta'lim%20va%20fan%20qidirish%20tizimi)
2. [http://www.ref.uz/-Mustaqil ish , referat va yozma ishlar qidirish tizimi](http://www.ref.uz/-Mustaqil%20ish%20referat%20va%20yozma%20ishlar%20qidirish%20tizimi)
3. [www.google.uz-axborot qidirish tizimi](http://www.google.uz-axborot%20qidirish%20tizimi)



DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MULTIMEDIYALI ILOVALARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI

Sharipova Nargiza

13-AFCHO'I maktabniing matematika o'qituvchisi
Navoiy viloyati Zarafshon shahar

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim – tarbiya berishga qaratilgan alohida e'tibor haqida, ayniqsa ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda zamon talablariga mos ravishda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni ta'im jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanmalar va ularning multimediyali ilovalarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek maqolada boshlang'ich sinflarda multimediya ilovalarini dars jarayonida qo'llashning o'quvchilarning bilim sifatiga ijobiy ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ilg'or pedagogik texnologiya, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, ta'im jarayoni, metodik

O'rta asr Sharqining mashhur tafakkiri, qadimgi yunon falsafasining sharqdagi yirik davomchisi va targ'ibotchisi Abu Nasr Forobiy insonni dunyo taraqqiyoti - ning eng mukammal va yetuk yakuni deb hisoblab, ta'lim-tarbiya insonni aqliy tomondan ham axloqiy tomondan ham mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratmog'i lozimdir. Yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, barkamol, sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga zamonaviy pedagogik va axbarot texnologiyalari asosida ta'lim berish mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustivor vazifalardan biridir. Mustaqillikka erishganimizdan keyin mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim –tarbiya berishga alohida e'tibor qaratildi. Kelajagimiz bo'lgan – yoshlarga kerakli bilim berish barcha ta'lim tizimi muassasalarining eng asosiy vazifasi etib belgilandi. O'z o'rnida ta'limning asosiy poydevori hisoblangan -boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari oldiga juda katta vazifalarni qo'ydi. Hozirgi fan-texnika taraqqiyoti kun sayin emas soat sayin rivojlanayotgan bir davrda maktabga kelgan 6-7 yoshli kompyuter, uyali telefon, televizor kabi ko'pgina texnika jihozlaridan ustalik bilan foydalana oladigan bolaga maktab partasiga o'tirgach, quruq qo'l bilan oddiygina doska va bo'r yoki qog'oz ko'rgazmalar, darsliklar bilan bilim berib bo'lmasligi hammamiz uchun ma'lum bo'lib qoldi. Bunday paytda o'ta mahoratli, kuchli fundamental bilimga ega pedagog ham o'z darsidan kutilgan maqsadga erisha olmasligi kunday ayon.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan 1-11-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni ta'im jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanmalar va ularning multimediyali ilovalari o'z vaqtida ta'lim jarayoniga tadbiq etildi desak sira mubolag'a bo'lmaydi. O'z faoliyati davomida sal kam bir o'quv yili mobaynida darslar jarayonida o'quv metodik qo'llanmalardan va ularning multimediyali ilovalaridan o'z o'rnida unumli foydalanib kelgan har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu fikrga to'liq qo'shiladi. Birinchi sinfda savod o'rgatish, ona tili, matematika, o'qish, atrofimizdagi olam fanlaridan 1-11- sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni ta'im jarayoniga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanmalar tajribali pedagog uchun ham yosh o'qituvchilar uchun ham juda tushunarli va qulay tuzilgan. Ushbu qo'llanmalarda har bir dars bayonnomasini tuzishda darsdan kutilayotgan maqsadni aniq belgilashda, dars uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishda o'qituvchi uchun aniq yo'llanma berilgan bo'lsa, multimediyali ilovalar esa o'quvchining yoshini, ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda qiziqarli va rang-barang tuzilgan. Multimediya ilovalari orqali o'qitishning oyinli shakllari va ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda kerakli axborotni o'quvchiga yetkazish imkoniyati mavjud. Dars jarayonida multimediya ilovalaridan foydalanilganda o'quvchi o'zini darsda o'tirganligini butunlay unutgan holda ekran orqali berilayotgan bilimlarni to'liq o'zlashtirib ola boshlaydi. Bir vaqtning o'zida o'quvchining ko'rish, eshitish xotiralari rivojlanadi, eslab qolish va ko'rgan eshitganlarini so'zlab berish jarayonida bog'lanishli nutq rivojlanadi.

Multimediya ilovalaridan foydalangan o'qituvchi dars mobaynida to'liq auditoriyani qamrab ola oladi, ularning diqqatini bir maqsadga qaratadi va o'z o'rnida har bir dars o'quvchi uchun zerikarli tushuntirishlardan holi o'tadi. Ilovalarda berilgan trenajorlar, testlar, boshqotirmalar, turli



didaktik o'yinlar,dam olish daqiqalarining ovozli,animatsion shaklda berilganligi o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham ko'p qulayliklar tug'diradi.

Topshiriqli-didaktik o'yinlar rebus va krossvordlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini oshirib,ta'lim olish sifati va bilim samaradorligining oshirilishiga xizmat qiladi.Tajribali pedagog bu multimediyalardan nafaqat belgilangan darslarda foydalanibgina qolmay balki, bo'lim yuzasidan takrorlash,mustahkamlash darslarida unumli foydalana oladi. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu metodik qo'llanmalardan har bir darslar davimida foydalanib kelmoqdamiz,chunki bu multimediyalar bilan ishlash o'qituvchilarni izlanishga undaydi,darsga alohida tayyorgarlik ko'rishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.G'afforova.Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'quv q'ollanma-T,Tafakkur.2011.
2. T.G'afforova.Sh.Nurillayeva.O'qish kitobi.O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.-Sharq.2012.
3. Tuzuvchi mualliflar: U.Masharipova,M.Umarova,D.Baynazarova, M.Nabiyeva. Ona tili. Oqituvchilar uchun metodik qo'llanma.-Sharq.2017.
4. Inson kamolotining omili. M.Aripova.Boshlang'ich ta'lim. 1.01.2005 .



ФОРМИРОВАНИЕ МЕТАПРЕДМЕТНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Л.Б.Тешаева

преподаватель русского языка и литературы
специализированной школы-интерната
искусства маком города Бухары
Телефон: +998914055611

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о метапредметных компетенций, дается понятие о видах компетенций и формирование метапредметных компетенций учащихся на уроках русского языка и литературы.

Ключевые слова: компетенция, формирование, образование, предметные знания, текст, речевая деятельность, компетентность.

Термин «компетенция» пришел в педагогику из мира труда и предприятий. С точки зрения исследователей, компетентностный подход ставит новые цели: это те же самые знания, умения и навыки, отношения и опыт деятельности, что и в прежних результатах образования, но результаты рассмотрены под особым углом зрения: предметные знания, приложенные к определенной области, отношения к объектам, находящимся в рамках данной компетентности. Таким образом, компетентности в целом представляют собой сочетание знаний, умений, навыков и поведенческих отношений, настроенных на условия конкретной деятельности, что позволяет школе реализовать поставленные ранее цели.

Сегодня общество нуждается в человеке, владеющем универсальными умениями информационного характера, в человеке, способном самообучаться, прогнозировать и принимать решения. А для этого современному человеку необходимо владеть следующими компетенциями:

➤ коммуникативная компетенция: возможность существования у людей различных точек зрения, использование речи для регуляции своего действия, умение договариваться и приходить к общему решению в совместной деятельности, адекватно использовать речевые средства для решения различных коммуникативных задач, владеть видами речевой деятельности, продуктивной речевой коммуникации;

➤ регулятивная (управление своей деятельностью): формулирование цели, планирование, прогнозирование результатов, контроль и оценка деятельности, внесение коррективов, выполнение учебных действий в материализованной, инициативность и самостоятельность;

➤ познавательная: осуществление анализа объектов с выделением существенных и несущественных признаков, умение проводить сравнение по заданным критериям, строить рассуждения в форме связи простых суждений об объекте, его строении, свойствах и связях, обобщать, устанавливать аналогии;

➤ информационная: осуществление поиска необходимой информации, использование знаково-символических средств, в том числе модели и схемы для решения задач, построение речевого высказывания в устной и письменной форме, выделять существенную информацию из текстов разных видов.

Формирование метапредметных компетенций учащихся на уроках русского языка и литературы происходит посредством развития речи школьников, умения думать, рассуждать, интересоваться окружающим миром, анализировать и оценивать прочитанное, прослушанное, увиденное, выражать результаты этого анализа в форме устного или письменного речевого высказывания.

Трудно не согласиться с мнением тех лингвистов, которые считают, что текст — это самая благодатная почва для развития всех образовательных компетенций учащихся, значит, работа с текстом должна стать неотъемлемой частью каждого урока русского языка и литературы. Именно работа с текстом позволяет соединить деятельность школьников по выработке практических навыков грамотного письма и речевого развития. Мастерски подобранные тексты обладают высочайшим познавательным, развивающим и воспитывающим потенциалом, а значит, способствуют эффективному развитию компетенций уча-



щихся. Организованная работа с текстом или по тексту позволяет формировать и развивать такие компетенции, как:

- адекватно понимать содержание прочитанного или прослушанного текста, владеть разными видами чтения и аудирования;
- определять тему, идею, ключевые слова, виды связей предложений в тексте;
- пересказывать текст (подробно, сжато, выборочно), использовать разные приёмы сжатия текста;
- сравнивать содержание текста с каким-либо материалом, сопровождающим его (иллюстрации, рисунки) или с другим текстом по заданным параметрам;
- сопоставлять разные тексты по заданному параметру;
- оценивать собственное или чужое речевое высказывание на основе требований, предъявляемых к тексту;
- самостоятельно создавать собственные речевые высказывания (устные и письменные):

Использование текста на уроках является необходимым условием, позволяющим проводить систематическую работу по развитию речи учащихся и, в конечном итоге, формировать универсальные учебные действия, ведь речевой аспект действующей программы русского языка предусматривает усиление практической направленности данного языка.

Литература

1. Антонова, Е.С. Развитие речи и мышления учащихся на основе интеграции обучения в общеобразовательной школе. – М.: ИЗД, 2001.
2. Антонова Е.С. «Методика преподавания русского языка: коммуникативно - деятельностный подход». М.: КНОРУС, 2007.
3. Быстрова, Е. А. Цели обучения русскому языку, или какую компетенцию мы формируем на уроках. Русская словесность. 2003. №1. С. 35-40



О‘QUVCHILARNING IMLOVIY MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH

Tillayeva Mavluda Nusratovna

13-sonli ayrim fanlar chuqur
o‘rganiladigan ixtisoslashtirilgan
maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Navoiy viloyati Zarafshon shahar

Annotatsiya. Ushbu maqolada ozbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va mustaqillikka erishishimiz tufayli mamlakatimizda yosh avlodga ta’lim –tarbiya berishga qaratilgan alohida e’tibor haqida ,ayniqsa ta’lim sifati va samardorligini oshirishda zamon talablariga mos ravishda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida joriy etish boyicha metodik qo‘llanmalar ,shuninfdek maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning imloviy malakalarini rivojlantirishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tilini o‘qitishning muhim sharti grammatika, imloviy, lug‘at, bo‘g‘in, chiroyli yozuv .

Boshlang‘ich maktabning muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o‘quvchilarning o‘gzaki va yozma nutqini o‘stirishdir. Shubhasiz ,hamma fanlar o‘quvchilarning lug‘at boyligini o‘stirishga ,imlodan savodxonligini oshirish va nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ona tilini muvaffaqiyatli o‘qitishning muhim sharti ta’limni o‘quvchilarning hayotiy tajribasi bilan, ularning bevosita ko‘rganlari, kitoblardan o‘qib bilganlari bilan bog‘lash hisoblanadi. Ma’lumki ,o‘qish darsliklaridagi matnlar turli manbalardan olinganligi aniq. Ona tili darsini o‘qish bilan bog‘lansa ,o‘quvchilarning o‘qish darsida o‘qiganlari asosida olgan haqiqiy bilimlaridan foydalanishga imkon yaratiladi. Buning uchun o‘quvchilarga mamlakatimizda, maktabda, oilada sodir bo‘lgan qiziq voqea-hodisalar haqida ,tabiatdagi o‘zgarishlar haqida o‘qiganlaridan foydalanib gap tuzish ,ayrim parchalarni kitobdan ko‘chirib yozish, Grammatik tahlil kabi topshiriqlarni bajartirish maqsadga muvofiqdir. Shuni ham aytib o‘tish lozimki ,ona tili darsida o‘qishdan beriladigan topshiriq o‘ylanmasdan, moslamay berilsa, yaxshi natijaga erishib bo‘lmaydi. Ona tilidan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun:

- birinchidan ,ona tili darsida o‘qishdan beriladigan topshiriq oldindan tayyorgarlik ko‘rib, puxta o‘ylab ,so‘ng berilishi:

- ikkinchidan, ona tili darsida o‘tilgan mavzuni mustahkamlashga imkon berishi hisobga olinishi:

- uchinchidan, topshiriq (misol qaysi asardan olingan bo‘lsa)berilgan asar g‘oyasini yana ham mustahkamlashga yorlashishini hisobga olish kerak.

Ma’lumki, grammatik bilim tilni ongli egallashni va savodli yozish malakasini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning grammatikadan olgan bilimlari to‘g‘ri yozuv malakalarini shakllantirish bilan olib boriladi. To‘g‘ri yozuv malakasini rivojlantirishda imloviy mashq turlari: grammatik imloviy tahlil, matnni ko‘chirib yozish ,ta’limiy diktant va bayondan mashq sifatida foydalanish masqadida muvofiqdir. Imloviy mashqlarni amalga oshirishda ona tili darsligi sahifalarida berilgan mashqlardan foydalanish bilan birga boshqa materiallardan foydalanish yaxshi natija beradi. Chunki o‘quvchilar yangi materialga qiziqish bilan kirishadilar ,o‘ylashga fikrlashga harakat qiladilar.

2-sinfda ”Kishilarning ism va familyasida bosh harf” mavzusini o‘tishda ”O‘qish kitobi ”dan samarali foydalangan holda o‘rgatish mumkin. Mavzuni mustahkamlashda mashqlardan birini ko‘chirib yozish topshirig‘i berilganda ,masalan ,”Inoqlikda gap katta”she’rning to‘rtta :Satrni o‘qib ,faqat kishilarning ismini xato qilmay ,chiroyli yozuv qoidalariga rioya qilib ko‘chirib yozish topshiriladi .Topshiriq bajarilgach (ishni tekshirish uchun yig‘ib olish mumin), uch-to‘rt o‘quvchining ishi o‘qitilib, tahlil qilinadi.

3-sinfda “Bo‘g‘in “mavzusi takrorlanganda ,”O‘qish kitobi”dan imlosi va o‘qilishi (talaffuzi)Qiyin so‘zlar uchraydigan gaplar tanlab olinib, ularni doskaga yozib, avval bo‘g‘inga bo‘linmaydigan ,so‘ng bo‘g‘inga bo‘linadigan so‘zlarni yozib, avval bo‘g‘inlab, so‘ng sidirg‘a o‘qish mashq qilinsa, o‘qilishi va yozilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishni ,to‘g‘ri yozishni bilib oladilar. Masalan, ”Shayx Mazididdin ot choptirish ,qilich urishtirish ,zarb berish bo‘yicha ko‘rikdan o‘tishga shoshilardi” gapi sinf yozuv taxtasiga yoziladi. So‘ng yozilgan gapdan avval



bo‘g‘inga bo‘linmaydigan ,so‘ng bo‘g‘inga bo‘linadigan so‘zlarni tanlab yozish topshiriladi. “Ibn Sino shogirdlari “matmdan tubandagi parcha asqotishi mumkin.“Ibn Sino qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarning biri tozalik, ikkinchisi –parhezdir.Uchinchisi badantarbiyadir va qolgan ikkitasi mijoz bilan kayfiyatdir”.So‘zini bir vaqtda hamma yozadi.O‘qituvchi o‘quvchining izohini kuzatib, lozim bo‘lsa ,zarur tuzatishlar kiritadi, ta-bib-lar-ning, ik-kin-chi-si ,par-hezdir, kay-fi-yat, mi-joz so‘zlarini bo‘g‘inlab aytib yozdiradi. Lug‘at diktant o‘tkazishda bog‘lanishli matn yoki gaplar emas , balki o‘rganishgan ayrim imlosi qiyin so‘zlar aytib turib yozdiriladi va lug‘atdan tekshiriladi.

4-sinfda “Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi “mavzusi o‘rganilganda darsni mustahkamlash maqsadida saylanma diktant o‘tkazilib ,”O‘qish kitobi “dan olingan quydagi matn :Qanaqasiga sening iting bo‘larkan ?-dedi Samad .-Bizning To‘rtko‘z bu ! Rasul ostonaga yaqin jayda xumday boshini ayoqlariga qo‘yib yotgan itiga g‘amgin tikildi.Itining holiga achindi.Lekin sir boy bermay ,chegarachilarga imo qildi.“Otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan turlanishi “bo‘yicha matndan qartqich ,jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchalari bilan turlangan otlar tanlab yoziladi va kelishik qo‘shimchalariga tegishli belgi qo‘ydiriladi.O‘quvchilar ostonaga ,joyda ,boshini,ustiga,bermaslikka so‘zlarini yozib ,qo‘shimchalar ustiga tegishli belgi qo‘yadilar. Agarda, o‘quvchilarda sening,bizning so‘zlarini yozib qo‘yish hollari uchrasa ,o‘qituvchi alohida vaqt ajratib shu o‘quvchilar bilan yakkama-yakka ishlab “Olmosh “va “Ot”ning farqinitushuntiradi. “Gapning uyushiq bo‘laklari “mavzusi o‘tilganda mav zuni mustahkamlash maqsadida 4-sinf “O‘qish kitobi”dan “Oltin fasl”matnida :”Ushushiq bo‘laklar qatnashgan gap topib yozing va o‘qilishini ,yozilishini tushuntirib bering”,topshirig‘I beriladi.O‘quvchilardan quydagi misolni yozishlari kuzatiladi.-“Issiqsevar qaldirg‘ochlar,uzunqanotlar, ko‘kqarg‘alar birinchi bo‘lib uchib ketishadi-O‘quvchilar gapdagi uyushiq bo‘laklar–qaldirg‘ochlar ,uzunqanotlar, ko‘kqarg‘alarni o‘qiydilar ,ular sanash ohangi bilan bog‘langan.Ular orasiga yozuvda vergul qo‘yiladi,degan javobni beradilar Demak, boshlang‘ich sinf ona tili darslarini o‘qish faniga bog‘lab olib borishda yuqoridagi usullardan foydalanish ona tili darslarining samaradorligini oshiradi.O‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi,ayniqsa,yozma savodxonligi rivojlanadi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. T.G‘afforova.Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.O‘quv q‘ollanma-T,Tafakkur.2011.
2. T.G‘afforova.Sh.Nurillayeva.O‘qish kitobi.O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma.-Sharq.2012.
3. Tuzuvchi mualliflar:U.Masharipova,M.Umarova,D.Baynazarova, M.Nabiyeva. Ona tili. Oqituvchilar uchun metodik qo‘llanma.-Sharq.2017.
4. Inson kamolotining omili. M.Aripova.Boshlang‘ich ta’lim.1.01.2005 .



O'QUVCHILARNI MATEMATIKA FANINI O'RGANISHGA TAYYORLASH

Umirzoqova Jumagul Mahmudaliyevna

Namangan Viloyati Norin tuman

19-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

+998972177002

umirzoqovajumagul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishva matematika fanini o'rganishda ilksinflar bilan ishlash usullar orqali bolalarni fikrlash qobiliyatlarini o'stirish haqida keng yozilgan.

Kalit so'zlar: matematika, o'qitish, tayyorlash, asosiy ish, metod, tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib, kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.»
Shavkat Mirziyoev

Zamonaviy ta'lim o'quvchisi – bu Vatan taqdirini o'z taqdiri kabi qabul qiladigan, o'z mam-lakatining buguni va kelajagi uchun javobgarlikni his etadigan, Respublikamizning ko'p millatli xalqlarining ma'naviy va madaniy an'analariga asoslangan yuksak ma'naviy, ijodiy, barkamol fuqaro. Ma'naviy tarbiya har bir o'qituvchining asosiy vazifasidir. Fuqarolarning ma'naviy rivojlanishi va ta'lim olishini ta'minlash zamonaviy davlat siyosatining muhim vazifasidir. Qonunga bo'ysunish, qonun ustuvorligi, ishonch, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanishi, mehnat va ijtimoiy munosabatlarning sifati – bularning barchasi fuqaroning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qabul qilishiga va ularga shaxsiy va jamoat hayotida amal qilishiga bevosita bog'liqdir.

I-IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo'yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog'liq. Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo'shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?
4. $>$, $<$, $=$ belgilarini ishlata oladimi?
5. Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'lumlarni topa oladimi?
6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?
7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
8. O'ngga, chapga, kam, ko'p, og'ir, engil, teng kabilarni farqlay oladimi?
9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og'irlik o'lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday ishlar o'quvchilarnig og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishi kuchay.

Umuman olganda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z sinfidagi har bir bolaga o'z mehri, bilimi bilan ularning ishonchini oqlashi lozim. Ularning diqqat e'tibori va kunlik olgan bilim savyasi ham aynan shu ilk boshlang'ich sinfda shakllanadi. Shuning uchun har birimiz bugungi kunning imkoniyatlaridan unumli foydalanishimiz va kelajak avlodga sidqidildan ta'lim tarbiya berishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov . Toshkent 2011
2. "Matematika analiz" 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent "O'qitvchi-1994"
3. www.ziyo.com kutubxonasi



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUV VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Xalillayeva Matluba Muhammadsharifovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
31-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: “Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv va zamonaviy pedagogic texnologiyalardan samarali foydalanish” nomli maqolamda innovatsion g'oya, kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va zamonaviy pedagogic texnologiyala rhaqida fikr yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim o'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda “Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi”, deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: “Ta'lim berishning ilg'or pedagogic texnologiyalarini, zamonaviy yo'quv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash” umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogic texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. O'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga mustahkam ishtiyoq va qiziqishni oshiradi. Bu texnologiyalardan foydalanish bilimlarni mustahkam o'zlashtirish va amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

Bugungi davr axborot tuzatish hajmi va tezligi jihatlaridan chegaralanmagan butun jahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan xarakterlanadi. Multimedialardan va animatsiyalardan kengfoydalanish o'quvchilarni darslarga bo'lgan qiziqishi va bilim saviyasini oshiradi.

O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxtasingdiri bborishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi pedtexnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o'ylayman. Men o'z ish faoliyatim davomida ko'pgina innovatsion g'oyalardan, turli xil didaktik o'yin mashqlardan keng ko'lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham o'quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Men o'qish darslarida ayniqsa, “Yosh aktyorlar”, “Quvnoq quyonchalar”, “Bu meniki”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Davomettir”, “Maqol larzanjiri”, “Yosh suxandon”, “Sinkveyn” metodi, “Venn diagrammasi”, “Zig-zag” texnologiyasi, “Topib o'qi” kabi usul va ta'limiy mashqlardan ko'p foydalanaman. Bu o'yinlar o'quvchilarga juda yoqadi. Hattoki o'quvchilar o'zlari ham yangi o'yin mashqlari yaratib, kartochkalar yozib kelishadi. Bundan juda quvonaman. Bu albatta, ko'pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi.

Matematika darslarini o'quvchilar juda yaxshi ko'radilar. Bu darsga men juda puxta tayyorgarlik ko'raman. Chunki o'quvchilar bilimi juda yaxshi, shuning uchun ular mendan yangi narsalar so'raydilar, mantiqiy mashqlar berishni iltimos qiladilar. Bunda men ko'pincha “Kim birinchi”, “Mohir hisobchi”, “Atamani top”, “Uchqur kema”, “Ziyrak quyonlar”, “Orzular kemasi”, “Tez javob”, “Mo'jizalar maydoni”, “Baliqchalar tutish”, “O'zim tekshiraman”, “BBB”, “Ortiqchasini top” kabi metod va o'yin usullaridan juda ko'p foydalanaman. Ona tili darslarida esa “Qoidani top”, “Karvon”, “Quruvchilar”, “Kim zukko, kim tezkor”, “Noto'g'ri jumla”, “Qarsak chaldi”, “Hikoya”, “Boshqotirma”, “Tushunchalar tahlili”, “So'z ichidas o'z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmli diktant”, “Boshqotirma”, “Ha yoki yo'q”, “So'z yozish”, “Baliq skleti” kabi didaktik o'yin va ta'limiy mashqlarlardan keng foydalanaman. “Quruvchilar” o'yiniga to'xtalib o'taman. Bunda o'quvchilar guruhlariga ajratiladi va har bir guruhga “Zamonaviy uylar” qurish uchun “g'ishtchalar” taqdim etiladi. “Tom” chalarga so'z turkumlari nomlari yoziladi. O'quvchilar so'z turkumlariga doir so'zlarni aralash tartibda berilgan g'ishtchalardan topib, tegishli uychalarni qurishi kerak bo'ladi. Albatta, bu o'yinda bilim, tezkorlik va hamkorlik juda muhimdir. Muhimi o'quvchilarning o'sha fanga, maktabga va o'qishga bo'lgan ishtiyoqi yanada oshadi.



“Innovatsiya” –bu yangilik demakdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta‘limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogic texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, ta‘lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko‘pincha darslarimda “Blits-o‘yin” texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan narsanng ko‘p xilma-xil ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g‘oyalardan va yangipedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini ,mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Biz o‘qituvchilar har doim jajji o‘quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo‘lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda,didaktik o‘yinlar,interfaol uslublar,ta‘limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilganadabiyotlar:

1. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2018-yil,9-son,8-bet.
2. “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar”,T.G‘afforova, Toshkent-2016.
3. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali,2017-yil,7-soni,20-bet.
4. “Mahoratli pedagog” jurnali,2019-yil,5-son,26-bet.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIMDAN FOYDALANISH.

Yuldosheva Sarvinoz Toshpulatovna
Buxoro viloyati Shofirkon tumani
6 – maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda muammoli o'qitish texnologiyasini ahamiyati, qo'llanilishi, ta'lim – tarbiyadagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: muammoli vaziyat, muammoli ta'lim, texnologiya.

Muammoli ta'lim boshlang'ich ta'lim tizimida ta'lim – tarbiya jarayonini faollashtirish, o'quvchilarning o'quv – biluv jarayoniga extiyoji, qiziqishi va hoxishlarini ortirishga sabab bo'ladi.

Agar o'quvchi muammoli ta'limning mazmun – mohiyatini yaxshi o'zlashtirib olsa, o'quv jarayonining shakl va metodlarini, texnik jixatdan jihozlanishini amalda qo'llay olsa, u o'z – o'zidan muvaffaqiyat keltiradi. O'qituvchining didaktik jixatdan tayyorgarligi juda muhimdir. U o'z navbatida o'quvchining ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirib olishga kafolatdir.

Muammoli ta'limni muvaffaqiyatli kechish shartlari.

1. O'quv materialini muammolashtirish.
2. O'quvchining faol ishtirok etishini ta'minlash.
3. O'qitishning bola hayoti, yashash, turmush tarzi bilan, mehnati, o'yin bilan o'zaro aloqasini bog'lash.

Muammoli vaziyatlarni yaratish usullari.

1. O'qituvchi bolalarni ziddiyatni tug'dirish holatiga keltiradi va o'zlariga yechimni topishni taklif etadi.
2. Amaliy faoliyatdagi ziddiyatlar to'qnashuvini vujudga keltiradi.
3. Bir xil savolning o'ziga javobni berishda har xil fikrlarni bildiradi.
4. Hodisani har xil pozitsiyadan turib, ko'rib chiqishni taklif qiladi.
5. Taqqoslashga, umumlashtirishga, xulosalar chiqarishga undaydi.
6. Aniq savollarga aniq yechimlarni topishni so'raydi.
7. Muammoli topshiriqlarni qo'yib, yechimini topishga har bir o'quvchini o'z shaxsiy fikr va qarashlarini so'raydi.

Umumta'lim maktablari oldida turgan bosh maqsad o'quvchilarning har tomonlama garmonik rivojlanishini ta'minlashdan iborat. O'qituvchi, o'quvchi shaxsini har tomonlama va garmonik rivojlanishini ko'rsatuvchi asosiy faktor, uning yuqori darajada mustaqil fikrlash, o'z nuqtai nazarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Agar o'quv jarayoni o'quvchi – o'quvchini mustaqil fikr yurita olishga o'rgatsa, unday ta'limni rivojlantirishga asoslangan o'quv – biluv jarayoni deb qabul qilish mumkin.

O'quvchini fikrlashga yo'naltirilgan maxsus vositalarni qo'llab, uni fanga qiziqitirish, erkin fikrlashga o'rgatish, rivojlantirish tizimi yaratib borilsa, buni muammoli ta'lim deyish mumkin.

O'quvchini faollashtirishda samarali ta'lim metodini amalga oshirishda yangicha didaktik yondashuv asosida olib borilishi tushuniladi. O'quvchilarning aqliy fikrlashlarini tayyor, avvaldan tayyor, mavjud bo'lgan yo'llar bilan o'stirish maqsadga erishishning oddiy usuli bo'lib, u ijodkorlikka, izlanuvchanlikka olib kelmaydi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchi tahlillar asosida qo'llash, sintez qilish, umumlashtirish, faktik materialni aniqlashtirish, o'zi mustaqil, yangi axborot oladi.

Boshqacha aytganda, ilgari olgan bilimlarini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, o'zlashtiradi va amalda qo'llay bilishga harakat qiladi. Olgan bilimlarini hayotda qo'llashda o'qituvchi qo'llanma, darsliklardan tayyor bilim olishni bermaydi, u o'quvchi tomonidan izlab topiladi. Mana shu holatda izlanuvchanlik, sinchkovlik, ishlash metodikasi va ko'nikmalari shakllanib boradi.

Aqliy izlanish – juda murakkab jarayon bo'lib, u asosan muammoli vaziyat vujudga keltirilganda, aniq muammolar ko'rsatilgandagina vujudga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchiga topshiriq berib, uni qanday bajarish yo'lini aytib, uni bajarishga undasa, bu muammoni yechishga kirmaydi. Bu o'quvchini tanxo o'zini yagona yechishga o'rgatadi xolos.

O'quvchini haqiqiy faollashtirish, uni muammoni mustaqil fikrlash, nazariy va amaliy tamoyillarini hisobga olish, tahlil orqali muammo yechimini o'zi o'ylaganidek yakun toptirishga




olib kelishi kerak. Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limdan o'zining maqsad, prinsiplari, metodlari, vazifalari jihatidan keskin farq qiladi. An'anaviy ta'limning bosh maqsadi ilgari fanga ma'lum bo'lgan, bilimlarni o'zlashtirish, o'quvchini fanga ma'lum ma'lumot bilan qurollantirish, ular haqida tushuncha, ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iborat. Muammoli ta'lim darajalari.


Birinchi bosqich. O'qituvchi muammoni to'liq yoritadi va uni yechimini topib beradi. Qarshi savollar yordamida o'quvchilarni fikrlashga ixtiyoriy majbur etadi.

Ikkinchi bosqich. O'qituvchi muammoni qo'yib, uning mazmun – mohiyatini ifodalaydi. Keyin o'quvchilarni muammo yechimini mustaqil izlashga yo'naltiradi.

Uchinchi bosqich. O'qituvchi muammoni bayon etmaydi, balki muammoli vaziyat yaratadi. O'quvchilar mustaqil fikr yuritib, muammoli vaziyatdan chiqish yo'llarini izlab topadilar.



To'rtinchi bosqich. Bunda o'qituvchi izlanish sohasini belgilaydi xolos, muammoga yaqinlashib boradi, lekin uning mazmuni yoki yechimini ko'rsatmaydi. O'quvchini mustaqil faoliyatga yo'naltiradi. Muammoli ta'limda o'qituvchi o'quvchini murakkab tushunchalar mazmuni bilan tanishtirish jarayonida unga sistemali ravishda muammolar qo'yib boradi, o'quvchiga axborot beradi, o'quvchi mustaqil xulosalar chiqaradi, umumlashtiradi va o'qituvchi yordamida ma'lum tushuncha, qoidalar, xulosalar chiqaradi. Muammo – ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subektiv shaklidir.



O'qitish – shunday holatki, o'qituvchi o'z faoliyatida ta'lim mazmunini bayon qilishda qator muammoli vaziyatlarni keltiradi. Bir vaqtda shu yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida muammoni hal etishga undaydi. Muammoli o'qish – o'quvchilar o'quv – biluv jarayonida muammoli vaziyatni tahlil etish, sintez qilish, umumlashtirish asosida uning yechimi bo'yicha takliflar, farazlar, keltiradilar, qarashlarning to'g'riligini isbotlashga harakat qiladilar. Muammoli vaziyat – bu insonning intellektual qiyinchilikda paydo bo'lgan vaziyatdan chiqish jarayoni, bunda ma'lum va noma'lum faktlarga suyanib, maqsad sari intilish, vaziyatdan chiqish olishga intilish, qiziqishlar orqali ijodkorlikka, pirovard natijani olishga intiladi. Psixologlar tomonidan muammoli vaziyatlardan chiqishda sarmahsul ishlay olish, chiqish ketma – ketligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiyamaliy konferensiya materiallari.- T.: Uz PFITI, 1999 y.
2. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy
3. asoslari - T.: «Fan» nashriyoti, 2006 y.



ЁШЛАРНИ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Зухра Ҳайдарова

Тошкент шаҳар юридик

техникуми ўқитувчиси

Телефон: +998996476210

haydarovazuxra@gmail.com

Аннотация: Маълумки, ҳар қандай халқнинг анаъна, урф-одатлари агар шу халқ, миллатнинг тараққиётига хизмат қилар экан у энг муҳим қадриятларга айланади. Ва шу қадриятларни авайлаб асрашга ҳаракат қилинади, чунки улар халқ маданияти ривожига муносиб ҳисса қўшади.

Мазкур мақолада муқаддас ислом динининг ҳаққонийлиги ва покчилиги, инсонпарварлиги ва албатта бағрикенглиги, шу билан бирга ҳаёт синовларида ўзини оқлаган қадрият ва анъаналарни аجدодларга етказишидаги ўрни ва аҳамияти бекиёс экалигига асосий эътибор қаратилади. Шунингдек, Тошкент шаҳрида Ислом цивилизацияси марказини барпо этиш ва ислом цивилизацияси ривожига учун бекиёс хизмат қилган буюк аجدодларимизнинг бой илмий маънавий меросини ёш авлодга етказиш учун қилинаётган савобли иш эканлиги алоҳида таъкидланади.

Тягч тушунча ва сўзлар: Дин, маданият, жаҳолат, Ислом конференцияси ташкилоти (АЙСЕКО), ҳадис, миллий ғоя, анъана, урф-одат, эзгуликни тараннум этувчи ғоя, маънавий мерос, маънавий баркамол авлод, цивилизация, “Саҳиҳий Бухорий”

Маълумки, халқимиз ислом дини ва маданияти ривожига, миллий қадриятларни авайлаб-асрашга азалдан бекиёс ҳисса қўшиб келади. Маънавиятни юксалтиришдаги асосий мезонлардан бири, қудратли омил бўлиб келаётган ҳам, ҳаёт маъносини англаш, миллий маданиятимиз ва турмуш тарзимизни, қадриятларимиз, урф-одат ва анъаналаримизни безавол сақлаб келаётган ҳам муқаддас динимиздир. Шу боисдан ҳам, бутун дунёда ислом динига бўлган қизиқиш ва интилиш кучайиб, унинг тарафдорлари ва хайрихоҳлари тобора кўпайиб бормоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев бунинг сабабини “Жаҳолатга қарши маърифат ва таълимни кучайтириш орқали курашиш, шу асосда башарият фаровонлигини тарғиб қилиб, инсонларни эзгуликка даъват этиш йўлида . . . муқаддас исло динимиз бизга айнан шуни ўргатади ва ўйлайманки, бундай ёндашув бугунги давр талаби бўлиб қолади”¹, деб таъкидланади. Дарҳақиқат, муқаддас динимизнинг ҳаққонийлиги ва покчилиги, инсонпарварлиги ва бағрикенглиги, одамзотни доимо эзгуликка чорлаши, ҳаёт синовларида ўзини оқлаган қадрият ва анъаналарни аجدодлардан авлодларга етказишдаги ўрни ва аҳамияти бекиёсдир.

Нуфузли халқаро ташкилот бўлимиш Ислом конференцияси ташкилотининг таълим, фан ва маданият масалалари бўйича тузилмаси – АЙСЕКО томонидан Тошкент шаҳрининг 2007 йилда “Ислом маданияти пойтахти” деб эълон қилиниши улкан тарихий-маданий ва сиёсий аҳамиятга эга воқеалик бўлди. Бунга Ўзбекистон Республикаси Биричи Президенти И.А.Каримов шундай изоҳ берган эди: “Бугун биз гувоҳ бўлиб турган юксак эътироф, аввало, ана шу аجدодларимизнинг таббарук номлари ва қолдирган меросига, ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган бекиёс ҳиссасига берилган муносиб баҳо десак, айти ҳақиқатни айтган бўламиз”². Ана шу юксак эътироф ва ишонч, буюк даҳоларимизнинг бебаҳо мероси ҳамиша бошимизни баланд, қаддимизни тик қилади, бағри кенг ўзбек миллатининг келажига буюк давлат қуришида, ўз иймони, эътиқодлари, маънавий руҳлари билан қўллаб-қувватлаб олға етаклайди.

Тарихнинг ўтган қисқа даврида биз эзгу мақсадларга эришишда, миллий қадриятларимиз

¹ Ш.М. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 418.

² Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган бекиёс ҳиссасининг юксак эътирофи. Президент Ислом Каримовнинг “Туркистон-пресс” нодавлат ахборот агентлиги мухбирига берган интервьюси. Ўзбекистон овози, 2007 йил 24 февраль



ва ўзлгимизга садокат билан ҳаёт кечиришда, ўз ғоямиз, ғуруримизни англашда муқаддас динимизнинг ўрни ва аҳамияти бекиёс. Бу туйғунинг илдизи бўлган ўтмиш эса бугунги кунга ҳамоҳанг буюк аждодлар ғоялари, тафаккури билан маънавий боғлиқдир. Шунинг учун ҳам, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенглик миллий мафкурамизнинг асосий ғояларидан бири ҳисобланади. Бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрда АҚШнинг Нью-Йорк шаҳрида бўлиб ўтган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нуткида “Биз бутун жаҳон жамоатчилигига ислом динининг асл инсонпарварлик моҳиятини етказишни энг муҳим вазифа, деб ҳисоблаймиз. Биз муқаддас динимизни азалий қадриятларимиз мужассамининг ифодаси сифатида беҳад қадрлаймиз”¹, деб таъкидлади.

Башарият тарихидаги энг буюк сиймолардан бири Имом ал-Бухорийдек улуғ зотнинг Ўзбекистон табаррук заминидан етишиб чиқиши ҳам тасодифий ҳол эмас, албатта. Буюк ватандошимиз Имом ал-Бухорий билан ҳар қанча фахрлансак арзийди. БМТ минбаридан туриб Ш.Мирзиёев унинг энг ишончли ҳадислар тўплами - “Саҳиҳи Бухорий” китоби на фақат ўз замонаси учун, балки ҳар қандай жамият учун ҳам том маънодаги тарихий, маънавий ва тарбиявий аҳамиятга молик асар эканлиги хусусида фикр юритиб: “бу улуғ зотнинг ғоят бой меросини асраб-авайлаш ва ўрганиш, маърифатий ислом тўрисидаги таълимотни кенг ёйиш мақсадида Самарқанд шаҳрида Имом Бухорий номидаги Халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш”², тўғрисида қарор қабулқилганини айтиб ўтди. Шунингдек Тошкент шаҳрида Исломи цивилизацияси марказини барпо этиш ва ислом цивилизацияси ривожини учун бнқиёс хизмат қилган буюк аждодларимизнинг бой илмий-маънавий меросини ёш авлодга безавол етказишдек савобли ишлар амалга оширилаётганини таъкидлади. “Мақсадимиз, - деди Ш.Мирзиёев, ислом динининг ҳақиқий инсонпарварлик моҳиятини, маърифий исломни болаларимиз онгига сингдириш. Шу йўлда бизнинг буюк аждодларимиз қандай улуғ ишларни амалга оширганлари ҳақида улар ана шундай масканларга келиб ўзлари учун керакли бўлган, энг муҳим бўлган билим ва тасаввурларга эга бўлади. Энг асосийси, уларнинг қалбида бой тарихимиз, маданий меросимиз билан фахрланиш туйғуси камол топади”³.

Бугунги кунда маънавий баркамол авлодни вояга етказиш учун миллатимизнинг ҳар бир вакили ўз фарзандини миллий ғоя, анъаналаримиз, тилимиз, муқаддас динимиз ва бой ўтишимизда чуқур из қолдирган буюк сиймоларимизга муҳаббат ва ҳурмат руҳида тарбиялаш билан бирга жаҳоний ўзигагина хос бўлган инсонпарварлик, байналмиллик, самимийлик ва бағрикенглик руҳида ҳам тарбиялаши, ҳар қачонгидан ҳам зарурроқдир. Мустақил Ўзбекистон аталмиш жаннатмакон юртда шу номга муносиб миллат яшамоқда. Бу юртда унинг ота-боболари, авлод-аждодлари, буюк зотлари яшаб ўтган. Дунёда ўзига яраша юксак салоҳиятли, беназир нуфузига мос равишда ўрин эгаллаётган, турли миллатлар ичида буюк ўтмишга эга бўлган ўзбек миллатига қараб, ҳавас қилади.

Мамлакатимизни замонавий тарзда ривожлантиришнинг асосий тамойилларидан бири – бу халқимизнинг маънавий меросини ўрганишни кучайтиришдан иборат эканлиги таъкидлаб келинмоқда. Шу мақсадда диний-маърифий қадриятларимизни ўрганиш, асраш ва ҳимоя қилиш, шу асосда ёш авлод қалби ва онгига эзгу ғояларни сингдириш борасида улкан ишлар амалга оширилди.

Ҳар қандай мамлакат тараққиёти ва дунёдаги обрў-эътибори, аввало, шу эл-юртда қарор топган тинчлик-осойишталикка, шу ерда яшаётган барча миллат ва элат вакиллариининг тотувлигига боғлиқ.

Юртимизда турли миллат ва динларга мансуб кишилар ўз эътиқодларини амалга ошириш борасида зарур шарт-шароитларни яратиб беришга, диний қадриятларни асраб-авайлашга, жамиятимизда миллатлараро ҳамжихатликни ва улар ўртасидаги дўстликни

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // XXI SAR, 2017 йил 21 сентябрь

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. // XXI SAR, 2017 йил 21 сентябрь

³ Ш.М.Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси қабул қилинганнинг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – Тошкент. Ўзбекистон, 2018. – Б. 22.



ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, Конституциянинг 31-моддасида белгилаб қўйилгандек, “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга. Диний қарашларни мажбуран сингдиришга йўл қўйилмайди”¹.

Эзгуликни тараннум этувчи бу ғоя на фақат диндорлар, балки жамиятнинг барча аъзолари ҳамкорлигини ҳам назарда тутди. Шундай экан, бағрикенглик ғояси тинчлик ва барқарорлик таъминланган озод ва обод Ватан қуришнинг муҳим шартидир. Зеро, Президент Ш.Мирзиёевнинг “Жамиятимизда соғлом фикр, соғлом куч устувор бўлиш учун биз маънавий ҳаётимизни юксалтириш, аҳоли, аввало, ёшларимизни турли зарарли таъсирлардан асраш, уларни ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тарбиялаш ҳақида мунтазам ўйлашимиз, фаол иш олиб боришимиз зарур”², таъкидалагани ҳам бежиз эмас.

Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд моддий-маънавий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО рўйхатига киритилган. Шунингдек, ЎзР ФА Шарқшунослик институти ва Адабиёт музейи, Ўзбекистон мусулмонлари идораси кутубхоналари ва Тошкент Халқаро Ислом Академияси Манбалар хазинасида қўлёзма манбалари, шунингдек, Қуръоннинг энг қадимий қўлёзма нусхаси “Усмон Мусҳафи” ҳам Тошкентда сақланади. Буларнинг бари мамлакатимизда муқаддас динимиз ривожини, унинг миллат манпвиятини янада юксалтириш, ёшларимизни бой маънавий меросимизга ҳурмат-эҳтиром руҳида тарбиялаш, шу билан бирга уларнинг ҳуқуқий, маънавий-ахлоқий савиясини оширишда муҳим аҳамият касб этади.

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б.13.

² Ш.М.Мирзиёев. Конституция – эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. // Халқ сўзи, 2017 йил 1 сентябрь



ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛИКНИНГ ПСИХОЛОГИК МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ

Зиявитдинова Гулнора Зияутдиновна,
ЎЗМУ Психология кафедраси
катта ўқитувчиси
gziyavitdinova@mail.ru

Аннотация: Оила ҳар бир давлатнинг бир бўлаги экан, албатта унга бўлган эътибор ва психологик билимлар ҳар қайси тараққиёт даврида ўз долзарблигини йўқотмайди. Шунга кўра ушбу мақолада оилавий ҳаётга тайёрликнинг психологик адабиётлардаги олимларнинг қарашлари ва оила қуришга шахсни психологик тайёрлик компонентлари баён этилган.

Калит сўзлар: Оилавий ҳаётга тайёрлик, шахс, установка, ижтимоийлашув, масъулият, қадрият, рефлексия, эмпатия

Жамиятимиздаги ҳар бир оиланинг тинч-тотув яшаши, маънавий жиҳатдан бой бўлиши, оилалардаги фарзандларни буюк аجدодларимиз сингари диний ва дунёвий билимларга эга бўлган етук инсон қилиб тарбиялаш олдимизда турган энг асосий мақсаддир. Албатта бу жараёнда ҳар бир оиладаги ота-она ўз мажбуриятларини эсдан чиқармаган ҳолда ҳар тарафлама ўрнатиб бўлиши муҳимдир. Миллий урф-одатларимиз, анъаналаримиз ва қадриятларимиз асосида меҳрибонлик, оқибатлилик, ҳурмат ва эҳтиром каби хислатларни ёш авлоднинг онгига сингдириш лозимдир.

Бугунги кунда мамлакатимизда оила масаласи давлат сиёсати даражасига кўтарилгани бежиз эмас, албатта. Зеро, юрт тараққиётининг тамал тоши жамиятимизнинг асосий бўғини бўлмиш оилада қўйилади.

Ушбу ўринда оилавий ҳаётга тайёрлик масаласи жуда долзарб саналади, бироқ турлича тасниф қилинади, чунки тайёрлик тушунчасининг ўзи кўпинча бошқа атамаларга тенглаштирилади ёки тадқиқотлар контекстида бошқа феноменлар доирасида қаралади. Шундай қилиб, Р.Д. Санжаев тайёрликни эҳтиёжлар асосида фаолият, фаол ҳаракатда юзага келадиган установка, характер хусусиятлари сифатида тушунтиради. Муаллиф тайёрлик моҳиятини қуйидагича талқин қилади:

ривожланишнинг кейинги босқичига ўтишда зарур бўладиган хусусиятларнинг шаклланганлиги;

шахснинг янги ижтимоий талабларни адекват қабул қилиши ва талабларга мувофиқ ўзини ўзгартириш олиш қобилияти;

ижтимоийлашувнинг кейинги босқичида зарур бўладиган асосий ижтимоий ролларни муваффақиятли бажариш учун дастлабки шартларнинг шаклланганлиги;

мустақил равишда фаол ўз ижтимоийлашуви, ижтимоий таъсирларга нисбат ҳолат йўналишини аниқлай олиш қобилияти [3].

Е.В. Екжанова оилавий ҳаётга тайёрлик деганда, ишонч, қарашлар, муносабат, мотив, бўлажак оилапарвар ролини бажариш учун зарур бўладиган ахлоқий сифатларнинг намоён бўлиши (масъулият, ғамхўрлик, жасурлик, меҳнатсеварлик) асосида муваффақиятли оилавий ҳаётга ички йўналганлиги, шахснинг фаол-ҳаракатли ҳолатини назарда тутувчи мураккаб шахс таълимини тушунади [2].

У.К. Дьяченконинг фикрича, тайёрлик мураккаб шахсий таълим, функционал ҳолат бўлиб, муайян фаолиятга тайёргарлик даражаси, тайёрликнинг мазмуний-процессуал жиҳатларини белгилаб берувчи компонентлар тизимини ифодалайди. Мазкур ҳолат мувофиқ фаолиятга психологик йўналганлик, унинг мазмуни ва вазифаларини чуқур тушуниш, муқобил методларни ўзлаштирганлик, ривожланган рефлексия ва эмпатия, перцептив ва коммуникатив қобилиятлар бирлигидаги восита ва усуллар билан характерланади [1].

Тайёрлик масалаларига фаолиятли ёндашув доирасида унинг ўрни, аҳамияти ва функцияларига доир турли фикрлар мавжуд, бироқ деярли барча тадқиқотлар фаолият ҳамда шахс ҳаётининг ўзаро алоқаси ва ўзаро боғлиқлигига, яъни шахс фаолият алоқаларининг муайян тизимига қўшилмасдан туриб, тайёрлик шаклланмаслиги, бу эса, ўз навбатида, келгусида субъект фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини белгилашга доир назарий қоидаларга асосланади. Шу тариқа, фаолиятли ёндашув тайёрликни шахснинг муайян,



танланган, аҳамиятли объектларига нисбатан фаол муносабати сифатида ўрганади. Шу муносабат билан, тайёрлик фаол мия фаолиятининг умумий ўсишидан ташқарида содир бўлмайди, деб тахмин қилиш оқилона кўринади, чунки тайёрлик ҳолатини яратиш учун организмнинг фаоллик даражасини оширадиган, уни келгуси фаолиятида зарур бўладиган биокимёвий ва физиологик таъсир муҳим аҳамиятга эга.

Ўз моҳиятига кўра, оилавий ҳаётга тайёрлик шахснинг фаол-ҳаракатли ҳолати, оила куришда унинг установаки, оилавий ҳаёт тарзига ижобий муносабати, коммуникатив хусусиятлари, оилавий ҳаёт қадриятларини онгли қабул қилганлиги ва ҳоказоларда кўринади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Дьяченко У.К. Психологические проблемы готовности к деятельности. // Российский психологический журнал. - 2009. - №1. - С.122-129.
2. Екжанова Е.В. Проблема готовности к семейной жизни. // Вопросы психологии. - 2006. - №7. - С. 146-152.
3. Санжаева Р.Д. Психологические основы готовности человека к деятельности // Вопросы психологии. - 2010. - №4. - С.87-95.



МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ҚўЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ВА РЕИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ

Маджидова Дилдора Абдухамидовна,

Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий
институтининг илмий ходими, педагогика тадқиқот
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Телефон: +998 99 8370434

dildora26@mail.ru

Акбаров Баходир Абдурахмонович,

Ўзбекистон Педагогика фанлари илмий
институтининг илмий ходими, педагогика тадқиқот
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: мазкур мақолада Ўзбекистонда меҳнат мигрантларининг ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилишнинг педагогик-психологик омиллари ўрганилган. Шу билан бирга, ўз юртига ва оиласига қайтган меҳнат мигрантларининг жамиятга ва маҳаллий меҳнат бозорига реинтеграциясига оид хулосалар ифодаланган.

Калит сўзлар: миграция, меҳнат мигрантлари, ўз-ўзини бошқариш органи, оила, маҳалла, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, реинтеграция қилиш.

Ўзбекистоннинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва демографик ривожланиши бўйича стратегик режалар хорижга кетишни режалаштирган, хорижда меҳнат қилаётган ва меҳнат миграциясидан қайтганларни ижтимоий қўллаб-қувватлашга асосланган мос миграция сиёсати билан боғлиқдир. Бунда меҳнат мигрантларининг ҳаёт фаолиятларидаги юз берувчи ўзгаришлар билан боғлиқ бўлган психологик, ижтимоий муаммолар ҳал этилиши зарур бўлган мураккаб муаммолардан бири ҳисобланади. Чунки замонавий қарама-қарши ижтимоий тасаввурлар туфайли меҳнат мигрантларининг мослашувлари ва интеграция жараёнлари мураккабланиб боради.

Миграцион жараёнларнинг кучайиши аҳамиятли ижтимоий-маданий ва ижтимоий-психологик муаммолар мажмуининг юзага келишига ва олимларнинг меҳнат мигрантларининг ҳаёт фаолияти билан боғлиқ муаммоларига бағишланган тадқиқотларга эътиборнинг ортишига олиб келди. Нафақат Ўзбекистонда, балки бошқа мамлакатларда ҳам меҳнат миграциясининг оила ва болалар учун ижтимоий оқибатлари масалалари етарли даражада ўрганилмаган. Шу муносабат билан, даромад топиш мақсадида меҳнат миграциясига кетаётган фуқаролар оилалари учун ижтимоий-психологик ва педагогик қўллаб-қувватлашни ташкил этиш долзарб масалалигича қолмоқда. Глобаллашган ижтимоий-маданий муҳитнинг жадал ўзгаришлари сабабли субъект ва ижтимоий муҳитнинг уйғунлашуви, шахснинг мослашув механизмларини тушуниш муаммоси замонавий илмий-назарий ёндашувларни талаб этади.

Мазкур муаммоларни ҳал этиш, жумладан жамиятимиз барқарорлигининг меҳнат мигрантларининг ижтимоий муносабатлар ва алоқалар тизимида киритиш жараёни билан боғлиқ. Ўзбекистон Республикасида меҳнат мигрантларининг ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилиш долзарб масалалардан ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5938-сон Фармони, 2020 йил 15 сентябрдаги «Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4829-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида меҳнат мигрантларининг ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилишда фуқароларни ўзини-ўзи бошқариш органларининг олдида муҳим вазифалар белгиланган.

Расмий маълумотларга кўра, 2,5 миллиондан ортиқ Ўзбекистон фуқаролари даромад топиш мақсадида республика ҳудудидан ташқарида ишлашмоқда [1]. Уларнинг кўпчилиги қисми ўз юртида оиласи ва фарзандларини қолдириб, хорижда даромад топиш мақсадида меҳнат қилаётган юртдошларимиздир. «Халқаро миграцияда асосий ўринни меҳнат мигра-



цияси эгалламоқда. Чунки ҳозирги даврда инсоннинг яшаши учун иқтисодий омилнинг аҳамияти кучайди. Одатда миграциянинг асосий сабабларидан бири сифатида иқтисодий омил кўрсатилади” [2].

Мазкур вазиятда ихтиёрий жамиятдаги, жумладан бизнинг жамиятимиздаги барқарорлик, меҳнат мигрантларини ижтимоий муносабатлар ва алоқалар тизимига киритиш жараёнига боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикасида меҳнат мигрантларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилиш вазифаларини амалга оширишда хавфсиз ва қонуний миграция тизими жорий этилмоқда ва бу 3та йўналишда амалга оширилмоқда:

1. Хорижда меҳнат фаолияти билан шуғулланиш нияти бўлган фуқароларни касбий тайёрлаш ва хорижий тилларни ўрганишларида қўмаклашиш.

2. Хорижда меҳнат фаолияти билан шуғулланаётган Ўзбекистон фуқароларининг ҳуқуқларини ҳимоялаш ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш.

3. Меҳнат миграциясидан ўз юртига қайтганларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш ва реинтеграция қилиш, жумладан бандлигини таъминлаш.

Реинтеграция барқарор бўлиши учун индивидуал, жамоавий ва тузилмавий даражада реинтеграцияга таъсир кўрсатувчи иқтисодий, ижтимоий ва психологик омилларни инобатга олган ҳолда эҳтиёжларга асосланган яхлит миграция сиёсати муҳимдир.

Шу тариқа, бугунги кунда меҳнат миграциясига оид муаммоларни ҳал этишда меҳнат миграциясининг ижтимоий-ҳуқуқий, педагогик-психологик жиҳатларини ўрганиш, шунингдек хотин-қизлар, ёшлардан иборат меҳнат мигрантларининг ижтимоий мавқеини ҳисобга олган ҳолда жамиятга ҳамда маҳаллий меҳнат бозорига реинтеграция қилиш, жумладан уларнинг бандлигини таъминлаш юзасидан ўз-ўзини бошқариш органларининг фаолиятини такомиллаштириш муҳим аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган манбалар:

1. https://mehnat.uz/uploads/filemanager/source/Бандлик_таҳлили_1_кв_январь_март.pdf
2. Азаматова Г.Б. Халқаро меҳнат миграция жараёнида жаҳон ва Ўзбекистон иштирокнинг ўзига хос жиҳатлари // <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2019-3-12>
3. Ионина О.С. Особенности социально-психологической адаптации мигрантов к новым условиям жизни // <http://shgpi.edu.ru/files/nauka/vestnik/2014/2014-2-20.pdf>
4. Холмуминов Ш., Абдураманов Х. Қишлоқ аҳолисининг ташқи ва ички меҳнат миграцияларини самарали ташкил этиш // “Biznes-Ekspert” журналы, 2018 йил 11(131)-сон, 57-62 б.



ПРОЕКТНЫЙ И ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ МЕТОДЫ

Саттарова Мадина Абдуманнобовна

Учитель 18-й школы Булакбашинского района
Андижанской области

Аннотация: Инновации-это внесение новых методологий и стандартов в процесс.Инновационное образование несет в себе новые основы развивающего образования ; как его основной модернизирующий фактор.

Ключевые слова:педагогическая технология ; иновации ;исследовательский методы; обучения предполагают.

Технология- совокупность приемов ;применяемых в каком -либо деле ; мастерстве ; искусстве.

Применение новых информационных технологий в начальном образования с использованием элементов компьютерных технологий даёт возможность творчески работающему учителю расширить спектр способов подачи учебной информации, позволяет осуществлять гибкое управление учебным процессом.Педагогическая технология -совокупность психолого - педагогических установок, определяющих специальный набор и компоновку форм, методов, способов, приемов, обучения , воспитательных средств; она есть организационно -методический инструментарий педагогического процесса. Иновации -это внесение новых методологий и стандартов в процесс.Инновационное образование несет в себе новые основы развивающего образования, как его основной модернизирующий фактор. В нашей школе успешно используется соединения элементов компьютерной технологии с проектной исследовательский работой.Проектный метод обучения предполагают процесс разработки и создания проекта. В его основе лежит развитие познавательных интересов учащихся, критического мышления, умений самостоятельно конструировать свои знания и ориентироваться в появлять компетенцию в вопросах, связанных с темой проекта. Планирование проектной деятельности предполагает :

- определение источников информации ;
- итоговый продукт (формы представления результата)

Исследовательский метод обучения предполагают организацию процесса выработки новых знаний. Принципиальное отличие исследования от проектирования состоит в том, что исследование не предлагает создание какого - либо заранее планируемого объекта, даже его модели или прототипа.В организацию исследования входят следующие действия обучающихся;

- подумать самостоятельно о том, что облегчает этом известно, какие суждения можно высказать по этому поводу, какие выводы можно сделать из того, что уже известно о предмете исследования;
- просмотреть книги по теме и записать важную информацию;
- спросить у взрослых и записать интересную информацию; -просмотреть телематериалы и записать то, что узнали из фильмов;
- используя интернет, записать сведения, полученные с помощью компьютера;
- понаблюдать и записать необычные факты и парадоксы, полученные с помощью наблюдений;
- провести эксперимент и записать план и результаты.

В проектной и исследовательский деятельности детей развиваются важнейшие общеучебные, познавательные умения и навыки . Таким образом, современная школа должна воспитывать готовность человека к инновационному поведению. На смену послушание, повторению, подражанию приходят новые требования.

Литература :

- 1.Русский язык в начальном образования. 2001 год
2. Дудников А.В.Современный русский язык. М.1990



ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМИ

Урозова Райхон Абдиалимовна
Яккабоғ туман 8- мактабнинг
бошланғич синф ўқитувчиси

Аннотация. Мазкур мақолада дарс ўтиш жараёнида технологик хаританинг қанчалик муҳим ва аҳамиятга эга эканлиги кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар. Технологик харита, лойиҳалаштирилган дарс, мотивация.

Дарс таълим жараёнининг энг асосий қисми ҳисобланади. Дарс орқали ўқитувчи ўқувчиларга янги материал юзасидан билимлар беради ва ана шу эгаллаган билимларини ҳаракатга келтириб, кўникма ва малакага айлантиришни, ҳаётга тадбиқ этишни ўргатади. Шундай экан ўқитувчи дарснинг мазмунини, уни ўқувчига етказиш йўллари, усуллари, шакллари, воситаларини олдиндан белгилаб олиши ва бундан эришиладиган натижаларни аниқлаб олиши лозим. Дарсдан кўзланган мақсад ва ундан эришилган натижа бир хил бўлсагина, дарс самарали деб ҳисобланади. Ўқувчининг хоҳиши, қизиқиши ва эҳтиёжларини инобатга олиб, таълим марказига ўқувчи шахсини қўйиб, унда мотив ҳосил қилишга йўналтирилган ва натижаси қафолатланган яхлит ҳолатдаги дарсни ташкил этиш учун дарс жараёнинини лойиҳалаштириб олиш керак. Бунинг учун ўқитувчи дарснинг технологик харитасини тузиб олиши мақсадга мувофиқ бўлади. Технологик харитада ўқув жараёнининг босқичлари кетма-кетликда ва изчилликда берилади. Технологик харита орқали дарс жараёнини шундай жойлаштирилиши керакки, дарсдан кўзланган мақсадга эришиш йўллари, таълим берувчи ва таълим олувчининг фаолияти, улардан кутилаётган натижалар тўлиқ акс этирилиши лозим.

Лойиҳалаштирилган дарс асосида ўқитувчи дарс жараёнини бошқариш йўллари ҳам белгилаб олади. Янги материални ўқувчилар қандай ўзлаштирганликларини назорат қилади ва бу назорати замирида ўқувчилар фаолиятини баҳолаб олади. Ана шу баҳолаш натижасида билим бериш ва билим олиш фаолиятини текшириб, кўзланган мақсад нечоғли амалга оширилганлигини аниқлайди.

Лойиҳалаштиришлаган дарснинг технологик харитасини тайёрлаш учун ўқитувчи қуйидаги тайёргарлик босқичларини бажариши тасвия қилинади:

- дарснинг мавзусини аниқлаш;
- дарснинг мазмунини аниқлаш;
- бериладиган назарий ва амалий билимларни белгилаш;
- мавзуда акс этган таянч сўз ва атамаларни аниқлаш ва рўйхатини тузиш;
- мақсад ва вазифаларни белгилаб олиш;
- ўқув жараёнининг ихчамлатирилган мазмунини тайёрлаш;
- билим ва тушунчаларни эгаллаш, кўникма ва малакаларни ўзлаштириш учун сарфланадиган вақт бирлигини аниқлаш(вақтни тақсимлаш);
- дарснинг мақсадига кўра натижалани белгилаш;
- натижаларни олиш учун машқ ва топшириқлар, мустақил ишлар тизимини ишлаб чиқиш.

Технологик хариталарнинг тайёрланиши дарс турига боғлиқ. Шунга кўра технологик хариталар турлича тайёрланиши мумкин. Технологик харита асосида лойиҳалаштирилган дарсдан қуйидаги натижаларга эришилади. Ўқувчилар томонидан:

- таълим олувчилар таълим берувчиларнинг тайёр билимлари билан чегаралиганиб қолмасдан мустақил билим эгаллайдилар;
 - фанга бўлган қизиқишлари кучаядилар;
 - мустақил, эркин, танқидий, ижодий фикрлайдилар;
 - доимий изланадилар;
 - ўз қобилиятларини ривожлантирадилар;
 - ўзига ишониш ҳисси уйғонади;
 - ўз фаолиятларининг натижаларини таҳлил қиладилар;
 - ўз-ўзларини назорат қиладилар ва баҳолай оладилар;
 - ўз билимларини бир тизимга сола оладилар.
- Ўқитувчи томонидан:



- ўз фанини яхлит ҳолда тасаввур эта олади;
- яхлит ўқув жараёнини ташкил эта олади;
- ўқув жараёни босқичларининг кетма-кетлиги, изчиллигини таъминлайди;
- ўқув жараёнида ранг-барангликка эриша олади;
- дарс жараёнида вақтдан унумли ва ўринли фойдаланади;
- ўқув жараёнининг тизимлигига эришади;
- ўқитувчи ўқув жараёнининг ташкилотчиси, бошқарувчиси бўлади ва керакли ўринда ўқувчиларга ёрдам кўрсатади;
- дарснинг мақсади ва ундан эришиладиган натижани аниқлай олади;
- таълимнинг мазмунини ўқувчи шахсига йўналтира олади;
- ўқув жараёнини оптималлаштириш имкони туғилади;
- ўқувчи шахсини ривожлантириш самардорлигини таъминлайди;
- дарс жараёнини муайян мақсадга йўналтиради;
- таълимнинг мазмунини, уни ўзлаштириш усуллари ўқувчиларнинг имкониятлари ва қизиқишларига мослаштира олади;
- ўз фаолиятини ва таълим олувчининг фаолиятини назорат қила олади;
- замонавий методларни қўллаш имкони кенгаяди;
- билимларни ўқувчилар томонидан ўзлаштириб олишини қўлатлайди;
- ўз устида ишлайди.

Технологик харита асосида дарсда ўқув жараёнининг мотивация, билиш фаолияти, бошқариш фаолияти каби ўзига хос технологик вазифалари ўз аксини топади.

Ўқувчиларда мустақил билим ўзлаштириш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш, билим ўзлаштириш фаолиятини ўзи мустақил бажара олишига ишонтириш, энг асосийси “нимани, қандай ўрганиш керак?”лигини ўргатиш бу педагогдан юксак билим ва маҳоратни талаб этади.

Демак, ҳар бир ўқитувчи ўз устида ишлаши, замонавий дарсни ташкил қилиш учун замонавий усулларни тадбиқ этиши, бир сўз билан айтганда, инновацион ёндашиши муҳимдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Р.Ж.Ишмуҳамедов. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самардорлигини ошириш йўллари. Т.2004.
2. Педагогика. Расулов.Б. Т.2016.



СИНФДОШЛАРДА КУЗАТИЛАДИГАН БУЛЛИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ ВА КОРРЕКЦИЯСИ

ГУЛДУ. Педагогика ва Психология йўналиши
2-босқич магистранти **Янглиш Қаршиева Абдували қизи**
Телефон: 99 899-349-13-55

Аннотация: Ушбу мақола ўқувчи ёшлар орасидаги зўравон (яъни буллинг)лар ўрганилиб, бундай ўқувчилар хулқ-атворида ижобий таъсир этиш йўллари бағишланади ҳамда уларнинг хулқ-атворидаги камчиликларни коррекция ва профилактика қилишда мактаб амалиётчи психологлари қўл келади.

Калит сўзлар: Буллинг, коррекция, профилактика, хулқ-атвор, психолог, педагог.

Умумий ўрта таълим ўқувчиларини ҳали тўла маънода руҳий, психологик, жисмоний ҳамда ғоявий-мафкуравий жиҳатдан шаклланган деб бўлмайди. Ўқувчининг ёш ва яқка тартибдаги хусусиятларини инобатга олган ҳолда эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш талаб этилади. Шунга мувофиқ "... фарзандларимизни мустақил ва кенг фикрлаш қобилиятига эга бўлган, онгли яшайдиган комил инсонлар этиб вояга етказиш-таълим-тарбия соҳасининг асосий мақсади ..." ҳисобланади [1.61 б].

Ўқувчиларнинг маънавий олами ва тафаккурини замонавий билим, кўникма ҳамда малакалар билан бойитиш, ҳар томонлама баркамол авлодни тарбиялашнинг етакчи омилдир. Болаларни ўз қобилиятларини намойиш этишлари учун мактабларимизда барча шарт-шароитлар яратилиб қўйилган.

Педагогик тажрибаларнинг кўрсатишича тарбия уч нарсага эҳтиёж сезар экан: 1) илм-билимга; 2) истеъдодга; 3) машққа;

Шунга мувофиқ қобилиятли инсонни тарбия қилмаслик гуноҳ дейилса, ўз навбатида ноқобил одамга тарбия бериш ҳайфдир дейилади. Хўш ноқобиллик, қаердан шаклланади? Жавоб қийин эмас, оила ва мактабдан, ҳа шундай. Бола ўз вақтида мактаб таълимига қизиқтирилса, ўқитувчи қатори бўлмасда, ота-она ҳам болани масъулият билан дарс тайёрлашига кўмаклашса, оилада тегишли шарт-шароитлар яратилиб қўйилса, болада ўқув-билув фаолиятга оид масъулият шакллантирилса, боланинг иродаси аклидан қувват олса, меҳр-рағбат ўз ўрнида берилса, бундай бола ўз-ўзини тарбиялаш имконига эга бўла бошлайди.

Таълим-тарбия мактабнинг иши дейилса, ота-онанг яхши тарбия бермабди деб ўқитувчи бўлар-бўлмасга болани қойиса, икки ўртада болада ҳафсаласизлик пайдо бўлиб, ўқишдан кўнгли совий бошлайди. Айниқса ўсмир ёшидаги болалар атроф-муҳитдан ўзига таскин излайди. Зарурият эҳтиёж, қолаверса мажбурият юзасидан бола ўзига дўст топса, ҳамфикр топса, унинг мотиви нимага қаратилганлигини ўз вақтида англаб етиш зарур. Акс ҳолда онг, дунёқараш эндигина шаклланиб келаётган бола бир томонлама хулоса чиқариши боис "оммавий маданият" таъсирига тушиб қолиш эҳтимоли йўқ эмас. Қолаверса, кимни кимга тобе бўлиб қолиши, бировлар олдида эҳтиёж қулига айланиб сарғайиб туриш, беписандлик ва ўзгаларни камситиш учун шарт-шароит яратиб беради. Бунинг ёрқин далили ўлароқ синфдошлар ўртасида намоён бўладиган салбий муносабатларни олиш мумкин.

Биз фикр юритаётган "буллинг"-инглизчадан bully-зўравон, уришқок, безори деган маънони англатиб, айнан синфдошлар орасида оз сонда бўлсада учайдиган салбий одатларни билдиради.

Кузатувларимиз натижаси ўлароқ буллингга мойиллик хусусиятлари қуйидагича:

- Тажанглик
- Ўзбошимчалик
- Махмадоналик
- Қўрслик
- Қўполлик
- Уришқоклик
- Мақтанчоқлик
- Зўравонлик
- Тошбағирлик



- Турли синф (мактаб) жиҳозлари, мебелларига бефарқ қараш, бир гап билан айтганда синфдаги соғлом муҳитга соя солиш, билиб туриб, яъни атайин ўзига ёқмаган синфдошига зўравонлик қилишга қаратилган хулқ-атвордир.

Соҳа олимларининг кўрсатишича буллинг дунё педагогикаси ва психологияс фанининг муаммоси ҳисобланади. Шунга мувофиқ бу муаммо атрофлича ўрганилиб, сўнгги нукта қўйиш чора-тадбаирлари ишлаб чиқилмаган. Буллинг муаммосини ўрганишга қаратилган алоҳида интернет сайтлари ([www. Bully. Org](http://www.Bully.Org), www.bulling.com ва бошқалар) бежизга ташкил этилмаган.

Маълумки турли мамлакатларнинг таълим тизими ўзининг тили, дини, тараққиёт босқичи, миллий урф-одатлари, тарбияси ва турмуш тарзидан келиб чиқиб, бир-биридан фарқли томонларга эга. Бироқ соҳа мутахассисларининг олиб борган тадқиқотлари ўлароқ буллинг қурбонлари миқдори 15-20 фоизни кўрсатмоқда [2,1616].

Юқорида буллингга мойилликнинг ўнта хусусияти санб ўтилди. Бир қарашда бу хусусиятлар оддий, бирданига олдини олса бўладигандек кўриниши ҳам мумкин. Аммо ҳар бир хусусият йўқ жойдан пайдо бўлган эмас. Боланинг тажанг, ўзбошимча ва махмадона бўлиши кўпроқ носоғлом оила муҳитида қарор топади. Ота-она бир-бири билан келиш-маса, тарбияга талаб ҳар хил бўлса, болани ортиқча эркалатиб, сўнг қаттиқ интизомий талаблар қўйилса, орқасидан ҳаял ўтмай болага раҳм қилиб, моддий раҳбатлантирилса (пул берилса, совға қилишса, калорияли овқатлар билан сийлашса, машинада парк, хиёбонларга айлантириб келишса ва ҳоказо), аммо боланинг арзимаган камчилиги учун яна баланд овозда бакириб, дўқ-пўписа қилишса ёки бирданига калтакланса, “сен яхшилиқни билмайсан, аҳмоқсан, тентақсан” дейилса, бу жараён кундалик оилавий режимга айланиб борса, юқоридаги хусусиятлар илдиз отиб, боланинг характериға сингиб боради. Болада аста-секин қайта тарбияга муҳтожлик сезилади.

Ота-онани ёки мактабда ўқитувчи-тарбиячини болага буйруқ оҳангида муомала қилишлар, ўз қарори ва ҳукмини мажбурлаб ўтказишга интилиш, яъни авторитар ёндашув, жисмонан кучлилар овозини енгиб чиқишидан вужудга келадиган дисбаланс, буллингга мойилликни янада кучайтиради. Мойилликэса агрессив хулқ-атворга шароит яратади, мотив вазифасини бажаради. Бола тошбағирлиги туфайли олдиниға синф (мактаб) жиҳозлари, мебелларига бефарқ қараган бўлса, уларға зиён етказиш, уларни бузиш, парталарға ҳар хил ёзувлар ёзиб қолдириш билан ўзини кўрсатади.

Ҳар қандай шароитда буллинг мойилликни ўзига одат қилиб олишдан бошланади. Ўқитган синфида, яъни тенгдошлари орасида кескин қаршиликларға учрамайди. Хамирдан қил суғургандай, ими-жимида, силлиққина ўз фаолиятларини давом эттираверишади. Айни пайтда булли ўзининг жисмоний кучға ҳам ишонади. Синфдошлари буллинг юқори синфда акаси ёки опаси борлигини, мактабда қариндоши ўқитувчи бўлибишлашини билишса, булли улардан ёрдам олмасада, бу барибир буллинг жараёни учун бир имкониёт ҳисобланади. Болалар бир-бирлариға “сен ҳам юқори синфда аканг бўлса сени ҳам қариндошининг ўқитувчи бўлса, сен ҳам ҳовлиқасанда,” –деб тасалли беришлари мумкин. Бундан ташқари, амалдор, ўзига оиланинг болаларидан чиққан булли синфдошининг ташқи кўриниши, кийими ўзини тутиши, гапи муомаласи, билими, спортга қобилятиға қараб ҳам муносабатға киришади. Синфдошининг телефони қимматли бўлса, ахборот воситалариға қараб ҳам муомалалари ўзгаради.

Баъзан синфда майда ўғирликлар ҳам кузатилади. Кўпинча пул йўқолади, камдан кам ҳолларда қўл телефони ҳам йўқолиши мумкин. Болалар бу иш билан кимлар шуғулланишини тахминан билишсада синфда бир-бирларини сотишмайди. Айниқса, буллинг жараёни иштирокчилари ўзларини катталардек тутишад. И. овоз ҳатти-ҳаракат, юз ифодасининг жиддийлиги, қўл гавда ҳаракати ва шунга мутаносиб равишда қадам олиш қабилар жараёнға хос реакцияни ифодалайди. Қўлидаги телефони, қимматли спорт кийимлари, чўнтагидаги пули, қимматли таомлар истеъмол қилиши буллингға алоҳида роҳат бағишлайди.

Энди ўқитувчи, синф раҳбари ёки амалиётчи психолог шундай ҳолатға, яъни буллинг фаолиятиға дуч келиб қолди дейлик, бунда қандай муомала, муносабат бўлиши керак? Бу ўринда тарбия технологияси нуктаиназарида ёндашилиб, буллиға ҳеч нарса бўлмагандек ёки “шундай бўлиши лозим” маъносида ёндашмоқ керак. Чунки ахлоқ-инсонлар орасидаги муносабатларни тартибға солувчи муҳим мезон. Шундай экан, ўз навбатида булли, яъни



буллинг ҳаракатини содир этувчи болалар ўз-ўзига ҳурмати ва ишончи юқорилиги билан ажралиб туришади. Демак, ўқитувчи, синф раҳбари ва психолог буллинг ишончига киришига ҳамда ўз навбатида ўзига ҳам ишонтиришга эришмоғилозим. Бу жараённинг механизми шундан иборатки, раҳбар буллига озгина “меҳр” кўрсатмоғи, у “ёмон кўрганни била туриб” “ёмон кўришиш”, бир оз бўлсада “ёмон бола”ни камситиб чақирмоғи лозим. Ўрни келганда “сен яхши психолог экансан, менга ёрдамнинг керак, мен анча қийналиб қолдим, ҳамкорлик қилайлик, сен менга, мен сенга ёрдам берайин”дан иш бошлаган лозим.

Булли(лар) ўзига-ўзи жафо қилувчилар ҳисобланади. Бир синфда қўпи билан 3-4 та булли бўлиши мумкин. Айрим жамоа фаолияти илмий-амалий асосга қўйилган синфларда буллиллар учрамаслиги ҳам мумкин. Буни изланишларим жараёнида гувоҳи бўлдим. Аммо бир нозик ҳолат, бу ўқув йилида кузатилмаган буллинг фаолияти кейинги ўқув йилларида шаклланиб қолиши мумкин экан. бунинг объектив ва субъектив сабабларини алоҳида мавзу кўринишида лозим топдим.

Юқоридаги фикрларни умумлаштирган ҳолда буллинг профилактикаси ва коррекцияси тўғрисида куйидаги хулосаларга келинди.

1. Мактаб амалиётчи психологи бошчилигида буллинг фаолиятини ўрганувчи махсус ишчи хайъати тузиш. Бунда:

1.1 Қай ўринларда буллинг фаолиятини кузатиш, уларни суҳбатга чорлаш, жазолаб эмас, ҳамфикрдек муомала қилиш;

1.2 Булли ота-оналари билан яқиндан алоқа ўрнатиш. Уларга педагогик-психологик таъсир кўрсатиш чораларини белгилаш;

1.3 Синфда (ёки мактаб доирасида) буллинг фаолиятини ёритувчи видеофильмлар намойиш этиш. “Зўравонлик ва унинг оқибати”, “Кишиларга озор беришнинг гуноҳи”, “Агрессив хулқ-атвор ва унинг келиб чиқиш сабаблари” каби мавзуларда семинар-тренинглар ўтказиш. Бундай тадбирларга ота-оналар, ички ишлар ходимлари, масжид имомлари (ходимлари)ни жалб этиш мақсадга мувофиқ.

2. Мактаб низоми, ўқувчилар қондиасидаги “мумкин” ва “мумкин эмаслар”ни чегаралаб олиш;

3. Мактабда маънавий-ахлоқий тарбия талабларини кучайтириш.

4. Синф жамоасида ҳамфикрлилик ва дўстона муносабатларни қарор топтириш.

5. “Оила-мактаб-махалла” ҳамкорлигида буллинг фаолиятини чеклаш масаласида аниқ тадбирлар ишлаб чиқиш. Ҳамкорлик педагогикаси фаолиятини илмий амалий-асосга қўйиш ва ҳоказо.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Каримов И.А “Юксак маънавият енгилмас”-Т.: Манавият,2008.176 б

2. Глазман О.Л. Психологические особенности участников буллинга // Известия Российского государственного педагогического университета имени А.И.Герцена. Санкт-Петербург, 2009-№105.С.159-165.

3. Зейганик Б.В. Потапсихология-М.: Университет, 1986.-288 с.



MASOFAVIY TA'LIMDA "BIGBLUEBUTTON" DASTURIDAN FOYDALANISH

Abdusamatov Samandar

Andijon davlat universiteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada masofaviy ta'limda axborot texnologiyalarining o'quvchilarga bilim berishda integratsiya masalalari hususida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: BigBlueButton, Javascript, Java, Scala

XXI asr axborot texnologiyalar asri ekanligi barchamizga ma'lum. Deyarli har bir sohada EHM, IT dan foydalanish oddiy holga aylandi. Rivojlanib borayotgan IT sohasi orqali ko'plab sohalarda yengilliklar vujudga keldi. Jumladan ta'lim sohasida ham. Ta'lim tizimida IT dan foydalanish orqali matematik hisob kitoblarni sodda holda hisoblash, fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish, elektron kutubxonalar yaratish kabi qulayliklarga erishish mumkin.

IT ayniqsa karantin davrida ta'lim tizimida katta hajmdagi ishlarni, darslarni, jarayonlarni tashkillashtirishda bevosita ishtirok etib kelmoqda. Butun jahon global ofatlaridan biri bo'lgan COVID-19 bizni mamlakatimizni ham chetlab o'tgani yo'q. U olamshumul bo'ron butun dunyoni qamrab olib ta'sir ko'rsatmagan javhasi qolmadi. Butun dunyo ta'lim tizimiga ta'sir qildi. Insoniyat bugungi kundagi rivojlanishlarga bundan bir necha asr oldin ham erishishi mumkin edi. Faqat jaholat va urush ular keltirib chiqaradigan yuqumli kasalliklar nafaqat ilm olishga shu bilan birga munosib hayot tarziga rga bo'lishga ta'sir qilib kelgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimi yana bir bor sinovni boshdan kechirmoqda. Butun jahonda oliy va o'rta ta'lim masofaviy tashkil etila boshladi. O'quvchilarni o'qitishda yangicha yondashish talab etilayotgan bu davrda hammamiz koronavirusga qarshi kurashmoqdamiz. Konfutsiy ta'kidlaganidek: "O'zgarishlardan qo'rqmanglar ular ayni vaqtida keladi" deganlar. Bugungi masofaviy darslar aslida bor, lekin ular zarurati ikkinchi darajada edi. Bugungi ko'rinayotgan kamchiliklar bizga bir saboq bo'lib tajriba o'rtirishimizga zamin bo'lmoqda.

BigBlueButton – bu dastur ko'plab videokonferensiyalar, yig'ilishlar, mitinglar hamda o'quv jarayonlarini boshqarish uchun ishlab chiqarilgan dastur hisoblanadi. 2020 yil 19-oktabrdan boshlab keng ommaga taqdim etilgan. Ushbu dastur Java, Scala, Javascript hamda React kabi dasturlash tillarida yozilgan. Bigbluebutton dasturini afzallik tarafi shundan iboratki dars o'tib borayotgan ma'ruzachiga talabalar bilan bog'lanishga qiyinchilik va muammo tug'dirmaydi va darsga umuman halaqit bermaydi. Yana bir afzalligi barchamizga ma'lumki O'zbekiston Respublikasining ko'plab joylarida internet sifati juda yomon ushbu dastur past darajadagi internet tezligi bilan ham bimalol uzilishlarsiz ishlatishimiz mumkin. Shu bilanbirga shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, ushbu ilovada trafik hajmi ham katta emas.

Xulosa. BigBlueButton dasturidan masofaviy ta'limda foydalanish anchagina yaxshi natijalar berishi mumkin. O'qituvchi darslarni platforma, veb-sayt va turli xil ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib cheklanmagan miqdorda talabalarga dars o'tish imkonini yaratadi. BigBlueButton dasturidan nafaqatq masofaviy ta'limda boshqa tadbirkorlik, sanoat va boshqa sohalarda ham foydalanish mumkin.

Videokonferensiyalar orqali darslarni koronavirus pandemiyasini batamom yengganimizdan keyin ham davom ettirishimiz mumkin, chunki talabalar brogan sari axborot texnologiyalari olamiga chuqur kirib bormoqda. Hozirda hayotimizni internet, kompyuter, telefon va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Google.com qidiruv tizimi.
2. Wikipedia.org qidiruv tizimi.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Ashrapova Nilufar Olimovna

Buxoro viloyat Buxoro tuman

26-maktab Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarda foydalanish, ularning o'quvchilar fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rib chiqdik.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ta'lim, fikrlash, zamonaviy pedagogik texnologiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratilgan elektron darslik, qo'llanma va taqdimotlardan o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. O'qish, ona tili, matematika va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalari yordamida turli xil ko'rgazmali slaydlardan dars jarayonlarida foydalanish mumkin. Masalan: o'qish va ona tili fanlarida katta ekranda harflarni, so'zlarni bir-biriga qo'shib o'qish, so'ngra kichik ertak va hikoyalarni o'qish, harflarni to'g'ri va chiroyli yozish; matematika fanida oddiy amallardan foydalanib, slaydlar yordamida masalalar yechish, turli xil hisob-kitobli o'yinlar tashkil qilish; tabiatshunoslik fanidan tabiatdagi hodisalar haqidagi soddal slaydlar yordamida tushunchalar berish mumkin. Ushbu usullardan foydalanish yosh va bilimga chanqoq o'quvchining og'zaki nutqini rivojlanishiga, og'zaki hisoblash malakasini oshishiga, ijodkorlik, izlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish o'qituvchiga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Bunga misol qilib, 4-sinf ona tili darslarida foydalanish uchun yaratilgan "Kelishiklar" mavzusidagi elektron taqdimotni aytish mumkin. Elektron darslikdan mustaqil ta'lim olishda va o'quv materiallarini har tomonlama samarali o'zlashtirishda foydalanish mumkin. Elektron darslikda fanning o'quv materiallari o'quvchiga interfaol usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o'rinli foydalaniladi. Kitob. uz saytida 1-4 sinf o'quvchilari uchun deyarli barcha fanlarning elektron darsliklari mavjud. Ammo ular matn va ovoz shaklida taqdim etilmagan. Elektron darsliklarni matn va ovoz shaklida, slayd-shou ko'rinishda berish maqsadga muvofiq. Audio va video axborotlarning o'zaro birgalikda qo'llanishi o'qitish samaradorligini keskin yuksaltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun RTM tomonidan yaratilgan "Sanashni o'rganamiz", "Alifbo saboqlari", "Aljabr", "5x5", kabi elektron dasturlar o'zining qiziqarliligi, o'quvchilar yoshiga mosligi, foydalanish uchun soddaligi, intellektual salohiyatni rivojlantirish, mantiqiy mushohada yuritishga chorlashi bilan ahamiyatlidir. "Sanashni o'rganamiz" – boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematika fanidan elektron o'quv vositasi. Mazkur elektron dars ishlanma orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari 4 amalni bajarish ko'nikmasini hosil qilish bilan birgalikda kompyuterning "sichqoncha" qurilmasidan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. "Alifbo saboqlari" - 1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, Alifbeni o'rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning afzallik tomoni shundaki, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish (harfni talaffuz qilish va yozish, o'sha harf bilan boshlanuvchi narsalarning nomlarini o'rganish)ga yordam beradi. Shuningdek, harflar o'rganilgandan so'ng, mustahkamlash maqsadida rasm beriladi. Berilgan katakchaga rasmdagi narsaning nomini to'ib yozish to'shiriladi. Shu yerda o'quvchining kompyuter orqali yozuv malakalari shakllantirilib boriladi, test bilan ishlashga ham o'rgatiladi. "Aljabr" - 1-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan dastur hisoblanadi. Dastur orqali o'quvchilar 10 ichida raqamlashni, tartiblashni, qo'shish va ayirish amallarini bajarishni, taqqoslashni o'rganadilar. Dastur o'quvchiga og'zaki misol yechishning avtomatik darajada o'zlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

"5x5" - 2-sinf matematika darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lib, karrali jadvalni o'rgatuvchi dastur hisoblanadi. Dasturning takrorlash qismida kompyuterning o'zi tartib bilan 2 dan boshlab 9 gacha karrali jadvalni o'rgatadi. Imtihon qismida esa o'quvchi mustaqil



ravishda jadvalni ishlab chiqadi. Shunisi e'tiborliki, bir xonani bajarmasdan turib, ikkinchisiga o'tmasligi o'quvchini o'z ustida ishlashiga majbur etadi. Dasturni o'qituvchi uchun haqiqiy yordamchi desak bo'ladi. Chunki, sinfning 30-40% o'quvchisi karrali jadvalni o'rganishida qiyinchilikka duch keladi. Dastur o'sha o'quvchilarga karrali jadvalning avtomatik darajada o'rganishlarini kafolatlaydi. Bugungi kun o'qituvchisiga qo'yilayotgan talab, dars jarayonida axborot texnologiyalarni qo'llay olishi, o'quvchilarni kompyuterdan erkin foydalanishga, zamonaviy bilimlarni puxta egallashga, ma'nan yetuk shaxs bo'lib yetishiga o'rgatishdan iborat. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Adabiyotlar:

1. D.S. Axatova «Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar» fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Navoiy – 2012



MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O‘YINLARNING AHAMIYATI

Ashrapova Nodira Olimovna

Buxom viloyat Buxoro tuman

26-maktab matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada matematika darslarida didaktik o‘yin turlari, ularni qay tarzda o‘tilishi va uning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: matematika, didaktika, didaktik o‘yinlar, ta’lim, jarayon.

“Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta’lim tizimi yosh avlodni barkamol, ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishda qarata olgandir “-deyiladi kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Hozirgi kunda ta’lim tizimida jumladan matematika darslarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy hamda amaliy asoslarni yaratish zarurdir.

Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish .”Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ikkinchi bosqich vazifalaridan biridir.Ta’lim kelajagida muvaffaqiyatlar kaliti ekan ,uning mahsuli sifatida bugungi o‘quvchi kelajagda huquqiy demokratik jamiyat a’zosi sifatida bu jamiyat hayotida ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo‘yayotgan talablariga to‘la javob bera olishi kerak. Axborot oqimi keskin ortgan, turliya yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotga davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yangilikni o‘rganishga doim tayyor bo‘lgan , hamkorlikdan cho‘chimaydigan,muloqatga erkin kirisha oladigan shaxsni talim-tarbiya jarayonining asosiy maqadi bo‘lishi kerak va bu borada texnologiyalarning qo‘llanishiga yo‘l ochilishi maqsadga erishish yo‘lidagi to‘g‘ri qadamdir. Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo‘lgan interfaol usullaridan keng foydalanilmoqda. Shu sababli matematika darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyadan foydalanib dars o‘tilsa,o‘qitish jarayoni takomillashadi. O‘quvchilarga o‘yinni o‘rgatishda muayyan ta’limiy maqsad nazarda tutiladi. O‘yinining eng muhim ahamiyati ham ana shundadir. O‘yin o‘tgazilish shakllari va usullari ta’limning boshqa turlaridan farq qiladi. Didaktik o‘yin usullari cheksiz, takrorlash va o‘zgartirish unga turli yangiliklar kiritish imkoni bor.Masalan. biz “Jimjitlik” o‘yining 5-7xilini butun sinf bilan hamda ayrim o‘quvchilar bilan 10 martadan ko‘proq takrorlab o‘tkazdik “Nima o‘zgardi?” turidagi o‘yin 5 xil turli ko‘rsatmali material bilan o‘tgazildi. Natijada o‘yin malakalarining bir xilda va mustahkam bo‘lishiga hamda o‘yinining har bir qoidasini tinglay bilish va unga rioya qilinishiga erishish imkonini berdi. Didaktik o‘yinlar o‘zining shakli jihatidan, asosan, bog‘chada o‘ynaladigan ijodiy o‘yinlardan ham o‘qituvchi o‘zi hikoya qilib berish yo‘li bilan tushintiradigan va o‘quvchilarni birma – bir so‘rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o‘yinlardan ham har tamonlama farq qiladi . Didaktik o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. O‘quvchilar g‘olib chiqish maqsadida jon- dili bilan mashq qiladilar,berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o‘yinlar har bir darsning maqsadini har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va o‘quvchilar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini o‘quvchilarning o‘ylab olishiga va aytilganlarini ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yin qoidalarini o‘zlari bajarishlariga undaydi. Didaktik o‘yinlarning bu tarzda tuzulish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham barcha o‘quvchilaro‘yin vaqtida zo‘r qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning his- tuyg‘usiga ta’sir etib, unda o‘qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. O‘quvchilar o‘yinda zo‘r mamnuniyat bilan ishtirok etadilar. O‘yin boshlanishini sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Har bir didaktik o‘yinda ko‘pchilik o‘quvchilar yoki butun bir sinf o‘quvchilari ishtirok etadi. Masalan, “Doiraviy misollar” o‘yinida hamma bolalar masala yechadi. “Zanjircha” da 10 nafar, “Do‘koncha”da 8 – 12 nafar bola, “Narvoncha”da esa hamma o‘quvchilar masala yechadilar.



Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat? Tajribada shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. "Eng yaxshi hisobchi", "Ko'rganni eslab qolish" kabi o'yinlarni o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskada chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tkazishlariga, tovushlari diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar. Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10-15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin o'tkazilayotgan vaqtda bunday bolalarning xulq –atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarini o'zlari mustaqil bajaradilar.

Adabiyotlar:

1. M. E Jumayev, Z.G' Tadjiyeva, O.Toshmetova, Z.Yunosova "boshlag'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi" toshkent 2005-yil.



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI.

Axmedova Nargiza Mustafoyevna

Navoiy Viloyati Karmana tumani

17 - maktabning Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotasiya. Zamonaviy innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi roli. Ularni qo'llash usullari va metodlari. O'quvchilarga oson va sodda usulda ta'lim berish va ta'lim sifatini oshirish.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, innovatsiya, texnologiya, metod.

Annotasiya. The role of modern innovative technologies in improving the quality of education. Ways and means to use them. Educate students in an easy and simple way and improve the quality of education.

Keywords: modern education, innovation, technology, method.

Аннотация. Роль современных инновационных технологий в повышении качества образования. Способы и средства их использования. Обучайте студентов легко и просто и повышайте качество образования.

Ключевые слова: современное образование, инновации, технологии, метод.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Talim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, talim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Boshlang'ich talim umumtalim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq etibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi mas'uliyatli ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir.

Boshlang'ich sinfda talim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o'quvchilarni talim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'proq bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va etiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakkam ehtiros bo'ladi.

Darsning oldindan loyihasi, yani texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining



pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtni aniq belgilash lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtasidagi uzviylikni taminlash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi.

Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Masalan, yo'l harakati darslarida “Yo'l qoidalar” mavzusida “Svetofor nima uchun kerak?” muammosi qo'yilsa, bolalar o'z fikrlari bilan baliq skeletini boyitib boradilar. Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar.

“Venn diagrammasi

Ushbu texnologiya ona tili, o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish, hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib, o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi

Foydalanilgan Adabiyotlar;

1. “Barkamol avlod yili” Davlat Dasturi. – T.: O'zbekiston, 2010.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: “Sharq”, 1998



1-SINF O'QUVCHILARINI MUSTAQIL ISHLASHGA O'RGATISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Botirova Nigora Ne'matjonovna

Sirdaryo viloyati Oqoltin tumani

15-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+99894 350 8007

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1-sinf matematika darslarida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishda didaktik o'yinlarning o'rni va ularni qo'llash imkoniyatlari ko'rsatilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ish, matematika, didaktik o'yin.

“Nomerlash” mavzusida o'tkaziladigan o'yinlar sonlarni hosil qilish, qatordagi o'rinni topish, narsalarni sanash, sonlarni taqqoslash, son tarkibini o'rganish maqsadlarda o'tkaziladi.

Bolalarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishini “matematik o'yin” o'tkazishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Didaktik o'yinlar o'yin usullarini cheksiz takrorlash va ozlashtirish, o'yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Masalan: **“Jim”** o'yinining 5-7 xilini butun sinf bilan hamda ayrim bolalar bilan takrorlab o'tkazish mumkin. Yana **“Nima o'zgardi?”** tipidagi o'yin turli xil ko'rsatmali material bilan o'tkaziladi. Natijada o'yin malakalarining mustahkam o'zlashtirishga imkon tug'iladi.

O'yin paytida bolalar psixologiyasining individual xususiyatlari, ularda shartli reflekslarning payda bo'lishi va ularning mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Didaktik o'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati nimalardan iborat?

Didaktik o'yinlar hamjihatlik va imtizonlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. Shulardan **“Sonni kim tez ko'rsatadi?” “Matematik topishmoq”, “Misollar zanjiri”** o'yinlari va hokazo.

Darsda o'yinqaroqlik qilib o'tiradigan va o'qituvchini bitta dars davomida 10-15 martagacha tanbeh berishga majbur etadigan bolalar ham uchrab turadi. Biroq o'yin otkaziladiga vaqtida bunday bolalarning xulq – atvori tamoman o'zgarib ketadi. Ular darhol o'zlarini tutib oladilar, o'qituvchining o'yin qoidalarini ko'rsatib berishini kutib o'tirmaydilar ham, qoidalarni o'zlari bajonu dil va mustaqil bajaradilar. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalarda uyushqoqlik, vaqtini iloji boricha tejay bilishi hislatlari tarbiyalanadi.

Matematik darslarida didaktik o'yinlardan, matematikaga oid she'rlardan foydalanish o'quvchilar zehni o'stirish, tez hisoblash ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi.

Quyida didaktik o'yin namunalari havola etamiz.

“Eng yaxshi hisobchi” o'yini.

Maqsad: narsalar soni bilan raqamlar orasida moslik o'rnatishni o'rgatish.

Jihoz: Bittadan o'ntagacha narsalar rasmi chizilgan kartochkalar, 1 dan 10 gacha qirqma raqamlar.

Mazmuni: O'qituvchi ko'rgazma taxtasiga predmetlar soni turlicha bo'lgan kartochkalarni qo'yadi. O'quvchilar ularning sonini tanlab, mos raqamli kartochkani ko'rsatishi kerak. Birinchi hisoblab to'g'ri raqamni ko'rsatgan o'quvchi – eng yaxshi hisobchi bo'ladi. O'yinni raqamga mos rasmini ko'rsat, qaysi rasmda narsalar ko'p, nechta ko'p degan savollar bilan mazmunan o'zgartirish ham mumkin.

“Poyezd tuzamiz” o'yini.

Maqsad: Sonlarning o'zidan oldingi songa birni qo'shib, yoki o'zidan keyingi sondan 1ni ayirib hosil qilishini tushuntirib, sonlar ketma- ketligini mustahkamlash.

Mazmuni: O'quvchilar doskaga ketma- ket chaqiriladi. 1-o'quvchi: “Men 1- vagonman”, 2-o'quvchi uning yelkasiga qo'lini qo'yadi va “Men 2- vagonman, $1+1=2$ bo'ladi”- deydi. 3-o'quvchi uning orqasidan yelkasiga qo'lini qo'yib; “Men 3-vagonman, $2+1=3$ bo'ladi” deydi va hokazo. 10 vagongacha. Misollarni qolgan o'quvchilar jo'r bo'lib aytadilar. Keyin vagonlar bittadan ajratiladi va $10-1=9$; $9-1=8$ $2-1=1$ misollar aytilib, o'quvchilar 1 tadan joyiga o'tiradi. Bu o'yinni har bir o'quvchi vagon ro'lini o'ynab ko'rguncha davom ettirish mumkin.

“O'z o'rningni top” o'yini.

Maqsad: Sonlarning tartibi haqidagi tassavurlarni mustahkamlash.

Jihoz: 1 dan 10 gacha yozilgan kartochkalar.



Mazmuni: O'quvchi 10 ta o'quvchiga ixtiyoriy tartibda kartochkalarni tarqatadi va uning: "O'z o'ringni top" degan hitobi bilan o'quvchilar tartib raqami bo'yicha 1 qatorga turib olishi kerakligini tushuntiradi. Qolgan o'quvchilar – nazoratchi bo'ladilar. Keyingi darsda o'quvchilarni vazifalari almashtiriladi yoki sonlarni tartib bilan ko'rgazma taxtaga terish vazifasini berish mumkin. Bunda o'tirgan o'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi va ular doskaga bir qator turib tartib bilan kartochkalarni teradilar.

Darsda o'yin texnologiyalardan o'rinli foydalanish darsni bayramga aylantiradi. Metodik kitoblarda hamma mavzularga oid didaktik o'yinlar tavsifini topish mumkin. O'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchisi tabiatiga eng yaqin faoliyat turi hisoblanadi. Shuning uchun ulardan foydalanish qiziqarli va foydali bo'lishini tajriba sinov ishlari ham ko'rsatdi.

Demak o'qitishni samaraliroq qilish, o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda interfaol metodlarning foydasi juda kattadir. Bunday metodlar har bir o'quvchini darsga jalb qilish, ularni o'z fikrini bildirishga, o'rtoqlari bilan fikr almashishga, atrofda fikrlarga munosabat bildirishga o'rgatish imkonini beradi. O'qituvchi izlanishga, yangilikni qo'llashga harakat qilsa, bu o'quvchilar bilimini mustahkamlash ishida o'z samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva B va b.q Matematika "1-sinf o'qituvchilari uchun ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo'yicha metodik qo'llanma T-2014.
2. M.Axmedov va b. 1-sinf "Matematika" darsligi T-2020 yil



TIMSS BAHOLASH DASTURINI ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BILAN QO'LLASH

Buriyeva Dilafroz Ikramovna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

3-umumta'lim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

917778263

ad.email.com.7780@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada TIMSS baholash dasturi asosida tabiatshunoslik darslarida o'quvchilarning bilim darajalarini tekshirish, uning amaliy va ilmiy jihatlari va bu baholash dasturini ochib berishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari ko'rsatib o'tildi.

Annotation: This article describes the TIMSS assessment program to test students' knowledge in science classes, its practical and scientific aspects, and how to use new pedagogical technologies in the disclosure of this assessment program.

Kalit so'zlar: Qo'riqxonalar, hayvonlar, ekologiya, zamonaviy texnologiya, foydali qazimalar, "Qizil kitob".

Key words: Nature reserve, animal, ecology, modern technology, minerals, "Red book".

Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarida O'zbekiston qo'riqxonalar mavzusini o'rgana turib, o'qituvchi tabiat muhofazasi bo'yicha qonuniy hujjatlar, ularni har biri jamiyatimiz fuqarosi tomonidan bajarilishi zarurligi to'g'risida gapirib berishi kerak.

O'qituvchi tabiat muhofazasi va tabiiy boyliklardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish to'g'risida qanday g'amxo'rlik qilinayotganini gapirib berishi, o'quvchilarni O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z aksini topgan tabiat muhofazasi to'g'risidagi modda bilan, shuningdek, O'zbekiston tabiatini muhofaza qilish jamiyatining nizomi bilan tanishtirib borishi kerak. Tabiat faqat jamiyatning moddiy hayoti uchun boylik olish manbaigina bo'lib qolmasdan, balki xalq ma'naviy boyligining asosi hamdir.

Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi. O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashlari mumkin.

Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan. TIMSS yordamida o'quvchilarning ta'limiy yutuqlari bilish, qo'llash, mulohaza yuritish baholanadi.

"Bilish" bo'limi o'z ichiga tabiatshunoslik darslarida obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar, ilmiy atamalar haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

TIMSS ning "Bilish bo'limi"ni o'ziga xos metodlar orqali amalga oshirish mumkin. Shunday metodlardan biri bu- "Tushunchalar tahlili" metodidir.

"Tushunchalar tahlili" metodi

Tushuncha (atamalar)	Mazmuni
Qo'riqxonalar	Tabiati boy bo'lgan joylarni muhofaza qilish uchun maxsus ajratilgan katta maydon
"Qizil kitob"	Noyob va yo'qolib ketishi xavfi bo'lgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar turlari haqida ogohlantiruvchi kitob



Biosfera rezervati	Biologik rang-baranglikni saqlash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun muhofaza etiladigan tabiiy hudud
Tabiat zonalari	Tabiiy sharoiti bir-biridan tubdan farq qiladigan quruqlikdagi katta maydonlar

“Qo‘llash” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni o‘zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o‘tkazish ko‘nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“Tarmoqlash” metodi



“Mulohaza yuritish”ga oid topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko‘pligi, turli bo‘limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.

Birgina boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarida qo‘riqxonalar mavzusini o‘qitish va uni mustahkamlashda “Muammo” texnologiyasi orqali o‘quvchilarni mazkur mavzu yuzasidan bilimlarini qay darajada ochib bera olishi sinaladi.

“Muammo” texnologiyasi

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoning yechimi
Yirtqich hayvon va qushlarning kamayib ketishi	- O‘rmonlarning yo‘q bo‘lib ketishi - Yirtqich hayvon va qushlarni ovlash	- O‘rmonlar barpo etish - Qo‘riqxonalarni ko‘paytirish va kattalashtirish

Tabiiy fanlarga asoslangan bilim hamda ko‘nikmalar har bir shaxsning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatida katta ahamiyatga ega, ilm-fan va unga asoslangan texnologiyalarni tushunish esa “yoshlarni hayotga tayyorlash”da markaziy o‘rinni egallaydi.

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik deganda shaxsning tabiiy fanlarga oid g‘oyalarni bilishi, faol fuqaro sifatida tabiiy fanlar bilan bog‘liq muammolarni hal qila olishi tushuniladi. Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxs tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolarni ilmiy dalillarga asoslangan holda muhokama qilishda ishtirok eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahramov A. “Tabiatshunoslik.” darsligi 4-sinf. T.: “Sharq” nashriyoti 2017.
2. Soliyeva Z. Pedagogika kollejlari o‘quv jarayoniga ta’limiy texnologiyalarni tatbiq etish. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019.
3. www.pedagog.uz
4. www.ziynet.uz



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Djumaniyazova Difuza Zaripovna
Urganch shahar 14-son umumta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga dars o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va bu orqali ular bilimni, aqliy faoliyatini oshirish masalalari haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: yangi pedagogik texnologiya, metod, bilim, malaka, ijodkorlik.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchaygan. Ta'lim tizimini isloh qilishning zarurligini tushunib yetish, amaliyotda ta'lim muassalarini innovatsion jarayonlarga qo'shilishini taqozo etmoqda, o'zini yaratish imkoni mavjud innovatsion maydonda ko'rish va eng muhimi aniq yangiliklarni o'zlashtirishdan iborat. Innovatsion texnologiyalar asosida mantiqiy fikrlash uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning eng muhim omillaridan hisoblanadi.

Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Hozirgi juda tez tarzda rivojlanayotgan davrda yangidan yangi usullar, axborot kommunikatsion texnologiyalari davr talabi o'zining yangiligi, o'ziga xosligi, rivojlanish nuqtai nazaridan barcha sohaga mosligi, undan cheklanmagan maqsad va joyda foydalana olish imkoniyati bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ta'limda "yangi pedagogik texnologiyalar" atamasi qo'llanila boshlandi. Yangi pedagogik texnologiyalarni ta'limda qo'llash, avvalo, bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish hamda ta'lim olishda insoniyat imkoniyatlarini shakllantirish uchun, bundan tashqari, ijtimoiy hayotda ishtirok etishda turli xil to'siqlarni yo'qotish bilan birgalikda o'quvchilar imkoniyatini kengaytiribgina qolmay ularning chuqur bilim olishlari uchun cheksiz imkoniyatlarini yaratadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yangi pedagogik texnologiyalari fan va ta'limni to'plangan bilimlarni yetkazish, ularni to'ldirish va qayta baholash kabi imkon beradi.

Hozirgi kunda o'quvchilarga bilim berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan kirib kelayotgan turli xil metodlar o'quvchini mustaqil fikrlay oladigan, izlanuvchan, faollikka dars jarayonida mavzularni yaxshi o'zlashtirishiga ko'maklashadi. Dars jarayonida o'quvchilarning bir qolipga tushib qolmasligi maqsadida boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bilan birga multimedialar, elektron darsliklardan keng qo'llanilmoqda. Ammo boshlang'ich sinf o'qituvchisi har bir dars mavzusiga qarab darsda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini tanlay bilishi kerak. Ayniqsa, "BBB", "Tarmoqlash" "Sinkveyn", "Yelpig'ich", "Baliq skeleti", "T chizmasi", "VENN diagrammasi", "Assesment" kabi metodlardan darsda o'rinli foydalanish juda yaxshi natija beradi. O'quvchilarning eng avvalo, darsga qiziqishi ortadi, so'z boyligi, tafakkuri, dunyoqarashi rivojlanadi. Epchil, chaqqon, bilimli, izlanuvchan bo'ladi. Ushbu metodlardan Ona tili va matematika darslarining takrorlash qismida va mustahkamlash darslarida foydalansa bo'ladi. Chunki yangi mavzuda ularga asosiy bilimni berish kerak, o'qish darslarida esa ko'proq foydalanish mumkin. Biror bir ertak, yoki rivoyat bo'lsa, o'quvchi uni o'qib chiqqach, u haqida bemalol fikr yurita oladi. Yuqorida ko'rsatilgan metodlardan foydalanib, o'sha ertak yoki rivoyatni yoritib bera oladi.

Darsda o'qituvchining vazifasi dars o'tish yoki bilim berishgina emas, balki o'quvchilar bilan birgalikda turli o'yinlar orqali o'rganilayotgan mavzu doirasida amaliy jarayonni tashkil etishdan iboratdir. Darslarni qiziqarli, turli metodlardan foydalangan holda samarali tashkil etsakgina o'quvchilar bilan yuqori natijalarga erisha olamiz. Har bir o'qituvchi ijodkorlik bilan darslarni samarali tashkil etishi lozim, shundagina biz jamiyatga vatanparvar, bilimli, aqli, mehnatsevar, komil insonlarni tarbiyalab bergan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.K va boshq. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari.
2. www.ziyounet.uz



BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ergasheva Ominaxon Haydarovna

11-sanattoriya maktab-internati boshlang'ich
sinf o'qituvchisi Andijon viloyati Buloqboshi tumani

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida axborot texnologiyalarining o'rni, ulardan samarali foydalanish orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyasi, animatsiya, pedagogik texnologiya, innovatsiya

Bugungi kunda barcha sohalar singari ta'lim tizimini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. 21-asr axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Hozirgi kunda ta'lim tizimida ko'zlangan asosiy vazifalardan biri fan va texnika sohasidagi yutuqlar bilan o'quvchilarni o'z vaqtida tanishtirib borish, shu qatorda, turli keraksiz axborotlar ta'siridan o'quvchilarni himoya qilish, davr talabi va milliy o'zligimizga mos keluvchi barkamol avlodni tarbiyalash kabi muhim masalalarga e'tibor qaratiladi.

Barcha fanlar singari boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, mavzularni oddiydan murakkabga qarab yo'naltirish, ko'rgazmalilik, ommaviylik va faollikni oshirish kabi didaktik tamoyillarni o'z ichiga oladi. Dars jarayonida o'quvchilarga berilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni yangi axborot texnologiyalaridan foydalanib, yasalishi lozim bo'lgan buyumning eskizini, texnologik xaritasini namoyish qilish o'quvchilarda aniq tasavvur uyg'otadi. Axborotlarning animatsiyalar orqali uzatilishi o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Kompyuter dasturlari yordamida ko'rgazmalar tayyorlash, taqdimotlar va videoroliklar yaratish yangi mavzuni tushuntirishda katta samara beradi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida rangli qog'ozdan turli gullar, maketlar, parranda va jonzoqlar shakllarini yasash, gazlamalardan buyumlar yasash usullari o'rgatiladi. Plastilindan buyumlar yasash, hayvonlar shaklini yasash va applikatsiya, mozaika usulida ishlash kabi jarayonlar ham amalga oshiriladi. Shuningdek, texnologiya darslarida berilgan amaliy ishlarni bosqichli bajarish bilan birga mavzuga oid savol-topshiriqlarga javob berishi, ishni sifatli bajarishi hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi zarur. Bu vazifalarni bajarishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishi ko'zlangan maqsadga erishishda muhim omil bo'ladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, agar o'qituvchi texnologiya darslarida qo'llaniladigan xavfsizlik qoidalarini taqdimot ko'rinishida tayyorlab o'quvchilarga har darsda namoyish etsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki o'quvchilar har darsda shu taqdimotni ko'rganlaridan keyin albatta eslarida qoladi, shunga amal qilishadi va natijada turli ko'ngilsiz hodisalarning oldi olinadi. Turli kasb egalari va kasb-hunarga oid ma'lumotlarni kengroq yoritishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish yuqori samara beradi. Videolavhalar orqali har bir asbobdan to'g'ri foydalanish, hom ashyodan tejamkorlik bilan foydalanish, kesuvchi asboblardan texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalanish aks ettirilsa, darsdan ko'zlangan maqsadga erishish oson bo'ladi. O'qituvchi shuning uchun texnologiya darslarida pedagogik, psixologik, dars texnologiyasi, o'qitish vositalaridan foydalanish kabi imkoniyatlarni mukammal o'zlashtirishini taqozo etadi. O'quvchilarni kelajakda o'zi qiziqqan kasb-hunarni egallashda, qiziqqan kasb-hunarining ustasi bo'lishida texnologiya fani muhim ro'l o'ynaydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda o'ziga xos innovatsiyalar mavjud bo'lib, o'qituvchi har bir darsda ushbu innovatsiyalardan unumli foydalanishi kerak. Bu nafaqat bolaning darsni oson va mukammal tushunishiga, qolaversa bugungi zamon talabi bo'lgan axborot texnologiyalari bilan ishlashlariga keng imkoniyat yaratib beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari. –T.: Sharq,1997
2. Abdullayeva Sh. A., Sobirov B. B., Sultonmurodov D. Zamonaviy o‘qituvchining kompetensiyasi. –T.:Komron-Press, 2015. 96-b.
3. Vaxobov M.: Umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan DTS va o‘quv dasturlarini tajriba-tadqiqotnatijalari va navbatdagi vazifalar to‘g‘risida taqdimoti. Nukus 2016.
4. X.R.Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.R.Sanakulova Texnologiya-umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent-2018.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA KO'RGAZMALILIKNING AHAMIYATI

Gadoyeva Shahodat Mustafoyevna
Buxoro viloyat Buxoro tuman 26-maktab
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: boshlang'ich sinf darslaridagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi, o'quvchilarga darsni idrok etishda ko'maklashish, ta'lim jarayonini to'laroq tasavvur etishga yordam berishdan iboratdir.

Kalit so'zlar: eshitish, ko'rgazmalilik, o'quvchi, o'zlashtirish, idrok etmoq,

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ustoz va murabbiylarga: “ Biz xalqimizning eng katta boyligini - millionlab farzandlarimiz, jondan aziz o'g'il-qizlarimizning taqdirini, O'zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib topshirganmiz va bu vazifani mas'uliyat bilan ado etib kelayotgan sizlar kabi fidoyi insonlar, kelajak bunyodkorlariga har qancha tahsin va tasannolar aytisak, arziydi.” degan edilar.

Yurtboshimizning ushbu fikrlarida jamiyatimizda o'qituvchilik kasbiga alohida e'tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Shuni alohida aytish mumkinki, ta'limning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo boshlang'ich sinf darslarida san'atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, ideoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular boshlang'ich ta'lim jarayoniga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarda estetik tuyg'ularning shakllaniishi va rivojiga imkon beradi.

Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyutep va.b. har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o'z xarakteriga ko'ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa-boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. To'garak ishlarda, fakultativ mashg'ulotlarda olib borish mumkin. Darsda esa ko'rgazmalilik, o'quvchilarning aksari o'zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo'llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Ko'rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o'quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin. Agar ko'rgazmali qurol o'quvchi faolligini ijobiy ta'sir ko'rsatmasa, undan foydalanmagan ma'qul. Demak, ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Hozirgi paytda ko'rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofilm va o'quv filmlar, televizion darslar, slaydlar v.h.

Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldosh ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin. Ayniqsa ko'rish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga turli portretlari, illyustratsiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan joylar fotografiyasi, yoki fotosuratlar, v.b. kirishi mumkin. Har holda eng kamida darslik va darslik majmualardagii rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Otkritka ko'rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foydalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o'quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo'ladi.

Tinglash bilan aloqador ko'rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Kitoblardagi she'rlarni, xususan she'riy asarlarni to'liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. Adiblar aytgan she'riy diskrlarning darslardagi zaruriyati ba'zan nihoyatda ochiq seziladi. O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirishda ko'rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi.

Agar ko'rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o'ylab ko'rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshlang'ich sinf darslaridagi ko'rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Yana bir muhim holat shundaki, ko'rgazmali qurollarni yaratishga o'quvchilarning o'zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko'chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko'rgazmalar yasash, o'quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Savodga o'rgatish darslari tayyorgarlik va asosiy davrni o'z ichiga qamrab olib, mazkur bosqichda o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'limiytarbiyaviy ishlar turli-tumandir. Xususan, bu davrda: matn, og'zaki va yozma matn haqida, gap, matnning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tashkil topishi, ya'ni matn tuzish va uni bo'laklarga bo'lib matn tarkibini tashkil qiluvchi qismlarni idrok etishga o'rgatish, bo'g'in, tovush, harf haqida ma'lumot berish, unli tovushlar va undosh tovushlar haqida ma'lumot berish, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajralishini o'rgatish, alifbedagi rasmlar, o'qituvchi yoki o'quvchilar tomonidan tayyorlangan suratlar asosida matn tuzdirish, o'quvchilar bilgan she'r, hikoya, ertak, maqol, tez aytish va boshqalarni yoddan aytirish, ularga yangi she'r, hikoya, ertak, maqol, topishmoq kabilarni o'rgatib borish, alifbe darsligidagi so'zlar, uning ma'nolari ustida ishlash, tanish so'zlar asosida o'quvchilarni gap tuzishga o'rgatish, harf va tovush orasidagi mutanosiblik va farqni tushuntirish ishlari olib boriladi. Ushbu jarayonda ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'quvchilarga ta'lim berish eng qulay va samarali usullardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.. Abduqudusov O. "O'quv muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari "-T., " O'qituvchi" 2017

2. R.Safarova, M.G'ulomov, M.Inoyatova Savod o'rgatish darslari. «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2012



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH.

Andijon viloyati Paxtaobod tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Isomitdinova Feruza Dalimbekovna

Anotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik savodhonligini yanada mustaxkamlash uchun to'garak mashg'ulotlarida foydalanadigan usullar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: To'garak, matematik o'n minutlik, qiziqarli matematika, matematik viqtarina.

Matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar deganda o'quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg'ulotlarni tushunamiz. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o'quvchilardagi fanga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to'ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin. Quyidagi ana shunday mashg'ulot turlari haqida to'xtalamiz. 1. **Matematik o'n minutlik**

Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg'ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam matematik o'n minutliklardir. O'n minutlik dars yoki darsdan tashqari vaqtlarda butun sinf o'quvchilari ishtirokida xaftada bir marta uyushtiriladi. O'quvchi o'n minutlik uchun shunday masala misol, mashq va o'yinlar tanlashi kerakki, ular hajm jihatdan kichik bo'lsin, lekin o'quvchilarning aktivligini oshirsin, o'quvchilarning kelajakda umumiy bilish faolyatlarini hamda nutq madaniyatlarining kamol topishida yo'naltiruvchi vosita bo'lib qoolsin. O'n minutlikni faqat sinfdan o'tkazilmasdan, balki maktab hovlisida va hatto maktabdan tashqarida o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar bilan tevarak – atrof va tabiatdagi matematik mutanosiblikni sekin – asta mushohada qilish asosida o'tkaziladi.

2. **Qiziqarli matematika soatlari.** Mashg'ulotlarning bu turi nisbatan ko'proq vaqtga (taxminan 45 minut) mo'ljallangan bo'lib, qiziqarli o'yin, qiziqarli o'yin, sonli topishmoqlar, she'riy masala, hazil masala va sahnalashtirilgan masalardan tarkib topadi. Bunday mashg'ulotlar 1 – sinf o'quv yilining II yarmidan boshlab avval bir oyda bir marta, keyinchalik 2 martadan utkazilishi mumkin. Unda o'quvchilarning o'zlari tashabbus ko'rsatishlariga erishmoq kerak.

3. **Matematika to'garak.** Matematika to'garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To'garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to'garagida qatnashadigan o'quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o'qituvchiga qiyinchilik tug'diradi va o'quvchilar to'garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. To'garak a'zolarining soni ko'payib ketsa, ularni ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiqdir. Guruhlar bilan bir hafta, ikkinchisi bilan ikkinchi hafta shug'ullanish mumkin. Mashg'ulot 30 – 40 minut davom etsa yetarli. Shuning uchun dastlabki mashg'ulotlarda ham, keyingi mashg'ulotlarda ham qiziqarli materiallar hajm jihatdan barobar ma'quldir. Sinfdan tashqari ish tashkilotchisining matematik va umumpedagogik mahorati ham bu ishning sifatiga va ilmiy metodik darajasiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. O'qituvchining shaxsiy malakasi ham katta ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarni matematik tilda gapirishga o'rgata borish, ularni matematik nuqtalari (og'zaki nutq va yozma nutq) ustida ishlashi ham eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bundan tashqari to'garaklarda to'garak kutubxonasi, matematika burchagi tashkil qilish va ularni jihozlash, ayrim tadqiqot ishlari olib boorish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarni yaxshi tashkil qilish uchun sharoitga qarab, chorak dasturlari, yarim yillik matematik va taqvimiy dasturlari tuziladi.

4. **Matematik viktorinalar.** Matematik viktorinalar ma'lum tema, bo'lim yoki umuman matematikaga doir masalalar bo'yicha savol – javob o'yini bo'lib, ko'p vaqt va katta tayyorgarlik talab qilmaydi. Boshlang'ich sinflarda viktorinalar 10 – 20 minut davom etadi. Bunda oldindan tayyorlangan 5 – 6 savolga og'zaki yoki yozma javob olinadi. I – IV sinflarda matematik viktorinalarni tizimli o'tkazib turish o'quvchilarni masalalarni turli usullarda yechishga o'rgatadi, ularning fikrlash va xozirjavoblik qobiliyatlarini kamol toptiradi. Albatta, viktorinada tavsiya etilgan savollar turlicha qiyinlikda bo'lib, unga ko'proq o'quvchilarning qatnashuviga erishish kerak. Matematik viktorinalar har xil o'tkazilishi mumkin. Quyidagi xilni misol tariqasida



keltiramiz: Savollar (misol, masalalar) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga og'zaki beriladi yoki doskaga oldindan yozib qo'yiladi. Javobni ham o'quvchilar og'zaki tayyorlaydilar. Yoki o'z daftarlariga qisqa, ya'ni o'zlari eslab turishlari uchun kerakli narsalarni yozib turadilar. O'qituvchi o'quvchilardan bir nechta qo'l ko'targuncha kutib turib, keyin birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchini so'raydi. Agar birinchi qo'l ko'targan o'quvchi noto'g'ri javob bersa, ikkinchi uchunchi va qo'l ko'targan o'quvchilardan (to'g'ri javob olguncha) so'raladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. .Abdullayeva B.S., N.A.Xamedova M. Xusanovalarning —Boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi (Toshkent 2010, 135 bet) uslubiy qo'llanma
2. Abdullayeva B.S., O'rinboyeva L.O', Muhitdinova Sh.S, Boshlang'ich sinf o'quvchilari-ga geometrik materiallarni o'rgatish metodikasi Pedagogika oliy ta'lim muassalarining 5141600-«boshlang_ich ta'lim va tarbiyaviy ish» bakalavr yo_nalishi talabalari.
3. Ziyo net [www](http://www.ziyo.net)



OKEAN OQIMLARINING HAVOGA TA'SIRI

Istamova Nargiza Sayfullayevna

Buxoro viloyat Buxoro tumani

20-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Oqimliklar odatda aniq yo'nalishda harakat qilishadi va Yerning namligini, natijada yuzaga kelgan ob-havo va suvning ifloslanishini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: Kaliforniya va Gumboldt oqimlari, yer usti oqimlari, Sirt oqimlari.

Okean oqimlari butun dunyoda uchraydi va kattaligi, ahamiyati va kuchi bilan farq qiladi. Ko'pgina taniqli oqimlardan ba'zilar Tinch okeanidagi Kaliforniya va Gumboldt oqimlari, Atlantik okeanining Gulf oqimlari va Labrador oqimi va Hind okeanidagi Hindistonning Musson oqimi hisoblanadi. Bular faqatgina dunyo okeanlarida topilgan o'n sakkizta asosiy sirt oqimining namunasi. Turli o'lchamlari va quvvatlariga qo'shimcha ravishda, okean oqimlari turga qarab farqlanadi. Ular sirt yoki chuqur suv bo'lishi mumkin.

Yer usti oqimlari okeanning yuqori 400 metrda joylashgan va okeandagi barcha suvlarning taxminan 10 foizini tashkil etadi. Yuzaki oqimlari asosan shamoldan kelib chiqadi, chunki u suv ustida harakat qiladigan ishqalanish hosil qiladi. Keyinchalik, bu ishqalanish suvni spiral naqshlar bilan harakatga keltiradi, shunda gyres hosil qiladi. Shimoliy yarimsharda gyule soat yo'nalishi bo'yicha harakatlanadi; janubiy yarimsharda esa soat sohasi bo'ylab aylanadilar. Sirt oqimlarining tezligi okean yuzasiga eng yaqinroq va sirtidan taxminan 100 metr (328 fut) pastda kamayadi.

Sirt oqimlari uzoq masofalar bo'ylab sayohat qilganligi sababli, Coriolis kuchlari ularning harakatlarida muhim rol o'ynaydi va ularni chetlab o'tadi va ularning dumaloq shakllarini yaratishda yordam beradi. Nihoyat, gravitatsiya sirt oqimlarining harakatida muhim rol o'ynaydi, chunki okeanning yuqori qismi notekis bo'ladi. Suvning erga, suvning issiqroq joylariga yoki ikkita oqim bir-biriga yaqinlashadigan joylarda suv shaklidagi suv o'tkazgichlar. Gravitatsiya, keyinchalik bu suv inqirozini tog'lar ustiga itadi va oqimlarni hosil qiladi.

Termohalin aylanishi deb ataladigan chuqur suv oqimlari 400 metrdan past bo'lib, okeanning taxminan 90 foizini tashkil etadi. Sirt oqimlari singari, tortishish chuqur suv oqimini yaratishda muhim rol o'ynaydi, lekin ular asosan suvda zichlik farqlari bilan bog'liq.

Zichlikdagi farqlar harorat va sho'rlanish funksiyasidir. Iliq suv sovuq suvdan kamroq tuz saqlaydi, shuning uchun u kamroq zichroq va erga qarab ko'tariladi, sovuq, tuz bilan to'ldirilgan suv esa cho'kadi. Iliq suv ko'tarilgach, sovuq suv yuqoriga ko'tarilib, ilqlik bilan bo'shatilgan bo'shliqni to'ldirishga majbur bo'ladi. Buning aksincha, sovuq suv ko'tarilganda, u ham bo'sh joy qoldiradi va ko'tarilgan issiq suv keyinchalik pastga tushib, tushib, bu bo'sh joyni to'ldirishga majbur qiladi va shu bilan termoxalin aylanishini hosil qiladi.

Issiq va sovuq suvning aylanishi dengiz osti daryosi kabi harakat qiladi va okean bo'ylab suvni harakatga keltiradi, chunki termoxalinning aylanishi Global Konveyor belbog'i deb nomlanadi.

Nihoyat, seafloor topografiyasi va okean xavzalari shakli ham suv yuzasi va chuqur suv oqimlariga ta'sir qiladi, chunki ular suvning harakatlanishi mumkin bo'lgan joylarni cheklaydi va uni boshqa biriga "sariq" qiladi.

Okean oqimlari butun dunyo bo'ylab suvni aylantirganligi uchun okeanlar va atmosfera o'rta-sida energiya va namlik harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Natijada ular dunyo ob-havosi uchun juda muhimdir. Masalan, Gulf oqimi Meksikaning Ko'rfazida joylashgan va shimolni Yevropaga qarab harakatlanadigan issiq oqimdir. Issiq suv bilan to'lganligi sababli, dengiz sathining harorati iliq bo'ladi, bu Yevropaga o'xshash joylarni shunga o'xshash kengliklarda boshqa joylarga qaraganda issiqroq saqlaydi.

Okean oqimlari alternativ energiya sifatida qo'llaniladimi, yuk tashish xarajatlarini kamaytirish yoki tabiiy holatini butun dunyoda va turlarni ko'chirish uchun ishlatiladimi, geograflar, meteorologlar va boshqa olimlar uchun muhimdir, chunki ular dunyoda va atmosferada katta ta'sir ko'rsatadi munosabatlar.

Adabiyotlar:

1. Toshmuhamedov.B.T. Umumiy geologiya. T. "Noshir" 2011-y
2. Qurbonov A.S. Geologiya.T."O'qituvchi" 1992 yil.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Kamolova Mahliyo Dilshodovna

Namangan viloyati Norin tuman

19-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

974678688 . kamlovamahliyogmail@.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanida boshlang'ich sinflarda samaradorlikni oshirish usullarini, ijodiy yondashuv va matematika o'qitish, matematika fanini o'rganishda boshlang'ich sinflar bilan ishlash metodlari orqali o'quvchilarni dunyo qarashini o'stirish haqida keng yozilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, O'quvchilar, mustaqil ravishda, matematika, bilimlarni egallash, o'rgatish, didaktik materiallar.

Zamonaviy O'zbekistonda uzluksiz ta'limning rivojlanishiga bir qator o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Eng muhim omillardan biri bu mamlakatlar va xalqlarning o'zaro bog'liqligi oshib borishi, yagona iqtisodiy, axborot, madaniy va ma'rifiy makonning shakllanishi bilan ajralib turadigan globallashuvdir. Globallashuv xalqlarni madaniy va ma'rifiy faoliyatda birlashtirishga yordam beradi, madaniyatlar va ularning tashuvchilarini o'zaro boyitish jarayonlarini kuchaytiradi. Xalqaro hamkorlik ko'lamining kengayishi chet el madaniyati vakillari bilan madaniyatlararo kompetentsiyaga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashni talab qiladi. Har bir boshlang'ich sinfda matematika fanini o'rgatish va o'quvchilarning fanni tushinganini anglash, turli hil inter faol o'yinlar va mashqlar bilan mustahkamlash lozim. O'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarni yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalar ni hal qilishga o'rgatish, matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadval va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan. O'quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o'rgatish. O'quvchilar imkoni boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak.

O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilarning o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o'quvchilardan og'zaki so'rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilardan individual yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir.

Boshlang'ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g'oyasiga ko'ra ma'lum mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o'quvchining bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Matematika o'qitish metodikasida "o'quv materialini o'zlashtirilish darajasi" tushunchasining mazmuni to'la ochib berilmagan. O'qituvchilar uchun qo'llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig'i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas.

Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona



tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sarmahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o'rgatuvchi mashina O'qituvchining intuisiyasini, ya'ni hissiyotini almashtira olmaydi.

Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu sababli didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov . Toshkent 2011
2. "Matematika analiz" 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent "O'qitvchi-1994"
3. www.ziyouz.com kutubxonasi



WEB – DIZAYN VA MASHUP TEXNOLOGIYASI

Kurbanov Ruslonbek Shavkatovich

Urganch tumani 10-son umumta'lim
maktabi informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetda web-sayt tuzish, web-dizayn, Mashup texnologiyasi va uning afzalliklari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: web-sayt, web-dizayn, Mashup, internet, portal, texnologiya.

Har bir web-sayt o'zining ma'lumotlar hajmi, tuzilish strukturasi va dizayniga egadir. Bunday saytlarni tuzishda turli usullar mavjud bo'lib ular o'zlarining imkoniyatlari va qulayliklari bilan boshqalaridan ajralib turadi. Bugungi kunda web – saytlarni tuzish va kontentlarni boshqarishda ikki usulni alohida takidlab o'tish mumkin. Ulardan biri hozirda judayam ommalashgan Portal texnologiyasi, ikkinchi texnologiya bu web – dizayn sohasidagi yangi va ancha istiqbolli Mashup texnologiyadir.

Bugungi kunda web-saytlarni tuzishda ananaviy va keng tarqalgan texnologiya bu - Portal texnologiyasidir. Bu texnologiyaning rivojlanishi uchun juda ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Bu izlanishlar natijasida Portal texnologiyasining keng yoyilishiga erishildi. Shunga qaramay web – sayt yaratishning Portal modeli bir qancha kamchiliklarga ega.

Portal texnologiyasida web-sayt tuzish va uni Internetga joylashtirish uchun ko'p vaqt va mablag' talab etiladi. Masalan, biror tashkilotning web – saytni tuzish uchun ushbu sohada yetarlicha bilimga ega bo'lgan mutaxassisga murojaat etish kerak. U web – saytni ma'lum muddatda tayyor holatga keltiradi, uni Internetga joylashtiradi, bu orada ancha vaqt, mehnat va mablag' sarflanadi. Saytni Internetga joylashtirgandan keyin uni boshqaruvchi administrator kerak bo'ladi, buning uchun yangi ishchi kuchi kerak bo'ladi, agar sayt judayam murakkab bo'lsa bu ishlarni bir shaxs emas, balki guruh bo'lib amalga oshiriladi. Bu guruhning har bir a'zosini oylik maosh bilan ta'minlash kerak bo'ladi. Portal texnologiyada tuzilgan web – saytlarni o'zgartirish ham murakkab jarayon hisoblanadi, bundan tashqari ushbu saytdagi ma'lumotlarni yangilab turish zarur. Mana shu kamchiliklarni bartaraf etish uchun Mashup texnologiyasini qo'llash kerak bo'ladi. Xo'sh bu qanday texnologiya? Uning afzalliklari nimadan iborat? Eng avvalo Mashup haqida umumiy ma'lumotlarni bilib olish kerak. Mashup bir qancha manbaalardan ma'lumotlarni bir ilovaga joylashtirish va ularni boshqarishni ta'minlovchi texnologiyadir. Mashupda qo'llaniladigan kontentlar boshqa saytlar va internet xizmatlaridan ochiq interfeys yoki amaliy dasturlash interfeysi - ADI (ingliz tilidan API – Application Programming Interface) orqali olinadi. Shu o'rinda yopiq interfeysdan foydalanish Mashup bo'lmasligini eslatib o'tish joiz. Boshqa usullarda kontentlarni olish web-fidlar ya'ni RSS yoki HTML-sahifa parsing bo'lishi mumkin.

Mashupni tuzish uchun alohida administratorlar talab etilmaydi, uni web – texnologiyalaridan xabari bor oddiy foydalanuvchi ham tuzishi mumkin. Buning uchun mashup dasturiy ta'minoti (masalan, IBM Mashup Center) qo'llaniladi. Ushbu dasturiy ta'minot yordamida foydalanuvchilar o'zi uchun qulay bo'lgan ko'rinish va o'zi uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni o'zida jamlagan web-sayt tuzishlari mumkin. Agar mashup texnologiyani biznes faoliyatiga joriy etilsa, katta natijalarga erishish mumkin. Mashup texnologiyaning yutuqlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Mashup joriy ilovalardan ko'p marta foydalanish imkonini beradi.
2. Tezkor amaliy ishlov berishni ta'minlaydi.
3. Saytni yaratishga ketadigan vaqt va mehnatni tejaydi.
4. Mashupni hosil qilish axborot texnologiyalari sohasida xususan web – dizayn bo'yicha chuqur bilim va ko'nikma talab etmaydi.
5. Saytni tuzish jarayonida tuzuvchi hech qanday kodlar yozmaydi.
6. Saytni tuzish va unga ishlov berish jarayonida sarflanadigan mablag'ni tejaydi.
7. Mashup – saytlarida yangilash doimiy va qisqa muddatlar ichida amalga oshirib turadi.
8. Har bir saytning takrorlanmas o'ziga xos dizayn va kontentlarga ega bo'lishi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.X.Xolmatov, N.I.Taylakov, U.A.Nazarov Informatika va xisoblash texnikasi
2. Internet malumotlari



"DAVRIY QONUN VA D.I.MENDELEVNING KIMYOVIY ELEMENTLAR DAVRIY SISTEMASI" MAVZUSINI NOAN'ANAVIY USULDA O'TISH

Sirdaryo viloyati Xovos tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Muratova Aziza Yuldashevna
Kimyo fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fanlarida noan'anaviy usuldan foydalanib dars o'tish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: davriy qonun, ta'lim, o'quvchi, kimyo, innovatsiya, Mendeleev jadvali.


O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish dars mashg'ulotlari sifatini yaxshilash, unu jahon andozalari darajasiga yetkazish asosiy maqsadlardan biriga aylandi.

Shunday ekan, darslarda faqat o'qituvchi faol faoliyat ko'rsatmasdan, balki o'quvchilar passiv holatdan darsning asosiy ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni mustaqil ishlashlari zarur. Shu sababli o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini o'ttirish, ularga chuqur va puxta bilim berish borasida turli xil noan'anaviy usullardan, yangi pedagogik va informatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish muhim ahamiyatga ega.

Kimyo fanini o'qitishda, an'anaviy dars usullaridan farqliroq noan'anaviy dars usullaridan foydalanish, hozirgi kun talablaridan biridir. Kimyoviy elementlar davriy qonuni va davriy sistemasi mavzusini ham shu asnoda o'tish o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirishlariga va uzoq vaqt mulohazalar yuritishlariga asos bo'ladi.

Kimyo fanining o'rganishda ularning belgilari bilan ifodalanishini xuddi kimyo fanining alifbosi deb qarashga imkon beradi. Misol uchun: HOH so'zini ikki harf ya'ni H₂O lar bilan yozishimiz, yoki suv so'zini uch harf bilan ifoda etishimiz shunga misoldir.

Kimyoviy elementlar, ularning belgilari, formula va tenglamalarini tuzish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Suv so'zi, kimyoviy formulasi ikki element bilan H₂O ya'ni vodorod va kislorod bilan belgilanadi. Metanning yonishida suv va gaz hosil bo'ladi. Quyidagi tenglama bilan ifodalaymiz.



Elementning og'irligiga asoslanib qatorga tuzish va har bir elementning atom og'irligi va qaysi element s, p, d, f ligini ko'rsatib tushuntirish lozim.

Davriylikni kuzatish esa o'xshash xossa va o'xshash oila elementlarini ustma ust qo'yish bilan tushuntiriladi.

H He

Na Be B C N O F Ne

K Mg Al Si P S Cl Ar

Bunda tagi birta chiziqlisi qizil rangda, tagida chizig'i yo'qlari esa sariq rangda ko'rsatilishi s va p elementlar to'g'risida tushuncha beradi. O'quvchilarning har biriga bir element berkitilib s elementlar qizil rangda p elementlar sariq rangda yozilib bo'yaladi. Bunda elementlarning rangiga tushuncha beriladi. Davriy sistemadagi d elementlar esa ko'k rangda ekanligini o'quvchiga Sc, Ti, V, Cr, Mn, Fe, Co, Ni, Cu va Zn davriy sistemada belgilangan rang bilan belgilab ularning davriy sistemadagi o'rni va d orbitalda besh yacheyka mavjudligi, undagi elektronlar soni o'ntadan oshmasligi tushuntiriladi. Shundan xulosa f elementlar ham qora rangga bo'yalgan

Ce, Pr, Nd, Pm, Sm, Eu, Gd, Tb, Dy, Ho, Er, Tm, Yb, Lu qatorda o'quvchilar yordamida tushuntiriladi. Dars davomida har bir ishtirokchi o'zining qaysi element belgisi bilan ishtirok etishi, elementlar to'g'risida ma'lum bilim, tassavurga ega bo'lishi ancha oson bo'ladi. Dars davomida har bir harakat va ko'rgazmali belgilar darsning ancha qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi.

O'quvchi bu darsda ham eshitib, ham ko'radi va amalda bajarib ishtirok etadi. Bunday ko'rgazmali darsda o'quvchilarga eslab qolish imkoni ko'proq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: TDPU, Nizomiy, 2003

2. Axunova G.N., Golish L.B., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2009.



ALIFBE DARSIDA HARFLARNI O'RGATISHDA ZAMONAVIY TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Buxoro viloyat Buxoro tuman
20 umumtalim maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Murodova Umriya Nasulloyevna.

Annatasiya: Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida ta'lim-tarbiyani tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: elektron manbalar, ta'lim, boshlang'ich sinf, multimedia vositasi.

Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga qiziqish va ishtiyoqni oshiradi. Ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi o'quvchilarda kompyuter savodxonligini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ushbu ishning maqsadlaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarida kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish muammolari va metodikasiga qaratilgan. Ana shunday kompyuter texnologiyalarining dastlabkisi multimedia texnologiyasi hisoblanadi. Hozirgi kunda multimedia texnologiyasini boshlang'ich ta'limning barcha fanlarida foydalanish juda katta ijobiy samara berishi ma'lumdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida multimedia vositasidan foydalanishning asosini dars mashg'ulotlari tashkil etadi. O'quv mashg'ulotlari davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan dasturlar, dasturlarda taqsimlangan soatlar asosida olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda olib boriladigan mashg'ulotlar yangi materiallarni o'rganish darsi, bilimlarni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o'zlashtirganligini tekshirish (baholash) darslariga bo'linadi.

U u unli tovushini talaffuz qilish va o'rganish:

Mavzu "U" unli tovushini talaffuz qilish va uni o'rganish

Maqsad va Mashg'ulotning maqsadi: O'quvchilarda U tovushining aytilishi bo'yicha bilimlarni shakllantirish

Ta'limiy: O'quvchilarda U tovushi to'g'risida bilimga ega bo'lish.

Tarbiyaviy: Kompyuterdan foydalanish madaniyatini shakllantirish. vazifalar

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivajlantirish.

Vazifalar: -o'quvchilarga U tovushini talaffuzini qilish, tovushining yozuvdagi belgisi harfni yozishga o'rgatish -U tovushini talaffuz qilish va yozish bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish

Mashg'ulotning mazmuni o'qish va yozish Multimedia vositalari yordamida kompyuter texnologiyasidan foydalanib o'quvchilarga U tovushini talaffuz qilishni, uning yozuvdagi belgisi harfni yozish o'rgatiladi. Bu jarayon kompyuter yordamida bajariladi, Elementar bilimi shakllantiriladi. Asosiy tushunchalar: tovush, harf, yozuv, kompyuterli mashg'ulot. Uslub: kompyuterli ta'lim, savol-javob, ko'rgazmali ta'lim.

O'quvchilarning o'z fikr-mulohazalari va savollarini bayon etishi uchun ularga imkoniyat yaratish zarur. O'quvchilarga ko'rsatiladigan rasmlar, didaktik materiallar did bilan tanlanishi kerak. Ular o'quvchilarning diqqatini tortib, qiziqtiradigan bo'lishi, ularning tasvirlanishi zavq bag'ishlab bajarishi kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning fikrlash doirasining kengayishida, so'z boyligini oshirishda, ularni faol harakatga keltirishda, mustaqil ishlash faoliyatini shakllantirishda multimediali texnologiyaning ahamiyati katta bo'lib, boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini ko'proq multimediali vositalar asosida tashkil etishga e'tibor berishlari zarur.

Adabiyotlar:

1. Uzluksiz ta'lim jurnali. 2004 yil 6-son, 2006 yil 4-son, 2008 yil 6-son.
2. Tayloqov N.I., Olimov A.F. Elektoron darsliklar o'qitish faoliyatining zamonaviy vositasi sifatida halq ta'limi, 2009 yil



"INTERFAOL" METODI HAMDA UNI DARS JARAYONIDA QO'LLASH USULLARI

Muxammatova Maftuna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar

13-sonli ayrim fanlar chuqur o'rgatadigan

ixtisoslashtirilgan maktabi matematika fani o'qituvchisi

Tel:+998906466336 Email:maftunmuham@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Interfaol" metod haqida so'z yuritilgan hamda dars jarayonida qo'llash usullari haqida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Slayd shou , videolavhalar , animatsiyalar , videoroliklar

"Interfaol" tushunchasi ingliz tilida "interet" (rus tilida "intereraktiv") ifodalanib lug'aviy nuqtai nazardan "inter"-ozaro,ikki taraflama, "akt"-harakat qilmoq, ish ko'rmoq kabi ma'nolarni anglatadi,interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim,ko'nikma,hamda muayyan ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda,o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatga egaliklarini ifodalaydi.Interfaol metodlar-ta'lim jarayoni ishtirokchilari ahloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda,o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatning tashkil etilishini ta'minlovchi metodlar sanaladi. Interfaol metodlar ta'lim oluvchilarni birgalikda,o'zaro hamkorlik asosida bilim,ko'nikma,malaka va muayyan sifatlarni o'zlashtirishlarini ta'minlabgina qolmay,shu bilan birga ularda oquv-bilish faolligini kuchaytirish imkoniyatiga egaligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim oluvchilarning oquv-bilish faolligi ular tomonidan o'quv axborotlarining etarli darajada qabul qilinishi,oquv materiallari mazmunini puxta o'zlashtirishlari (nazariy mashg'ulotlar chog'ida), anglangan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlashtirish,amalda qo'llay olish(amaliy mashg'ulotlar jarayonida) hamda o'zlashtirilgan bilim,ko'nikma, malakalarni amalda namoyish etish (sinov va nazorat ishlari vaqtidida) orasidagi amaliy harakatlarning alohida shtiyoq, shijoat,qiziqish,jo'shqinlik,faollik va tezkorlik asosida tashkil etilishida namoyon bo'ladi. Mashg'ulotlar jarayonida interfaol metodlardan foydalanish oqituvchining rag'batlantirish,yo'naltirish, nazorat qilish va baholashga yo'naltirilgan harakatlari ta'sirida ta'lim oluvchilar tomonidan juftlik,kichik va katta guruhlarda o'zaro hamkorlik, hamjihatlik asosida o'zlashtirilishini anglatadi. Interfaol metodlarning ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini kuchartirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida "Venn diagrammasi" GO dan,"Klaster"GO dan, "To'qqizinchisi ortiqcha" strategiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Men ham darslarimda interfaol metoddan unumli foydalanib boryapman.Bu metod o'quvchilarning bilim,ko'nikma,malakalarini yanada oshirishda o'zini yaxshi samarasini bermogda.

Foydalangan internet saytlar

1. <http://ziyonet.uz/-Ta'lim va fan qidirish tizimi>
2. <http://www.ref.uz/-Mustaqil ish , referat va yozma ishlar qidirish tizimi>
3. www.google.uz-axborot qidirish tizimi



О'QUVCHI YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANISHIDA KITOBNING O'RNI VA AHAMIYATI

Nazarova Gulshanda Olimovna,
Rajapova Feruza Zavqidinovna
Navoiy viloyati Navoiy shahar 6-umumiy
o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlar ma'naviyatini shakllanishida kitobning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qishga, kitob bilan ishlashga o'rgatishda o'qituvchi va ota-onalarning roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kitob, ma'naviyat, ovoz chiqarib o'qish, yakka va birgalikda o'qish, to'xtab o'qish, ma'naviy kamolot, o'quvchi, o'qituvchi, ota-ona, axborot vositasi, nutq, tafakkur, xotira, idrok.

*Inson qo'lidagi turli-tuman qurol-yarog', asbob-uskunalar orasida eng
g'aroyibi, shubhasiz kitob sanaladi. Qolganlarini uning jismoniy
davomi, deyish mumkin. Mikroskop va teleskop-ko'zning davomi,
telefon-ovozning, omoch va qilich-qo'lining. Biroq kitob butunlay
boshqa narsa, kitoblar-xotiralar va tasavvurlarning davomidir.
Luis Xorxe Borxes*

Darhaqiqat, kitob insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Bugungi zamonning eng rivojlangan texnologiyalari ayrim o'quvchilarni kitobdan uzoqlashishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa ularning ma'naviyatiga, dunyoqarashiga o'z ta'sirini ham o'tkazmoqda.

O'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatish hozirgi zamonning eng dolzarb masalalari va muammolaridan biri hisoblanadi. Bolani kitob bilan yoshlik chog'idanoq do'stlashtirish, uning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, turli-tuman filmlar hamda multfilmlarni tomosha qilish bilan chegaralanib qolmaslikka o'rgatish lozim bo'ladi.

Bu 2017 yil 8 sentyabrda qabul qilingan "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ham ko'rsatib o'tilgan. Ushbu qonunga muvofiq axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi-uni bolalarning quyidagi yosh toifalaridan biriga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi: etti yoshga to'lmagan bolalar uchun axborot mahsuloti "0+", etti yoshga to'lgan bolalar uchun axborot "7+", o'n ikki yoshga to'lgan bolalar uchun axborot mahsuloti "12+", o'n olti yoshga to'lgan bolalar uchun axborot mahsuloti "16+", bolalar uchun taqiqlangan axborot mahsuloti "18+" yozuvini aks ettirishi kerak.

Albatta bu axborotlardagi yosh tasnifi faqat televideniya-dagi axborotlar xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunda ota-onalar ham hushyor bo'lishi talab etiladi.

Bolalarni kitobga oshno qilishni ilk bolalik davridanoq boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi. Keyinchalik maktabgacha yoshdan kitob bilan muloqot qilishga o'rgatib borish lozim.

Biz bilamizki, o'qish esa birinchi sinfdan boshlanadi. Bolaning o'qishi juda murakkab jarayondir. O'qish orqali bolalarda muhim murakkab jarayonlar: idrok, xotira, tafakkur va nutq o'sishi kabilar shakllana boradi. Bu sifatlar bolaning kamol topishida katta ahamiyat kasb etadi.

Kitob o'qishni uyushtirishda tez va aniq idrok qilish, diqqatda barqarorlik, uzoq esda saqlab qolish, xotiraning tayyorligi, tafakkurning puxtaligi, mantiqiyliigi va nutqning boyliigi, rang-barangliigi, to'g'riligi har bir o'quvchining faol, ma'lum darajada mustaqil bilim olishiga xizmat qiladi.

O'zini atrofdagilar, o'rtoqlari, o'qituvchisi yoki ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi eshitayotganini his qilishi va idrok etishi lozim. Shundan so'ng o'rtacha ovozda har bir tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni to'g'ri talaffuz qilib o'qishi, gaplar orasidagi to'xtamlarga rioya qilishi, tinish belgilari uchraganda ovozni pasaytirish yoki to'xtab o'qish lozimligini bilish kabilarga o'quvchilar e'tibori qaratiladi. Bolani faqatgina darslarda emas, balki uyda ham surunkali ravishda o'qishi ota-onalar tomonidan nazorat qilib borilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchi bilan ota-onalarning muntazam ravishdagi hamkorligi o'quvchidagi ijobiy xislatlar va tafakkurning keng doirada rivojlanib borishiga xizmat qiladi. O'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatib borish kelgusida ularning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yanada o'stirishga zamin yaratadi.



Kitob bilan ishlashda turli usullardan foydalanish mumkinligi biz o'qituvchilarga juda yaxshi tanish. Jumladan, ovoz chiqarib o'qish, ichda o'qish, ifodali o'qish, ongli, tushunib o'qish, tez o'qish, yakka o'qish, birgalikda o'qish, to'xtab o'qish usullari mavjud.

Bizga yaxshi ma'lumki, o'qish darslariga qo'yilgan talablar bir-biriga bog'liq holda amalga oshiriladi. Bolalar ongli o'rganmasalar, ifodali o'qish usullarini yaxshi o'zlashtira olmaydilar. Yoki, ravon, tushunarli o'qimasalar o'qish tezligini oshirish mumkin ham emas. Demak, o'qish turlarining o'zaro bog'liqligini dars jarayonida ulardan navbatma-navbat foydalanish orqali yo'lga qo'yish mumkin ekan.

Biz bilamizki, darslik, kitoblar bilan ishlashda ko'p tarqalgan ovoz chiqarib o'qish usulidan foydalaniladi.

O'qituvchi bolalarga:

-hozir navbat bilan ovoz chiqarib o'qiysiz, shoshmay, xatosiz, jummalarni oxirigacha to'liq o'qing;

-har bir gapdan so'ng biroz dam oling, so'ng navbatdagi gapni o'qing;

-hamma o'rtog'ining o'qishini eshitib, matnni xatcho'p bilan kuzatib borishini ta'kidlaydi.

O'qituvchi o'quvchilarning o'qishini kuzatib boradi va bolalar e'tiborini matn mazmunini uqib olishga qaratib, so'rala darrov javob berishga tayyor bo'lishlarini eslatadi. Bolalarni tutilib o'qishdan, tutilib so'zlashdan asrash, bunday hollarda ularga "Shoshilmang, chuqur nafas oling, keyin o'qishni yoki so'zlashni davom ettiring" -deb, yordam berib turish kerak.

Maktabda o'qituvchining, uyda esa ota-onalarning beg'araz yordami o'quvchiga kuch va ilhom bag'ishlaydi, o'ziga bo'lgan ishonchni orttiradi. Zero, buyuk bobokalonimiz Yusuf Xos Hojib quyidagi misralarni bejizga aytmagan:

O'quv qut beradi,

Bilim sharaf-shon.

Shu ikkovi tufayli,

Ulug'dir inson.

Shunday ekan, o'quvchi yoshlarni ma'naviyatini yanada yuksaltirishda, kitob bilan mutoala qilish qoidalariga o'rgatishda hamkorlik pedagogikasi asosida ish olib borish talab etiladi. Bu talabni maktab jamoasi bilan oila birgalikda amalga oshirsa, o'quvchi yoshlarimizning ma'naviyati va tafakkur doirasi anchagina yuskaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz>. "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2017 yil 8 sentabr.

2. Muhammadyorova. G. "Tinish belgilar-tanish belgilar" Bolalar uchun she'rlar. Toshkent. "O'qituvchi" 2016 yil.

3. Meliboyev A., Ergasheva N. "Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish usullari" Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2019 yil.

4. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. Toshkent, 2020 yil 1 son.

5. <https://www.facebook.com/muallimedu/photos/kitob-oz-nima?>



AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI BOSHLANG'ICH TA'LIMNING UNIVERSAL VOSITASI SIFATIDA

Nazarova Shoxsanam Xolmirzayevna

Samarqand viloyati Oqdaryo tumani

2-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+998933584797

Annotatsiya: Maqolada ta'lim tizimining quyi pog'onasi bo'lgan boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalari hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga doir fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zalari: boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, AKT, animatsiya, elektron testlar.

Mamlakatimizda ta'lim tizimida maktab fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'limning universal vositasi hisoblanib, na-faqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shax-siy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot-texnologi-yalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirishga imkon yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim - ta'lim tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni o'qitish sifati unga bog'liq bo'ladi va bu boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida AKTdan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalar to'planib borilmoqda. AKTdan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. 1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish joriy qilindi. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berilgan. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materiali bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiyasi uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Matematika darslarida «**O'yinli masalalar**» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinfdan 3-sinf-gacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi. Ona tili bo'yicha o'rganiladigan so'z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o'quvchilarda qiyinchiliklar tug'diradi. Bular: *antonimlar*; *sinonimlar*; *omonimlar*. Testlar orqali o'quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nosini topishga, sinonimlarni to'g'ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o'rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag'ishlangan «**Teskari o'yin**» testidan foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash



mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.

Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi — axborotlilik, ko'rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin.

Boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri – ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu kursni boshlang'ich maktabda o'rganish o'quv jarayonini modernizatsiyalash, samaradorligini oshirish bilan birga, har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini hisobga olib, uni tabaqalashtirishga imkon beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, oladilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. Bolani axborot bilan ishlashga, o'qishga o'rgatish- zamonaviy boshlang'ich sinflarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – T.: Xalqso'zi, 2017
2. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod– O'zbekiston taraqqiyotining poydevori kitobi. – T.: 1997
3. Ziyomammedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. – T.: 2000



IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINI O'QITILISHIGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Nurmatova Marg'uba Nurfullayevna

Navoiy viloyati Zarafshon shahar 13- sonli ayrim fanlar
chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktabi
iqtisodiy bilim asoslari fani o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada o'quv faoliyatini tashkil qilishda Vazirlar mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari"ni tasdiqlash to'g'risidagi 187-sonli qaroriga ko'ra, Iqtisodiy bilim asoslari fanidan umumiy o'rta ta'limning 8-9 sinflariga iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitilishiga qo'yilgan zamonaviy ta'lablar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Bank, soliq, talab, cheklanganligi muammosi, "Sherigini top", "Idrok xaritasi", "Zinnama zina", "Geometrik domino".

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "2004-2009"yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi"ning maqsad va vazifalarini to'laqonli amalga oshirish, ta'lim mazmuni, shakl va vositalarini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish samaradorligini ta'minlovchi omillarni yaratish va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan belgilangan ustuvor vazifalar va ularning ahamiyati belgilab berildi. Vazirlar mahkamasining 2017-yil 15- martdagi 140-son qaroriga asosan "Umumiy o'rta ta'lim" to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. Vazirlar mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari"ni tasdiqlash to'g'risidagi 187-sonli qaroriga ko'ra, Iqtisodiy bilim asoslari fanidan umumiy o'rta ta'limning 8-9 sinflariga dastur ishlab chiqildi va amaliyotga bosqichma bosqich joriy joriy etildi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish milliy tadbirlar rejasiga kiritilgan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida qabul qilingan qarorda umumiy o'rta ta'limning yangi davlat ta'lim standartlari ilova tarzda berilgan. Yangi DTSning maqsadi-umumiy o'rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar, rivojlangan mamlakatlar ilg'or ish tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Maktab ta'limini rivojlantirishni asosiy nuqtasi sifatida maktab o'quvchilarining funksional savodxonligini rivojlantirish ularni jamiyatda faol ishlash, o'z taqdirini belgilash, o'z-o'zini takomillashtirish hamda o'z-o'zini ro'yobga chiqarish qobiliyatlarini talab qiladi.

Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'zlashtirishda maktab o'quvchilari egallashlari zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va matakalariga Davlat tomonidan qo'yiladigan talablar bayon qilinadi. Respublikamizning kelajagini barpo qiluvchi yosh avlodga hozirgi zamon fanining yangiliklarini, uning murakkab qirralarini o'rgatish bilan bir qatorda tarixiy merosimizni o'rganshga imkoniyat tug'dirilishi lozim. Iqtisodiy bilim asoslari fani Davlat ta'lim standartining me'yor ko'rsatkichlari dinamik xarakterda bo'lib, ta'lim jarayonining takomillashuvi, fan va texnika yutuqlarining natijalari bilan to'ldirilib boriladi.

O'rta umumta'lim maktabining bitiruvchisi 8-9-sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'rgangandan so'ng, quyidagi bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur:

- iqtisodiy resurslarning ehtiyojlarga nisbatan cheklanganligi muammosi, imkoniyatlar ichidan birini yoki bir nechtasini tanlashga olib kelishini tushunib yetish;
- tanlovning muqobil qiymatini aniqlay olish va uni tanlov natijasini baholashda qo'llay olish;
- iqtisodiy qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ishlab chiqarish va uning omillarini tavsiflash;

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy- ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etadi



Ta'lim sohasida Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning asosiy maqsadi hozirgi ilmiy –texnika taraqqiyoti davrida erkin demokratik jamiyatga moslashgan, Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga kirisha oladigan, faol, ma'navan yetuk, barkamol, har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Ushbu maqsad yo'lida amalga oshirish uchun ta'lim tarbiya jarayonida hozirgi zamon ta'lablariga mos keluvchi yangi, turli didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Iqtisodiy bilim asoslari darslarida mavzularini o'qitishda innovatsiyon texnologiyalardan foydalanish uchun quyidagi didaktik o'yinlar tavsiya etiladi. "Sherigini top", "Idrok xaritasi", "Zinnama zina", "Geometrik domino", "Tushunchalar tahlili", "Baliq skeleti", va hokozaga didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini ortirishimiz ularni fikrlash qobiliyatini o'stirishimiz mumkin. O'tilgan mavzularni mustahkamlashda uchun "Aqliy hujum", "Tezkor savol javob", "Ha, yoq" oyinidan foydalanishimiz mumkin. Misol qilib oladigan bo'lsak "ha yoq" oyini, bu o'yin o'quvchini tez va to'g'ri fikrlashga o'rgatadi. Bundan tashqari hozirgi globallashtirish zamonida AKTdan foydalartish kundalik hayotimizning dolzarb talabi hisoblanib, jamiyatni globallashtirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar yangi tushimchalar haqida rasmiy bilimlarni to'plamasdan, balki ularni tushunib olishlari juda muhim. Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitish yanada samarali bolishi uchun o'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchilar AKTni ishlab chiqishlari va undan foydalanishni rag'batlantirishlari zarur.

Hozirgi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri o'quvchilarni shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli tipdagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish, mustaqil ravishda fanga oid zaruriy axborotlarni izlab topish, tahlil qilish natijasida zaruriy bilimlarni oshirishga oid materiallarni ajrata olish, ko'zda tutilmagan, ya'ni noa'niq muommoli vaziyatlar vujudga kelganda qo'llay oladigan xususiyatlarni egallashni o'quvchi ongiga singdirib tarbiyalashdan iboratdir.

Ta'limning sifat bosqichi davrida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va Iqtisodiy bilim asoslari fanini o'qitishga joriy etish davr talabi bo'lib, bu nafaqat ta'lim samarasini oshirishganda balki iqtisodiyotimizni rivojlanishiga ijobiy samara beradi.

O'quvchilarda bu xususiyatlarni tarbiyalashda fanga oid bilim, konikma, va malakalarining dars jarayonlarida singdirish bilan birgalikda ularda kompetensiyalarni ham shakllantirilishi lozim bu esa o'z ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi Ф-49-47-sonli farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari"ni tasdiqlash to'g'risidagi 187-sonli qarori.
5. Iqtisodiy bilim asoslari (Uslubiy qo'llanma)



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Rahimova Dilafruz Mansurovna

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

31-o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: boshlang'ich sinflarda darslarni yanada samarali bo'lishi, o'quvchilarni qiziqishlarini oshirishda didaktik o'yinlarning tutgan o'rni.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali vositalar, o'yinlar, mashg'ulot, hikoyalash, metodika.

O'quvchilar aqliy faoliyatini zarur shartlar bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqat xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarda tanlab hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlang'ich sinf o'qish darslarida keng qo'llaniladigan meto'dik usullar yordam beradi. Bunda hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; hikoyadagi bu voqeani tasvirolovchi rasm asosida hikoyalash; tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish. Darslardagi ko'rgazma vositalari, tarqatma materiallar, turli o'yinlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda samarali usullar hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'yinlarni yaxshi ko'rish bilan birga o'yin orqali ba'zi qoidalarini juda tez o'zlashtirib, uni uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Masalan: "Kim ko'p baliq tutadi?", "Bekinmashoq" o'yini, "Kim oshdi?", "Tovush tanitish" kabi o'yinlar mavjud. Bu o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kata qiziqish uyg'otadi. O'yinni tashkil qilishda sinf partalarining qatoriga qarab, o'quvchilar guruhlariga bo'linadi. Masalan birinchi sinflarda M tovushini tanishtirishda quyidagi "Tovush tanitish" o'yinidan foydalaniladi. Ikkita o'quvchi M tovushi qatnashgan so'zlardan navbat bilan ayta boshlaydi. O'quvchilardan biri to'xtab qolgach, boshqa o'quvchi davom ettiradi. Bunday o'yinlar yordamida o'quvchilar mazkur tovushning so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida kelishini anglab oladilar. "Kim oshdi?" o'yinini o'tkazishda o'qituvchi besh daqiqa ichida kim ko'p so'z o'qiy olishini tekshiradi. So'zlarni o'qishni boshlash va tugatish vaqtini o'qituvchi belgilaydi. Belgilangan vaqt ichida o'quvchilar ovoz chiqarib so'zlarni o'qiydilar va nechta so'z o'qiganlarini sanab beradilar. So'ralgan o'quvchi qaysi so'zga kelgani va shu so'zgacha nechta so'z o'qiganini aytadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqat tez o'sadi. Ixtiyorsiz diqqat qiziqish bilan mustahkamlanishi sababli, har bir o'qituvchi o'z darsini qiziqarli va maroqli qilishga intiladi. Lekin shu narsani yodda tutish lozimki, o'quvchilarning diqqatini bevosita qiziqarli va maroqli bo'lmagan narsalarga ham qaratishga o'rgatish kerak. Chunki o'quvchida nozik va injiq diqqat paydo bo'lib qoladi. Ko'rgazmali idrok katta imkoniyatlarga ega. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi yuqori samaradorlikka olib keladi. Yangi pedago'gik texnologiya bilimlarni o'quvchilarning faolligi asosida o'zlashtirib olishga qaratilgan. O'quvchi o'zi bajarib ko'rgan va amaliy mashg'ulotlardan keltirib chiqargan shaxsiy xulosalari orqali o'zlashtirib olgan bilimlarni mustahkam esda saqlab qoladi. Shu jihatdan qaraganda, turli xil o'yinlar o'quvchilarning bilim olishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu o'yinlar o'quvchilarni o'ylashga, fikr yuritishga, o'xshash va farqli hodisalarni bir-biriga solishtirish, taqqoslash muhimlarini ajratib olishga o'rgatadi. O'quvchi har bir so'z va unung mayda qismlariga ham e'tibor berishga o'rganadi. Topshiriqni bajarish orqali tovush o'zgarishlarining barcha turlarini amalda bajarib ko'radi. Darslarimizning chiroyli o'tishida didaktik o'yinlar biz pedagoglarga katta yordam beradi. Mazkur didaktik o'yinni ham boshlang'ich sinfdagi har bir darsda qo'llash mumkin. "Ta'rif ber" o'yini. Bunda parta oxirida o'tirgan o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan berkitilgan holda rasm beriladi. O'quvchi rasmni ko'rib, undagi narsani oldingi partadagi o'quvchining qulog'iga nomini aytmadan ta'rif beradi. Bu ta'rifga asoslanib, biror narsani o'ylagan keying o'quvchi yana oldingi partadagi o'quvchiga o'z ta'rifini aytadi. O'yin shu tarzda birinchi partadagi o'quvchigacha yetib keladi. U oxirgi ta'rifni eshitib, xayoliga kelgan timsolni doskaga chizadi. Rasmdagi va doskadagi tasvirlar bir xil bolsa, demak, bu qator g'olib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonini didaktik o'yinlar bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishmoqdalar. Ma'lumki, o'qituvchi didaktik o'yin darslarni o'tkazish uchun juda ko'p adabiyotlar bilan tanishishi o'quvchilarni bilim darajasi, yoshi, psixologik xususiyatlari, iqtidorini hisobga olishi zarur. Didaktik o'yinli darslar yangi mavzuni bayon qilish, mustahkamlash, bolalar bilimini sinab ko'rish va baholash jarayonida



qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarni yakkama yakka, keyinchalik guruhli o'yinlarga tayyorlashi, ular muvaffaqiyatli chiqqanidan so'ng ommaviy o'yin darslarini o'tkazishi kerak. Chunki o'quvchilar didaktik o'yin darslarda ishtirok etish uchun bilim, ko'nikma va malakalarni egallagan bo'lishlari zarur. Bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish uchun ta'lim va tarbiyaviy matnlar hamda rasmlardan ham foydalanish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.R.Safarova, M.G'ulomov, M.Inoyatova. Savod o'rgatish darslari, Toshkent 2012-yil "Tafakkur" nashriyoti.

2.O'qish 1-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, G.Boymurodova, X.Sattorova. Toshkent 2014-yil "Sharq" nashriyoti.



UZLUKSIZ TA'LIMDA BADIY ASAR QAHRAMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI

Rajabova Adiza Safarovna

Buxoro viloyati Buxoro tuman

26- maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida badiiy asar qahramonlarini o'rganish muammolari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, fan, metodika, adabiy qahramon, ruhiy olam, muammo.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida adabiy qahramonning o'ziga xos ruhiy olami va axloqiy sifatlarini anglash o'quvchi oldiga qo'yilgan muhim didaktik talablardan hisoblanadi. Ma'lumki, har qanday bilimni o'zlashtirish ma'lum darajada fikriy zo'riqish asosida kechadi. Darsda asar ustida ishlash mobaynida adabiy qahramon shaxsi va hayoti tahlili asnosida o'quvchining o'zi ham hayotga faol kirib boradi. O'zgalarni o'rganish orqali o'zi shaxs sifatida shakllanadi. O'quvchining asar qahramonlariga munosabatiga qarab uning shaxsini belgilash mumkinligi ham haqiqatdan yiroq emas. Maktab davrining turli bosqichlarida bolaning tashqi ta'sirga beriluvchanligi ham, badiiy asardagi timsollarni qabul qilish darajasi ham o'ziga xos bo'ladi. Adabiyot darslarida har bir bolaning bunday xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning individual hamda umumiy faoliyatini to'g'ri tashkil qila bilish adabiy ta'limning bosh maqsadiga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning har narsaga qiziqadigan, bilishga bo'lgan intilishi so'nagan davrida unda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanib ijobiy fazilatlar shakllantirishga, mustaqil fikr sohibini tarbiyalashga erishish maktab ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifasidir. "Agar bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatmoqchi bo'lsak, eng avvalo, ularni ertak to'qishga, sarguzashtlar tuzishga undash kerak. Fikrni faqat yangi, avval uchramagan, tortishuvlarga sabab bo'ladigan masalalarga sarflash lozim. Zerikish-fikrning dushmani", – degan edi ulkan ertakchi adib J.Rodari

Adabiyot, asosan, insonning tuyg'ulari bilan ish ko'radi. O'quvchi badiiy so'z ko'magida yaratilgan adabiy qahramonni o'zicha tasavvur qiladi. Shu asosda ko'nglida shaxsga munosabat shakllanadi. O'zgalarning tuyg'ularini ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydi. Ularni tuyish, his qilish, tasavvur etish kerak bo'ladi. Ma'lumki, o'smirlik davri uchun tafakkurning mustaqilligi, tanqidiyligi shiddatli taraqqiyot pallasiga kirishi xarakterlidir. Bola o'zining shaxsiy fikri, mustaqil qarashi, biror masala yuzasidan o'z qarashlariga ega bo'lishga harakat qiladi. Shuning uchun u o'qituvchi yoki ota-onaning aytganlariga, kitob va darsliklardagi xulosalarga nisbatan tanqidiy nuqtayi nazar bilan qaraydi. Tanqidiylik o'smir tafakkurining asosiy xususiyatlaridan bo'lib, u o'zga fikrlarni turli bahonalar, sabablar bilan yo'qqa chiqarishga qaratilganligi bilan xarakterlidir. Buning oldini olish uchun adabiyot darslarida o'quvchilar o'z qarashlarini dalillar ko'magida asoslashga odatlantirilishi kerak. O'smir o'zi hukm chiqarib, uning to'g'ri ekanini o'zi isbotlay olishi zarur. Adabiyot darslarida o'quvchi tafakkuri to'g'ri rivojlanishi uchun uni to'g'ri ta'rif berishga, tahlil qilishga, taqqoslashga, umumlashtirishga odatlantirish, o'z fikrini to'g'ri, ravon, aniq ifodalash va asoslashga o'rgatish, mustaqil ravishda hukm, xulosa chiqarish, mulohaza yuritishga yo'naltirish kerak. Fikr yuritishning bunday shakllari ularda aqliy ko'nikma va malakalarni o'stiradi. Natijada, aqliy rivojlanish amalga oshadi, mustaqil fikr kishisi shakllanadi. Asar matni ustida ishlash bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Asar mazmunini o'zlashtirish va tahlil qilish jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin: 1. Asardagi qahramonlar insonning tipik timsolimni namoyon etadi. 2. Asar qahramoni yozuvchining ijodiy fantaziyasi, san'atkorligi natijasida yaratilgan badiiy timsoldir. Demak, o'quvchi ongida ana shu ikki tasavvur va tushunchani timsollar tahlili yordamida uyg'unlashtirishga erishish lozim. Nima uchun hamisha ezgulik va yovuzlik o'rtasida kurash kechadi? Nima uchun inson muammosi hamisha adabiyot va san'atning bosh masalasi bo'lib kelgan? "Adabiyot – insonshunoslikdir", deyilishining boisi nimada? kabi savollarga o'quvchilar asar markazidagi timsollarni o'rganish orqali javob topishlari mumkin. Ayni paytda, timsollar ustida amaliy ish olib borish davomida o'quvchining har bir timsolga nisbatan munosabati, uni baholovchi ma'naviy me'yorlari, shaxsiy xulosasi yuzaga keladi. U o'zining mustaqil qarashlarini dalillar asosida bayon etishga o'rganadi.



Badiiy asar tahlilida asarda harakatlanuvchi personajlar tizimi kompozitsiyasiga alohida diqqat qaratish kerak bo'radi. Personajlarning o'zlarini tahlil qilishga emas, balki aynan ular o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlar tizimi, ya'ni kompozitsiyani tahlil qilishga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Mirqosimova M. O'quvchilarni adabiy-estetik tahlilga o'rgatish. –T.: O'qituvchi, 1994.
2. Mirqosimova M., Usmonova O. Badiiy asar tahlili vositasida o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish usullari. –T.: 2012



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN OG'ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Raximboyeva Malika Rustamovna,
Bekchanova Barno Egamberganovna**

Xorazm viloyati Shovot tuman 38-maktabning
boshlang'ich fani o'qituvchilari

Telefon:+998(93) 708-81-1747 malika38@umail.uz,
+998(90) 557-05-47

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda matematikadan og'zaki hisoblashni rivojlantirish usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Og'zaki hisoblash, yig'indi, ko'paytma, bo'linma, arifmetik amallar, distrebutivlik qonuni.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar og'zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o'qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo'ymoqda. Lotin yozuviga asoslangan matematika darsliklarimizda ayniqsa, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o'quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o'stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir. Yig'indidan, ko'paytmaga o'tish qoidasi, ko'paytma, bo'linma tushunchalari, ularning komponentlari orasidagi munosabatlarni mukammal o'zlashtirishni talab etadiki, bu yuqori sinf matematika fanidan oladigan bilimini mustahkamlash asosi bo'lsin. Boshlang'ich sinflarda eng qulay usul bilan hisoblash masalasi arifmetik amallar bajarishning asosiy tayanchi hisoblanadi. O'qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan balki ijodiy fikrlaydigan materiallar bilan darsni boyitish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10, 100, 1000 ichida ko'paytirishni turli ko'rinishlaridan foydalanish o'quvchilarni qiziqishini oshiradi.

$$68 \cdot 5 = (34 \cdot 2) \cdot 5 = 34 \cdot (2 \cdot 5) = 34 \cdot 10 = 340$$

$$68 \cdot 50 = 34 \cdot 100 = 3400$$

Qo'shishning distrebutivlik qonuniga ko'ra:

$$17 \cdot 50 = (16+1) \cdot 50 = 16 \cdot 50 + 1 \cdot 50 = 800 + 50 = 850$$

Sonlarni bo'lish texnikasiga ko'ra:

$$135 : 5 = (135 : 2) : (2 \cdot 5) = 270 : 10 = 27$$

$$2250 : 50 = 4500 : 100 = 45$$

O'quvchilar diqqatini og'zaki va yozma ko'paytirishga jalb etish zarurki, bunda o'quvchilar qiziqishi ortib borsin.

$$24 \cdot 25 = (6 \cdot 4) \cdot 25 = 6 \cdot (4 \cdot 25) = 6 \cdot 100 = 600$$

Bunda imkon boricha qisqa holat tanlashga intilish zarur:

$$24 \cdot 25 = (24 : 4) \cdot (25 \cdot 4) = 6 \cdot 100 = 600$$

Ko'paytirishning qavslardan foydalanish holatlari juda ham qiziqarlidir:

$$37 \cdot 25 = (36+1) \cdot 25 = 36 \cdot 25 + 25 = 900 + 25 = 925$$

$$35 \cdot 25 = (36-1) \cdot 25 = 36 \cdot 25 - 25 = 900 - 25 = 875$$

$$38 \cdot 25 = (36+2) \cdot 25 = 36 \cdot 25 + 2 \cdot 25 = 900 + 50 = 950$$

25 ga ko'paytirishning og'zaki usulini 24 va 26 ga ko'paytirishni (25-1) va (25+1) ifoda bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

(Bu chorak, bo'lak, ulushlar tushunchasini o'tganda zarur bo'ladi.)

$$\text{Masalan: } 36 \cdot 26 = 36 \cdot (25+1) = 36 \cdot 25 + 36 \cdot 1 = 900 + 36 = 936$$

$$36 \cdot 24 = 36 \cdot (25-1) = 36 \cdot 25 - 36 \cdot 1 = 900 - 36 = 864$$

25 ga bo'lish esa, 5 ga bo'lish qoidasidek bajariladi. Yuqoridagi hisoblashlarga teskari hisoblashlarni bajarish bilan mustahkamlaymiz.

Bo'luvchini 2 ga, 4 ga ikki martalab ko'paytirish bo'lgan hollar uchun xonalarni nollar bilan to'ldirish qoidalariga asoslanadi:

$$225 : 25 = (225 : 2) : (25 : 2) \text{ yoki } (225 : 4) : (25 : 4) = 900 : 100 = 9$$

Agar 9,99 va 999 ga ko'paytirish kerak bo'lsa, u holda eng qulay usulda hisoblash qoidasiga ko'ra (10-1), (100-1), (1000-1) ko'rinishlarda distrebyuterlik qonuniga ko'ra:

$$678 \cdot 9 = 678(10-1) = 6780 - 678 = 6102$$

$$577 \cdot 99 = 577(100-1) = 57700 - 577 = 57123$$



$$34 \cdot 999 = 34(1000 - 1) = 34000 - 34 = 33966$$

3 sinfda $(14 \cdot 15)$ ko'paytirish qoidasi

$$14 \cdot 15 = 14(10 + 5) = 140 + 14 \cdot 5 = 140 + 70 = 210$$

Buni darhol hisoblashga shoshilmasdan bajarish zarur, chunki

$$14 \cdot 15 = 14 \cdot 10 + 14 \cdot 5 = (14 + 7) \cdot 10 = 21 \cdot 10 = 210$$

ko'rinishda hisoblashni bajarishni unutmaslik kerak.

Agar $23 \cdot 15$ bo'lsa

$$23 \cdot 15 = (22 + 1) \cdot 15 = 22 \cdot 15 + 1 \cdot 15 = 330 + 15 = 345$$

Shuningdek, 14 va 16 ga ko'paytirishni $(15 + 1)$ va $(15 - 1)$ ifodaga almashtirish mumkin.

$$66 \cdot 14 = 66 \cdot (15 - 1) = 66 \cdot 15 - 66 = 990 - 66 = 924$$

$$62 \cdot 16 = 62(15 + 1) = 62 \cdot 15 + 62 = 930 + 62 = 992$$

$$61 \cdot 69 = 6(6 + 1) \cdot 100 + 1 \cdot 9 = 4200 + 9 = 4209$$

$$243 \cdot 247 = 24 \cdot 25 \cdot 100 + 3 \cdot 7 = 60000 + 21 = 60021$$

Bunday usullardagi hisoblashlarni bajarish o'quvchilarni og'zaki hisoblash texnologiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. M.Jumayev. Matematika (1-sinf). Turon iqbol. 2018 yil 160 bet. O'quv qo'llanma
2. M.Jumayev. Matematika daftari. Turon iqbol. 2018 yil 4,5 bet.
3. M.Jumayev. Boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm Ziè. 2018 yil.
4. Jumayev M., Yuldasheva M., Mingbayeva B., Mamatova G. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi moduli bo'yicha O'QUV-USLUBIY MAJMUA – T.: – Nizmiy nomli TDPU huzuridagi XTXQTMOMH|| 2017



ОНА ТИЛИ ДАРSLARI DA NUTQNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ro'ziyeva Gulnora Anvarovna

XTV FFIDUM Ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Tel: 97-454-86-68

Annotatsiya: Ona tili darslariga qo'yiladigan asosiy talab o'quvchilarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, to'g'ri, ravon, ta'sirli va mazmundor so'zlash va yozishga o'rgatishdan iborat. Maqolada shu mazmundagi, ya'ni o'quvchilarning nutqiga qo'yiladigan talablar va maktabda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan takliflarva tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, savodxonlik, nutq sharoiti, adabiiy talaffuz, mazmun.

Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab yetadi. Nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq odatdagi so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalar qo'shma gaplar deyarli qo'llanmaydi.

Yozma nutq tuzish esa murakkabroq jarajon bo'lib, u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rinida to'g'ri qo'llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishlashga qaratilgan bo'ladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir. Maktab o'qituvchilarining birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta'siridan, har xil vulgar so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so'zlashga o'rgatishdir.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovozda to'xtam (pauza)larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfdan, biror yig'inda ochib berishdagi nutqida o'z aksini topadi.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

2. Nutqning mazmundorligi. O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqea-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi.

Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

3. Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqea-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to'g'ri baho bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

4. Nutqning boy va rang-barang bo'lishi. Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinli foydalanishda namoyon bo'ladi.

5. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi. O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinli qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

6. Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi. Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish



vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.

O'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo'llanadi:

1. Adabiiy talaffuzni har bir darsda o'rganiladigan qoidalarga bog'lab o'rgatish.
2. Boshqa fanlarni o'qitishda ham nutq o'stirishga e'tibor berish.
3. O'quvchi nutqidagi adabiiy tilga xos bo'lmagan dalillarni tushuntira bilish.
4. Fonetika o'qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e'tibor berish.
5. Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.
6. O'quvchilarni turli tadbirlarda va yig'inlarda chiqib so'zlashga odatlantirish.
7. She'riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi oldiga o'quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo'yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o'stirishda yagona talab amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Xayrullayev. O'zbek pedagogik antologiyasi. T.: «O'qituvchi» 1995 y
2. N.Ochilov. Muallim qalb mehmoni. T.: «O'qituvchi» 2001 y .



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH ORQALI AQLIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ro'ziboyeva Farog'at Iskandarovna
Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani
31-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga masalalar yechishni o'rgatish orqali ularning aqliy faoliyatini rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: matematika, masala, fikr, tezkorlik, dars, aqliy qobiliyat.

Hozirgi paytda maktablarda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash hisoblanadi. Bunda ularda matematika bo'yicha bilimlar berish bilan birga ularga o'rganilayotgan bilimlarni asosli va puxta bo'lishini ta'minlash, ularni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonida matematik masalalar, jumladan hayotiy mazmunli, ularning to'plagan tajribasiga asoslangan masalalarni yechish usullariga va ularni qo'llashga o'rgatish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, matematika darslarida o'qituvchi o'quvchilarni faollikka undashi uchun darsda o'quvchilarning ziyrakligini chaqqonligini oshirishga xizmat qiladigan tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlar foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ayniqsa, qiziquvchan, tirishqoq bo'ladilar. Tezkor savollar, topshiriqlar, jumboqlar, mantiqiy masalalar va misollar, rebuslar, krossvordlarni yechish ular uchun qiziqarli va doimiy mashg'ulotga aylanishi kerak.

Matematik masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o'zlashtirishni tasavvur etib bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan nazariy materiallarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishda muhim rol o'ynaydi.

Matematika darslarida o'quvchilarda topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllanishida mantiqiy misollar va masalalarning ahamiyati juda kattadir. Mantiqiy misol va masalalar o'quvchilarning fikrlashini, aqliy qobiliyatini rivojlantiradi. Ularda tezkorlik tasavvur doirasini kengaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish vazifalarini bajaradi. Masalalarga namuna sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

1-masala. 12 ta shashka donasini to'rt qator qilib shunday joylashtiringki, har bir qatordagi shashkalar soni 4 tadan bo'lsin.

2-masala. Bir nechta bolalarga daftarlarni bo'lib berish kerak. Agar har bir bolaga 10 tadan daftar berilsa, 6 ta daftar ortib qoladi. Agar 11 tadan berilsa, 5 ta daftar yetmay qoladi. Bolalar sonini toping?

3-masala. Son 7 ga kamaytirildi, so'ngra natijani 10 marta kamaytirildi, dastlabki sondan 34 ga kam son hosil bo'lgan bo'lsa, dastlabki sonni toping?

Yuqoridagi masalalarni yechishda o'quvchilardan anchagina e'tiborlilik, tezkorlik va topqirlik talab etiladi. Shuningdek bu masalalar biroz murakkablik qiladi. O'quvchilar bu masalalarni yechishda arifmetik amallar, hisob-kitoblardan foydalanadilar.

O'quvchilarda tezkorlik faqat darsdan tashqari paytlarda emas, balki dars davomida ham rivojlanadi. Dars davomida o'quvchilar bilan xoh individual, xoh ko'pchilik bo'lib shug'ullanilsa ham, ular bilan har bir ishlanadigan masala yoki misol bilan e'tibor bilan ishlashsa o'quvchilarda tezkorlik, faollik rivojlanadi. Tezkorlik, faollikni rivojlantirishda dars davomida quyidagi usuldan foydalansa ham samarali bo'ladi. O'quvchilar darslikdagi misol va masalalarni shunchaki ishlamasliklari kerak. Xususan, masalalar yechganda faqat uning javobini topish bilan chegaralanmasdan, masalaning shartidan yangi savollar tuzishlari ham mumkin. Biz yuqorida aytib o'tilgan metod haqida quyidagi masala misolida ko'rib chiqamiz.

Masala. Birinchi kuni kutubxonaga 13 bog'lamda 91 ta kitob olib kelindi. Ikkinchi kuni yana 3 ta shunday bog'lamli kitoblar keltirildi. Ikkinchi kuni nechta kitob keltirilgan?

Masalaning shartidan 1-kun 13 bog'lamda 91 ta kitob borligidan bir bog'lamda nechta kitob borligini topamiz va 2-kun keltirilgan kitoblar sonini ham topamiz. 1) $91:13=7$ ta 2) $7*3=21$ ta kitob. Masalaning javobi 21 ekanligi aniqlandi. Shu bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Buning



uchun o'quvchilardan masala bo'yicha quyidagi savollar so'raladi.

1. Birinchi va ikkinchi kun kutubxonaga nechta kitob keltirildi?
2. Ikki kunda nechta bog'lamda kitob olib kelingan?
3. Birinchi kun olib kelingan kitoblar ikkinchi kundagidan qancha ortiq?
4. Birinchi kun olib kelingan kitoblar bog'lami ikkinchi kundagi kitoblar bog'lamidan qancha ortiq?

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda matematika darslarida masala yechishni o'rgatishda turli metod va usullardan foydalanish mumkin. Bu usullarni o'ylab topish esa har bir pedagogikning vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Alixonov Matematika o'qitish metodikasi.
2. Boshlang'ich sinf matematika darsliklari.
3. A. Quchqarov, SH. Ismoilov Mantiqiy masalalar.



ОНА ТИЛИ ФАНИНИНГ ТА'ЛИМ-ТАРБИЯ РИВОЖИДАГИ АҲАМИЯТИ

Sayfullayeva Nafisa Barakayevna

Buxoro shahridagi 38-maktabning
boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim-tarbiyaning rivoji uchun muhim bo'lgan ona tili va so'z haqida, o'zbek tili va uning imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiyada qanday foydalanish haqida, shuningdek uning rivoji uchun xizmat qiladigan o'quv lug'atlarning o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchilarga o'zbek tilining qoliplashgan tizimidan voz kechilgan holda, ularni ona tiliga qiziqtirishning yangi usullaridan darsliklarda foydalanilayotgani tahlil qilingan.

Tayanch so'zlar: til, leksika, lug'at, sheva, leksikografiya, tilshunoslik, ma'nodosh so'zlar, shakldosh so'zlar.

Insoniyatning taraqqiyoti zahirida tilning o'rni katta. So'z esa tafakkurning in'ikosi bo'lmish tilning mahsulidir. Ulug' bobokalonimiz Mir Alisher Navoiy: "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim guhari sharifroq yo'q ondin" deya e'tirof etganlar. Har bir tilning lug'at tarkibi, shuningdek, tildagi so'zlar majmuyi leksika deb yuritiladi. Shunga ko'ra leksika so'zi adabiy tilning lug'at tarkibini ifodalash uchun ham, biror sheva yoki dialektlarning lug'at tarkibi ma'nosida ham, ma'lum bir kasb-hunar kabi sohaga oid lug'at tarkibi ma'nosida ham, hatto ayrim yozuvchi asarining so'zlari majmuyi ma'nosida ham qo'llanaveradi. Leksikologiya leksikani o'rganadi, leksika esa o'z navbatida, so'zlardan yoki so'zlarning majmuidan iborat bo'ladi. So'z haqida gap ketganda ko'pincha, unga asosiy til birligi, til va nutqning eng muhim unsurlaridan biri, tilning eng kichik birligi tarzida ta'rif beriladi. Lekin so'z aslida murakkab xususiyatga egadir. So'zga uch-to'rt og'iz so'z, hatto uch-to'rt jumla bilan ham to'la ta'rif berib bo'lmaydi. Har bir til shu tilga mansub xalqning moddiy va ma'naviy dunyosini butun borlig'icha o'zida aks ettiruvchi yorqin ko'zgu bo'lib, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois jamiyatda sodir bo'lgan har qanday voqelik yoki o'zgarish birinchi navbatda tilda o'zini namoyon etadi.

Tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida tilning lug'at tarkibi tadrijiy ravishda doimo rivojlanib, boyib boradi. Bu boyish jamiyat rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalovchi, yangi so'zlar nomlarining vujudga kelishi hisobiga sodir bo'ladi. Tillarning lug'at tarkibi uning leksik-semantik sistemasi doimo o'zgarib boradi, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holga kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlarning arxaiik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'rnini yangi so'zlar egallaydi. Lekin iste'moldan chiqqan so'zlarning miqdori yangi paydo bo'lgan so'zlarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Lekin ba'zi hollar buning aksi ham bo'lishi ham mumkin. Albatta, lug'aviy birliklarning iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida tilning tabiati, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro'y beradi. Ana shularni tizimli ravishda saqlab kelayotgan lug'atlar inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Lug'at muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi leksika; so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmasi, iboralar va muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimai haqida ma'lumotlar jamlangan kitob.

Leksikografiyaning vazifasi juda keng bo'lib, u qanday lug'at tuzish talab ehtiyojlariga javob berishi lozimligini ham o'z ichiga oladi. Shuni aytib o'tish kerakki, kishilarning yodda tutib qolish qobiliyati naqadar kuchli bo'lmasin, bir tildagi barcha so'zlarni, ularning xilma-xil ma'nolarini esda saqlab qolish nihoyatda qiyin va mumkin ham emas. Shuning uchun ham kishilarning ana shunday ehtiyojini qondirish uchun turli xildagi lug'atlar tuzilgan va hozir ham tuzilmoqda. Hozirgi kunda ikki tillik tarjima lug'ati, ko'p tillik tarjima lug'ati, izohli lug'at, ikki tillik differensial lug'at, terminologik lug'at, tarixiy lug'at, etimologik lug'at, frazeologik lug'at, idiomatik so'zlar lug'ati, orfografik lug'at va ensiklopedik lug'atlar kishilarning madaniy-ijtimoiy ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmoqda. Turli turdagi lug'atlar tuzish umummadaniy ahamiyatga egadir. Lug'at alifbo tartibida tuzilib, qulay qo'llanma sifatida xalq ommasiga bilim beradi, madaniy funksiyani bajaradi. Lug'atlar ma'naviyat va madaniyat sohasida muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'atlar har



birimizga ilmiy jarayonda to'g'ri va aniq ishlashga, real va obyektiv fikrlash va tasavvur qilishga yordam beradi. Leksikografiya deb leksikologiyaning lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi qismiga aytiladi. Lug'atlar turli maqsadlarda tuziladi va ularni o'rganish, o'z tilining imkoniyatlarini to'laroq egallashda, savodxonlikni oshirishda, nutq madaniyatini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Lug'atlarni o'rganishning ahamiyati shundaki, lug'atlar bizning so'z boyligimizni kengaytiradi.

Leksikografiya boy tajribaga ega bo'la borgan sari uning ham fan sifatida o'z nazariyasi shakllanmoqda. Lug'atlar oldiga qo'yiladigan talablarning rang-barangligi lug'at turlarining xilma-xilligi bu sohaning kelajagi porloqligidan darak beradi. Ona tiliga davlatimiz rahbari katta e'tibor bilan qarayotgan paytda tilni o'rganish uchun eng muhim vosita bo'lgan leksikografiyani rivojlantirish tilshunos olimlar hamda yurtimizda xizmat qilayotgan barcha ona tili va adabiyot o'qituvchilari uchun birinchi galdagi vazifa deb o'ylayman. Chunki o'quvchi hadeb tilga oid grammatik qoidalarni yodlab olsa-da, ularning aksariyatining nutqida no'noqlik borligi salbiy holatdir. Shu maqsadda nashrdan chiqarilayotgan "Ona tili" darsliklarini tilga oid qoidalaridan cheklangan holda ko'proq og'zaki va yozma nutqqa bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Masalan, 2019-yilda nashr etilgan 8-sinf darsligidagi mashqlarda radionutqlarni uchratish mumkinki, bu albatta, o'quvchilarning nutqlari ravon bo'lishiga zamin bo'la oladigan omillardan hisoblanadi. O'quvchilar bu yangilikka qiziqishmoqda. Yangilik sifatida kiritilgan bu radionutqlarda o'quvchilar ham axborot texnologiyalaridan foydalanishadi, ham turli so'zlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Og'zaki va yozma nutqning rivojlanishida lug'atlar tayyor vosita hisoblanadi. Nutqda bir so'zni takror ishlatgandan ko'ra uning sinonimlarini qo'llash nutq ko'rkinini oshiradi hamda tinglovchilarga yoqadi. "O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati" Otabek Shukurov va Bashorat Bahriddinova tomonidan ancha yillar oldin tuzilgan bo'lsa-da, maktab o'quvchilari bunday lug'at tuzilganidan bexabar bo'lishi mumkin. Bunday o'quv lug'atlarining ahamiyati haqida o'quvchilarga sekin-asta tushuntirib borsak, ularning o'zi shunga qiziqishlari rivojlana boradi. Albatta, bunda hamma o'quvchini qamray olmasligimiz mumkindir, lekin ularning safini ko'paytirish o'z qo'limizda. Bunda tizimli bosqichni ishlab chiqish joizdir. Ta'limning rivoji uchun muhim bo'lgan ona tiliga e'tibor kuchayib borayotgan bir vaqtda o'zbek tilining jonkuyarlari o'z imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda birgalikda harakat qilishlari muhim qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shukurov O, Bahriddinova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – T.: 2006.
2. Qodirov M, Ne'matov H, Abduraimova M, Sayfullayeva R, Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2019.



YOSHLARIMIZNI GLOBALLASHUVNING ZARARLI TA'SIRLARIDAN HIMOYALASH

Shukurova Shahnoza Shukurovna

Andijon shahar 17-maktabning

tarbiya fani o'qituvchisi

Tel: +998916103074

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiyani insonparvarlikning yuksak ko'rinishi sifatida uni umuminsoniy, axloqiy, siyosiy jihatdan ahamiyati milliy va zamonaviy ruhda ifodalab berilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, barkamol avlod, globallashuv.

Insoniyat yaralibdiki, u har doim tahdidlar, ziddiyatlar va xavotirlar girdobida yashab kelgan. Bunday negativ taraqqiyotning turli bosqichlarida, turli xil ko'rinishlarda va turli nomlarda atalib kelinmoqda (urushlar, tabiiy va texnogen fojealar, yadro urushi xavfi va boshqalar). XX asrning so'nggi yilliklarida insoniyat mutlaqo yangi hodisa globallashuv davriga kirdi. Bu atama 1983-yilda amerikalik olim T. Levitt tomonidan birinchi bora tilga olingan edi. Juda qisqa vaqt ichida "Globallashuv" eng ommalashgan tushuncha darajasiga ko'tarildi. U kirib bormagan soha qolmadi. Unga turli ta'riflar berish va sohalar bo'yicha tahlil qilish odat tushiga kirib bo'ldi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, globallashuv jarayonining barcha sohalaridagi ko'lam va salohiyati dunyo xalqlari hayotini o'zgartirishdagi qudratini o'tmishda bo'lib o'tgan inqiloblar bilan tenglashtirish mumkin. Globallashuvni "Yangi zamon inqilobi" ekanligi masalasi jiddiy fikr yuritishga undaydi. Zero, "Inqilob" qanday mazmunda qo'llanilishidan qat'iy nazar, uning natijasida jamiyat hayoti yillar davomida amal qilib kelinayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy – madaniy turmush tarzi keyin o'zgarib ketadi. Ammo biz "Inqilob" atamasini alohida bir davlatda sodir bo'ladigan voqealikka emas, ayni vaqtda umumbashariy hodisa hisoblangan va insoniyat taqdirida keskin o'zgarishlar yasashga qodir bo'lgan "Globallashuv"ga nisbatan ishlatmoqdamiz. Aynan shu jihatlari bilan bugungi kunda globallashuv "Dunyo odami"ni yaratish, madaniyatlar integratsiyasi, qadriyatlar qo'shiluvini maqsad qilganligi bilan, insonning ongi, qalbi va ruhiyatini egallash, oxir oqibatda ular ustidan hukmronlikni o'rnatishga intilayotgan kuchlar qo'lida qurol bo'lganligi bilan ham insoniyat hayotiga tahdid va xavf-xatardir.

Dunyo ne'matlariga yakka egalik qilish, boshqa xalqlar ustidan o'z hukmonligini o'rnatish masalasi, endilikda mutlaqo yangicha ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ilmfanning eng yangi yutuqlaridan, dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy, siyosiy holatlardan foydalanish urf bo'lib borayotir. Globallashuv davrida yuksak rivojlangan mamlakatlar endi taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan mamlakatlardagi millatlar va elatlarni qaram qilishning eng maqbuli hisoblangan ma'naviy muhitiga ta'sir qilish usulidan faol foydalanmoqdalar. Ma'lumki, g'oyalar, qarashlar, axloqiy, huquqiy, estetik, diniy me'yorlar insonga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar ma'naviy muhitni tashkil qiladi. Ma'naviy muhit shaxsni ham, muayyan avlodni ham ma'lum yo'nalishda shakllantiradi, tarbiyalaydi ularda ijobiy xislatlarni yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta'sirlardan himoya qilishga harakat qiladi. Chetdan qabul qilingan yangi qadriyatlarning ham taqdirini belgilaydi, rivojlantiradi, unutilishga mahkum etadi yoki o'zgartirib o'ziga moslashtiradi.

Hozirda yoshlarimizni globallashuvning zararli ta'sirlaridan himoyalash, uning negativ ta'sirlariga qarshi tura oladigan mafkuraviy-g'oyaviy immunitetni shakllantirish dolzarb muammoga aylandi. Bugungi kunda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sanaladi. Bu ezgu maqsad yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat'iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.

Bunda biz ma'rifatparvar Abdulla Avloniyni: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir", degan o'gitiga amal qilishimiz zarur.

Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha – barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.



Vatanimiz ertangi kunini, o'z zurriyotlarining baxtu istiqbolini istaydigan har bir odam - u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi ekanidan qat'iy nazar, farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Milliy mustaqillik sharoitida barkamol avlod o'z vataniga, xalqiga, ona yeriga, millatiga, ota-onasiga sodiq, har tomonlama kamol topgan insonlarni tarbiyalash eng muhim ahamiyatni kasb etadi. Yangilangan davlat tizimida tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari ham yangilandi. Bu yangilanish, avvalo, tarbiyani insonparvarlik va demokratiya prinsipi asosida ko'rilishi bilan farqlanadi. Tarbiyani insonparvarlashtirish va demokratiyalash prinsipi o'quvchilar, o'quvchi- tarbiyachilar ijodiy faollik va mustaqilligini rivojlantirishi, ularni turli xil ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishda hamkorligini ta'minlash uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Yoshlarda ijodiy faollik, aqliy zakovat, ahloqiy salohiyat, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning alohida o'rni bor. Har bir davrning o'ziga xos tarbiyaviy usul va vositalari bo'ladi. Shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi – bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu-inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, ahloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir- oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra, g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasini, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyani olamizmi – hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu tom ma'noda, mafkuraviy tarbiyaning asosi, poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Tarbiya – uzluksiz davom etadigan ijodiy izlanish jarayonidir. Tarbiyaviy faoliyatdagi ijobiy tarbiyalarni muntazam ravishda o'rganish va umimlashtirish, ularni murabbiylar orasida, kafedra va boshqa oliy ta'lim tuzilmalarida ommalashtirish zaruriyati bor. Shunga asoslanib, umumiy o'rta ta'limdagi tarbiya konsepsiyasini muntazam ravishda ijodiy rivojlantirilishi va boyitilishi mumkin. U hayotning o'zi taqozo etadigan o'zgarishlar uchun hamma vaqt ochiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shermuxamedova N. Falsafa. O'quv uslubiy qo'llanma. -T.: "Noshir", 2012. 658 bet.
2. Istiqlol qahramonlari. "Mahmudxo'ja Behbudiy" tanlangan asarlar. -T.: "Ma'naviyat", 2006-54 b.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Uraqova Dilafrō'z Omonovna

Samarqand viloyati Paxtachi tumani

24-umum ta'lim maktabi ning

boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Kalit so'zlar: ko'rgazmali qurol, o'quvchi, matematika, didaktik o'yin, ta'lim.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga fan asoslarini, ayniqsa, matematika fanini o'rgatish o'ziga xos qiyin kechadi. Jumladan, birinchi sinfga qabul qilingan bolalarga matematika fanini o'rgatish o'qituvchida murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bolalar bilimidagi va ularning fanni o'zlashtirishga bo'lgan qizikishlaridagi turli-tumanlik kichik yoshdagi o'quvchilar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi. Bu esa o'qituvchilardan o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Bu mas'uliyat quyidagilarda namoyon buladi har bir darsga dars mavzulari va o'quvchilar bilim darajalaridan kelib chiqib, ko'rgazmali qurollardan foydalanishda, dars davomida darsning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, didaktik uynlardan foydalanishda didaktik o'yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishlash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjomsarishta bo'lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi.

Matematika darsida foydalaniladigan har qanday didaktik o'yinlardan asosiy maqsad - ta'limiy maqsaddir. Ta'lim - o'quvchilarga dars jarayonida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish hamda mustahkamlashning rejali jarayonidir. Sinf o'quvchilarining bilish darajasi va qiziqishlari matematika darsining mazmuni va sutrukturasidan kelib chig'ib, uning hajmiga katta ahamiyat bergan holda, undan darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Darsning boshida o'quvchilarni shu darsga qiziktirish uchun, darsning o'rtasida yangi mavzu materiallarining yaxshi o'zlashtirilishini ta'minlash uchun, darsning oxirida esa egallagan matematik bilim, ko'nikma va malakalarini yanada mustahkamlash va nazariy bilimlarni kundalik amaliy hayot bilan bog'lash maksadida kiritiladi.

Ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish tajribasi shu narsani ko'rsatmoqdaki, matematika dasturidagi barcha mavzularda didaktik o'yinlardan unumli foydalanish mumkin. Hatto, «O'nlik» mavzusidagi birinchi darslarda ham didaktik uynlardan foydalanish imkoniyatlari katta.

Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi.

Yangi boshlang'ich matematika kursida, avvaldagiga o'xshash, arifmetika asosiy o'rinni egallaydi. 1-4- sinflarning yangi dasturida material mazmuni nazariyaning amaliy masalalar (sanoq, o'lchashlar, hisoblashlar, masalalar echish) bilan bog'lanishi yanada mustahkamlangan: eng muhim tushunchalar (son, sanoq sistemasi, arifmetik amallar)ni shakllantirishning birmuncha mukammal sistemasi ko'zda tutilgan.

Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o'yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Bantova M.A., Beltyukova G.B., Polevshikova A.M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
2. Levenberg L.Sh., Axmadjonov I.G., Nurmatov A.N. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.



TEACHING ENGLISH AND WORKING WITH SMALL GROUPS IN ENGLISH LESSON

Yoqubjonova Muhabbatxon Yusufjonovna

an English teacher of Namangan region,
Narin district, school №19

902759235. yoqubjonovamuhabbatgmail@.com.

Annotation: This article is written about important of grouping students in teaching foreign languages and the principle of learning English is to form a communicative competence, developing speaking, listening, reading writing and making friendly atmosphere in small groups.

Key words: Method, grouping, unconventional, innovation, individual, team, educational subject.

Over the last years giving pay attention learning foreign language has become popular among all age people that's why our government concentrates on teaching languages, especially English language. Since 2012 foreign languages have been teaching at primary classes. As the learning process relates to young minds, psychology and developmental psychology, it requires constant innovation, innovative methods and effective initiatives. The classroom-based learning process is also one of the educational initiatives, as outlined above. It is worth noting that this method can be enhanced by adding a variety of features and features to its effectiveness and efficiency. Group learning is also important as a result of teamwork, which can be achieved at the end of the process. Consequently, the organization of a particular foreign language is not individualized. This is because the management of language depends on theoretical knowledge and, in principle, on their practical application. Classification of students can be applied in different ways depending on the age of the participants. As an example, the following grouping method can be implemented in elementary school students: random sampling. The educational subject of this method is cards with pictures of different subjects in a group. For example, fruits; animals; clothes etc. Pupils choose whatever they want from reversed cards. There is a definite breakdown within the same general subject matters: Fruits: red fruits and green fruits (can also be used as vegetables and fruits);

Animals: domestic animals and wild animals;

This interpretation can also be substituted by snakes understanding of the subject matter.

It can be seen that group work in language lessons is the basis for a two-way process:

- The process of controversy that results in healthy competition between groups;
- The process of active cooperation and dialogue between members of the group;

Indeed, the desire to learn a particular language, in general, requires a certain interest in it. Forming and maintaining this interest motivates the teacher to find necessary and significant individual non-traditional reforms relevant to the young psychology.

References:

1. Dalton, C. & Seidlhofer, B. (1994). Pronunciation. Oxford: Oxford University Press.
2. Hewings, M. (2007). English pronunciation in use. Advanced. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Gilakjani, A. P. (2012). The significance of pronunciation in English language teaching.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA SHAKLLARI

Andijon viloyati Paxtaobod tumani
26-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Yunusova Nargiza Raxmanovna.

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf dars jarayonlarini yanada samarali o'tkazish, darsni sifatli qilish yoshlarda vatanga ota onaga mexr muhabbat uyg'otish ta'lim shaklini keng o'rganish hamda ularni tatbiq qilish maqsadida pedagogik texnologiyalar turli xil didaktik o'yinlardan foydalanish. Ularni dars jarayonida qo'llash orqali dars mohiyatini ochish yoshlarda yashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiyalar, o'yinlar savodxonlik, zamonaviy usullar.

Boshlang'ich sinflarda "Ona tili" fanini o'qitishning samaradorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Shubhasiz, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va o'quv imkoniyatlarini hisobga olish, ona tili ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida pedagogik hamkorlikning o'rnatilishi, darsda ishga solinadigan vositalarning maqsadga muvofiq tanlanishi singarilarning barchasi samaradorlikni ta'minlash bilan aloqadordir. Ana shu omillar ichida ona tili ta'limning mazmuni muhim va etakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o'quvchilarga "Nimani o'qitish?" masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitishi kerak?" degan savolga javob topish mumkin. Demak samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevosita aloqadordir. "Nimani o'qitish?" va "Qanday o'qitish kerak?" bir jarayonning ikki qirrasidir. Bular shu darajada bir-biri bilan bog'langanki, biri ikkinchisiz hech qanday samara ko'rsatmaydi. Ona tili ta'limning samaradorligi, birinchidan, ta'lim mazmuni, ya'ni shu fandan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarning ona tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, bilish ehtiyojini yuzaga keltiradigan vositalar bilan chambarchas bog'langan. Ona tili ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim vositalardan biri o'qitish metodini to'g'ri tanlanishidir. Ona tili darslarida o'qituvchi ko'proq o'quvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarga murojaat qiladi. Chunki o'quv materialini tushuntirib berish yoki o'quvchi duch keladigan tushuncha, ta'rif va qoidalar atrofida suhbat o'tkazish bilan o'rgatib bo'lmaydi tayyor holda bayon qilish serunum metod sanalmaydi. Chunki bilimlar o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilar ekan, o'qituvchi shu jarayonning ishtirokchisiga, tinglovchisiga va faqat andazaga qarab harakat qiluvchiga aylanib qoladi. O'qituvchi faoliyati bilan bog'liq metodlarning eng serunumi muammoli o'qitishdir. Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh hamda umumiy bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanishni maslahat beramiz:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o'rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish. Chunonchi o'rganiladigan har bir mavzu o'quvchilardan tovushlar, so'zlar va gaplarni qiyoslashni, shu asosda umumlashmalar hosil qilishini talab etadi. Bu hol o'z-o'zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O'quvchilarda "Nima uchun" degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, "Unli va undosh tovushlar" mavzusi o'rganilayotganda o'quvchi avval unli va undosh tovushlarni to'g'ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so'zlar, so'zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi. O'quvchilar bu topshiriqlarni bajarish asosida umumlashma hosil qiladilar.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish. O'quvchi dars mashg'ulotini muammoli savolni o'rta tashlash bilan boshlaydi. Masalan, 1) unli va undosh tovushlarni alohida - alohida aytib ko'ring. Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz? 2) Oltita unli harf ishtirok etgan so'z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko'ring. Qanday o'zgarishlarni sezayapsiz? 3) undosh tovushlarni talaffuz etib ko'ring. Shovqin va ovozdan hosil bo'lgan undoshlar alohida, faqat shovqindan hosil bo'lgan undoshlarni alohida yozing. Agar topshiriqlarni bajarish muayan qiyinchilik to'g'dirsagina, namuna ko'rsatiladi. Matn yaratish



ham o'quvchi uchun muammo sanaladi. Buning ehg samarali yo'llaridan biri o'quvchilarga so'roqlar berib, ularga javob topishni talab qilishdir. Masalan, 1.O'zbekistonda qaysi tumanlar bor? 2. Ular qanday mahsulotlar etishtiradilar? 3. O'zbekistonning qaysi mevalari olamga mashhur? 4. O'zbekiston xorijiy mamlakatlarga qanday mahsulotlar chiqaradi? kabi Bunday topshiriqlarni bajarib bo'lgandan keyin ijodiy matn yaratishi ancha osonlashadi. O'quvchilar hukmiga "Bog'da", "Polizda", "Sinfirmiz kutubxonasi", "Sevimli ertagim", "Aziz onajonim", "Mehribon do'stlarim" singari mavzularda matn yaratish tavsiya etiladi.

3. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish. Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, O'zbekiston qovunlari rasmi va nomini berib, shunday mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar:

1. G'oziev E. Psixologiya. T, 2010 223 b.
2. G'ulomov A, Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni T, 2011, 124 b.
3. G'ulomov A. Ona tili o'qitish jarayonida aktivlik prinsipini amalga oshirishning nazariy asoslari. T, 2009, 130 bet.
4. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. T, 2008 y, 90 bet.
5. Pedagog.uz



ТА'ЛИМДА СIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJIRIBALARDAN FOYDALANISH.

Yusupova Nigora Mansurboyevna

Sirdaryo viloyati Shirin shahri 1- umumiy

o'rta ta'lim maktabining 1-toifali

boshlang'ich sinf o'qituvchisi. Tel: (90) 241 17 88

Annotatsiya: Bugungi davr talabi ta'lim sifatini ko'tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab berdi:

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib **PISA** Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

- uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va h.k ishlar belgilab olindi.

Konsepsiya ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o'rta ta'lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo'yicha yangi o'quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga konsepsiyaga ko'ra o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko'tariladi. O'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullari joriy etiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmuni sifat jihatdan yangilash yo'llari ko'zda tutiladi.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan barkamol, intellektual salohiyatli avlod va unga talim –tarbiya berish sifatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasida yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishning maqsad-vazifalari, mazmuni va metodlarini o'rganib borish, ilmiy pedagogik asoslarga tayangan holda olib borilishi, muammoning yeshilishi, o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog'liq.

Kalit so'zlar : O'zbekiston, konsepsiya, Pisa, PIRLS, xalqaro baholash dasturi, global, o'qituvchi, o'quvchi, integratsiya, 4- sinf, o'qish, matematika savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar kabi so'zlardir. Ta'lim –bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. "Umumiy o'rta ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarish kerak. Har bir sinfda bolalarning nimalarni bilishi zarurligidan kelib chiqib, davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish lozim. Darsliklarni eng zamonaviy metodikalar asosida yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san'at, chet tillari yo'nalishlarini kuchaytirish, bu boradagi laboratoriyalarni qayta jihozlash talab etiladi." dedi yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev.

2019 -yil aprelida O'zbekiston prezidenti 2030-yilga qadar Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqladi. Ta'lim infratuzilmasini yaxshilash va kengaytirishdan tashqari, konsepsiyada o'quvchilar o'zlashtirishini xalqaro tadqiqoti –PISA reytingiga ko'ra O'zbekiston 2030-yilga qadar jahonning 30 ta yetakchi mamlakatlari qatoriga kirishi maqsad qilib qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lida ustuvor vazifa sifatida, dunyodagi ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashib global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish belgilab qo'yilgan. Zero yopiq sharoitlarda ta'limni rivojlantirib bo'lmاسligi ko'plab mamlakatlarning tajribasidan ma'lum.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish-ta'lim sifatining muhim omili ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkilotining o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotida ishtirok etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasining 2018 yil 8-dekabrdagi **997 - sonli qarori** qabul qilindi.

Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada?

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi, barcha sohalarida malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohaları rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi

Xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchilarni testga tayyorlash emas, o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish raqobatbardosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi.

Ta'lim sifatini baholash, xalqaro tadqiqotlarida ishtirok, tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rnini to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi.

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.

Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasida Davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta'lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

PISA VA PIRLS doirasida tajriba-sinov o'tkazish uchun 200 dan ortiq ortiq topshiriqlar tarjima qilinib, xalqaro lingvistika markazlari tasdig'idan o'tkazildi. O'qituvchilar va o'quvchilarning **PISA** va **PIRLS** tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlar haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shish maqsadida Shirin shahar XTBDagi mutaxassislar bilan hamkorlikda 2019-yil davomida qator ishlar, seminarlar amalga oshirildi. Pisa testlari 5 ta yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: o'qish, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar, hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo'nalishlari. O'zbekiston 2021-yilda 3 yo'nalish: o'qish, matematik savodxonlik va tabiiy – ilmiy fanlar bo'yicha testlarda qatnashishni rejalashtirgan.

Mamlakatimiz o'quvchilari 2021-yilda **PIRLS-2021** Xalqaro baholash dasturida 70 ga yaqin davlatlar qatorida 4- sinf o'quvchilari ham ilk marotaba ishtirok etadi. Har 5 yilda o'tkaziladigan **PIRLS** dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmasini xalqaro darajada baholaydi. Shunday ekan biz o'quvchilarimizni qabul qilayotgan ma'lumotlarini, har tomonlama keng mulohaza yuritib, tahlil qilish, erkin fikrlash, ijodiy yondashish ko'nikmasiga ega mukammal shaxs darajasiga yetkazishga harakat qilishimiz kerak.

2021-yilda **PIRLS** xalqaro baholash dasturida ishtirok etadigan o'quvchilarga eng yuqori cho'qqilarni zabt etishini tilab qolamiz. Bir so'z bilan aytganda ta'lim sifatini ta'minlashda bugungi globalizatsiya jarayonlariga qo'shilish, jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish mamlakatimiz uchun muhim sanaladi. Ta'lim dunyoviy ilmiy-intellektual, badiiy-estetik va ma'naviy-axloqiy madaniyat yutuqlarini o'zlashtirish jarayonidir va haqiqiy ta'lim milliy-davlat chegaralarini tan olmasdan jahon tajribalariga asoslangan bo'lishi har qanday davlat kelajagi uchun kuchli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. (qisqa tezislari, qo'llanmalar). Nurafshon-2020
2. "Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash". Toshkent-2019
3. "Qiziqarli statistika". Toshkent-2015
4. "Ta'limni takomillashtirish yo'lida" "Boshlang'ich ta'lim" 8-son 2020-yil avgust
5. www.Ziynet.uz sayti



BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI TASHKILLASHDA O'YINLARNING AHAMIYATI

Zokirova Gulnoza Mirzarahmat qizi

Farg'ona shahar 31-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: O'quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan o'yinlar orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyati va qiziqishlarini shakllantirish. O'quvchining shaxs bo'lib rivojlanishida o'yinning ahamiyati.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, ko'rgazma, o'yinlar.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan uzviylik va uzluksizlik tamoyili o'quvchilar aqliy qobiliyatini bir maromda to'xtovsiz rivojlanishini taqozo etadi. O'quvchining kamoloti so'zsiz pedagog mahoratiga bog'liqdir. Bugungi kun o'qituvchisi darslik bilan chegaralanib qolmay, har bir darsi uchun yangi usul kashf etishi, o'z o'quvchisi kelajagi uchun jon kuydirishi, uning ertasini xis eta olishi muhimdir. Darslarni tashkil etish murakkab jarayon. Buning uchun o'qituvchi turli zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli va o'z o'rnida foydalanishi darkor.

Fan va texnika takomillashib borgan sayin bolaning qirq besh daqiqali dars jarayonining faoliyatini ta'minlash bir muncha qiyin kechadi. Shu bois o'quvchilarga turli ko'rgazma, o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi o'sishi, tafakkur doirasi kengayishini ta'minlaydi.

Eng asosiysi o'qituvchi ma'lum yutuqlarga erishadi. O'quvchining mavzuni idrok etishi osonlashadi va zerikishini oldini oladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning asosiy talablaridan biri dars mohiyatini ochib beruvchi, o'quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan o'yinlar orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyati va qiziqishlarini shakllantira borishini maqsad qilib qo'yadi.

O'yinli faoliyatning psixologik mexanizmi shaxsning o'zligini namoyish qilishi, hayotda o'z o'rnini belgilashi, o'zini-o'zi boshqara olishi va o'z imkoniyatiga tayanish kabi fundamental ehtiyojlarga asoslanishi xususida bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirganlar.

Jumladan, D. N. Udnadze: o'yinga o'zgacha ta'rif berib, shunday g'oyani ilgari surgan, "o'yin bu shaxsga xos bo'lgan ta'sirli psixik xulq shaklidir" - deb ta'riflaydi.

A.N. Lyontev esa o'yin shaxs hayoloti maxsuli, unda shaxs hayol qilgan, lekin amalga oshishi mushkul bo'lgan qiziqishlarining hayolan voqelik sifatida erki yuzaga kelishi ekanligini ta'riflaydi.

L. S Vgodskiy: "o'yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarini o'zlashtirish vositasidir", - deb ta'kidlaydi.

Maktablarda o'yinlardan to'g'ri tashkillansa, ta'lim -tarbiya samaradorligi yuksaladi va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi.

- O'yin- mustaqil ta'lim sifatida o'quv predmetini, bo'limni, mavzuni, tushunchani o'zlashtirishni nazarda tutadi;

- Umumiy texnologiya elementlari sifatida qo'llaniladi;

- O'yin-dars yoki uning qismi sifatida tashkil etiladi;

O'yin juda xissiyotga boy faoliyat bo'lib, shu sababli ham u bolalar va yoshlarning tarbiyaviy ishlarida jiddiylik talab etadi. Bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan o'yinning mazmuni o'zgaradi, o'yin faoliyati dastlabki bosqichlarda oddiy bo'lsa, keyinchalik u bosqichma -bosqich boyib, takomillashib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D. Jamoliddinova. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limiy o'yinlarning metodik xususiyatlari.

2. Til va adabiyot. 2015-yil 2- son. O'yinli ta'lim usullari.

3. I.P. Po'latov. Ona tili ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi.

4. Ziyonet, internet nashrlari



НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН НАЧИНАЕТСЯ НА ПОРОГЕ ШКОЛЫ, В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Азимова Гулноз Бобокуловна

Учительница русского языка и литературы
21-й общеобразовательной школы
Тайлакского района Самаркандской области

Аннотация: В статье анализируются изменения в системе образования и меры по их практической реализации. Кроме того, в статье наш Президент Ш.М. Мирзиёева В послании Олий Мажлису также отмечены изменения в сфере образования.

Ключевые слова: новый Узбекистан, школа, образование, воспитание, процесс, обращение.

В условиях развития независимый Узбекистан меняется день ото дня. Мы видим это в образовании, медицине, юриспруденции, экономике. Сегодня невозможно не видеть изменений и нововведений в системе образования, не осознавать, что у молодежи и наших детей есть все возможности, и сколько им уделяется внимания. Все мы знаем, что сегодня все человечество переживает глобальную катастрофу под названием пандемия коронавируса. Такой катастрофы в мировом масштабе не было за последние сто лет.

В условиях серьезной пандемии 2020 года тот факт, что все этапы мировой системы образования видны дистанционно, будет стимулировать учащихся к самостоятельному обучению. В связи с этим в нашей стране было принято много мер по созданию возможностей для онлайн-образования. В прошлом году в соответствии с госпрограммой «Развитие науки, просвещения и цифровой экономики» были строго продолжены реформы во всех сферах построения нового Узбекистана. В целом, здоровое и гармоничное развитие подрастающего поколения, которое обеспечит будущее любого общества, играет решающую роль в его развитии. В этом отношении каждая страна делает ставку на современных образованных молодых людей во всех областях.

Мы поставили перед собой великую цель - заложить основы Третьего Возрождения в нашей стране, для чего мы должны создать среду и условия, которые взрастут новых Хорезмийцев, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навоий и Бабурсов. При этом, в первую очередь, развитие образования и воспитания, принятие решений по здоровому образу жизни, развитие науки и инноваций должны служить основными столпами нашей национальной идеи, - сказал Президент Ш.М. Мирзиёев в своем обращении к парламенту. [1]

Для достижения этой цели наши молодые люди должны поставить перед собой большие цели, создать для них широкие возможности для их достижения и оказать им всевозможную поддержку - высший приоритет для всех нас. Только тогда наши дети станут великой и могучей силой, которая воплотит в жизнь вековые чаяния нашего народа.

Для достижения этой благородной цели наш Президент приложил все усилия, чтобы обеспечить качественное образование подрастающего поколения в детских садах, школах и университетах, помочь им вырасти физически и психически здоровыми, патристичными людьми. подчеркнули необходимость мобилизации потенциала. В процессе обучения всегда важно воспитывать людей, мыслящих самостоятельно и логически, обладающих хорошими качествами, основанными на современных знаниях и опыте, национальных и общечеловеческих ценно Кроме того, приоритетом является обучение наших мальчиков и девочек профессиям, востребованным на рынке труда, развитие у них предпринимательских навыков и трудолюбия, а также реализация их инициатив, обеспечение работой и жильем. Задача - создать слаженную и бесперебойную систему, которая будет их всячески поддерживать, помогать найти достойное место в жизни, словом, до 30 лет, - сказал Президент. Конечно, поиск места для молодежи в будущем послужит фундаментом для развития этой страны и ее будущего. В этой связи первостепенное значение будет уделяться образованию. Наши учителя очень важны в этом отношении. Внимание, уделяемое процессу обучения молодежи, можно увидеть на недавнем молодежном форуме в Ташкенте. Все молодые люди, принявшие в нем участие, зрелые, современные и образованные. Если мы сможем объединить знания и опыт старшего поколения, качества дальновидности, эн-



тузиазм, мужество и самоотдачу нашей молодежи, мы добьемся желаемых результатов. Вместе с такой образованной и творческой молодежью мы построим новый Узбекистан. Тот факт, что президент предложил объявить новый 2021 год «Годом поддержки молодежи и улучшения здоровья населения», также означает, что больше внимания будет уделяться молодежи.

С момента рождения ребенка именно в дошкольном возрасте повышается умственная активность, формируются морально-эстетические и физические качества. Поэтому стратегической целью развития дошкольного образования на ближайшие годы является создание необходимых условий для полного охвата каждого ребенка детсадовского возраста этой сферой образования. Еще 2 тысячи негосударственных детских садов будут созданы с субсидией в размере 600 миллиардов сумов из государственного бюджета, а доля частного сектора увеличится до 25 процентов. Также в 2021 году 560 тысяч 6-летних детей или 82% из них будут охвачены системой бесплатной подготовки к школе. В отдаленных селах будут и дальше расширяться альтернативные формы дошкольного образования. При этом в сотрудничестве с ЮНИСЕФ и Всемирным банком будет запущена модель домашнего дошкольного образования для детей с ограниченными возможностями, - сказал Президент. В следующем году из бюджета будет выделено 2 трлн. Сумов на строительство 30 новых школ, ремонт 320 школ и улучшение материально-технической базы. В ближайшие два года на внедрение единой системы электронного обучения в отрасли будет направлено 250 млрд сумов.

Рекомендации:

1, Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису.
29.12.2020



УЙҚУ ВА ТУШ КЎРИШНИНГ ИНСОН РУҲИЯТИДАГИ ЎРНИ.

Самандарова Гулрух Искандаровна
Бухоро давлат университети ,талаба
Телефон:+998(93)0815659
Samandarova.2017@mail.ru

Аннотация: Мақолада уйқунинг физиологик ҳолатларига кўра фазаларининг тафсифланиши, уйқу стадияларининг психологик таъсирлари ва кўзларнинг тез ҳаракати (КТХ) фазасида туш кўриш жиҳатлари ёритилган. Туш куришнинг инсон ҳаётидаги урн и ва моҳияти.

Калит сўзлар: уйқу, туш кўриш, электроэнцефалограмма (ЭЭГ), кўзларнинг тез ҳаракати (КТХ), кўзларнинг тўлиқ ҳаракатсизланиши, тетиклик ҳолати, онг, онгсизлик, онейрология, гипнология, сомнология, парадоксал уйқу.

ЗНАЧЕНИЕ СНА И СНОВИДЕНИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ПСИХИКЕ.

Самандарова Гулрух Искандаровна
Бухоро давлат университети ,талаба
Телефон:+998(93)0815659
Samandarova.2017@mail.ru

Аннотация: В статье характеризуется физиологические фазы сна, психологическое воздействие стадий сна и освещены особенности сновидений во время быстрого движения глаз (БДГ). Место и значение сновидения в жизнедеятельности человека.

Ключевые слова: сон, сновидение, электроэнцефалограмма (ЭЭГ), быстрое движение глаз (БДГ), не быстрое движение глаз (НБДГ), бодрствование, сознание, бессознательное, онейрология, сомнология, гипнология, парадоксальный сон.

Уйқу организмнинг физиологик ҳолати бўлиб, ўзига хос «томрзланиш» жараёнидир. Туш кўриш ҳақида эса мианинг нормал фаолияти дейиш мумкин.

Инсоният ҳамиша уйқу ва туш кўриш ҳақида узоқ йиллар кўпгина саволлар гирдобига қолиб кетган. Ибтидоий давр одамлари туш кўришни ўзига хос, инсонга боғлиқ бўлмаган мўжизавий илоҳий мавжудот , худолар ва шайтонларнинг очикдан очик йўлланмаси дея тушунишган. Улар учун тушнинг муҳим моҳияти , туш кўрувчининг келажаги ҳақида сўзлашига ишонишаган.[З.Фрейд, «Толкование сновидений»,1900г/издание 8е расширенный доп. М:ООО «Фирма СТД»2005г. Ст:1]. Қадимги давр файласуф, мутафаккирлари инсон организмини уч ҳолатга бўлишган: тетиклик, уйқу ва туш кўриш ҳолатларидир. Машҳур Ғарб файласуфи Арастунинг фикрича « Уйқунинг табиатига кўра: борлиқда туш кўрмайдиган инсон мавжуд бўла олмайди. Кимки, ушбу ходисанинг туб моҳиятига етиб борса, шунда миясининг сирларини англаб етади» -деб айтган [Felomena.com].

Арастунинг фикрлари натижасида туш кўриш психологиянинг объектларидан бирига айланди. Мутафаккир ибтидоий давр одамлари тушунчаларига қарши туш кўриш ҳеч қандай худонинг йўлланмаси ва илоҳий мўжиза эмас, аксинча шайтоний ҳолат , яъни табиатнинг шафқатсизлигини таъкидлайди. Туш кўриш инсон руҳиятининг ва илоҳиётнинг қонуниятлари ҳосиласи деб билган. Илк бор Арасту уйқу пайтида туш кўриш ҳолатидаги танада кўзғалувчанликнинг баъзи бир кўринишини кузатган. .[З.Фрейд, «Толкование сновидений»,1900г/издание 8е расширенный доп. М:ООО «Фирма СТД»2005г. Ст:12-13].

Тибиётнинг буюк физиолог намоёндаларидан бири И.П.Павлов бош мианинг пўстлоқ қисмида «тетиклик маркази»ни аниқлаган ва қандайдир «уйқу маркази» борлиги мумкинлигига ишонган, лекин бош мианинг пўстлоқ қисмида фақатгина тормозловчи механизмлар мавжуд ва улар нерв хужайраларининг (нейронларнинг) ишини сусайтиради ва ланжлтик ҳолатига олиб келади, секин асталик билан организмни чуқур уйқу жараёнига элтади.



Уйку тўлиқсиз дам олиш ҳолатидир; яъни баъзилар уйкусида юради ҳам (ойпарастрларнинг ярим уйку, ярим тетиклик ҳолатида юриб кетиши, уйку жараёнида тушдаги ҳодисалар бўйича онгсиз равишда ҳаракатланиши тушунилади). Ухлаб ётган одам ҳақида ён атрофига нисбатдан умуман ҳеч қандай сезувчанлиги йўқ деб айтиб бўлмайди, чунки астагина исмини айтиб чақирганда ёки бўлмаса ўз боласининг йиғисидан ота-она уйғонади.[Рита Аткинсон Л., Ричард С.Аткинсон «Введение в психологию» 2000г./стр:208]

Физиологик жиҳатдан уйку миянинг ва организмнинг специфик ҳолати бўлиб, умумий тананинг деярли ҳаракатсизланиши, ташқи кўзғалувчанликнинг тўлиқ йўқолиши, миянинг электр фаоллик ва ўзига хос самотовегетатив реакцияларидир [Под редакцией академика РАМН Ткаченко Б.И «Основы физиологии человека», Санкт-Петербург 1994г./Стр:150-152].

Фанга электроэнцефалограмманинг (ЭЭГ) кашф қилиниши, лаборатор анализлари миянинг уйку пайтидаги тўлқинларини 5 фазага бўлинишини келтириб чиқарди. 5-фаза кўзларнинг тез ҳаракатини кўрсатади. Кечки дам уйку давомида:

1-фазада миянинг тўлқинлари амплитудаси камайиб, пасайиб боради;

2-фазада миянинг тўлқинлари бир пайдо бўлиб, бир йўқолади, яъни вақти вақти билан амплитуда кўрсаткичлари тезда кўтарилади ва тезда тушиб кетади;

3-4-фазалар секин ва кичик тўлқинлар билан тавсифланади. Бу фазада инсон чуқур уйкуга кетади ва кўзларнинг тўлиқ ҳаракатсизлиги кузатилади.

Тун давомида фазалар ҳар хил равишда ўрин алмашилиб туради. Уйку кўзларнинг тўлиқ ҳаракатсизлигидан бошланади ва ўзига бир неча 5-фаза - кўзларнинг тез ҳаракати билан цикллади. Туннинг иккинчи ярмида, 5-фаза яққол кўрина бошлаганда 3-4-фазалар қаттиқ уйку пайти бутунлай йўқолади. 8 соатлик уйку даврида 5-фаза 4-5 маротаба қайталанади ва эрталабга яқин, уйғонишдан олдин кўзларнинг тез ҳаракатидан тетиклик даврига ўтади ва инсон уйғонади [Н.А.Агажданиян «Основы физиологии человека» М:РУДН, 2001г./стр:395].

Уйку жараёнида тана деярли фалажланади, фақатгина юрак, диафрагма, кўз мускуллари ва силлиқ мускулли органлар яъни ичак мускуллари ва қон томирлари ҳаракатда бўлади. Мия эса сенсор ва мотор каналлар фаолиятдан тўлиқ холи бўлади [Hobson, «The Draming brain» 1988]. Аммо барибир гигант нейронларнинг ўз ўзидан активланиши, мия сўғонига ахборот бериб туради. Шу гигант нейронларнинг узун аксонлари 2 метргача етиб бориши мумкин. Шунинг эвазига клиник ўлимни бошидан кечирган кишилар –қандайдир узун, қоп қоронғу туннел орқасигача, ёрқин нургача етиб бора олишмаганлари ҳақида айтишади.

Туш кўриш уйқунинг 5-фазасида содир бўлиши лаборатор анализ таҳлиллари натижасида ўз тасдиқини топди. Бу пайтда кўзларнинг тез ҳаракатланиши жараёнида тажрибадаги кишилар уйғотилганда, улар ҳаммаси аниқ ва тиниқ туш кўришганини, 3-4-фазада булганлар эса 50% и тушунарсиз, хира туш куришган, қолганлари эса умуман туш кўришмаганини айтишган [Antrobus 1983, Cavallero et al 1992, Foulkes & Schmith 1983].

Туш кўриш онгнинг ўзгарган шакли бўлиб, фантазия ва образларнинг вақтинча реал ҳаётий воқеаларнинг драматик қўшилишидан ҳосил бўлган уйкудаги ҳодисалардир. Аммо, негадир инсониятга, нима учун кишилар уйку жараёнида образли тушлар кўриши кизиқтиради ва бу борада кўпгина изланишлар олиб борилган. Умри давомида ҳеч қандай туш кўрмаган инсонни тушларни ўрганувчи лабораторияга киритилганда ва уйқунинг 5-фаза даврида уйғотилганда, киши туш кўрганини сўзлашга киришади. Кимки, «Мен умуман туш кўрмаганман» -деса, билингки, у «Мен тушларимни умуман эслай олмайман» -дегани бўлади. Олимлар бу борада 2 та гипотезани олға сурадилар; бири тушини элолмайдиганларнинг, тушидаги ҳодисаларни шунчаки хотирасига турмаганига йўйсалар, кейингисини 5- фазадаги кўзларнинг тез ҳаракати жараёнида бирдан англайолмаган ҳолда уйғониб кетишлари эвазига, қаттиқ ухлайдиганларданда кўра яхши эслай олишлари мумкин бўлади [Hobson 1988, Koulack & Goodenough 1976].

Тушда ҳодисалар шунчалик ёрқин ва ҳиссиётли бўлиши мумкинки, бу инсонни реал ҳаётда бўлгандай таассурот қолдириши мумкин. Ҳозирги кунда тушларни сомнология, онейрология ва гипнология фанлари ўрганади [Felomena.com].

Онгсизлик назарияси асосчиси З.Фрейд фикрича «Туш кўриш бу –орзу ва хоҳишларнинг ушалишига йўналган ижобат йўллари дир», бунда у тушлар хоҳишларни очиши, орзуларнинг рўйобга чиқиши, эҳтиёж ва ҳаёлларнинг онгсизликдан онг чегарасигача етиб боришини назарда тутди. Инсон ич ичида сақлаб юрган яхши, ёмон фикрлари ва ўйлари тушларда намоён бўлади.



Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, уйку давомида инсоннинг тетиклик давридаги энг кучли диққат жараёнида сарфлаган қувват ва тана иссиқлигини 3 баробарини сарфлайди; шуниси қизиқки, тетиклик даври марказий нерв системаси фаолияти натижасида онгли равишда ҳаракатлар содир бўлса, тушларда бу онгсизликнинг онгли равишда юзага чиқиши демак. Тушлар кишиларнинг ички ҳолати ва ташқи омиллардан таъсирланган ҳолда юзага чиқади. Балки шунинг учун, туш соҳибий уйғонганда, тушдаги ҳодисаларни айтишга шошилса ажаб эмас. Фикримча инсонларнинг туш сарҳадларида «сузиб» юриш жараёни худди ички гўзаллик сингари, рангба ранг, орзулар мамлакати гўё, кишилар эса бунда кўчманчи қушларга ўхшайди. Парадоксал уйку асосчиси Мишель Жуве нуқтаи назарига кўра: «Туш кўриш бу одатдаги уйку жараёни эмас, балки инсон организмнинг 3-ҳолати яъни, миянинг фаоллиги, мускулларнинг сезувчанлигининг бўшаши билан парадоксланиши (юнонча «paradoxos»- қутилмаган, ноодатий) [В.М.Блейхер, И.В.Крук «Толковый словарь психиатрических терминов» 1995г./Стр:250] тушунилади ва бунда туш соҳибининг диққати ва хаёллари худди тетиклик вазиятидака ички таассуротларига қаратилади [Мишель Жуве «Похититель снов», Париж 2004/стр:3].

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Агаджанян Н.А «Основы физиологии человека», М:РУДН 2001г/Стр:395
2. Аткинсон Рита Л., Ричард С.Аткинсон и др «Введение в психологию» 2000г./Стр:208
3. Блейхтер В.М, Крук И.В «Толковый словарь психиатрических терминов»1995г./Стр:250
4. Мишель Жуве «Похититель снов», Париж 2004г/Стр:3
5. Под редакцией академика РАМН Ткаченко Б.И «Основы физиологии человека», Санкт-Петербург 1994г./Стр:150-152.
6. ФрейдЗ. «Толкование сновидений», 1900г./издание 8е расширенный доп. М:ООО «Фирма СТД»2005г./ Ст:12-13.
7. Hobson, «The Draming brain» 1988.

Сайтлар:

Felomena.com.



TEKNOLOGIYA FANI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Tohirov O'ktamjon Otaqo'ziyevich

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi mutaxassisi

Telefon: +998(90) 372-01-04

taavvuz@gmail.com; basmala@inbox.ru

Annotatsiya: "Texnologiya" fanini o'qitishni yangi bosqichga ko'tarish, fanni o'qitishdagi asosiy vazifalar, zamonaviy shakl, usul va texnologiyalarni qo'llashda innovatsion yondashuvlar bo'yicha amalga oshirilgan va amaliyotga joriy qilingan ishlar to'g'risidagi ilmiy va amaliy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, drayver, modernizatsiya, inson potentsiali, kadrlarni tayyorlash, hayotiy ko'nikmalar, individual qobiliyat, an'anaviy usul, aralash (blended learning) usul, onlayn usul, baholash.

Texnologiya fanini o'zlashtirgan umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilari sanoat sohasining barcha tarmoqlarida xususiy injiniring, ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik bazalarining yanada rivojlanishi, boshqacha qilib aytganda yuqori qiymatli raqobatbardosh sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishida **"drayver"** rolini bajarishi zarur hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Izrail, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham texnologiya fani umumiy o'rta ta'limning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

Texnologiya o'quv fani o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida ishlov berish usullarini o'rgatish, milliy xalq hunarmandchiligi asoslari, energiyani ishlab chiqarish va undan foydalanish, mexatronika – LEGO education "Oddiy mexanizmlar", ijtimoiy-iqtisodiy texnologiya asoslari, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. O'quv fanini o'qitish orqali o'quvchilarda texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Texnologiya fanini o'qitishni yangi bosqichga ko'tarish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida:

- kompozit materiallarni yangi texnologiyalar asosida ishlab chiqarish orqali mahsulot turlarini ko'paytirish, eksport va import hajmini oshirish;

- iqlim o'zgarishini inobatga olgan holda o'rta xo'jaliklar va agroklastarlarni rivojlantirish orqali yuqori texnologiyali qishloq xo'jaligini tashkil etish;

- brend mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan to'qimachilik sanoati;

- qayta tiklanadigan energetika ulushi yuqori energetik konsorsium;

- yangi texnologiyalarga asoslangan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish;

- yuqori texnologiyali polimer mahsulotlarini, kosmetika va dori-darmonlarni ishlab chiqarish va eksport qilish sohasini rivojlantirish;

- tadbirkorlik va kasanachilikni yangi bosqichga olib chiqishga imkoniyat yaratish;

- texnologiya ta'limini modernizatsiyalash, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish orqali o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarni shakllantirishga erishiladi.

Bu esa o'z navbatida kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish uchun keng yo'l ochadi.




Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi 2020-yil 2-martdagi PF-5953-sonli, "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmonlari asosida "Texnologiya" fani majmuasi yaratildi.

O'zbekistonda **birinchi marta** Texnologiya fani konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu konsepsiya asosida Texnologiya fanini o'qitishning yangi asosiy vazifalari belgilandi:

- Texnologiya fanini o'qitishning **zamonaviy shakl, usul va texnologiyalarini** qo'llash;
- o'quvchilarni **an'anaviy va masofadan** turib yangi bilimlarni egallash, doimiy ravishda o'z ustida ishlashi uchun tizim yaratish va uni yo'lga qo'yish;
- ta'lim jarayonida **tayanch va fanga oid kompetensiyalarni** doimiy nazorat qilib turish, o'quvchilar qobiliyatiga qarab **kasb tanlashga yo'llash** ishlarini olib borish;
- o'quvchilarning **individual qobiliyatlari** asosida **hayotiy ko'nikmalar** shakllantirilib, **muvaffaqiyatli bo'lishga** o'rgatish;
- **baholashning yangi tizimi** joriy etilib, **o'quvchilarning bilimi va amaliy ko'nikmalarini** samarali formatlarda baholash.

Texnologiya fanining yangi avlod majmuasini yaratilishi o'quvchilarning mustaqil bilim olishi hamda o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan. Bunda ta'lim berishning quyidagi usullari qamrab olinadi (1-shakl).



1-shakl. Ta'lim berish usullari.

Texnologiya fanini o'qitish an'anaviy usul va masofaviy ta'limga mo'ljallangan kompleks dastur asosida amalga oshiriladi. Bularga:

- 1 Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari (1-9-sinflar)
- 2 Darslik, o'quv metodik qo'llanma, taqdimot va videodarslar
- 3 Mashq, muammoli topshiriq va testlar to'plami
- 4 Internet manbalari, web-sayt (www.dr.rtm.uz)
- 5 Onlayn maktab kiradi

Bugungi ta'lim tizimi eski mazmundagi o'quv dasturlaridan voz kechib, innovatsion raqamli iqtisodiyot va axborotli jamiyat uchun kadrlar tayyorlash imkonini beradigan o'qitish tizimiga o'tmoqda. Shunga mos ravishda ta'lim berishda yondashuvlar ham o'zgarib, hayotimizga kirib kelayotgan zamonaviy texnika va texnologiyalar, internet va axborot texnologiyalari imkoniyati bilan o'qituvchilar oddiy bilim beruvchidan, o'qituvchi tashkilotchi va rahbar o'qituvchiga aylanmoqdalar.



Ayrim o'qituvchilar uchun bunday o'zgarish oson bo'lmaydi. Bunday davrda raqobatbardoshlik, hamkorlik munosabatlarni o'rnatish qobiliyati zarur bo'lganligi sababli, o'quv dasturlari mazmuni tanqidiy fikrlash, kommunikativlik, ijodiy yaratuvchanlik va hamkorlik ko'nikmalarini, ya'ni kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari, ya'ni bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy kompetentsiyalarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ularda mehnat ko'nikmalari, tanqidiy va ijodiy fikrlash, kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish imkonini beruvchi innovatsion yondashuvlarga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasi. Toshkent: RTM, 2020.-60 b.
2. Tohirov O'.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: "Sharq", 2020.-240 b.
3. Tohirov O'.O. va boshq. Texnologiya: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinf darsligi bo'yicha metodik qo'llanma. – T.: "Sharq", 2020.-176 b.



КАЧЕСТВЕННЫЕ ВОПРОСЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ МИРА В XXI ВЕКА

Жамшид Октямович Хакимов

доцент, доктор философии (PhD)

по педагогическим наукам,

Мухлиса Дустназар кизи Омонова

магистр 1 курс

Ташкентский государственный технический

университет имени Ислама Каримова

телефон: (97) 771-99-93

Аннотация. В статье рассматриваются качественные вопросы о системе образования и задач системы образования мира в XXI в. – поставить новые информационные и коммуникационные технологии на службу распространения знаний.

Ключевые слова: образования, глобализация, информационное общество, информационная технология, модернизация.

В современном мире информация и знание, являясь основными ресурсами общества, превращают образование в сложную противоречивую систему. Непрерывное образование, достижения которого легли в основу социальных и научно – технологических преобразований, становится не только одной из приоритетных областей человеческой деятельности. Расширение сферы образования изменение статуса сопровождается обострением проблем, свидетельствующих о кризисе образования перед лицом глобальных проблем информационного общества.

На образование в современных условиях оказывают существенное влияние процессы глобализации. Однако сам процесс глобализации противоречив по сути, поскольку, с одной стороны, представляет своеобразный ответ современной цивилизации на вызовы рубежа двух тысячелетий, с другой стороны, обостряет многие противоречия эпохи и усиливает напряженность в мире.

Начинается формирование новой электронно - цифровой цивилизации, что ставит сложные проблемы общекультурного характера, мир виртуализируется. Новая реальность стимулировала появление нового инструментария, и исследовательская мысль расширила границы сознания сначала бессознательным (З. Фрейд, К. Юнг и др.), затем релятивистскими представлениями и идеей дополнительности (Н. Бор), а со второй половины XX в. – концепцией самоорганизации, основанной на онтологии нелинейности.

Развитие информационных технологий открывает широкие возможности доступа к образованию, благодаря чему образовательный процесс начинает принимать качественно новые формы, возникает и стремительно развивается дистанционное, виртуальное образование. Интернет становится одним из важнейших ресурсов в получении информации для широкого круга лиц, желающих сменить профессию или получить дополнительное образование в той или иной сфере.

Достаточно важной становится проблема формирования человека, способного заниматься наукой и систематически работать в ней. М. Вебер писал, что рациональность – это железная клетка, которая организует разум, поскольку она задает нормы - рамки сознания, жесткие правила: размышляй, рассуждай, доказывай, вывод. Не получается – начинай сначала. Нужны большие волевые усилия, чтобы овладеть научными знаниями и работать в науке. В связи с этим К.Д. Ушинский говорил, что фантазировать легко, а мыслить тяжело. Сегодня образ железной клетки рациональности, который был условием достижения профессиональных успехов людей XIX и середины XX вв., начал разрушаться. Современные философы и социологи, например Эрнст Геллер, пишут, что «железная клетка» рациональности заменяется резиновой. Большая масса людей склонна искать такие профессиональные области, где меньше труда, больше развлечений, и где можно получить необходимые блага, не затрачивая лишних усилий.

Таким образом, становление информационного общества обозначает необходимость освоения новых научных представлений и их философское осмысление, создание условий для раскрытия интеллектуального потенциала человека, мобилизации его мышления,



развития его познавательных способностей, творческого потенциала, креативности, разнообразных проявлений духовности, нравственного и физического здоровья. Это будет способствовать становлению информационного общества, более соответствующего самореализации человека по сравнению с материально и энергетически обремененным современным человеческим сообществом.

Одна из главных задач системы образования в XXI в. – поставить новые информационные и коммуникационные технологии на службу распространения знаний. Эти технологии позволяют деллокализовать систему распространения знаний на основе сетей дистанционного обучения, благодаря которым образование становится доступным для каждого жителя Земли независимо от места его проживания. Такое образование наиболее демократично, оно может быть адаптировано к уровню знаний и запросам отдельного обучающегося. Однако новые технологии, способствуя решению проблемы обеспечения равного доступа людей к образованию, одновременно могут порождать и новые формы неравенства, в частности информационную неграмотность.

Студенты и преподаватели критически отнеслись к методике преподавания, которая уже давно применялась в системе дистанционного обучения, в результате возникла необходимость пересмотра методов передачи информации. Проведение лекций, сфокусированное на личности преподавателя, уже не является единственно возможным способом обучения. Все больше преподавателей охотно принимают новую концепцию электронных программ, сориентированных собственно на процесс обучения.

Таким образом, что модернизированное непрерывное образование окажет влияние на создание в Узбекистан культуры нового типа. С другой стороны, развитие образования зависит от той культуры, которая сегодня функционирует в обществе. Поэтому ответственность за подготовку сегодняшних и будущих поколений к жизни в XXI века должны разделить между собой институциональное образование и общество в целом, обогащая друг друга в процессе решения образовательных и воспитательных задач. Узбекская образования способа раскрыт особенности мира образования, его отличия от других существующих форм социальной действительности, создать проекты развития образования в будущем, его реорганизации, школы будущего, будущих поколений.

Литература

1, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. www.lex.uz

2, Азизходжаева Н.Н. Формирование профессиональных компетенций будущих специалистов. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. Вып. 12. Ч.1. СПб, 2014. – 63 с.



ТАЪЛИМ ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА НОАНЪАНАВИЙ УСУЛ ВА ШАКЛЛАР.

Юнусова Гулчехра

Жиззах вилояти Шароф Рашидов туман
1-сон касб-хунар мактаби етакчи ўқитувчиси

Аннотация; Ушбу мақолада ўрта махсус касб-хунар муассасаларида ўқитишнинг фаол усулларида фойдаланиш таълим оловчиларнинг фаоллигини ва уларда маъсулият ҳиссини ошириш, билимларни чуқур ўзлаштиришга ёрдам бериши ҳақида фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар; таълим, тарбия, ўқувчи, интерфаол, маъсулият, эркин шахс, тафаккур, мулоқот.

Ўзбекистон Республикасида таълим тарбия ислохотларини амалга оширишда таълимни бошқаришни ўрта махсус касб-хунар муассасаларида таълим тарбия ишларининг асосий мақсади, шахсга ўз ҳаётини эркин танлаш имкониятини яратиб бериш, эркин шахсни шакллантиришдир.

Ўрта махсус касб-хунар таълим тарбия жараёнида ўқитишнинг фаол усулларида фойдаланиш таълим оловчиларнинг фаоллигини оширади, уларда маъсулият ҳиссини ривожлантиради, билимларни чуқур ўзлаштириш ва хотирада узоқ сақлашларига имкон беради. Ҳозирги вақтда касб-хунар мактабларида ўқитишнинг замонавий шакл ва усуллари қўллаш таълимда юқори самарадорликка олиб келади. Анъанавий дарсда асосан ўқитувчига эркинлик берилади, ноанъанавий дарсда эса ўқувчига эркинлик берилади. Интерфаол усуллар жараёнида қатнашаётган ҳар битта ўқувчининг фаоллигига асосланади. Бу усуллардан фойдаланилганда билим олиш ўқувчи учун қизиқарли ҳаётий фаолиятга айланади. Интерфаол усуллар қўлланилганда ўқувчилар ўқитилмайди, балки уларнинг ўзлари ўқитувчи билан биргаликда муайян йўналиш ва микдордаги билимларни мустақил ўзлаштиради. Бу ҳол уларда эркин фикрлаш, мустақил изланишга рағбат пайдо қилади. Бу шаклда уюштирилган таълим жараёнида ўқувчилар ўзаро бемалол тортишадилар, мавзуларни буюрилгандек эмас, балки ўзлари хоҳлагандек эркин ўзлаштирадилар. Янги усуллардан самарали фойдаланиш уларни ҳаётга тўғри тадбиқ эта олиш талабалар ҳамкорлигида ишлашга, уларга ҳаққоний баҳо беришга кўмак беради.

Замонавий технологиялар қўлланилган машғулотлар ўқувчилар эгаллаётган билимларни ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб таҳлил қилишга, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига қаратилган. Ўқитувчи дарс жараёнида шахс ва жамоанинг ривожланиши, шаклланиши, билим олиши ва тарбияланишига шароит яратади, шу билан бирга бошқарувчилик, йўналтирувчилик вазифасини бажаради. Бундай ўқув жараёнида ўқувчи асосий фигурага айланади. Дарс машғулотларини самарали ўтказишда ноанъанавий усуллардан фойдаланиш ўқувчилар иштирокини фаоллаштирадиган турли-туман усуллар билан бойитиш, ўқувчиларнинг ўзлаштириш даражасини оширишга катта ёрдам берадиган усуллардан қуйидагиларни мисол келтириш мумкин: “Интервью”, “Касблар “Оламига саёҳат” ва ҳақозалардир.

Таълим-тарбия ҳамиша биргаликда олиб борилади. Таълим жараёнида қатнашаётган ҳар бир ўқувчининг ўзи ўқиши ва у эришадиган натижа ҳам унинг ўқиш даражасига мувофиқ бўлиши керак. Астойдил ўқиган ўқувчи кўпроқ натижага эришади, таълим жараёнида яхши қатнашмаган ўқувчи озроқ билим олади. Тарбия таълим муассасасида фаолият кўрсатаётган барча педагогларнинг кундалик ишига айланмоғи зарур. Тарбиявий ишлар жараёнида турмуш, мулоқот, ҳақиқат, дўстлик, садоқат, бурч, виждон, шахс, ишонч, умид, ҳамдардлик сабр-тоқат, ўз-ўзини намоён этиш каби тушунчалардан фойдаланилади. Ўқиш ва ўқитиш амалиётида интерфаол усуллардан фойдаланаётган ўқитувчи турли нуктаи назарлардан бир бирига қарама-қарши қўйиш орқали ўқувчиларда танқидий тафккур шаклланишига шароит яратиши керак. Шундай қилинса, ўқувчиларда ўз қарашларини химоя қилиш эҳтиёжи пайдо бўлади ва бу ўзига маъқул бўлмаган фикрга тезда қарши далиллар келтириш, бировларнинг қарашларидаги ожиз жойларни дарров топиб олиш кўникмаси пайдо бўлади.

Таълим-тарбия бериш энг масулиятли иш бўлиб бу авлодлар олдидаги катта мажбуриятдир. Эркин шахсни шакллантириш муаммоси таълим муассасаларида ўқув-тарбиявий



педагогик технологиялар асосида бойитишни тақозо қилади. Масалан: муаммоли ўқитиш технологияси ўқувчиларни ижодий фикрлашга ўргатадиган ўқув материаллари, савол ва топшириқлар танланади. Муаммоли ўқитиш технологияси маълум кетма-кетликда амалга оширилади. Бунда ўқитиш жараёнида ўқувчиларни муаммо мазмунига қизиқиш уйғотувчи муаммоли вазиятни танлай билиш, олинadиган ахборотларнинг муҳимлиги, ўқитувчи билан ўқувчининг самимий мулоқотиدير. Ноанъанавий ўқитиш усуллари шубҳасиз касб-хунар мактабларида таълим самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Шунини таъкидлаш лозимки, маънавияти бой, имони бутун, баркамол авлодни тарбиялашда ўқитувчиларнинг роли бекиёс.

Шоир Эркин Воҳидов бу борада қуйидаги ибратли сўзларни айтган: “Зиёли нур эгаси демакдир. Бу нур илм нури, теран маданият, олий тафаккур, мустаҳкам ички интизом, собит эътиқод, самимий руҳият нуридир. Бу нур манбаи инсон қалбида, қалб гавхарини асраб-авайлаган инсон бахтиёр ва олижанобдир. У ўзининг ҳам ўзгаларнинг ҳам қадр-қимматини билади. Зиёли инсонга манманлик бегона ўз халқини қандай иззат қилса, бошқа халқларни ҳам шундай ҳурмат қила олади, ички маданияти унчалик ривожланмай қолган одамларга нисбатан кечиримли бўлади”. Ўз касбига содиқ, педагогик маҳорати етарли бўлган баркамол зиёлилар билан давлатчилигимиз янада ривож топади, ёшларимиз истиқболи ишончли қўлларда бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ишмухамедов Р.Ж, Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). -Т.: Истеъдод, 2008.-180 б.
- 2..Маънавий юксалиш йўлида: (Тўплам) / Тўпловчи М. Қаршибоев. - Маънавият, 2008.-144б. П.Маънавият дарслари //Тузувчи С. Нишонов - Т.:Ўқитувчи, 1994.-320 б.



МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARNING NUTNIQINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Buxoro viloyati Vobkent tumani maktabgacha ta'lim
bo'limiga qarashli 34-sonli MTT direktori
Tosheva Nodira Umarovna.

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar tomonidan ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha Grammatik o'yinlar va ularing bola nutqining o'sishiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: inovatsiya, pedagogik texnologiyalar, zamonaviy maktabgacha ta'lim yoshidagi bola, kompyuter texnologiyalari, Grammatik o'yinlar, o'yinli topshiriqlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy maqsadi: dunyo rivojlangan davlatlari ta'lim darajasiga javob beradigan yosh avlodni tarbiyalash. Shunday ekan, endigi vazifamiz rivojlangan davlatlarning mentalitetimizga mos keladigan innovatsion pedagogik texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llash va yangilarini ishlab chiqarishdan iborat.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yangi pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi ta'lim sohasida sezilarli darajada o'zgarishlarga olib keldi. Yangi pedagogik texnologiyalarni tarbiyalanuvchilarga qo'llashdan oldin tarbiyachi ijodkor bo'lishi lozim. Ijodkor tarbiyachi har bir bola ko'ngliga alohida individual tarzda yo'l topmog'i, ularning xarakteriga, temperamentiga mos ravishda faoliyat turlariga qiziqtirish uchun yangi metodlardan, pedagogic texnologiyalardan foydalana olishi shart.

Ma'lumki, o'zbek tili ifoda va mazmun jihatlariga ko'ra boy til bo'lib, uni mukammal darajada o'zlashtirish, chuqur idrokka bog'liq. Bu jarayon soha mutaxassislaridan bolalar nutqini rivojlantirish va boyitish uchun turli muqobil metodlarni izlab topish va ularni amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

Tilni o'zlashtirish jarayoni bolalar uchun zerikarli bir mashg'ulot tariqasida emas, balki uni o'ziga jalb etuvchi o'yinlar mazmuniga singdirilgan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar nutqini o'stirish va ayniqsa, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarni o'yinlar paytida muloqotga jalb qilish ham bolalar nutqidagi Grammatik nuqsonlarni bartaraf etishga, ham yon-atrofdagilardan ortda qolayotganligini his etmasdan tabiiy ravishda o'zbek tilini o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Odatda bolalar fe'l zamonlari, otlardagi kelishik, birlik va ko'plik shakllarini noo'rin qo'llab, narsa- buyumlarni zamon va makondagi munosabatlarini to'g'ri va aniq ifodalay olmaydilar. Nutqida bunday nuqsoni bor bolalar logopet, hech bo'lmaganda, ota- onasining, yoki o'zidan kattalarning ko'magiga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj, shunchaki, pand- nasihat yoki dakki tariqasida amalga oshirilsa, u nafaqat, bolalarning nutqiy faoliyatiga, balki ularning ruhiy olamiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida ta'kidlanganlarni inobatga olgan holda, nutqi rivojlanayotgan hamda nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning nutqiy imkoniyatlarini o'stirish faoliyatida amaliy qo'llanma bo'la oladigan qator grammatik unsurlar o'yinlar ishlab chiqildi. Tavsiya qilinayotgan o'yinlar mazmunan harakatchan va didaktik o'yinlar bo'lib, ular bolalar o'zlashtirayotgan Grammatik materialni oson va mustahkam egallashiga yordam beradi, bolalarni jismonan chiniqtiradi, ruhan tetiklashtiradi.

O'yinli topshiriqlar o'z navbatida rang- barang bo'lib, bular: koptok ishtirokidagi "O'rdaklar va ovchilar", singari harakatli va "Qo'g'irchoqqa yordam ber!", "Qanday so'zni esladig?", "Do'konda".

Bu grammatikali o'yinlar bolalar uchun zavqli bo'lsa-da, mohiyatan ular Grammatik maqsadga yo'naltirilgan, shu bois, ularning davomiyligi chegaralangan bo'lishi, bolalar o'yindan bezib qolmasligi lozim. Eng muhimi, o'yi jarayonida bolalar ko'proq rag'batlantirilib, turilishi va o'zlarining yutuqlaridan ilhomlanishi lozim.

Masalan: "Qo'g'irchoqqa yordam ber".

Ko'zlangan maqsad:

- Bolalarning lug'at boyligini oshirish;
- Qo'shimchalarni qo'llash bilan bog'liq nuqsonlarni bartaraf etish;



- Natijalarini rag'batlantirish orqali bolaning intilishlarini kuchaytirish;
- Otlardagi kelishiklarni o'z ornida qo'llash bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bolaning fantaziyasini oshirishdir.

O'yin shartlari: Tarbiyachi, logopet bola bilan do'stona muhit o'rnatib olgach, bolaning eng yaxshi ko'rgan o'yinchoqlaridan birini olib, uning tashqaridan sayr qilib, uyga usti ho'l bo'lib kelganligini aytadi. Tarbiyachi qo'g'irchoqqa murojaat qiladi: "Aytchi, qo'g'irchoq nega hamma yog'ing ho'l?"

Qo'g'irchoq: tashqarida yomg'ir yog'adi.

Tarbiyachi bolaga murojaat qilib: Qo'g'irchoqning xatosini tuzat, deydi.

Bola: "Tashqarida yomg'ir yog'yapti", deyishi kerak. Ayta olmasa, unga xato qaysi so'zda ekanligiga ishora qilib, ko'maklashish kerak, ya'ni: Yomg'ir endi yog'sa qanday qilib qo'g'irchoqning usti ho'l bo'lgan" kabi.

Qo'g'irchoq: yana qattiq shamol ham bo'lyapti. Bola: shamol esyapti.

Qo'g'irchoq: osmonda sariq bulutlar. Bola: qora bulutlar.

Qo'g'irchoq: yo'ldan kata ko'lmaklar. Bola: Yo'lda.

Qo'g'irchoq: Ko'lmakning sakrab o'tdim. Bola: Ko'lmakdan.

Qo'g'irchoq: Oyog'im ko'lmakka botmagani uchun loy bo'ldi. Bola: botgani uchun.

Xulosa qilib aytganda, tavsiya qilinayotgan o'yinlarning aksariyati zamrida bolalarning nutqini o'stirish, tilning grammatik elementlarini o'rgatish, natijalarni rag'batlantirish hisobiga bolalarda o'z shaxsi va xatti-harakatlariga ishonch hissini oshirish kabi umumiy maqsadlar nazarda tutilgan.



МИЛЛИЙ ҒУРУР ВА МУСТАҲКАМ ИШОНЧ МАНБАИ- УЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КОНСТИТУЦИЯСИДИР

Эгамқулов Хуршид Қаршибой ўғли
Жиззах вилояти Бахмал тумани 18-мактаб
миллий гоа ва ҳуқуқ фани уқитувчиси

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, унинг ўзига хос хусусиятлари хусусида сўз боради.

Калит сўзлар: конституция, давлат, инсон манфаатлари, суверенитет, демократия.

Маълумки, давлат ва жамият ҳаётида баъзи бир нарсалар бўладики, у Ватанимиз каби ягонадир: байроғимиз битта, гербимиз битта, мадҳиямиз битта, шу қатори Конституция-миз ҳам битта.

Ўзбекистон Конституциясининг ўзига хослиги шундаки, у икки маротаба халқ муҳокамасида юртдошларимиз хоҳиш-иродаси билан бойитилди. Бош қомусимиз қабул қилинишидан мақсад ва вазифаларга эътибор берадиган бўлсак, муқаддимасида мамлакатимиз фуқароларининг муносиб ҳаёт кечиришларини таъминлашга интилиш, демократик ҳуқуқий давлат барпо этиш, фуқаролар тинчлиги ва миллий тотувлигини таъминлаш мақсадида Конституция қабул қилинганлиги қайд этилган. Яъни Конституциямизнинг асосий моҳияти инсонга муносиб ҳаёт шароитлари яратиш, уни бахтли қилишдан иборат.

Яна муҳим ҳамда халқаро экспертлар томонидан эътироф этиладиган хусусият – бу Конституциянинг “Ўзбекистон халқи” деб бошланишидир. Бундай жумлаларни бошқа бирон бир қонунда учратмаймиз. Бунинг ўзи ҳам халқ ҳокимиятчилигининг ёрқин далолати. Конституциямизнинг яна бир энг муҳим хусусияти – бу халқ суверенитети эътироф этилганлигидадир. Асосий қонунимизнинг 7-моддасида асосан халқ давлат ҳокимиятининг бирдан бир манбаи экани муҳрланган.

Конституциямизда инсон манфаатлари устун қўйилган. Асосий қонунимизни синчиклаб ўрганган ҳар бир шахс бевосита гувоҳи бўладики, унинг бутун мазмун-моҳияти инсонга хизмат қилишга йўғрилган.

Конституциямиз ўзининг инсонпарварлиги билан ҳам ажралиб туради. Унга кўра вояга етмаганлар, меҳнатга лаёқатсизлар ва ёлғиз кексаларнинг ҳуқуқлари давлат ҳимоясидадир. Давлат ва жамият етим болаларни ва ота-оналарининг васийлигидан маҳрум бўлган болаларни боқиш, тарбиялаш ва ўқитишни таъминлайди, болаларга бағишланган хайрия фаолиятларни рағбатлантиради. Конституциямизнинг яна бир муҳим жиҳати, бу унинг барқарорлигидадир. Қайд этиш жоизки, ўтган йиллар мобайнида Конституциямизнинг асосий принциплари, инсон ва фуқароларнинг асосий ҳуқуқлари, эркинликлари ва бурчлари, жамият ва шахс муносабатлари, маъмурий-ҳудудий ва давлат тузилишига оид нормалари ўзгармади. Ўтган давр мобайнида унга ўзгартириш ва қўшимча киритилган бўлса-да, буларнинг деярли барчаси давлат ҳокимиятини ташкил этиш бўлимига киритилган тузатишлар бўлиб, у ҳам бўлса мамлакатимизда конституциявий принцип бўлган халқ ҳокимиятчилигини кучайтириш, давлат ҳокимиятини ташкил этиш ва фаолият кўрсатишида фуқароларнинг бевосита ва билвосита таъсирини ошириш, парламентнинг давлат ички ва ташқи сиёсатидаги ролини кенгайтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишда конституциявий ва одил судловнинг ўрнини янада мустаҳкамлашга оид тузатишлардир.

Қайд этиш жоизки, дунёдаги энг ривожланган давлатлар Конституциялари билан рақобатлашадиган Конституцияни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш масаланинг бир жиҳати. Масаланинг бошқа бир муҳим томони, қабул қилинган ҳужжатни ҳаётимизга самарали татбиқ этишда намоён бўлади. Бу Конституцияда кўзлаган мақсадларимизнинг энг муҳим шартидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Т.:Ўзбекистон, 2018.
2. Хорижий мамлакатлар конституциявий (давлат) ҳуқуқи: ўқув қўлланма\ масъул муҳаррир: Д.Қ.Аҳмедов. – Тошкент: ТДЮИ, 2006.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

I.Bozorova

Navoiy viloyat Qiziltepa
tumaniga qarashli 36 umumiy
o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich
ta'lim fani o'qituvchisi

Annotasiya: maqolada Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: interfaol, uzviylik, multimedia, ped texnologiya, zamonaviy yondashuv, bilim, ko'nikma, malaka, pedagogika, dunyoviy va diniy, raqobatbardosh, kasb-hunar, loyiha, aktyor, rejissyor, takomillashtirish, klasifikatsiya, mahorat.

Zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissyor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi tinglovchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u tinglovchilarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi – ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan xamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini baholash ham muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda ularni amaliyotga tatbiq etishning samaradorligini bir qator mezonlar bilan aniqlash mumkin. Bular:

- ta'lim, tarbiya va shaxsni rivojlantirish vazifalarining o'zida yaxlit aks ettira olishi;
- o'zida zamonaviy fan va texnika darajalarini ifodalay olishi;
- g'oyaviy jihatdan talabalarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishi;
- o'quv materialining zarur axborotlar bilan to'liq ta'minlanganligi;
- o'qitish jarayonida rang-barang metod va vositalarni qo'llash imkoniyatini ta'minlanganligi;
- ta'limning ko'rgazmaliligi va barcha uchun ochiqqligini ta'minlash tamoyiliga egaligi;
- ko'p funksiyali ta'lim vositalaridan foydalanish va ularni oson ekspluatatsiya qilish imkoniyatining mavjuli;
- pedagogning talabalarga mustaqil ishlarni samarali tashkil etishga ko'malashish darajasi.

Mahorat-shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohasidagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning nazariy darajasidir. Mahorat – san'at, Mahorat izlanish, Mahorat – pedagogik texnologiyalarni qo'llay bilish, mahorat -o'qituvchining o'z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalashdir.

Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori, biri o'rta quyi darajadan ibordir. Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Pedagogik mahorat egasi o'z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Ibn Sino ta'lim jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim deb hisoblaydi:

- o'qitishda oddiydan murakkabga qarab borish;



- bolaning qobiliyat va mayllarini e'tiborga olish; bolaga kuchi yetadigan mashqlarni bajar-tirish;
- ta'limni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borilishi.

Bolaga ta'lim va tarbiya berishi uchun saxovatli, donno, iymonli, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi biladigan, irodasi kuchli muallim va tarbiyachini tanlash zarur. Muallim sog'lom, pok, halol, xushmuomala kishi bo'lmog'i lozim.

"Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi"da boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi ta'riflanadi: "...eng muhimi balalarda o'qish, o'rganishga chinakkam xavas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod xosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi." va yana shu konsepsiyadan boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga qo'shimcha keltiriladi.



INKLYUZIV TA'LIMGA BO'LGAN EHTIYOJLAR VA USHBU TA'LIM SHAKLINING AFZALLIK JIHATLARI

V.Bozorova

Navoiy viloyat Qiziltepa
tumaniga qarashli 36 umumiy
o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich
ta'lim fani o'qituvchisi

Maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron bolalar ota-onalariga amaliy yordam berish kabi ma'suliyatli ishlar jumlasiga kiradi.

Maxsus yordamga muhtoj bolalar asosiy muammolarini ular o'zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq va imkoniyatlar qaytarib berilmas ekan ijtimoiy Integrasiyaga erishish qiyin. Maxsus ehtiyojli bolalarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab bolalar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilishning tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarini ko'rib chiqish ya'ni mutaxassislarini tayyorlash, malakasini oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj bolalarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar ham sog'lom bolalar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli bolalar ijtimoiy tomondan himoyalana-dilar, sog'lom bolalar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron bolalarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi. Bu ishlarni muvaffaqiyati har bir davlatning qonunlarida aks etilishi zarur. Chunki, qonunlar, ularni kerakli moddiy va ma'naviy resurslar bilan ta'minlanishini amalga oshirishni kafolatlaydi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy hisoblanadi. Alohida ehtiyojli bolalar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj bolalar ijtimoiy tomondan himoyalana-dilar, ijtimoiy hayotda teng huquqliligini, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari mumkinligini his etadilar.

Alohida ehtiyojli bolalar uchun tashkil etilgan segregatsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda bolalardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiya-lansada, ammo bolalarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi, kelajakda normal rivojlanishdagi bolalar qatori faoliyat yuritishlarida juda katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli bolalarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalar ham barcha qatori xaq-huquqlarga ega.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalar hal etilishini talab etadi:

- ta'lim muassasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologo-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;



- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stona va mehr-muhabbatli munosabatni shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaeva Q. va boshq. 2-sinfda o'qish darslari. –T.: O'qituvchi, 2009. – 266 b.
2. Umarova M, Sh.Hakimova. O'qish darslari (3-sinf uchun). –T.:Cho'lpon, 2008. – 126 b.
3. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova U. 4-sinfda ona tili darslari. –T.: O'qituvchi, 2003.
4. Qosimova Q. —2-sinflarda ona tili darslari, T. —O'qituvchi, 1998 yil.
5. G'afforova T., G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. –T.:Sharq, 2003. 126 b.
6. Jumaev M.E Matematika o'qitish metodikasi T.: Turon iqbol 2016. 426 b.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ASOSIY MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING INTERAKTIVLIK METODLARI

D.Sayfiyeva.

Navoiy viloyat Qiziltepa tumaniga
qarashli 8 umumiy o'rta ta'lim
maktani Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Boshlang'ich matematika o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda asosiy matematik tushunchalarni shakllantirishdir.

Tushuncha - bu predmet to'plamlarining muhim, umumiy belgilari to'g'risidagi fikrdir. Tushuncha o'quvchilarda predmet va haqiqiy olam hodisalarining hissiy obrazlari bo'lgan tasavvurlarni umimlashtirish asosida vujudga keladi.

Masalan: to'g'ri to'rtburchak formasiga ega bo'lgan har xil predmetlarni - taxtacha, qog'oz varag'i, stol usti, g'isht yoki gugurt qutisi va shunga o'xshashlar, badan, muskul sezgilari orqali idrok qilish bilan, o'quvchilar to'g'ri to'rtburchak to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi.

Bu predmetlarning qanday materialdan tayyorlanganligini ularning og'irligi, rangi va boshqa xossalarni e'tiborga olmay, bu tasavvurlarni taqqoslab o'quvchi uning umumiy, muhim xossalarni umimlashtiradi. Bu tekis figuralarda 4 tomon, 4 ta to'g'ri burchak borligini aniqlaydi.

Bu misoldan ko'rinadiki, geometrik tushunchalarning shakllanish usullaridan biri qaralayotgan predmetlar to'plamiga mos bo'lmagan har xil belgilarni chiqarib tashlab, umumiy, muhim, belgilarni saqlab olishdan iboratdir.

Bunda o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida ayrim xususiy ko'rinishlardan boshlab tekis geometrik figuralar to'plamini qarashlari mumkin.

Kvadrat - to'g'ri to'rtburchak- parallelogramm - qavariq to'rtburchak -ixtiyoriy to'rtburchak yoki teskarisi.

Hamma to'rtburchaklar to'plamidan qism to'plami bo'lgan qavariq to'rtburchaklarni ajratish, bundan esa uni qismi bo'lgan parallelogramm, undan to'g'ri to'rtburchak va oxirida kvadratni ajratish mumkin.

Bu tushunchalar orasida bog'lanish tushunchalar ta'rifi uning yaqin turi va ko'rinishi farqlarini ko'rsatish bilan ifodalash mumkin.

Masalan: kvadratni hamma tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak sifatida ta'riflash mumkin. To'g'ri to'rtburchak - hamma burchaklari teng parallelogramm sifatida, parallelogramm esa - qarama-qarshi tomonlari parallel qavariq to'rtburchak sifatida ta'riflash mumkin.

Ko'rsatilgan usul bilan tushunchalarning shakllanishidan tashqari predmetlar orasidagi munosabatni aniqlash ham mavjuddir.

Masalan: geometrik forma tushunchasi yuqoridagi usul bilan vujudga kelishi mumkin emas. Boshqa matematik tushunchalar qaralayotgan ob'ektlar orasidagi munosabatlarni o'rnatish bilan shakllanadi.

Masalan: kesmaning uzunligi tushunchasi kesmalarining ekvivalentlik munosabatlarini o'rnatish (ustma-ust qo'yganda mos tushuvchi kesmalar ekvivalent deyiladi).

Kesmaning uzunligini o'zaro ekvivalent bo'lgan kesmalar sinfinda harakterlaydigan umumiylikdir. "Natural son" tushunchasi ham chekli to'plamlar orasida ekvivalent munosabatlar o'rnatish orqali hosil qilinadi. Natural son chekli to'plamlarni harakterlovchi umumiylik sifatida qaraladi.

O'quvchilarning o'quv matematik faoliyatiga rahbarlik

Darsda o'qituvchi o'quvchilarni o'qitadi, o'quvchilar esa o'qiydi degan fikrni boshqa so'zlarda quyidagicha ifodalash mumkin: o'quvchilar, o'quv, malaka va bilimlarni egallaydilar, o'qituvchilar esa bilimni egallash jarayoniga rahbarlik qiladilar.

Bu rahbarlik o'qituvchining o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchi kerakli material tanlaydi, uni ma'lum ketma-ketlikda joylashtiradi, o'quvchilarning bilim manbalarini tavsiya qiladi, o'quvchilarning o'zlashtirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi, bilimni o'zlashtirish jarayoni qanday o'tishini nazorat qiladi.

O'quvchilarning matematik bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qiyin jarayondir. Buni matematik tushunchalarning vujudga kelishini haqqoniy anglagandagina uni to'g'ri tushunish mumkin.



Haqiqatni tasavvur qilishga asosan matematik tushunchalar bizdan tashqaridagi narsalarning xossalarini aks ettiradi. Son tushunchasi yoki figura tushunchasi bizdan tashqaridagi narsalarning xususiyatlaridan kelib chiqqan. Matematik tushunchalarning vujudga kelishini bunday tushunish yosh maktab o'quvchilarining tashqi olam ob'ektlariga xos bo'lgan fazoviy forma, miqdoriy munosabatlarni o'rganishlarni tarbiyalaydi.

Bola hali maktabga kelmasdan turib o'yin bilan ish ko'radi-yu to'plamdan uning ayrim elementlarni axtaradi, elementlarni to'plamga birlashtiradi, to'plamlarni yig'adi, to'plamdan uning qismini ajratadi, to'plamlarni taqqoslaydi, teng sonli to'plamlarni ajratadi.

Narsalar to'plami bilan olib borilgan hamma shu kabi amaliy harakatlar, kattalar bilan doimiy aloqa - natural son tushunchasining shakllanishiga olib keladi.

Kublardan, g'ishtlardan, loylardan, harxil "yasashlarni" bajarish, rasm va boshqa shu kabi bolalar faoliyati ularga forma, o'lchov, predmetlarning o'zaro joylashishlari bilan tanishishiga imkon beradi, bu esa geometrik tushunchalarning shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.



ULUSH VA KASR TUSHUNCHASI BILAN TANISHTIRISH METODIKASI

N.Hamrayeva.

Navoiy viloyat Qiziltepa
tumaniga qarashli 36 umumiy
o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich
ta'lim fani o'qituvchisi

O'quvchilarni kasrlar bilan tanishtirish dastura binoan 3-sinf dan boshlanadi. Kasrlarning hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, noning ulushini topish va berilgan ulushga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar. 4-sinf da 1 ning ulushi va bir necha ulushi va uning yozmak o'rinshi tasavvurlari ega bo'ladilar. Kasr tushunchasi yeometriyada kesma ulushi, miqdorlarning ulushi va boshqa geometrik shakllarning ulushlari bilan bevosita bog'langan. Kasr tushunchasini hosil qilish har xil narsalarni teng bo'laklarga bo'lish, kesish, sindirish, maydalashdan kelib chiqadi deyiladi. Boshlang'ich sinfdan oldin, ya'ni maktabacha yoshdayoq kasr tushunchasining boshlang'ich tushunchalari berilgan. Masalan, olma, tarvuz, bodring, non va boshqalarni bir necha bo'laklarga bo'lib ko'rgan va boshlang'ich tushunchalar berilgan. Shu maqsadda bolalarni ulushlar bilan, ularning yozilishi bilan tanishtirish, taqqoslashni o'rgatish, noning ulushlari va ulushi bo'yicha sonni topishga doir masalalarni yechish kuzda tutiladi. Aytib o'tilgan barcha masalalar ko'ramali qilib ochib beriladi.

Yuqorida ko'rdikki, 3-sinf da birning ulushlari, ya'ni $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ va hokazo ulushlarga oid tasavvurlarni hosil qilishdan iborat. Kasrlarni o'rgatish deyarli ko'rgazma asosida tushuntiriladi. Bu ko'rgazmalarga meva, qovun, tarvuz, geometrik shakl, cho'p, qog'oz va boshqa atrofda narsalarni olish mumkin.

Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, yordamida kasr hosil qilinadi. Shunga mos olmani teng bo'lmagan 2 bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni tushuntirish kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lgandagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim.

Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar, hamda uning ba'zi xossalarni keltirib chiqaradilar. Masalan, kvadratni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, burchaklarining o'zaro tengligiga, hamda tomonlarining ham o'zaro tengligiga asoslanib, shuningdek kvadrat simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar. Shuningdek, boshqa o'quvchilarga doirani, ba'zilariga to'g'ri to'rtburchakni 4 bo'lakka bo'lish topshiriladi. Bundan keyingi ish teng bo'laklarga bo'lingan ulushlardan bittasini, ikkitasini, uchtasini olib ularni qanday sonlar bilan yozish mumkinligi o'qitiladi. Kasrlarni ikkidan bir, uchdan bir, to'rt dan bir kabi o'qish va $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, $\frac{1}{4}$ larga narsalarni qanday bo'lib, qancha qismi olinayotganligi orasidagi bog'lanishni hosil qilish lozim. Shu asosda surat va maxraj hamda kasr kabi yangi terminlar kiritmasdan o'qiladi. Lekin chiziq chizish, chiziqning pastida butunni nechaga bo'lgan son, yuqorisiga necha ulushni olgan son yozilishi tushuntiriladi.

"Ulushlar" mavzusida figuralarni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi 5 ta bir xil to'g'ri to'rtburchakli qog'ozdan yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi. Bu yo'lakchani birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga, bo'lib, ularni ustma-ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi.

Unda $\frac{1}{2} > \frac{1}{4}$, $\frac{1}{4} > \frac{1}{8}$, $\frac{1}{3} > \frac{1}{6}$ kabi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. 3-sinf da sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz yo'lakchani olib uni ikkiga buklash topshiriladi. Yo'lakchani yarim necha sm? $\frac{12}{2}=6$ sm. Endi yo'lakchani yana ikki buklab to'rt qismga bo'ladi. Yo'lakchani qanday qismi hosil bo'ldi va uning uzunligi qancha? Javob: $\frac{12}{4}=3$ sm. $\frac{1}{4}$ qism. Bu ish chizg'ich yordamida ham o'ldi ko'riladi. Masala. Kitob 80 bet, o'quvchi uning $\frac{1}{4}$ qismini o'qidi. Necha bet kitob o'qilgan. 80 betning $\frac{1}{4}$ qismi qancha? $\frac{80}{4}=20$ bet.

1. Boshqa masalalarni yechayotanda chizmadan foydalanish yetarli: son kesma orqali tasvirlanadi, u berilgan sondagi teng bo'laklarga bo'linadi, ulushi belgilanadi, so'ngra yechishni og'zaki yoki yozma bajaradi. Masalan, $\frac{1}{2}$ m da, $\frac{1}{4}$ m da, $\frac{1}{5}$ m da necha sm bor? $\frac{1}{2}$ soatda, $\frac{1}{5}$ soatda, $\frac{1}{6}$ soatda necha minut bor?

Vaqt o'lchovlarini o'rganayotanda nima uchun "bir yarim", "chorak kam 10" deb aytilishlarini tushuntirishlari kerak. Aksincha, sonning ulushiga qarab sonning o'zini topishga ham katta e'tibor



beriladi. Masalan, "TU-104" samolyot $\frac{1}{3}$ minutda 5 km uchadi. 1 minutda necha km uchadi? $\frac{1}{3}$ qismi 5 km bo'lgan son necha? $5 \cdot 3 = 15$ km

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumaev M.E. Matematika o'qitish metodikasi. T.: "Turon-Iqbol" 2016 yil. 426 b.
2. Jumaev M.E, Tadjieva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T.: "Fan va texnologiya" 2005 yil.
3. Jumaev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. T.: "O'qituvchi" 2004 yil.
4. Jumaev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. T.: "Yangi asr avlodi" 2006 yil.
5. Tadjieva Z.G', Abdullaeva B.S., Jumaev M.E., Sidelnikova R.I., Sadikova A.V. Metodika prepodavaniya matematiki. T.:Turon-Iqbol, 2011. 336
6. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma. T.: "Turon iqbol" 2008 yil.,



ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ АНЪАНАЛАР ВОСИТАСИДА МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ БАДИЙ-ЭСТЕТИК РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ

Н.С.Шайзакова

Термиз давлат университети ўқитувчиси

Телефон: + 998977702191

shayzakova@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада мактабгача катта ёшдаги болаларни ижтимоий-маданий анъаналар воситасида бадиий-эстетик ривожлантириш, ижтимоий-маданий анъаналарнинг ҳар бир тури шахснинг ҳар томонлама ривожланиши нуқтаи назаридан яққол устунликлари тўғрисида фикр мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: бадиий образ, адабий асар, ижтимоий-маданий анъаналар, ижодий мустақиллик, эмоционал-ифодали ижро, хореографик томоша.

Инсоннинг маънавий маданиятида ижтимоий-маданий анъаналар алоҳида муҳим ўрин эгаллайди. Ижтимоий-маданий анъаналар эса мусиқа ва рақс орқали ўзининг жозибасини янада ёрқинроқ намоён қилади. Санъатнинг энг қадимий турларидан бири бўлган мусиқа ва рақс санъати ҳар доим халқнинг анъаналари, урф-одатлари, турмуш тарзини акс эттирган. Бир неча минг йиллар олдин яратилган қоятошлардаги суратларда ҳам рақсга тушаётган одамларнинг тасвирлари учрайди. Аммо жамият ўзгариши билан мусиқа ва рақс санъати ҳам ўзгариб борди. XX аср ўзи билан янада замонавийроқ техника, мусиқа ва рақс санъатида янгича муносабатларни пайдо қилди. Мусиқа ва рақс чиройли томошаларнинг орасида кўпроқ оммалашгани билан ажралиб туради. У инсоннинг маънавий-ахлоқий салоҳиятини, унинг гўзаллигини, табиат дунёсининг мукамаллиги ва у билан уйғун муносабатни қадрлаш қобилиятини очиб беради. Айниқса, рақс маданият ва санъатнинг турли-туман соҳаларини қамраб олади. Рақс – бу мусиқа, бадиий образлар, адабий асарлар билан уйғунликда ҳаракат қилиш санъатини бирлаштирадиган, кўп қиррали санъат тури ҳисобланади.

Ушбу шартнинг ўзига хослиги ижтимоий-маданий анъаналарнинг барча турларидан (фольклор, байрамлар, урф-одатлар, миллий мусиқа ва рақс) узвий фойдаланишдан иборат. Ижтимоий-маданий анъаналарнинг ҳар бир тури шахснинг ҳар томонлама ривожланиши нуқтаи назаридан яққол устунликларга эга. Бироқ уларни умумлаштириб турувчи асос мусиқа ва рақсда янада яққол намоён бўлади. Чунки ижтимоий-маданий анъаналарни ўтказиш мусиқа ва рақсиз амалга ошмайди. Шу ўринда 2020 йил январь ойидан бошлаб мактабгача таълим ташкилотларида хореограф лавозими ҳам жорий этилди. Бу ҳам мактабгача таълим ташкилотларида болаларни ижтимоий-маданий анъаналар, шу жумладан, миллий ва жаҳон мусиқаси ҳамда рақс сирлари билан таништириш, уларда Давлат талабларида белгиланган компетенцияларни таркиб топтириш учун хизмат қилади.

Таълим мазмунини танлашнинг асосий воситаси – бу репертуардир (ўқув материали). У юқори даражадаги мазмун, шунингдек, етарли ҳажм ва хилма-хилликни ўзида мужассам этиши керак.

Педагог ишининг бир қисми бўлган репертуар танлаш таълимнинг мақсади ва вазифалари билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, қуйидаги асосларга таянади:

- бадиийлик ва қизиқарлилик;
- педагогик мақсадга мувофиқлиги ва тарбиявий ишларни ҳисобга олиниши;
- ижодий мустақиллик принципи ва хореографияда ўқитишни ривожлантириш концепцияси асосида мустақил фаолиятни режалаштириш;
- юқори бадиий аҳамиятлилиги, мактабгача ёшдаги боланинг индивидуал хусусиятларини (қобилиятлари, билимлари, малакалари, кўникмалари ва бошқалар) ҳисобга олиниши;
- дунёқараш йўналиши ҳамда ривожланишнинг узоқ ва яқин истиқболлари;
- рақс санъатининг ҳақиқий ривожланиш йўлини очиб берадиган тарихийлик принципи.

Қуйидагилар мактабгача катта ёшдаги болаларнинг самарали ва барқарор бадиий-эстетик ривожланиши учун рақс репертуарининг манбаи бўлиб хизмат қилиши керак: адабий асарлар (эртақлар, ҳикоялар, шеърлар), мультфильмлар, болалар учун фильмлар, болалар



қўшиқлари, табиат образлари, халқ ижодиёти, атроф-муҳит ва одамларнинг ижтимоий ҳаёти, турмуши, болалар ўйини, дўстлик ва спорт мавзулари.

Шунингдек, мактабгача катта ёшдаги болалар томонидан идрок этилиши ва пластик тарзда ижро этилиши мумкин бўлган, уларнинг фантазия ва моторикаларини фаоллаштирадиган, рақс ҳаракатларини эмоционал-ифодалари ижро этишга чорлайдиган бадиий-сифатли мусиқани танлашга эътибор қаратиш керак. Мусиқани танлашда хореографик томошанинг тури ва жанр хусусиятлари, унинг мазмуни, мавзуси, ғояси, лексик материали, рақс образларининг мавжудлиги ва хусусиятларини ҳисобга олиш керак.

Болаларни рақс репертуари билан таништириш, уларнинг маълум лексик материални ўзлаштириши, ижро маҳорати ва ижодий кўникмаларининг шаклланиб боришига қараб амалга оширилиши керак. Дастлабки босқичда ўйин элементлари устунликка эга бўлган оддий ва ҳаммабоп сюжетларда яратилган рақсларни ўрганиш устунлик қилиши керак, чунки ўйин, дидактика нуқтаи назаридан, муайян амалий вазиятларни имитация қилувчи таълим фаолияти шакли ҳисобланади.

Мусиқий-ҳаракатланиш тажрибаси яхшиланиши ва рақс ҳаракатлари заҳираси ортиши сайин, ижронинг сюжетли-маъновий ва мазмунли жиҳатларини мураккаблаштириб бориш керак: замонавий мультфильмлар ва болалар қўшиқларининг саҳналаштирилиши асосида яратилган сюжетли рақслардан фойдаланиш. Болаларнинг ҳаётий тажрибасига яқин мавзулар, репродуктив ва продуктив методларнинг комбинацияси нафақат ижро маҳоратини мустаҳкамлаш ва такомиллаштиришга, балки боланинг ўзини намоён қилиши, ижодий салоҳиятини очиб беришга ва болалар жамоасида дўстона ижодий муҳитни яратишга ёрдам беради.

Болаларни халқ репертуарининг ўзига хос хусусиятлари билан таништириш хороводни ўрганишдан бошланиши керак. Мавзуларнинг турли-туманлиги, кўп жанрлилиги, хороводларнинг ҳаммабоплиги ва оммавийлиги кўплаб таълим-тарбиявий вазифаларни (миллий, ахлоқий, меҳнат, эстетик тарбия, билим орттиришда фаолликни ривожлантириш ва ҳ.к.) ҳал этишга ёрдам беради, бу эса ушбу рақс шакллариининг мактабгача ёшдаги болаларнинг бошқа фаолият турларига интеграциялашувига олиб келади. Хореография воситалари ёрдамида миллий маданиятни англаш ёш авлоднинг маънавий, юқори даражадаги ахлоқий шахсини шакллантиришда универсал ва самарали омил ҳисобланади.

Болаларни миллий рақсларни (кундалик ва сюжетли) ижро этишга жалб қилиш болаларнинг мусиқий-ҳаракатланиш тажрибасини бойитади, мактабгача катта ёшдаги болаларнинг гендерли хусусиятларини (ўғил ва қиз болаларда ҳаракатларнинг фарқи) ажратиб кўрсатади.

Мактабгача катта ёшдаги болалар репертуарига классик рақслар, халқ рақслари элементлари, миллий асосга қурилган замонавий рақс элементларини киритиш керак, бу рақс сурагининг хилма-хиллиги тўғрисида тасаввурни шакллантириш, қайта сафланиш қобиляти, ўз танасини эркин бошқариш қобилятини ривожлантириш, рақс ҳаракатларини ифодали ва эмоционал бажаришга имкон беради.

Мактабгача катта ёшдаги болаларнинг таълим жараёни мазмуни ва уни ташкил қилиш бўйича меъёрий ҳужжатларда хореография мажбурий соҳа ҳисобланмаслигига қарамасдан, хореографик таълим фаолияти замонавий мактабгача таълим амалиётида кенг тарқалиб келмоқда ва қўшимча таълим сифатида ўқув-тарбиявий жараёнига киритилиб келинмоқда. Бу мактабгача таълим ташкилотларида болаларни бадиий-эстетик ривожлантириш тизимида педагогик инновацияларни жорий этиш, мактабгача таълимнинг асосий умумтаълим дастурининг таълим соҳалари билан интеграцияси, мактабгача ёшдаги болаларнинг бадиий-эстетик маданияти соҳасидаги манфаатларини амалга ошириш, болаларнинг табиий ҳаракатланиш фаоллигини қондириш ва уларнинг жисмоний ривожланишидаги кенг тарқалган оғишлар профилактикаси (гавда тутишини бузилиши, ясси товонлик, семирish ва ҳ.к.) боғлиқ. Мактабгача катта ёшдаги болаларда бадиий-эстетик маданиятни шакллантириш ва тарбиялаш қўшимча таълимнинг педагогик назария ва амалиётнинг устувор йўналиши ҳисобланади, чунки айнан шу ёшда тизимли ҳаракатланиш фаоллигига бўлган қизиқиш, мотивация ва эҳтиёж шаклланади. Хореографик фаолият боланинг эстетик таассуротларининг бой манбаи ҳисобланиб, унинг бадиий “Мен”ини шакллантиради ва бир вақтнинг ўзида танани ҳар томонлама ривожлантиради.



Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Собирова Д.Т. Мактабгача катта ёшдаги болаларда тасвирий саводхонлик элементларини шакллантириш: пед.ф.ном....дисс. авт. – Т., 2007. -25 б.
2. Шодмонова Ш.С. Оилада кичик мактаб ёшидаги болаларни миллий қадриятлар асосида ахлоқий тарбиялашнинг педагогик асослари: пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Т., 2001. – 19 б.
3. Юсов Б. П. Взаимосвязь культурогенных факторов в формировании современного художественного мышления учителя образовательной области «Искусство» [Текст] / Б. П. Юсов. – Москва: Компания Спутник+, 2004. – 83 с.
4. Педагогик атамалар луғати. Тошкент, Фан. –2008. – 195 б.



OLIMPIADA TENGSIZLIKLARNI YECHISH USULLARI

O'ktamova Gulchehra

Qo'qon shaxridagi ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan
5-VIDUMIning matematika fani o'qituvchisi


Annotatsiya: Mazkur maqolada matematik olimpiadalarda tengsizliklarni yechish bo'yicha maxsus metodni qo'llash ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Tengsizlik, matematik olimpiada, funksiya, urinma tenglamasi


1-misol. (2012 yilgi Bolqon matematik olimpiadasi, 1-masala). a, b va c musbat haqiqiy sonlar va $a + b + c = 1$ ifoda o'rinli bo'lsa, quyidagi tengsizlikni isbotlang:

$$\frac{a}{b} + \frac{a}{c} + \frac{b}{c} + \frac{b}{a} + \frac{c}{b} + \frac{c}{a} + 6 \geq 2\sqrt{2} \left(\sqrt{\frac{1-a}{a}} + \sqrt{\frac{1-b}{b}} + \sqrt{\frac{1-c}{c}} \right) \quad (1)$$

Yechish: Avvalo, $a + b + c = 1$ hartdan foydalanib, (1) ni quyidagicha teng kuchli almashtirib olsak, $\frac{1-b}{b} + \frac{1-c}{c} + \frac{1-a}{a} - 2\sqrt{2} \left(\sqrt{\frac{1-a}{a}} + \sqrt{\frac{1-b}{b}} + \sqrt{\frac{1-c}{c}} \right) \geq -6$. Bizga $f(x) = \frac{1-x}{x} - 2\sqrt{\frac{2(1-x)}{x}}$ funksiya berilgan bo'lsin. Bu yerda $x \in (0; 1)$ sohada aniqlangan. Aytish kerakki, agar $a = b = c = \frac{1}{3}$ bo'lganda, berilgan (1) tengsizlik ayniyatga aylanadi. $x_0 = \frac{1}{3}$ nuqtadan o'tgan funksiyaning urinmasini topamiz: $y = f\left(\frac{1}{3}\right) + f'\left(\frac{1}{3}\right)\left(x - \frac{1}{3}\right) = -2 - 0 \cdot \left(x - \frac{1}{3}\right) = -2$.



1-chizma.



2-chizma.

1-chizmadan quyidagini ko'rish mumkin

$$\frac{1-x}{x} - 2\sqrt{\frac{2(1-x)}{x}} \geq -2 \quad (2)$$

(2) tengsizlik $x \in (0; 1)$ argumentlar uchun o'rinli va uni $\frac{1+x}{x} \geq \frac{2\sqrt{2(x-1)}}{\sqrt{x}}$ shaklda yozishimiz mumkin. Ushbu tengsizlikning ikkala tomonini x^2 ga ko'paytirib, kvadratga oshiramiz va o'xshash hadlarni ixchamlasak, $(3x-1)^2 \geq 0$, $x \in (0; 1)$ oraliqda o'rinli bo'lgan tengsizlikka ega bo'lamiz. Oxirgi tengsizlikdan esa (2) o'rinli ekanligi va bunda

$$\frac{1-b}{b} + \frac{1-c}{c} + \frac{1-a}{a} - 2\sqrt{2} \left(\sqrt{\frac{1-a}{a}} + \sqrt{\frac{1-b}{b}} + \sqrt{\frac{1-c}{c}} \right) \geq -6. \blacktriangle$$

2-misol. (China West Mathematics Invitation, 2004, 2-masala).

$a^3 + b^3 + c^3 + d^3 + 1 \geq k(a + b + c + d)$ Tengsizlik o'rinli bo'ladigan barcha k haqiqiy sonlarni toping. Bu yerda $a, b, c, d \in [-1; +\infty)$.

Yechish: Bizga $S = a + b + c + d$ va $x \geq -1$ sohada $f(x) = x^3$ berilgan bo'lsin. $4(f(x_0) - f'(x_0)x_0) = -1$ shartda $x_0 = 0,5$ ekanligini topamiz. Endi esa $x_0 = 0,5$ nuqtadan o'tuvchi funksiyaning urinma tenglamasini tuzamiz:



$$y = f(0,5) + f'(0,5)(x - 0,5) = \frac{1}{8} + \frac{3}{4}\left(x - \frac{1}{2}\right) = \frac{3x - 1}{4}.$$

2-Chizmadan ko'rish mumkinki, $x^3 \geq \frac{3x-1}{4}$ o'rinli va $(x - 0,5)^2(x + 1) \geq 0$ tengsizlik bilan ekvivalent hamda $x \geq -1$ da o'rinli. Buni tadbiq qilib,

$$a^3 + b^3 + c^3 + d^3 + 1 \geq -1 + \frac{3}{4}(a + b + c + d).$$

Bundan $k = 0,75$ ekanligi kelib chiqadi. ▲

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Art of Problem Solving, <http://www.artofproblemsolving.com>
2. Математические задачи, <http://www.problems.ru>



KOSHI TENGSIZLIGI VA UNING BA'ZI TABDIQLARI

Saidova Osiyo – Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan 5-VIDUMIning matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koshi tengsizligi va uning isboti hamda tadbqiqiga doir misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Tengsizlik, Koshi tengsizligi, o'rta arifmetik va geometrik qiymati.

Matematika kursidagi tengsizliklar bo'limida o'rta Arifmetik qiymati hamda o'rta Geometrik qiymatlar orasidagi bog'liqlik haqidagi tengsizlikni Koshi tengsizligi deb ham yuritiladi.

Teorema: Barcha musbat $a_1, a_2, a_3, \dots, a_n$ sonlar uchun

$$\frac{a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n}{n} \geq \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \cdot \dots \cdot a_n} \quad (1)$$

tengsizlik o'rinalidir. Bunda tenglik faqat va faqat $a_1 = a_2 = a_3 = \dots = a_n$ da bajariladi.

Isbot: $n = 2$ bo'lganda isbotlaymiz: $(a_1 - a_2)^2 \geq 0$ tengsizlik o'rinni va uning ikkala tomoniga $4a_1a_2$ ni qo'shib, kvadrat ildiz olamiz va 2 ga bo'lsak,

$$\frac{a_1 + a_2}{2} \geq \sqrt{a_1a_2}$$

ga ega bo'lamiz. Agar n soni uchun (1) tengsizlik o'rinni bo'lsa, u holda $2n$ uchun ham o'rinni bo'lishi ravshan, chunki

$$a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_n \geq n \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \cdot \dots \cdot a_n} + n \sqrt[n]{a_{n+1} \cdot a_{n+2} \cdot \dots \cdot a_{2n}} \geq 2n \sqrt[2n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \cdot \dots \cdot a_{2n}}.$$

Shunday qilib, tengsizlik barcha n soni va 2-daraja ko'rsatgichga ega bo'lganda o'rinni. Quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$a_n = \frac{s}{n-1}; s = a_1 + a_2 + a_3 + \dots + a_{n-1}.$$

Inuksiyanidan foydalanib,

$$s + \frac{s}{n-1} \geq n \sqrt[n]{\frac{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \cdot \dots \cdot a_{n-1} \cdot s}{n-1}} \Rightarrow s \geq (n-1)^{n-1} \sqrt[n]{a_1 \cdot a_2 \cdot a_3 \cdot \dots \cdot a_n}.$$

Bu yerdan agar tengsizlik n ta son uchun o'rinni bo'lsa, u holda $n-1$ ta son uchun ham o'rinni bo'ladi. Induksiya bilan tengsizlik har bir n natural son uchun bajariladi. ▲

1-misol. Uchburchakning tomonlari a, b, c bo'lsa, quyidagini isbotlang:

$$(a+b-c)^a(b+c-a)^b(c+a-b)^c \leq a^a b^b c^c.$$

Yechish: yuqoridagi teorema asosan,

$$\begin{aligned} & \sqrt[a+b+c]{\left(\frac{a+b-c}{a}\right)^a \left(\frac{b+c-a}{b}\right)^b \left(\frac{c+a-b}{c}\right)^c} \\ & \leq \frac{1}{a+b+c} \left(a \cdot \frac{a+b-c}{a} + b \cdot \frac{b+c-a}{b} + c \cdot \frac{c+a-b}{c} \right) = 1. \end{aligned}$$

Bundan biz

$$(a+b-c)^a(b+c-a)^b(c+a-b)^c \leq a^a b^b c^c.$$

tengsizlikka ega bo'lamiz. ▲

2-misol. Berilgan a, b, c, d, e nomanfiy haqiqiy sonlar va $a+b+c+d+e=5$ bo'lsa, $abc+bcd+cde+dea+eab \leq 5$ ni isbotlang.

Yechish: Umumiylik uchun $e = \max(a, b, c, d, e)$ deb olamiz. Teoremani qo'llasak, $abc+bcd+cde+dea+eab = e(a+c)(b+d) + bc(a+d-e) \leq$

$$e \left(\frac{a+b+c+d}{2} \right)^2 + \left(\frac{a+b+c+d-e}{3} \right)^3 = \frac{e(5-e)^2}{4} + \frac{(5-2e)^3}{27} \leq 5. \quad \blacktriangle$$

Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Sh. Ismailov. TENGSIKLIK-LAR-I. ISBOTLASHNING KLASSIK USULLARI. Toshkent, 2008.
2. Hojoo Lee. Topics in Inequalities-Theorems and Techniques. Seoul: 2004.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМІЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМІЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(10-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
